



Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

**2023 yil**

Nashr etilgan  
tadqiqotlar





**Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies**

# Mundarija

<b>Makroiqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar</b>	<b>5-45</b>
<b>Hududlarni rivojlantirish</b>	<b>46-72</b>
<b>Uy-joy bozori tahlili</b>	<b>71-86</b>
<b>Ijtimoiy soha</b>	<b>87-123</b>
<b>Iqtisodiyotning real sektori</b>	<b>124-148</b>
<b>Agrosanoat</b>	<b>149-178</b>
<b>Infratuzilma</b>	<b>179-206</b>



**Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies**








Ziddiyat oqibatlari O'zbekiston iqtisodiyotiga asosan inflyatsiya, tashqi savdo, uy xo'jaliklarining birlamchi va ikkilamchi daromadlari, ko'chmas mulk va foiz kanallari orqali ta'siri o'rganib chiqildi.

Mazkur tahlilda 2022 yilning 10 oyiga taalluqli statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Bunda iqtisodiy diagnostika va iqtisodiy modellashtirishning DSGE usuli qo'llanildi. Mojaro ta'siri 2022 yilning mart oyidan boshlab keyingi 18 oy uchun 3 xil ssenariyida (xom ashyo narxi oshishi, pul o'tkazmalarining kamayishi, mehnat bozorining qisqarishi) simulyatsiya qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra:

- dunyoda inflyatsiyaga asosan oziq-ovqat va energiya narxlarining keskin ko'tarilishi ta'sir qilayotgan bo'lsa, O'zbekistonda energiya narxları asosan davlat nazorati ostida bo'lganligi sababli inflyatsiyaning tezlashishiga ko'proq oziq-ovqat va xizmatlar narxining o'sishi sabab bo'lmoqda.
- 2022 yilning fevral oyida yillik oziq-ovqat narxları o'sishi 13,1% gacha sekinlashgan bo'lsa, oktabr oyiga kelib 16,3% gacha ko'tarildi. Mazkur davrda mehmonxona va restoran xizmatları narxining yillik o'sishi 14,7% dan 23,3% gacha tezlashdi.
- 2022 yilning mart-oktyabr oylarida O'zbekistonning Rossiyaga eksporti hajmi 2021 yilning mos davridagiga qaraganda 47% ga oshdi. Shunday bo'lsada, global bozorlarda tovar va xom ashyo narxlarining sezilarli ko'tarilishi nominal eksport hajmining ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun, mart-oktabr oylarida Rossiyaga paxta ip-kalavasi eksporti 41% ga ortgan. Lekin, ushbu davrda paxta toiasi narxları o'zgarishi hisobga olinganda, real o'sish 8% ni tashkil qiladi. Ta'kidlash kerakki, 2022 yilda so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursining barqarorlashuvi ma'lum darajada tashqi shoklarning salbiy ta'sirini yumshatdi.
- Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 9 oyi mobaynida O'zbekistonga rossiyalik 318 ming nafardan ortiq fuqaro kelgan. PMTI ekspertlari tomonidan 750 nafar relokant rezyumesini o'rganish natijalariga ko'ra,





kelayotgan mutaxassislarning o'rtacha yoshi 32 yoshni tashkil etadi. Ish qidirayotganlarning 93% dan ortig'i oliy ma'lumotli va o'rtacha 8 yillik ish stajiga ega. O'zbekistonga asosan muhandislar (barcha rezyumelarning 18% i), IT mutaxassislari (15%), menejerlar, marketologlar, boshqaruv mutaxassislari va ma'muriy xodimlar (30%), o'qituvchilar (7%), shifokorlar va farmatsevtlar (6%), shuningdek, moliyachilar (4%) kelmoqda.

- pul o'tkazmalar tarkibida Rossiyaning ulushi oshib ketishi kuzatildi; 2022 yilning mart oyida Rossiyadan pul o'tkazmalarining O'zbekistonga jami pul o'tkazmalaridagi ulushi 50% gacha tushib ketgan bo'lsa, may oyiga kelib ushbu ko'satkich 85% ga yetdi (2021 yilda 70%, 2020 yilda 72% ni tashkil etgan edi);

- 2022 yilning noyabr oyida Toshkent shahrida xonadonlarning 1 kv. metri uchun narxlar o'tgan yilda giga nisbatan o'rtacha 27% ga oshgan, ya'ni ushbu ko'satkich 2021 yilning noyabrida 849 AQSH dollariga teng bo'ldi va 2022 yilning noyabrida 1078 AQSH dollariga yetdi. Uy-joy narxlarining jiddiy oshishi boshqa davlatlarda ham kuzatildi.

- Inflyatsiyaning tezlashishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini yashash xarajatlari oshishidan himoyalash uchun davlat xarajatlarining oshishiga sabab bo'ldi. Masalan, 2022 yilning 9 oyida ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari 14,5 trillion so'mga yetdi. Bu esa 2021 yilning mos davridagiga nisbatan 1,9 barobar ko'p demakdir.

DSGE modeli simulyatsiya natijalariga ko'ra, jahon bozorida xom ashyo narxlarining 1% ga ko'tarilishi:

- 2023 yilda O'zbekiston iqtisodiyotidagi real o'sishning 2 foiz punktga sekinlashishiga olib kelishi mumkin;

- Inflyatsiyaning qo'shimcha 0,4 foiz punktga oshishiga, shu jumladan import infliyatsiyasining 0,3 foiz punktga o'sishiga sabab bo'ladi. Zarba ta'siri keyingi 4 chorak davomida seziladi.

- oraliq iste'mol tovarlari narxlarining oshishi natijasida mahalliy ishlab chiqarishning qisqarishi sababli eksport 1 foiz punkt va import 0,4 foiz punktga kamayadi. Bu esa bandlik darajasining 1% gacha qisqarishiga olib kelishi mumkin.

## QAYERDAN KELGAN



## TA'LIM DARAJASI



## O'RTACHA YOSHI



19% ayollar

## ASOSIY



erkaklar 81%

## SOHALAR

Menejerlar, administratorlar 15% va boshqaruvchilar

18% Muhandislar

IT mutaxassislari 15%

4% Moliyachilar





Tadqiqot Izmir shartnomasi mamlakatlari doirasida amalga oshirildi. Jumladan, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston va O'zbekiston birlamchi eksport tovarlarining (neft va tabiiy gazdan tashqari) bu davlatlar iqtisodiy o'sishiga ta'siri tahlil qilindi.

Ma'lumot uchun: Izmir shartnomasi Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar tomonidan, xalqlar o'rtaсидаги chuqur tarixiy va madaniy aloqalarni yanada yaxshilash, hayot darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatlararo savdo hajmini yanada kengaytirish maqsadida tuzilgan.

ELG yondashuviga muvofiq, YalMning real o'sishi nafaqat mehnat va kapital miqdorining o'sishiga, balki multiplikator effekti orqali eksportning o'sishiga tayanadi.


Eksportga yo'naltirilgan siyosat tufayli eksportning o'sishi resurslarni samarali taqsimlash, potensialdan unumli foydalanish orqali bilvosita iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin (Awokuse, 2003; Pillay, 2011).

Natijalarga ko'ra, eksport hajmi iqtisodiy o'sishiga sezilarli va ijobjiy ta'sir qiluvchi omil ekanligi va eksport hajmining 1 foizga ortishi qo'shimcha 0.4 foiz iqtisodiy o'sishga olib kelishi aniqlandi. Bunday holat ichki investitsiyalar, iqtisodiy erkinlik, ishchi kuchi va tashqi qarz ko'rsatkichlari ta'sirini olib tashlagan holda ham saqlanib qoldi.

Eksportni rag'batlantirishning turli strategiyalari orqali tayyor mahsulot va xizmatlar eksportini kengaytirish iqtisodiy o'sishga erishishning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotda Izmir shartnomasi mamlakatlarining 2002-2020 yillardagi panel ma'lumotlaridan foydalanildi va Prais-Winsten va Random effektlar regressiya metodlari qo'llanildi.

### Eksport oshishi iqtisodiyot o'sishiga olib kelishi mumkinmi? (Izmir shartnomasi mamlakatlari misolida)





Mazkur tadqiqotda Xerfindal-Xirshman indeksi (Herfindahl–Hirschman Index, HHI) dan foydalanildi. Xerfindal-Xirshman indeksi bozor konsentratsiyasining umumqabul qilingan o'lchovlaridan biri va undan bozor raqobatbardoshligini aniqlashda foydalaniadi. HHI 1500 dan past bo'lgan bozor raqobatbardosh bozor, HHI 1500 dan 2500 gacha bo'lgan bozor o'rta darajada konsentratsiyalashgan, HHI 2500 yoki undan yuqori bo'lgan bozor esa yuqori darajada konsentratsiyalashgan hisoblanadi.

So'nggi 5 yilda O'zbekiston bank tizimida raqobat aktivlar bo'yicha ham, kreditlar bo'yicha ham, depozitlar bo'yicha ham ortib bormoqda. 2018 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, aktivlar bo'yicha HHI indeksi 1520 ga teng bo'lgan, 2022 yil 1-dekabr holatiga ko'ra, 1016 gacha pasaygan. Ushbu ko'satkich kreditlar bo'yicha 1709 dan 1082 gacha tushdi.

Depozitlar bozorida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asosan faoliyat olib borilishi sababli banklar o'ttasida depozitlar uchun kurash mavjud va bu kurash yildan yilga kuchayib bormoqda. Ushbu tendensiya depozitlar bo'yicha Xerfindal-Xirshman indeksining 919 dan 852 gacha tushganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Aktivlar. Davlat ulushi mavjud bo'lgan eng yirik banklar beshtaligi (O'zbekiston Milliy banki, "O'zsanoatqurilishbank", "Asakabank", "Ipotekabank", "Agrobank") ning bank tizimi aktivlaridagi ulushi 70,9% dan 60,5% gacha kamaydi. Davlat ulushi mavjud bo'lgan boshqa banklarning ulushi 11% dan 18% gacha oshgan bo'lsa, xususiy banklarning ulushi 18,1% dan 21,5% gacha ko'paydi. 2025 yilga borib, bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'limgan banklarning aktivlari ulushini 60% gacha oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur davrda bank tizimiga "Tenge bank", "TBC bank", "Anorbank", "Uzum (Apelsin)bank" va "Poytaxt bank" kirib keldi. Ushbu banklarning jami aktivlardagi ulushi 1,8% ga yetdi.

Kreditlar. Eng yirik banklar beshtaligining jami kredit portfelidagi ulushi 77% dan 64% gacha kamaydi. Xususiy banklarning ulushi 11,6% dan 16,6% gacha ko'paygan bo'lsa, davlat ulushi mayjud boshqa banklarning ulushi 19% ga yetdi. Xususiy banklardan "Kapitalbank", "Hamkorbank", "Ipak yo'li banki" tijorat kreditlari bozorida davlat ulushi mayjud bo'lgan banklar uchun ham, boshqa xususiy banklar uchun ham jiddiy raqobatchiga aylandi. "Kapitalbank"ning jami kredit portfelidagi ulushi 1,2% dan 3,8% gacha oshgan bo'lsa, "Ipak yo'li banki"ning ulushi 1,8% dan 2,1% ga ko'paydi. "Hamkorbank" esa bozordagi 3% lik ulushini saqlab kelmoqda.

Depozitlar. 2018 yilning boshida eng yirik banklar beshtaligi bank tizimidagi jami depozitlarning 51,2% ga egalik qilgan bo'lsa, 2022 yilning 1-dekabriga kelib, ularning ulushi 46,9% gacha qisqardi. Xususiy banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar ulushi 34,1% dan 36,4% gacha ko'paydi. Davlat ulushi mayjud bo'lgan boshqa banklarning depozit bozoridagi ulushi 2 foiz punktga – 14,7% dan 16,7% gacha oshdi.

Depozitlar bozorida davlat ulushi mayjud bo'lgan banklar va xususiy banklar o'ttasidagi raqobatdan ko'ra, xususiy banklar o'ttasidagi o'zaro raqobat kuchliroq hisoblanadi. O'zKDB bankning ushbu bozordagi ulushi 8,6% dan 3,6% gacha kamaygan bo'lsa, "Kapitalbank" o'z ulushini 4,8% dan 10,9% ga yetkazib oldi. "Hamkorbank" depozitlari ulushi 5,5% dan 3% gacha kamaydi.

Depozitlar uchun raqobatning kuchayishi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining jozibadorligida ham o'z aksini topadi. Masalan, 2017 yilning aprel oyida yuridik shaxslar muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 5,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilning dekabr oyiga kelib 12,1% gacha ko'tarildi, 2022 yilning dekabr oyida esa 16,9% ga yetdi. Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha stavka esa so'nggi 2 yilda 20% ni tashkil etib kelmoqda.



Tahlil davomida 2017-2021 yillar oralig'ida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi Hamkorlik (kooperatsiya) indeksi qiymati 1,3 barobar ortib, 28% dan 38% gacha oshgani aniqlandi.

Indeks qiymati savdo aylanmasi, investitsiyalar oqimi, savdo qiymati, turistik va migratsiya oqimi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblanadi.

1. Mintaqa mamlakatlari bir-birining iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalarning ortishi Indeks qiymatining oshishiga eng katta hissa qo'shdi. Shunday qilib, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi investitsiya oqimlari (kiruvchi va chiquvchi) hajmining umumiy investitsiya oqimlari hajmidagi ulushi 5,6 barobar oshdi.

2. O'sishning ikkinchi muhim ko'rsatkichi mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmining oshishi hisoblanadi. O'zaro tovar aylanmasining umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 1,5 barobar ko'paydi.


3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro savdo qiymati boshqa savdo sheriklariniga qaraganda o'rtacha 4 barobar past. Bu Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqa doirasida transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha faol siyosat olib borilayotgani bilan izohlanadi.

4. Bugungi kunga kelib, yurtini sayyohlik maqsadlari bilan tark etgan Markaziy Osiyo mamlakatlari fuqarolarining 80% dan ortig'i mintaqaviy turizmni afzal ko'radi. Bu umumiylar tarix va bir xil qadriyatlarga asoslangan mintaqa mamlakatlarining kuchli madaniy integratsiyasidan dalolat beradi. Shu bois Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi kooperatsiya indeksi doirasida umumiy sayyohlik oqimlarida mintaqaviy turizmning ulushi 83% ni tashkil etadi.

5. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi migratsiya oqimlarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, Markaziy Osiyo mamlakatlariga yashash va ishlash uchun kelgan odamlarning atigi 15,3% i ushbu mamlakatlarning fuqarolari. Ya'ni, Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi uchun mintaqa yashash joyini tanlash yoki ish qidirishda ustuvor ahamiyatga ega emas.

Ma'lumot uchun: indeks mintaqalararo hamkorlik mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro jarayonlarning umumiy jarayonlaridagi ulushi sifatida baholanadi, degan qoidaga asoslanadi. Ushbu mamlakatlarning umumiy tovar aylanmasida mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi tovar aylanmasining ulushini misol sifatida keltirish mumkin.

## **MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HAMKORLIK INDESKI**





Soliqlarni to'lash mamlakat taraqqiyotiga qanday ta'sir qiladi?

o'qish vaqt  
24 soniya

Yashirin iqtisodiyotning salbiy ta'sirini yaqqol ko'rsatish uchun, faraz qiling, 10 kishilik umumiy stolni tasavvur qilsak, yuqori sifatli dasturxon yozilishi har bir kishidan, misol uchun, 100 ming so'm mablag'ni talab qiladi, ammo 10 kishidan faqat 5 nafarigina pul ajratса, dasturxon 500 ming so'm qiymatga eга bo'lgan ne'matlar bilan yoziladi. Natijada, dasturxonдagi taomlarning sifati va miqdori yaxshi lekin kutilganidan past bo'ladi.

Guruhdagilardan yarmining to'lovdan bo'yin tovلاши nisbatan sifatsiz yoki kamroq mahsulotlarning olinishiga olib keladi. Bu esa tabiiyki, to'laganlar tomonidan salbiy qabul qilinadi.

### Batafsil





## 2017-2022 yillarda O'zbekistonda qulay investitsion muhitni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ularning natijasi o'rganib chiqildi



o'qish vaqt  
46 soniya

So'nggi yillarda respublikada investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 dan ortiq Qonun, 60 dan ortiq Farmon va Qaror qabul qilindi.

Tadbirkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida "Biznes Ombudsman" instituti, Bosh vazir qabulxonalarini hamda investorlar uchun yagona markaz tashkil etildi.

2021-yilda mamlakatimiz tarixida ilk bor qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarni hususiyashtirish jarayoni boshlandi.

Agar 2016-yilda fuqarolari mamlakatimizga vizasiz kirib chiqsa oladigan mamlakatlar soni 9 tani tashkil qilgan bo'lsa, viza tizimi isloh qilinishi natijasida bunday mamlakatlar soni 2022-yilda 90 tadan ortdi. Shuningdek, investorlar va ularning oila a'zolari uchun alohida "investitsion viza" tizimi joriy qilindi.

Amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini bermasdan qolmadı. Masalan, 2017-2022 yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z or'nnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117- o'ringa ko'tarildi.

2017-yilda iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 14 milliard AQSH dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'satkich 1,7 barobar oshib, 24 milliard AQSH dollarga yetdi.

Bugungi kunda jahoning 50 dan ortiq mamlakati O'zbekistonga barqaror tarzda investitsiya kiritmoqda. Ular iqtisodiyotimizning asosan metallurgiya, energetika, kimyo sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik, yengil sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda.

Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi va insonlarning turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

### Mamlakatda qulay investitsion muhitni yaratish bo'yicha 2017-2022 yillarda ko'rilgan chora-tadbirlar



#### Qonunchilikdagi o'zgarishlar

Yangi qonunchilik

**12** ta Qonun

**60** dan ortiq Farmon va Qaror

#### Qonunchilikdagi takomillashtirishlar

- «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida» gi Qonun
- «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonun
- «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi Qonun



Yagona «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonun

**! 50** dan ortiq me'yoriy hujjat bekor qilindi.



#### Yaratilgan imkoniyatlar



2021-yilda yerlarni xususiyashtirishga ruxsat berildi.



Vizasiz kirib-chiqish tartibi amal qiladigan davlatlar:



2016-yilda **9** ta



2022-yilda **90** ta



**70** dan ortiq mamlakatning fuqarolari E-visa xizmatidan foydalanshi mumkin.



"Biznes Ombudsman" instituti, Bosh vazirning qabulxonalarini hamda investorlar uchun yagona markaz tashkil etildi.



#### Erishilgan natijalar

##### Iqtisodiy erkinlik indeksi

2017-yil 2022-yil



##### Iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalar

2017-yil 2022-yil



##### Investitsiya kiritgan davlatlar

2017-yil



2022-yil





## 2017–2022-yillarda O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalgilish natijalari

o'qish vaqt  
70 soniya

So'nggi yillarda O'zbekistonda biznes va investitsiyalar yo'lidagi turli to'siqlar olib tashlanib, ochiq va qat'iy siyosat olib borilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institatlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Olib borilayotgan faol tashqi siyosat natijasida respublikamizga investitsiya kiritayotgan mamlakatlar geografiyasi ham kengaymoqda. 2022-yilga kelib, iqtisodiyotimizga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

Mamlakatimizga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 3,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard AQSh dollariga yetdi.


Buning natijasida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 23,8% dan 40,5% gacha ortdi.

Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 3,4 barobar oshdi va 8,5 milliard AQSh dollariga yetdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi esa 17,7% dan 35,4% gacha oshdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni ham yil sayin ortib bormoqda: 2017-yida 5,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 15,8 mingtaga yetdi. Buning 6,4 mingtasi qo'shma korxona, 9,3 mingtasi to'liq xorijiy korxona hisoblanadi.

Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining 30,5%i savdo, 27,5%i sanoat, 8,0%i qurilish, 4,8%i qishloq xo'jaligi, 4,1%i yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9%i saqlash va tashish, 4,8%i aloqa va axborot yo'nalishlarida, 17,4%i boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.

### 2017–2022-yillarda O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalgilish natijalari



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari



### Tahlil asosida quyidagi natijalar aniqlandi:

- inqiloblar va hokimiyatni kuch bilan egallash iqtisodiyotni sezilarli sekinlashuviga olib keladi (YALM ning aholi jon boshiga ulushi 11%ga qisqargan);
- YALMning o'sish sur'ati va YALMning aholi jon boshiga ulushi kabi iqtisodiy ko'satkichlar eng katta salbiy ta'siriga uchraydi;
- barqaror bo'limgan ichki vaziyat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining, shuningdek, mamlakat ichki investitsiya salohiyatining pasayishiga olib keladi;
- inqilobdan keyingi davrda davlat siyosatida tez-tez uchraydigan hodisa bu byudjet xarajatlarning, xususan, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlarning qisqartirilishidir.

Mazkur xulosalarni turli xorijiy tadqiqotchilarning natijalari ham tasdiqlaydi.

Stokholm o'tish davri iqtisodiyoti instituti dotsenti va iqtisodchisi Erik Meyersson quyidagi xulosalarni keltiradi:

1. Demokratik mamlakatlarda hokimiyatni kuch bilan egallash aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'sish sur'ating yiliga 1-1,3% ga pasayishiga olib keladi;
2. To'ntarishlar istiqbolli iqtisodiy islohotlarning, ayniqsa moliya sektorida, to'xtab qolishiga olib keladi;
3. Demokratik davlatlarda investitsiyalar oqimining kamayishi, ta'lim darajasining pasayishi va bolalar o'limining oshishi bilan muvaffaqiyatli to'ntarishlar o'tasida uzoq muddatli o'zaro bog'liqlik mavjud.

Tadqiqotchi Melise Jaud ham shunday xulosalarga kelganlar:

- to'ntarishdan so'ng YALM ning aholi jon boshiga ulushi odatda yiliga 7-11%ga qisqaradi;
- to'ntarish davri uzoq kechgan holatlarda, iqtisodiy pasayish 21% gacha yetishi va uzoq muddat davom etishi mumkin;
- siyosiy tizimdagil o'zgarishlar keskin ravishda sodir bo'ladi, bu esa mamlakatda investitsion faoliyoning pasayishiga olib keladi.





Turkiyadagi zilzila oqibatlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri tashqi savdo, investitsiyalar, mehnat migratsiyasi va yalpi ichki mahsulot kabi yo'nalishlarda o'rnatildi.

2022-yilda O'zbekistonning Turkiyaga eksporti (\$1,5 mlrd) asosan mis, paxta, rux va plastmassa kabi xomashyodan, importi (\$1,7 mlrd) esa mashina va asbob-uskunalar, plastmassa, kimyoviy moddalar, pigmentlar va farmatsevtika mahsulotlaridan iborat bo'lgan. Tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatlardan o'rta sidagi savdoda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi:

- zilziladan jabr ko'rgan hududlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı rekonstruksiya loyihalari O'zbekistondan mis, rux, plastmassa, alyuminiy, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari importiga talabni yanada oshirishi mumkin;
- to'qimachilik sanoati markazlарidan biri bo'lgan Qahramonmarash zilziladan katta talafot ko'rganligi sababli, mavjud vaziyat Turkiyaga ip-kalava eksportiga (2022 y. \$523,3 mln) salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;
- Turkiyadan import qilinadigan rang beruvchi pigmentlar va gazlamalar yetishmasligi sababli mavjud vaziyat O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan yiroq emas.

Turkiyadagi zilzila fonida davlat xarajatlari va infliyatsiyaning keskin oshishi mehnat muhojirlari daromadiga ta'sir qilishi va bu mamlakatdan pul o'tkazmalar oqimini kamaytirishi mumkin (2021 y. \$230 mln).

Turkiyada sodir bo'lgan zilzilaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini baholash The Thomson Reuters Trust Principles tomonidan taklif qilingan ssenariylarga asoslangan. Turkiya yalpi ichki mahsuloti o'sishining qisqarishi O'zbekistonda YalM o'sishining 0,03 f.p. dan 0,1 f.p. gacha pasayishiga olib kelishi mumkin.

2011-yilda Yaponiyada yuz bergan zilzila tabiiy ofatlar davrida «odamlar ofatga qarshi» konsepsiysi birinchi o'ringa chiqishiga yorqin misol bo'ldi. Bunda talafotning og'ir oqibatlarini bartaraf etish uchun odamlar birlashishga intiladi:

Yaponiyaga 23 ta mamlakatdan qutqaruv guruhlari yuborilgan;  
163 ta mamlakat va 43 ta xalqaro tashkilotdan yordam taklifi olingan;  
17,5 milliard iyenadan ortiq xayriya ko'magi yo'naltirilgan.

TDT mamlakatlari tabiiy hodisalarini (zilzilalar) monitoring va tahlil qilish, shuningdek, ularga o'z vaqtida javob berish uchun muhim ilmiy va amaliy salohiyatga ega:

- seysmik faoliyotni o'rganish va oldini olish bo'yicha milliy institutlarni faol rivojlantirmoqda;
- zilzilalarning oqibatlariga qarshi kurashish va bartaraf etish bo'yicha ikki tomonlama (6 ta bitim) va ko'p tomonlama (9 ta bitim) formatda o'zaro hamkorlikni yo'nga qo'ymoqda.

Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha Osiyo markazi va Favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish markazi faoliyat yuritadi.

Tadqiqot natijasida TDT davlatlari tomonidan Turkiyaga yordam ko'rsatish bo'yicha takliflar tayyorlandi:

1. Birinchi darajadagi tadbirlar: odamlarni qutqarish va ularga zarur birlamchi yordam ko'rsatish.
2. TDT mamlakatlari o'rta sidagi o'zaro hamkorlikning keyingi chora-tadbirlari: zilzila natijasida vayron bo'lgan hudud obyektlari va iqtisodiyotini tiklash.
3. Uzoq istiqboldagi harakatlar: tabiiy ofatlarga javob berish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha muntazam o'zaro hamkorlik.



## 2017–2022-yillar oralig'ida O'zbekiston eksporti geografiyasi va tovar nomenklaturasida ro'y bergan o'zgarishlar

o'qish vaqt  
59 soniya

Tahlil davomida mamlakatimizdan tovarlar va xizmatlar ekport qilinadigan mamlakatlar soni ortgani va tovar nomenklaturasidagi mahsulotlar turi ham ko'paygani aniqlandi:

2017–2022-yillar mobaynida mamlakatimizning eksport geografiyasi 16 ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlarimiz 117 ta mamlakatga yetib bormoqda. Xususan, Peru (3 965,9 ming AQSh dollari), Albaniya (3 196,3 ming AQSh dollari), Shimoliy Makedoniya (1 454,7 ming AQSh dollari), Senegal (311,7 ming AQSh dollari), Mavrikii (303,1 ming AQSh dollari) kabi mamlakatlarga ham mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi. Tovar nomenklaturasida 2017-yildagi 179 xil mahsulot turi 2022-yilga kelib 200 dan ortdi.


Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o'rniغا paxtadan tayyorlangan yuqori qo'shilgan qiymati tovarlar eksporti yo'lga qo'yildi. Jumladan,

umumiyligi 1 613,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln. dollarlik tayyor trikotaj va to'qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln. dollarlik naqshli mato, 131,6 mln. dollarlik gazlamalar, 78,1 mln. dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln. dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi.

Maishiy texnika vositalaridan changyutgich, kir yuvish mashinalari, gaz plitasi, televizor kabi tovarlar quyidagi mamlakatlarga yetkazib berilmogda:

Changyutgichlar – Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Qирг'изистон, Тоҷикистон, Ozarbayjonga;  
Kir yuvish mashinalari – Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya, Qирг'изистон, Ozarbayjon, Moldova, Turkmaniston, Turkiyaga;  
Gaz plitalari – Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Armanistonga;  
Televizorlar – Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston, Qирг'изистonga.

### 2017-2022-yillarda O'zbekiston eksport geografiyasining o'zgarishi



## 2017-2022-yillarda O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha islohotlar



### 2017–2022-yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar



So'nggi yillarda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va iqtisodiyotga yanada ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Xususan, qonunchilikda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yangi «Soliq kodeksi», «Investitsiya va investitsion faoliyat to'g'risida»gi qonun, «Mediatsiya to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Investorlar uchun yanada qulay sharoit yaratish uchun Xalqaro Toshkent arbitraj markazi tashkil etildi hamda «investitsiya krediti», «investitsiya subsidiyasi» va «investitsion viza» kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi.

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2017-yil boshida 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 22 taga yetdi. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsiyatika, 2 tasi turizm, 2 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan.

Qonunchilikdagi o'zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston 2019-yilda ilk bora Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish chekllovleri indeksi»ga kiritildi va ushbu indeksga ko'ra, 2020-yilda jahonda 43-o'rinni, Osiyo mintaqasida 7-o'rinni qayd etdi.

2017–2022-yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimizga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 2,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich 1,5 barobar ortib, 3,3 milliard AQSh dollariga yetdi.



## O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) 15%dan 12%ga tushirilishi iste'mol tovarlari narxiga qanday ta'sir qildi?

o'qish vaqt  
84 soniya

QQS to'lovchisi bo'lgani va asosan rasmiy ish yurituvchi hisoblangani sababli tahlil uchun milliy supermarketlardagi narxlar asos qilib olindi. Jumladan, 97 turdag'i 3754 ta iste'mol tovarlari bo'yicha to'rt oylik statistik ma'lumotlar data-scraping yo'li bilan yuklab olindi. Har bir tovar turi bo'yicha dekabr va yanvar oylarida narxlar o'rtasidagi o'zgarish (treatment group) noyabr-dekabr va yanvar-fevral oylaridagi narxlar o'zgarishi (control group) bilan solishtirildi.

Natijalar shuni ko'rsatadi, QQS 15% dan 12% ga tushirilishi narxlarning tegishli ravishda tushishiga olib kelmagan. Jumladan, dekabr-yanvar oylarida narxlardagi o'zgarish noyabr-dekabr va yanvar-fevral oylaridagi narxlar o'zgarishiga nisbatan 0,3 foiz punktiga ko'p bo'lgan. Bu degani boshqa barcha omillarning ta'sir kuchi to'xtatib turilgan taqdirda ham 2,6% ga (1,12/1,15\*100%-100%) tushishi kerak bo'lgan narxlar 0,3% ga oshgan.

Xususan, 46 ta guruh bo'yicha 1115 ta tovar narxi o'zgarmagan (bolalar ozuqasi, muzqaymoq, makaron, tana parvarishi mahsulotlari va b.). 20 ta guruh bo'yicha 1306 ta tovar narxi 1% gacha oshgan (shokolad, shirinlik, gigiyena mahsulotlari va b.). 12 ta guruh bo'yicha 585 ta tovar narxi 1-5%ga oshgan (kir yuvish kukunlari, meva, go'sht mahsulotlari, sut va b.). 7 ta guruh bo'yicha 567 ta tovar narxi (1,6% gacha) pasaygan (kanselyariya tovarlari, souslar, qahva va b.).

Avvalroq PMTI ekspertlari Input-output modeli asosida iqtisodiyotning 78 ta tarmog'i uchun QQS stavkasining 3 foiz punktiga pasaytilishi, xarajatlarning kamayishiga va buning hisobiga iqtisodiyotning real sektorida narxlarning 0,8 foiz punktiga pasayishiga olib kelishi aniqlagan edi. Ammo, amaliyotda esa hozircha tadbirkorlar soliq bo'yicha olgan yengillikni iste'molchiga o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilmayapti.

QQSning tushirilishi narxlar darajasiga ta'sir etmaganligining asosiy sabablari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Iste'mol tovarlari bozorida xufyona iqtisodiyot ulushining kattaligi va soliqlardagi pasayishlar rasmiy ishlayotgan firmalarning nisbatan kichik miqdordagi foyda marjasini oshishiga yo'naltirilishi;
- Bozorlarda tegishli ravishda raqobat muhitining shakllanib ulgurmagan;
- Narxlarga ta'sir etuvchi boshqa asosiy omillar (dollar kursi, qayta moliyalash stavkasi, pul massasi va b.) ta'sir kuchining oshib borishi.





## 2017-2022 yillarda O'zbekistonda pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijasi

o'qish vaqt  
53 soniya

So'nggi yillarda mamlakatimizda pul-kredit siyosati bosqichma-bosqich erkinlashtirilmoxda.

Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida asosiy e'tibor quyidagi jihatlarga qaratildi:

- valyuta siyosatini erkinlashtirish;
- bank xizmatlari ommabopligrini oshirish;
- Inflyatsion targetlash tartibiga bosqichma-bosqich o'tish;
- bank sektorini erkinlashtirish.

### Ushbu islohotlar natijasida erishilgan natijalar:

2017-yilda O'zbekiston Markaziy banki almashinuv kurslarini unifikatsiya qildi va valyuta bozorini erkinlashtirdi. Bu o'zbek so'mining yagona kursi shakllanishiga olib kelib, korxonalarining xalqaro miqyosdagi faoliyatini osonlashtirdi.

2018-yilda Markaziy bank boshqaruvi Moliyaviy ommaboplrik alyansiga (Alliance for Financial Inclusion) a'zo bo'lish to'g'risidagi qarorni qabul qildi va qator islohotlarni amalga oshirdi.


Natijada, bank xizmatlarini masofadan ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 15 marotaba, kredit qo'yimalari 7,4 marotaba, bank aktivlari 6,6 marotaba, jalb qilingan depozitlar hajmi 5,8 marotaba oshdi.

2019-yilda hukumat infliyatsiyani targetlash bo'yicha 5 yillik strategiyani e'lon qildi. Unda infliyatsiya darajasini 4-5 foiz atrofida ushlab turish vazifasi belgilandi.

Bank sektori erkinlashtirildi, sog'lom raqobat muhiti shakllantirildi va 2025-yilgacha oltita davlat bankini xususiyashtirish vazifasi qo'yildi. "Ipoteka-bank"dagи davlat ulushining 75 foizi Vengriyaning OTP bankiga sotildi.

Bank tizimida raqamlashtirish keng miqyosda amalga oshirildi. Banklarning mobil ilovalari soni 21 tadan oshdi. "TBC Bank" va "Anorbank" raqamli banklari o'z faoliyatini boshladи.

## 2017-2022 yillarda O'zbekistonda pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar





Ta'kidlash kerakki, iqtisodiy nazariya ratsional inson hayoti davomida iste'molini bir maromda taqsimlaydi, degan fikrni ilgari suradi.

Barqaror daromad va iste'molning hayot sikli gipotezasi O'zbekiston uchun ham taalluqli. Unga ko'rta, insonlarning daromadlari 30 yoshgacha tezlik bilan o'sadi, eng yuqori nuqtasi taxminan 30-50 yosh oralig'ida saqlanib turadi va 60 yoshdan so'ng keskin pasayadi. Bu o'z navbatida, daromad va iste'mol orasidagi farq qarz olish orqali kompensatsiya qilinishi zarurligini bildiradi.

O'zbekistonda aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rov (450 kishi) natijalariga ko'rta, yosh oilalar (oila boquvchisi yoshi o'rtacha 38 yosh) boshqa oilalarga nisbatan (oila boquvchisi yoshi o'rtacha 49 yosh) daromadining ko'proq qismini qarz to'lashga sarflayotganini ma'lum qilgan. Bu yuqoridaq nazariy qarashga (barqaror daromad va iste'molning hayot sikli gipotezasi) mos keladi.

Bunda, respondentlarning 18 foizi maishiy texnika, 22 foizi uy-joy, 13 foizi avtomobil, 10 foizi o'qish uchun shartnomaga to'lovi, 11 foizi telefon uchun qarz olganligi ma'lum bo'ldi. Respondentlarning qolgan 34 foizi qarzi yo'qligini bildirgan. Shundan 18 foizi o'z jamg'armasi borligini bildirgan.

So'rov natijalari bo'yicha aholining 10 foizi tijorat do'konlaridan muddatli to'lovga qarz olishni (10 foizi bank kreditini, qolganlar o'z va yaqinlari mablag'i bo'lishini) afzal ko'rishini inobatga olib, O'zbekistonda tobora ommalashib borayotgan muddatli to'lovga uy jihozlarini taklif etish bozori o'rganildi.

Bunda eng ommabop 13 ta internet-do'kondagi talab yuqori bo'lgan bir xil rusumdagagi smartfon, muzlatgich, televizor hamda konditsionerlarning muddatli to'lov narxlari tahlil qilindi.

Ma'lumot uchun: Statistika agentligi ma'lumotlariga qaraganda, 2022-yilda har 100 ta uy xo'jaligiga 309 ta mobil telefon, 115 ta muzlatgich, 171 ta televizor va 45 ta konditsioner to'g'ri kelgan.

Natijalar shuni ko'rsatadi, tanlangan bir xil rusumdagagi telefon o'rtacha 4,8 mln. so'mdan, muzlatgich 8,1 mln. so'mdan, televizor 6,8 mln.


so'mdan va konditsioner 6,1 mln. so'mdan sotilayotganligi aniqlandi.

Aynan mazkur tovarlar do'konlar tomonidan 12 oyga muddatli to'lov orqali yillik stavkasi o'rtacha 70 foizdan 77 foizgacha xaridorlarga taqdim etilmoqda.

Shu bilan birga solishtirish uchun, hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan belgilangan talablarga muvofiq ajratilayotgan iste'mol krediti stavkalari 17 foizdan 38 foizgachani tashkil etmoqda.

Ushbu bozorlarda narxlar va muddatli foiz to'lovlar o'rtasidagi katta tafovut bir tomonidan, aholi orasida ma'lumotlarning notekis taqsimlangani (information asymmetry) hamda ularning moliyaviy savodxonligini yanada oshirish buyicha tadbirlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Ikkinchi tomonidan, bank xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan, norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan aholi muddatli to'lov bozoridan ko'proq foydalangan bo'lishi mumkin.

Individual moliyaviy intizom va rasmiy iqtisodiyotda faoliyat yuritish iste'molchining bank sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yaratilayotgan imkoniyatlardan to'laqonli bahramand bo'lishi va samaraliroq foydalana olish ehtimolini oshiradi.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-son Farmoni bilan 2024-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona bojining nol stavkasi qo'llaniladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilindi.

Mazkur hujjatda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amaliyotdagi aksini tadqiq etish maqsadida MHTI ekspertlari narxlarning o'zgarishini tahlil qildi.

Tahlil uchun boj to'lovchi va asosan rasmiy ish yurituvchi hisoblangani sababli mahalliy supermarketlardagi narxlар asos qilib olindi. Jumladan, 96 turdag'i 3120 ta iste'mol tovarlari bo'yicha statistika data-scraping yo'li bilan yuklab olindi. Har bir tovar turi bo'yicha narxlар fevral va mart oyining oxiri uchun solishtirildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bojxona tariflarining tushirilishi ba'zi narxlarning tegishli ravishda tushishiga olib kelgan.

Jumladan, shokolad mahsulotlari o'rtacha 463 so'mga, sabzavot va meva konservalari 802 so'mga, go'sht konservalari 1164 so'mga, mol go'shti 375 so'mga, vafli shirinliklari 415 so'mga, brinza 275 so'mga arzonlashgan.

Shu bilan birga, bojxona bojlari tushirilgan boshqa turdag'i mahsulotlarning narxlarda hozircha o'zgarish bo'limgani aniqlandi. Jumladan, soqol olish vositalari, yormalar, yogurt, qaymoq, tvorog kabi sut mahsulotlari narxi o'zgarmagan. Soch yuvish vositalari, choy va qahva, sabzavot, murabbo va souslar narxi esa biroz oshgan.

Bunday holat import inflyatsiyasining bojdan tashqari omillari ta'siri kuchli ekanligi yoki bu mahsulotlar orasida ko'plariga talab ichki ishlab chiqarish hisobiga qondirilayotgani bilan izohlanishi mumkin.

Tegishli ravishda, narxlар barqarorligini ta'minlashga qaratilgan keyingi chora-tadbirlar raqobat muhitini rivojlantirishga yo'naltirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### Bojxona bojining nol stavkasi belgilanganishi narxlар darajasiga qay tarzda ta'sir etdi?

Mol go'shti



375 so'mga

Shokolad



463 so'mga

Sabzavot  
va meva  
konservalari



802 so'mga



Tahlil natijalariga ko'r'a, bu yillar davomida O'zbekistonning Xitoyga eksportida ham, Xitoydan importida ham o'sish kuzatilgan.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq hajmi 2017-yilda 4,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 8,9 milliard AQSh dollariga yetgan. O'z navbatida eksport hajmi 23,4% ga, import hajmi esa 134,7% ga o'sgan.

2022-yilda O'zbekiston Xitoyga asosan mineral yoqilg'i (849,5 mln. AQSh dollari), xizmatlar (703,0 mln. AQSh dollari), sanoat mahsulotlari (629,8 mln. AQSh dollari), kimyo mahsulotlari (133,3 mln. AQSh dollari) va oziq-ovqat mahsulotlari (108,8 mln. AQSh dollari) ni eksport qilgan va Xitoydan asosan mashinalar va asbob-uskunalar (3644,5 mln. AQSh dollari), sanoat mahsulotlari (1259,1 mln. AQSh dollari), kimyo mahsulotlari (821,9 mln. AQSh dollari), turli tayyor mahsulotlar (470,8 mln. AQSh dollari) va xizmatlar (90,2 mln. AQSh dollari) xarid qilgan.


Mahalliy eksportchilar qimmatbaho metallar, organik kimyoviy birikmalar, shuningdek, meva va yong'oqlarni Xitoy bozorida sotish bo'yicha katta imkoniyatga ega.

### Buning sabablari quyidagicha:

1. O'zbekiston ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish uchun katta salohiyatga ega;
2. Ko'rib chiqilayotgan davrda Xitoyda bu mahsulotlarga talab barqaror o'sgan va 2021-yilda qimmatbaho metallar importining umumiy hajmi 77,4 milliard dollarni, organik kimyoviy birikmalar importining umumiy hajmi 60,2 milliard dollarni, mevalar va yong'oqlar importining umumiy hajmi 16,0 milliard dollarni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yil 29-martda mamlakatimizga tashrif buyurgan Xitoy delegatsiyasi bilan o'tkazilgan muzokaralarda Xitoyning yetakchi kompaniyalari yordamida O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika, transport infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat parklari va qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

### 2017-2022 yillarda O'zbekiston - Xitoy savdo hamkorligi va uning istiqbollari





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona bojining vaqtinchalik nol stavkasi qo'llaniladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilindi.

Tahsil uchun supermarketlardagi 100 turdag'i 6486 ta iste'mol tovari bo'yicha statistika data-scraping yo'lli bilan yuklab olindi. Har bir tovar turi bo'yicha narxlar 2023-yil 28-fevral, 31-mart va 7-aprel sanalari uchun solishtirildi.

Shunga ko'ra, shokolad mahsulotlari mart oyi oxirida fevral oyidagiga nisbatan 204 so'mga va aprel oyida mart oyi oxiridagiga nisbatan 294 so'mga, meva-sabzavot konservalari tegishli ravishda 650 so'mga va 236 so'mga, yog' 1737 so'mga va 1733 so'mga, shirinliklar 931 so'mga va 199 so'mga arzonlashgan.





Britaniyaning Collins ingliz tili lug'ati «AI»ni 2023-yilning so'zi sifatida tan oldi. AI - «sun'iy intellekt» ning qisqartirilgan nomi (inson miyasi funksiyalarini kompyuter yordamida simulyatsiya qilish).

Fintexdagi sun'iy intellekt bozori hajmi 2023-yilda 42,8 milliard dollarga teng bo'ladi, deb baholanmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2028-yilga borib, 49,4 milliard dollarga, 2031-yilga borib esa 61,3 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

### **Sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha dunyodagi bugungi jarayon:**

- mijozlar to'g'risida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishslash;
- veb va mobil ilovalarda, mijozlarning real vaqt tartibida xatti-harakatlarga oid ma'lumotlar asosidagi mahsulotlarga moyilligini oldindan bilish;
- chat-botlarda, bazaviy xizmatlarni avtomatlashgan tizim orqali ko'rsatish.

O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha dastur va tajriba loyihalari ro'yxati qabul qilingan. Unda quyidagilarga alohida e'tibbor qaratilgan:

- bank sohasida tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish;
- moliyaviy sohada byudjet xarajatlari, nafaqalar, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, boshqa to'lovlar samaradorligini tahlil qilish;
- soliq sohasida soliq tushumlarini tahlil qilish;
- elektron hukumat sohasida hukumat va moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda foydalanuvchilarni masofaviy biometrik identifikatsiya qilish va boshqalar.

Sun'iy intellektdan foydalangan holda raqamli xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirish imkoniyatlari:

### **1 Mahalliy tilda mijozlarni qo'llab-quvvatlash.**

Mijozlarga samarali yordam ko'rsatish uchun sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan chat-botlar va virtual yordamchilar o'zbek tiliga o'tkazilishi mumkin.

### **2 Kredit ajratishda katta ma'lumotlarni**

**(BigData) tahlil qilish.** Sun'iy intellekt kichik va o'rtacha kattalikdagi korxonalarning kreditga layoqatlilagini baholash va kredit bo'yicha qarorlarni qabul qilishda yordam berish uchun keng ko'lamli ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin.

**3 Sun'iy intellekt** fermerlarga moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlarni taqdim etishda yordam beradi. Masalan, ekinlar hosildorligini baholash va sug'urta yoki kredit mahsulotlarini taqdim etishda sun'iy yo'ldosh tasvirlari va ob-havo ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

**4 Normativ muvofiqlik.** Sun'iy intellekt muvofiqlik vazifalarini avtomatlashtirishda yordam beradi va moliyaviy institutlar tartibga solish talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.

**5 Moliyaviy sektor**ning boshqa yo'nalishlari (sug'urta, nafaqa jamg'armalari, qimmatli qog'ozlar bozori va boshqalar) da sun'iy intellektdan foydalanish samaradorlikni oshiradi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni (risklarni boshqarish) kamaytiradi.



Bunda JSTga 1990-yildan keyin a'zo bo'lgan 15 ta rivojlanayotgan mamlakat - Albaniya, Bahrayn, Bangladesh, Kamerun, Gruziya, Gonduras, Iordaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Mo'g'iliston, Nepal, Rossiya, Shri Lanka, Turkiya va Vanuatuning eksport va import, YAIMning o'sishi, inflyatsiya, ishsizlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) YAIMdagi ulushi va ishlab chiqarish sanoatining YAIMdagi ulushi kabi makroiqtisodiy ko'satkichlaridagi o'zgarishlar o'rganildi.

Ma'lum bo'lishicha, ushu 15 ta mamlakatdan 12 tasida eksportning, 10 tasida esa YAIMning o'sish sur'ati tezlashgan. 12 tasida inflyatsiya sekinlashgan va 10 tasida TTXI ko'lami oshgan. Bangladesh, Gonduras, Turkiya va Kamerunda ko'pchilik yo'nalishlar bo'yicha ijobiy natija kuzatilgan.

Shu bilan birga, salbiy tendensiya hisoblangan ishsizlik darajasi 15 ta mamlakatdan 10 tasida oshgan. Masalan, Bangladeshda ishsizlik 2,3%dan 3,5%ga, Gondurasda 3,4%dan 4,4%ga, Qirg'izistonda 6,8%dan 8,7%ga oshgan. Ushbu mamlakatlarning 2 tasida ishlab chiqarish sanoatining YAIMdagi ulushi oshgan bo'lsa, 6 tasida kamaygan.

Shuningdek, tashkilotga a'zo bo'lgan Qozog'iston, Turkiya va Gruziyaning makroiqtisodiy ko'satkichlaridagi o'zgarishlar JSTga a'zo bo'limgan shunday mamlakatlardagi o'zgarishlar bilan qiyoslandi. Natijalarga ko'ra, sezilarli ijobiy o'zgarish faqat eksport va importda kuzatilgan. Qolgan yo'nalishlardagi ko'satkichlar deyarli farq qilmagan. Masalan, Qozog'iston JSTga a'zo bo'lgandan keyin ishsizlik darajasi 5,3%dan 4,9%ga pasaygan. Ozarbayjonda ham aynan shu davrda 5,2%dan 4,9%ga kamaygan, O'zbekistonda esa 5%dan 5,6%ga oshgan.

**Tahlil natijalarini inobatda olgan holda  
O'zbekiston uchun quyidagi chora-tadbirlarni  
tavsiya etish mumkin:**

- tashqi dunyo bilan erkin raqobatlasha oladigan ishlab chiqarish sohalarini tanlab olish va ularni uzoq muddatli rivojlantirish rejasini ishlab chiqish;
- uzoq muddatli samarali sanoat strategiyasini shakllantirish (masalan, Yevropa Ittifoqi o'z sanoat siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab qo'ygan);
- korxonalarning tashqi raqobatga bardoshlilik ko'satkichi bo'yicha doimiy ravishda o'zini-o'zi monitoring qilib borishiga turtki beruvchi mexanizmlarni qo'llash.



WORLD TRADE  
ORGANIZATION

## TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJY INVESTITSIYALARING ENERGIYA INTENSIVLIGIGA TA'SIRI


### GMM HISABI NATIJALARI

TOBE O'ZGARUVCHI - EI	RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR			
	1-MODEL	2-MODEL	3-MODEL	4-MODEL
ENERGIYA INTENSIVLIGI (-1)	0.918*** (0.051)	0.919*** (0.0371)	0.918*** (0.0392)	0.914*** (0.0391)
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJY INVESTITSIYALAR	0.00140*** (0.000386)	0.00125*** (0.000242)	0.00212*** (0.000370)	0.00263*** (0.000363)
TEXNOLOGIK RIVOJLANISH		-0.0592*** (0.0106)	-0.0659*** (0.0086)	-0.0220*** (0.00783)
BIRGALIKDAGI TA'SIR				-0.225*** (0.0402)
SAVDO OCHIQLIGI			0.00248*** (0.000445)	0.00284*** (0.000440)
TABIYIY RESURSLAR			0.00294*** (0.000686)	0.00325*** (0.000749)
URBANIZATSIIA			-0.269*** (0.0601)	-0.254*** (0.0591)
NEFT NARXI			-0.0756*** (0.0134)	-0.0849*** (0.0131)
KONSTANTA	0.0224 (0.0769)	0.0614 (0.0529)	0.324*** (0.0788)	1.30*** (0.173)
O'RGANISHLAR SONI	2231	2231	2231	2231
AR (1)	-3.16 (0.002)	-3.16 (0.002)	-3.07 (0.002)	-3.06 (0.002)
AR (2)	-0.62 (0.535)	-0.61 (0.543)	-0.59 (0.558)	-0.59 (0.558)
SARGAN TESTI	65.02 (0.124)	75.62 (0.219)	67.79 (0.325)	70.81 (0.417)
HANSEN TESTI	16.70 (0.779)	43.07 (0.512)	43.21 (0.505)	49.12 (0.275)

ESLATMA: STANDARD XATOLIKLAR QAVS ICHIDA \* P<0.01 P<0.05 \*P<0.1; BIRGALIKDAGI TA'SIR TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJY INVESTITSIYALAR VA TEKNOLOGIK RIVOJLANISH ORTASIDAGI BO'LIQLIQNI IFODALAYDI

### TEXNOLOGIK RIVOJLANISH

$$TP = \left[ \frac{D_I^t(y^{t+1}, x^{t+1})}{D_I^{t+1}(y^{t+1}, x^{t+1})} \times \frac{D_I^t(y^t, x^t)}{D_I^{t+1}(y^t, x^t)} \right]^{1/2}$$



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimining rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya intensivligiga ta'siri



Tadqiqot davomida TTXI oqimi rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya intensivligining (energiya iste'moli/YaIM) ortishiga, texnologik rivojlanish esa uning kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

Bunda TTXI oqimining 1 foizga ortishi energiya intensivligining o'rtacha 0,24 birlikka o'sishiga olib keladi. Texnologik rivojlanishning 1 birlikka yaxshilanishi esa energiya intensivligining 0,045 birlikka kamayishiga sabab bo'ladi.

O'z navbatida, TTXI oqimi va texnologik rivojlanishning o'zaro birgalidagi ta'siri energiya intensivligining 0,22 birlikka kamayishiga olib keladi. Nazorat o'zgaruvchilari sifatida savdoning ochiqligi, tabiiy resurslar, urbanizatsiya va neft narxidan foydalanildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga jalgan qilinadigan TTXI oqimi ham asosan samarali ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuqori texnologiyalarning joriy etilishi va ekologiyaga yetkaziladigan zararning kamayishi uchun xizmat qilishi kerak.

Tadqiqot davomida 97 ta rivojlanayotgan mamlakatning 1996-2019-yillardagi panel ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, ikki bosqichli GMM, Hausman-Taylor regression modeli va dinamik panel ma'lumotlar usuli qo'llanildi.

O'zbekiston hududlaridagi Iqtisodiy faoliik barometri (IFB) ni o'rganib chiqdi.

IFB hududlardagi iqtisodiy o'sish tendensiyasini aks ettiradi hamda nomutanosibliklarni kamaytirish choralarini ko'rish, shu bilan birga hududlarda ishbilarmonlik faolligini oshirish chorasini topish uchun samarali vositadir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha IFBni baholashda 12 ta statistik ko'rsatkichni o'z ichiga olgan 3 ta tarkibiy qism (sanoat, tadbirkorlik, tashqi savdo faoliyat) bo'yicha nisbiy taqqoslash va «Pattern» usullari qo'llanildi.



Fintex (moliyaviy texnologiyalar) – innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda moliyaviy xizmatlar ko'satish: Big Data, sun'iy idrok va mashinalarni o'rganish, robotlashtirish, blokcheyn (umumiylarmi tarmoqqa birlashtirilgan ko'plab kompyuterlarga taqsimlangan ma'lumotlarni shifrlash va saqlash), bulut texnologiyalari, biometrika va boshqalar.

2013 – 2022 yillarda fintex banklarning aktivlari an'anaviy banklarning aktivlariga qaraganda ko'proq, aniqrog'i 105 foizga o'sgan. An'anaviy banklarda esa bu ko'satkich 75 foizni tashkil etgan.

2023-yilda global moliyaviy texnologiyalar bozori 165,17 milliard dollarga baholanmoqda. Bu 2021-yildagiga nisbatan 57 foiz (105,41 milliard dollar) ko'p.

Fintex startaplarining eng katta ulushi Amerika (44,1 foiz), Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika (36,7 foiz, 2018-yildagiga nisbatan eng katta o'sish – 2,7 marta), Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (19,2 foiz) ga ga to'g'ri keladi.

2026-yilga borganda fintex sanoati 324 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda. Bunga avtomatlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi hamda onlayn va ilovalarga asoslangan xizmatlarning tobora kengayib borishi ko'mak beradi.

Ekspertlar Osiyo-Tinch okeani mintaqasida moliyaviy texnologiyalar bozorining yuqori o'sish sur'atlarni prognoz qilgan holda, 2021–2030 yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 22,1 foizni tashkil qilishini kutmoqda. Natijada, Osiyo moliyaviy texnologiyalar bozori eng istiqbolli bozorga aylanib, AQSh bozorini ortda qoldiradi.

Ayni paytda O'zbekiston faol rivojlanayotgan fintex bozori hisoblanadi.

1. Bu yerda 3 ta bank raqamli asosda faoliyat yuritmoqda ("TBC Bank" AK, "ANOR BANK" AK, "UZUM BANK" AK).
2. Mamlakatimizda 3 ta to'lov tizimi operatori mavjud (uzcard, humocard, unitedfintech).
3. To'lov tashkilotlari reyestrida 52 ta kompaniya ro'yxatga olingan
4. 6 ta bank 17 ta elektron pul tizimini ishlab chiqish va ishga tushirishda qatnashdi.
5. Moliyaviy sohada bajarilgan va sotilgan innovatsiyalar hajmi 6 yil ichida ikki barobar oshdi.





## O'sish omili sifatida vatandoshlarni jalb qilish: Xitoy tajribasi

o'qish vaqt  
106 soniya

Xitoy iqtisodiy mo'jizasi mamlakatni iqtisodiy jihatdan qudratli davlatga aylantirgan favqulodda hodisa bo'ldi. Bunda asrlar davomida shakllangan va hozirda turli manbalarga ko'ra, dunyoning 198 ta mamlakati va mintaqalarida 50 million nafardan 60 million nafargacha kishini tashkil etuvchi xorijdagi Xitoy diasporasi muhim rol o'ynadi va o'ynashda davom etmoqda.

Agar iqtisodiy qudrat shakllana boshlagan 80-yillarda xitoylik muhojirlar mamlakatga sarmoya kirituvchi asosiy sarmoyadorlar vazifasini bajargan bo'lsa, hozir ko'p hollarda Janubi-sharqi Osiyoda Xitoyning "Bir belbog", bir yo'l" tashabbusi targ'ibotchilari bo'lmoqda.

Hozirgi kunda ham Xitoya kiritilayotgan xorijiy sarmoyada xitoylik muhojirlarning ulushi katta.

Shu maqsadda so'nghi yillarda Xitoy hukumati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun ochiq bo'lgan tarmoqlar sonini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Bular asosan ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari, ayniqsa yuqori texnologiyali sohalardir.

Hukumat xorijiy investitsiyalar bo'yicha ko'plab cheklovlarni olib tashladi va tajriba tariqasidagi erkin savdo zonalari mexanizmidan faol foydalanmoqda.

Bundan tashqari, Xitoy butun dunyo bo'ylab xorijdagi xitoyliklarning salohiyatini jalb qilish uchun keng tarmoqlangan va faol tizimga ega.

Masalan, Xorijda istiqomat qiluvchi xitoyliklar ishi bo'yicha departament xorijdagi xitoylik ishbilarmonlar va mahalliy korxonalar o'zaro kelishib olishi, muzokaralar o'tkazishi va hamkorlikni yo'lga qo'yishi uchun platformalar yaratadi. Departament ushbu platformalar doirasida xitoylik muhojirlar sarmoyasini jalb qilishga qaratilgan ko'plab tadbirlarni o'tkazadi. Ularning orasida Xorijda Xitoy tadbirkorligini rivojlantirish yarmarkasi, Xorijdagi Xitoy sanoat yarmarkasi, ilmiy-texnikaviy va innovatsion hamkorlik yarmarkasi bor.

Xorijdagi Xitoy tadbirkorlari assotsiatsiyasi, shuningdek, xorijda Xitoy tadbirkorligi yarmarkalarini tashkil etishga ham ixtisoslashgan. Maqsad Xitoyni rivojlantirish uchun muhojirlarning imkoniyatlaridan foydalanish.

Xitoy hukumati China International Import Expo, Service Trade Fair va Consumer Expo kabi yirik ko'rgazmalarini tashkil etadi. Bunday tadbirlar yirik kompaniyalar bilan hamkorlik qilish uchun xalqaro platforma hisoblanadi. Xitoylik ishbilarmonlar va xorijdagi Xitoy kompaniyalari ham o'z brendlarni targ'ib qilgan va Xitoy bozoriga kirish yo'llarini rivojlantirgan holda ushbu ko'rgazmalarda faol ishtirok etmoqda.

Ta'kidlash joizki, Xitoyda chet elga o'qish uchun ketayotgan xitoyliklar sonining har yili barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoxda. Boshqa tomondan, diplom va ilmiy daraja olib Xitoya qaytgan fuqarolar soni ham ortib bormoqda. 2021-yilda bir milliondan ortiq xitoylik bitiruvchilar o'z vataniga qaytdi. Bu 2019-yildagiga (777 ming) nisbatan ancha ko'p.

O'sayotgan iqtisodiyot, fan va texnika, iqtisodiyot, ta'lim va davlat boshqaruvi kabi sohalarda yangi ish o'rinalining tashkil etilishi bitiruvchilarda o'z vataniga qaytish istagini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston vatandoshlarni jalb qilish bo'yicha Xitoyning ilg'or tajribasini sinchiklab o'rorganishi maqsadga muvofiq. Chunki xorijdagi o'zbek diasporasining salohiyati ham yuqori.



**Ma'lumki, inflyatsion kutilmalar inflyatsiya darajasiga quyidagi kanallar orqali salbiy ta'sir etadi:**

1. Talab kanali. Odamlarning kelajakda narxlar oshishini taxmin qilishi ularning joriy xarajatlarini oshiradi.
2. Taklif kanali. Odamlarning kelajakda narxlar oshishini taxmin etishi ularning yuqori ish haqini da'vo qilishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pul-kredit siyosati samaradorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**Aholining inflyatsion kutilmalari shakllanishida ba'zida ratsionallikdan og'ish holatlari kuzatiladi, ya'ni, aholining kutilmalari asossiz oshib ketishiga quyidagilar ta'sir etadi:**

- elekrotexnika va avtomobil kabi tovarlar narxining oshishi aholi kutilmalariga ta'sir etadi, lekin bunda sifat o'zgarishlarining ham hissasi mavjud bo'ladi;
- uy narxining ko'tarilishi aholining inflyatsiya kutilmalariga ta'sir qiladi, aslida bunda spekulyatsion harakatlarning ham ta'siri bo'lishi mumkin;
- aholi odatda o'zi iste'mol qilayotgan tovar va xizmatlar savatidagi narxlarga qarab qaror qabul qiladi.

Aholining inflyatsion kutilmalarini asossiz ravishda keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida Markaziy banklar inflyatsion targetlash, ya'ni kelgusi davr uchun inflyatsiyani oldindan e'lon qilish siyosatini olib boradi.

Mazkur holat Borro-Gordon o'yinlar modeli orqali atroflicha tahlil qilinadi. Bu aholi inflyatsion kutilmalarining shakllanishi inflyatsiyaga bog'liqligini ko'rsatuvchi makroiqtisodiy model bo'lib, unga ko'ra, aholi o'z inflyatsion kutilmalarini Markaziy bankning kelajakdagи pul-kredit (inflyatsion targetlash) siyosatini hisobga olgan holda shakllantiradi.

Bunda, 2 o'yinchi - Markaziy bank va aholi, 2 ta strategiya mavjud. Markaziy bank o'zi e'lon qilgan inflyatsiya darajasini ushlab turadi yoki inflyatsiaya undan biroz yuqoriroq bo'ladi, aholi esa kutulmalarini shakllantirishda Markaziy bank e'lon qilgan inflyatsani inkor etadi yoki undan yuqoriroq inflyatsa boladi, deb o'ylaydi va oyliklarni o'z kutulmalariga qarab indeksatsiya

qilishni istaydi. Markaziy bank keyingi davr uchun inflyatsiyaning target darajasini e'lon qiladi. Agar Markaziy bank keyingi davr uchun e'lon qilgan inflyatsiya targeti va joriy inflyatsiyani bir-biriga muvofiqlashtira olsa, inflyatsion tafovut kamayadi va aholining Markaziy bankka ishonchi ortadi va real iqtisodiy osish o'zgarishsiz qoladi. Aksincha, inflyatsiya darjasini Markaziy bank e'lon qilgan ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, aholining Markaziy bankka nisbatan ishonchi yo'qoladi va keyingi davr uchun tafovutni kattalashtiradi. Agar ikkalasi ham e'lon qilingan inflatsiyadan yuqori boladi, deb harakat etsa, unda yuqori inflaytsiya va yuqori kutulma va ikkalasi ham juda salbiy natijagani qayd etadi. O'yin hamkorlik va raqobat o'ttasidagi strategik keskinlikni aks ettiradi, chunki har bir o'yinchi qaror qabul qilish uchun boshqasining harakatlarini hisobga olishi kerak.

**Tahlil natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:**

- O'zbekiston sharoitida agar aholining inflyatsion kutilmalari 1 foizga oshsa, iste'mol narxlari indeksi 0,53%ga ortadi;
- O'zbekistonda aholi kutilmalari va joriy inflyatsiya o'ttasidagi tafovut 4% atrofida saqlanib qolmoqda;
- davlat inflyatsiya targetini 10% deb e'lon qilgan taqdirda sodda (naïve – o'tmishta qarab qaror qiluvchi) aholi inflyatsiyaning 11,1%, moslashuvchan (adaptive - o'tmishta, hozirni tahlil qilish orqali qaror qiluvchi) aholi 13,5% va ratsional (o'tmishta, hozir va kelajakni tahlil qilish orqali qaror qiluvchi) aholi 18,2% bo'lishini kutadi.

Shunday ekan, inflyatsion kutilmalar va joriy inflyatsiya orasidagi tafovutni qisqartirish, qisqa muddatli tebranishlardan keyin iqtisodiyotni barqarorlashtirish, inflyatsiyani targetlangan darajada ushlab turishda yordam beradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun Markaziy bank inflyatsiyani targetlashda (jilovlash) realist bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari, aholi narxlar oshib ketishi haqida asossiz xavotirga tushishining oldini olish uchun ijtimoiy inflyatsiya (aholining katta qismi asosan iste'mol qiladigan tovarlar savati) darajasini e'lon qilib borish lozim. Bundan tashqari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va inflyatsiya darajasini baholashda mustaqil ekspertlarni jalb qilish yuqoridagi risklarni kamaytiradi.



Iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va inflyatsiyani pasaytirish zarurati hukumatlar va Markaziy banklardan zamonaviy pul-kredit siyosati vositasida pul massasi, kredit shartlari va fiskal siyosatni sinchkovlik bilan tartibga solishni talab qiladi.

Biroq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida pul-kredit siyosatini qat'iylashtirishga moyillik ayrim hollarda biznes, ayniqsa, kichik biznesda likvidlilik inqirozi xavfi tufayli investitsion faoliyat va iqtisodiy o'sish sur'atlari salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Pulning miqdor nazariyasi - pul massasi, pulning aylanish tezligi, narx va ishlab chiqarish hajmi o'rta sidagi o'zaro bog'liqlikni ( $MV=PY$ ) ifodaylaydi. Klassik maktab vakillari pul massasining har qanday o'sishi (M) inflyatsiyaning (P) o'sishiga olib keladi, deb ta'kidlaydi. Keyns maktabi, o'z navbatida, narxlarning o'zgarishi birinchi navbatda iqtisodiyotning muomaladagi pul miqdorini o'zlashtirish qobiliyati (V) bilan belgilanishi va pul massasining o'sishi (M) narxlarga (P) har doim ham ta'sir ko'rsatavermasligini ta'kidlaydi. Monetaristlar uchun inflyatsiya har doim va hamma joyda monetar hodisadir (M). Bank maktabi namoyandalarining ta'kidlashicha, odamlar ortiqcha pulni (M) banknotalar ko'rinishida saqlashni xohlamaydi va uni depozitga qo'yadi va bu narxlar (P) o'zgarishiga olib kelmasligi mumkin.

So'nggi 10 yilda O'zbekiston iqtisodiyotining monetizatsiya darjasini YalMning 25-28 foizini tashkil etgan bolsa, shu davrda iqtisodiy ko'lami va aholisi bo'yicha O'zbekiston bilan qiyoslash mumkin bo'lgan ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda monetizatsiya o'rtacha 75-100 foizga yetgan. YalMning barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlagan rivojlanayotgan yirik va o'rtacha kattalikdagi mamlakatlar (yillik o'rtacha 4-5 foizdan yuqori o'sgan - Hindiston, Xitoy, Vyetnam, Indoneziya va boshqa bir qator davlatlar) ko'rib chiqilganda, ularning iqtisodiyotida monetizatsiya darjasini 150-180 foizga yetganligi aniqlandi.

Bu esa O'zbekiston real sektori yetarlicha moliyalashtirilmaganidan dalolat berishi mumkin.

Monetizatsiya darjasini, inflyatsiya va investitsiyalar dinamikasi ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili natijalari milliy iqtisodiyotning monetizatsiya darjasini oshirish uchun inflyatsion risklar nuqtayi nazaridan maqbul chegaralarni aniqlash va uning investitsion hamda iqtisodiy faoliyka qanday ta'sir qilishini aniqlash imkonini berdi:

- monetizatsiya darajasining 1 foiz punktga o'sishi so'nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 0,2 foiz punktdga o'sishiga olib keladi (barchasi YALMga nisbatan foiz hisobida);
- inflyatsiya ta'siri YALMga nisbatan 43 foizli pul massasi chegarasigacha sezilarli emas, shundan keyin u 0,3 foiz punktiga oshadi;
- agar iqtisodiyotni boshqarish samaradorligi bo'yicha Vietnam va Indoneziya darjasiga erishilsa, monetizatsiyaning investitsiyalar o'sishidagi hissasi 0,2 foiz punktdan 7,3 foiz punktga yetadi, inflyatsiya esa 0,5 foiz punktga kamayadi.

**Asosiy xulosा:** Boshqaruv samaradorligining o'rtacha darjasini sharoitida iqtisodiyotni monetizatsiya qilishning ortishiga xo'jalik yurituvchi subyektlarni investitsiyaviy kreditlashni kengaytirish orqali erishish inflyatsion jarayonlarning tezlashishiga olib kelmaydi. Chunki bunda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangilarini yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu esa tovar va xizmatlarning umumiy taklifini oshiradi, ishlab chiqaruvchilar o'rta sidagi raqobatni kuchaytiradi. Shuning uchun narxlar o'sishini cheklaydi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-mart PF-41-sون Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona bojining vaqtinchalik nol stavkasi qo'llaniladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilindi.

Tahlil uchun supermarketlardagi 102 turdag'i 6726 ta iste'mol tovarlari bo'yicha statistik ma'lumotlar web-scraping yo'li bilan yuklab olindi.

Har bir tovar turi bo'yicha 2023-yilning 20-aprel, 28-aprel va 5-may kunlaridagi narxlar solishtirildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, 28 turdag'i sabzavot mahsulotlari 28-aprelda 20-apreldagiga nisbatan o'rtacha 5821 so'mga va 5-mayda 28-apreldagiga nisbatan 1107 so'mga, 110 turdag'i yogurt mahsulotlari tegishli ravishda 5 so'mga va 36 so'mga, 61 turdag'i ko'k choy mahsulotlari 25 so'mga va 139 so'mga arzonlashgan.





2022-yilda jami sug'urta mukofotlari hajmi 6,2 trln. so'mni tashkil etdi. Buning 76 foizi umumiy sug'urta, 24 foizi esa hayot sug'urtasining hissasiga to'g'ri keldi.

2022-yil yakuniga ko'ra, umumiy sug'urta mukofotlarining 10 foizi majburiy sug'urta badallari hisobiga shakllangan, qolgan 90 foizi ixtiyoriy sug'urta mukofotlarining hissasiga to'g'ri keladi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 16 foiz va 84 foizni tashkil etgan. Ushbu raqamlar mamlakatimizda ixtiyoriy sug'urta klasslari ommabopligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

Shunday bo'lsada, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha mukofotlar hajmi YalMning 0,17 foizini tashkil etadi. Bu esa kishi boshiga o'rtacha 3,91 dollardan to'g'ri kelishini bildiradi. Taqqoslaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich Qozog'istonda 31,24 dollarga, Turkiyada esa 21,85 dollarga yetadi.

Umumiy sug'urta mukofotlari hajmi YalMning 0,52 foizini tashkil etadi va kishi boshiga o'rtacha 12,1 dollardan to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 58,5 dollarni, Turkiyada 119,7 dollarni tashkil qiladi.

Baxtsiz hodisalar va tibbiy sug'urta mukofotlari hajmi YalMning 0,01 foizini tashkil qiladi va kishi boshiga o'rtacha 0,28 dollardan to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 10,1 dollarga, Turkiyada 24,5 dollarga teng.

Bu esa ushbu sug'urta klasslarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozimligidan dalolat beradi.

Umumiy sug'urta bozorida konsentratsiya darajasi yuqoriligicha qolmoqda. 2012-yilda eng yirik 5 ta kompaniyaning bozordagi ulushi 58,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 53,6 foizga pasaydi. Lekin, mazkur davr mobaynida yangi sug'urta kompaniyalarining bozorga kirib kelishi tufayli eng yirik 10 ta kompaniyaning ulushi 81,4 foizdan 72,3 foizga kamaydi.

Sug'urta polislarini sotishda brokerlar ishtiroki yetarli emas. Agentlar va to'g'ridan-to'g'ri tarqatish asosiy sotuv kanali hisoblanadi. 2019-2021 yillarda jami sug'urta polislarining 94 foizi ushbu kanallar orqali sotilgan. Internet imkoniyatlarining rivojlanishi natijasida sug'urta polislarini internet orqali sotish rivojlanayapti. 2019-yilda sug'urta polislarining 3 foizi internet orqali sotilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 7 foizgacha oshdi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5265-sonli Qaroriga asosan 2022-yilning 1-iyulidan boshlab, barcha turdag'i sug'urta polislarini internet orqali onlayn xarid qilish imkoniyatlari yaratilishi lozimligi belgilangan.





MHTI o'tkazgan so'rov natijalariga ko'r'a, 1073 nafar tadbirkordan 18,6 foizi moliyalashtirish, 15,3 foizi malakali mutaxassislarning yetishmasligi, 13-14 foizi infratuzilma bilan bog'liq muammolarga duch kelishgan. Jahan tajribasiga nazar solinsa, ushbu muammolarni bartaraf etishda startaplarni qo'llab-quvvatlash maxsus tizimlarga yuklatilgan (biznes akseleratori).

**Batafsil**





Indeks 7 ta ko'rsatkich (eksport, import, savdo qiymati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, turizm, mehnat migratsiyasi, tovar belgilariga arizalar)dan iborat bo'lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasini (foizda), jumladan, o'zaro eksportning dunyodagi qolgan mamlakatlar bilan savdo-sotiqdagi ulushini aks ettiradi.

2017-2022 yillarda indeks qiymati 31,4 foizdan 36,3 foizgacha ko'tarildi. Shu bilan birga, COVID-19 davrida joriy etilgan cheklovlar tufayli ko'rsatkichning (2020-yilda 31,3 foizga) pasayishi kuzatiladi.

1. Indeksning o'sishiga eng katta hissa qo'shgan ko'rsatkich bu tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun arizalar bo'lib, o'rganilgan davrda uning 2,2 baravarga o'sishi kuzatilgan (27,2 foizdan 60,1 foizgacha). Bu ko'rsatkich tadbirkorlik subyektlarining mintaqqa mamlakatlarida o'z faoliyatini yo'lga qo'yishdan manfaatdorligini aks ettiradi.

2. Eksport ko'rsatkichi qiymati 1,3 baravarga, 11,4 foizdan 14,7 foizga o'sgan. Bu esa mintaqqa davlatlarining o'z mahsulotlarini boshqa hududlarga nisbatan birinchi navbatda qo'shni davlatlarning savdo bozorlariga eksport qilishdan manfaatdorligini ko'ssatadi.

3. Import ko'rsatkichi 1,2 baravarga, 17,0 foizdan 20,4 foizga o'sdi. Bu esa Markaziy Osiyo mamlakatlari boshqa mamlakatlarga nisbatan mintaqqa davlatlaridan import hajmini sezilarli darajada oshirganini bildiradi.

4. Mintaqqa ichidagi turizm 73,0 foizdan 78,8 foizga (1,1 baravar) o'sdi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolarining mintaqqa bo'ylab sayohatga (ta'til, davolanish, qarindosh-urug'larni ko'rish, biznes va h.k.) bo'lgan katta qiziqishidan dalolat beradi.

5. Hududdagi o'zaro investitsiyalar hajmi (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirib kelishi va chiqishi) deyarli o'zgarmagan va 1,02 barobarga (34,8 foizdan 35,5 foizga) o'sgan.

6. Savdo tannarxi (mamlakatlar o'rtasida tovarlar eksporti va importi uchun amalga oshirilgan tarif va notarif to'lovlaring umumiyligi) ko'rib chiqilayotgan davrda 2,7 foiz punktiga kamaygan (70,9 foizdan 68,1 foizgacha). Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo qiymati boshqa savdo hamkorlari bilan solishtirganda o'rtacha 4 baravar past.

7. Shuningdek, mehnat migratsiyasi ko'rsatkichi 1,5 foiz punktiga pasaygan (16,7 foizdan 15,3 foizgachagacha). Ya'ni, mintaqqa mamlakatlari hududida yashash va ishlashni afzal ko'rgan Markaziy Osiyo mamlakatlari fuqarolarining ulushi kamaygan.

2022-yil yakunlariga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakat bu Qирғизистон (55,5 foiz). Undan keyingi о'rnlarda Тоҷикистон (33,1 foiz), Озбекистон (27,0 foiz) va Туркманистон (18,8 foiz) turadi. Eng past indeks qiymati Қозоғистонда (18,2 foiz) kuzatilgan.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-maydagi PQ-262-sonli Qaroriga asosan 2022-yilning 1-iyunidan g'alla yetishtirish va sotishda bozor tamoyillariga o'tildi va "O'zdonmahsulot" AJ korxonalari tomonidan bug'doy uni ochiq birja savdolariga qo'yildi va sotila boshlandi.

Mazkur islohotlar samaradorligini doimiy ravishda baholab borish maqsadida MHTI tomonidan Bug'doy uni ulgurji narxlari indeksi (BUNNI indeksi) ishlab chiqildi. Bug'doy uni ulgurji narxlardagi tebranishlar yakuniy iste'mol tovarlari narxiga va umumiyl inflyatsiya darajasiga ta'sir qiladi.

Ulgurji narxlar o'zgarishining chakana bozor narxlari biroz kechikish bilan ta'sir qilishi va iste'mol narxlari to'g'risida ma'lumot to'plash ma'lum vaqt talab etishi inobatga olinsa, BUNNI indeksi inflyatsiyani jilovlashda yetakchi indikator (leading indicator) va erta ogohlantirish tizimi (early warning system) sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy bug'doy uni uchun BUNNI indeksi 2022-yilning avgust oyida o'rtacha 107,4 ni tashkil etdi (01.06.2022 = 100). Avgust oy oxiriga kelib, g'alla narxini erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarning samara bera boshlashi, 2022-yil hosilining bozorga katta hajmda kirib kelishi hamda bug'doy importi bo'yicha imkoniyatlarning kengayishi bug'doy uni uchun birja narxlarining pasayishida o'z aksini topdi. Natijada, BUNNI indeksi 2022-yilning sentyabr oyida 106,62 gacha, dekabr oyida 105,07 gacha kamaydi.

2023-yilning mart-aprel oylarida mahalliy bug'doy uni narxining pasayishi tezlashdi va bu davrda BUNNI indeksi mos ravishda o'rtacha 102,13 va 99,24 ni tashkil etdi. Umuman olganda, 2022-yilning avgust oyidan 2023-yilning aprel oyigacha bo'lgan oraliqda mahalliy un narxi 7,6 foizga arzonlashdi.

2022-yilning fevral oyida dunyoning eng yirik bug'doy yetishtiruvchi mamlakatlari bo'lgan Rossiya va Ukraina o'rtaida mojarosining boshlanishi oqibatida jahon bozorida bug'doy va un narxi sezilarli darajada oshdi.

2022-yilning fevral oyida import bug'doy uni uchun hisoblangan BUNNI indeksi o'rtacha 88,6 ni tashkil etgan bo'lsa, iyul oyida 107,75 gacha (+21.6%) ko'tarildi.


2022-yilning avgust oyidan boshlab, jahon bozorida bug'doy narxining muvozanatga kelishi va Qozog'iston tomonidan bug'doy va un eksportiga qo'yilgan kvotalar muddatining tugashi natijasida import un narxida ham sezilarli pasayish kuzatildi. 2022-yilning dekabr oyiga kelib, import bug'doy uni uchun BUNNI indeksi 98,3 gacha tushgan bo'lsa, 2023-yilning aprel oyida 91,22 ni tashkil etdi. Bu esa import bug'doy uni o'rtacha narxi 2023-yilning aprel oyida 2022-yilning iyul oyidagiga nisbatan 15,3 foiz arzonlashganidan dalolat beradi.

**Ma'lumot uchun:** 2022-yil Rossiya-Ukraina mojarosi ortidan bug'doy narxi ko'tarilishi sababli bug'doy va un importi bo'yicha asosiy savdo hamkorimiz Qozog'iston 2022-yilning 15-apreldidan 15-iyunigacha bug'doy (1 mln. tonna) va un (300 ming tonna) eksporti uchun kvota belgilagan edi.


Mamlakatimiz un bozorida bug'doy uni chakana narxlari ulgurji narxlarning o'zgarishigafaqt bir tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda, ya'ni, bug'doy uni chakana narxlari ulgurji narxlar ko'tarilganda ko'tarilayapti, lekin ulgurji narxlar pasayishi chakana narxlarda namoyon bo'lmayapti. Masalan, 2022-yilning iyul oyidan 2023-yilning mart oyigacha bo'lgan davrda birjada oliy navli import unning o'rtacha narxi 11,4 foizga, mahalliy oliy navli unning o'rtacha narxi 13,7 foiz tushganiga qaramasdan, dehqon bozorlari va do'konlarda oliy navli unning o'rtacha narxi 28,3 foiz oshgan.

Ushbu raqamlar bug'doy unining birjadan tashqari ta'minot zanjirida raqobatni kuchaytirish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Xususan, ulgurji xaridorlar o'rtaida raqobat darajasining pastligi, foyda marjasining yuqoriligi, chakana savdo bilan shug'ullanuvchilarning inflyatsion kutilmalari yuqoriligi, transport xarakatlarining qimmatligi chakana narxlarning oshib borishiga sabab bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.

## BUNNI indeksi, o'rtacha



## Bug'doy uni 1-nav birja narxlari






O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-sod Farmoniga binoan mamlakatimiz hududiga olib kirishda bojxona bojining vaqtinchalik nol stavkasi qo'llaniladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilingandi.

Tahlil uchun supermarketlardagi 102 turdag'i 6959 xil iste'mol tovarlari narxiga oid ma'lumotlar web-scraping yo'li bilan yuklab olindi. Joriy yilning 5-mayidagi narxlar tovar guruhlari bo'yicha 12-may kunidagi narxlar bilan qiyoslandi.

Olingan natijalar 12-mayda 31 turdag'i sabzavot mahsulotlari narxi 5-maydagiga qaraganda o'rtacha 81 so'mga, 33 turdag'i mevalar narxi 4782 so'mga, 291 turdag'i shokolad mahsulotlari narxi 754 so'mga arzonlashganligini ko'rsatdi.





Tadqiqot uchun go4worldbusiness.com saytidan yanvar-mart oylaridagi jami 26000 dan ortiq ma'lumot veb skreping (Web Scraping) usulida olindi. O'zbekiston eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni aniqlash uchun RCA (revealed comparative advantage - aniqlangan qiyosiy ustunlik) indeksi hisoblandi va asosan xususiy sektor tomonidan ishlab chiqariladigan 25 xil mahsulot turi tanlab olindi. Ular uchun hududlarning alohida RCA indekslari ham hisoblandi. Natijada hududlarimiz va dunyoning turli mintaqalarida joylashgan potensial bozorlarni bir-biri bilan bog'lash boyicha aniq tavsiyalar berish imkoniyati paydo bo'ldi.

Tahlil natijasida Fransiya, Gollandiya, Polsha, Ispaniya, Avstriya, Shvetsiya, Italiya, Belgiya, Bangladesh, Xitoy Syangani, Yaponiya, Singapur, Quvayt, BAA, Turkiya, Tailand, Qatar, Janubiy Koreya, Misr, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda meva-sabzavotlar, quritilgan mevalar, turli xil meva sharbatlari, yong'oq kabi mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha Namangan, Jizzax, Xorazm, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari yaxshi imkoniyatga ega qayd etilgan mamlakatlarga eksportni doimiy ravishda yo'lga qo'yish mazkur viloyatlarning iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

AQSh, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Saudiya Arabistoni va BAA kabi mamlakatlarda boshoqli ekinlar, g'alla, un, ziravorlarga talab yuqori. Ushbu mahsulotlarni eksport qilishda esa Buxoro, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona, Samarqand va Xorazm viloyatlari tadbirkorlari nisbiy ustunlikka ega.

Erkaklar va ayollar kiyimlari, to'qimachilik mahsulotlari, sintetik tola va turli xil tekstil mahsulotlariga bo'lgan talab AQSh, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Gretsiya, Germaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, BAA, Janubiy Koreya, Hindiston, Livan, Quvayt, Malayziya, Singapur, Bangladesh va Tailand davlatlarida yuqori ekanligi aniqlandi.

Ushbu tovarlarni eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan Namangan, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Andijon, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahridagi tadbirkorlar yetkazib berishi mumkin.

Paxtadan yigirilgan ip, turli xil matolar, sintetik tola, ipak, gilam, teri va charm mahsulotlariga bo'lgan talab Germaniya, Italiya, Gollandiya, Fransiya, Belgiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Isroil, Qatar, Yaponiya, Xitoy Syangani, Tailand, Indoneziya, Malayziya, Hindiston va BAA kabi mamlakatlarda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Hududiy RCA indeksiga ko'ra, ushbu mahsulotlarni eksport qilishda Samarqand, Qashqadaryo, Andijon, Farg'ona, Buxoro viloyatlari, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar yuqori potensialga ega.

Shuningdek, O'zbekiston turli xil o'g'itlar va o'g'it mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, ushbu mahsulotlarga asosan AQSh, Braziliya, Germaniya, Polsha, Bangladesh, Hindiston va Vyetnam davlatlarida talab yuqori. Bu mahsulotlarni eksport qilishda esa Farg'ona viloyati va Toshkent shahri tadbirkorlari nisbiy ustunlikka ega.

Aytib o'tish lozimki, hududlarda transport va eksport infratuzilmasining ushbu potensial bozorlarga chiqish uchun moslashtirilishi, eksportchi korxonalarga yaqindan konsultativ va moliyaviy ko'mak berilishi eksport ko'lamining oshishi, samaradorlikning yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning jadallahishi va aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi.



Raqobatbardoshlik – bu tovarlarning tashqi savdo sheriklari tovarlari bilan taqqoslangandagi jozibadorlik darajasi. Tovarning raqobatbardoshlik darajasiga mamlakatdagi va hamkor davlatlardagi narx, shuningdek, valyutalarning nominal kursi ta'sir qiladi.

Tahlil O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari bo'lgan 15 ta mamlakat – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Eron, Hindiston, Ukraina, Latviya, Litva, Qирг'изистон va Fransiya bo'yicha o'tkazildi.

Birinchi bosqichda sherik mamlakatlarning O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi umumiy ulushi hisoblab chiqildi. U 65,5 foizni tashkil etadi.

Ikkinchi bosqichda ko'rib chiqilayotgan davrda ushbu mamlakatlardagi iste'mol narxlari indeksining o'sish sur'ati tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichda ushbu 15 ta mamlakatdagi valyuta kurslari dinamikasi hisoblandi.


Ma'lumot uchun: Rossiya rubli 2023-yilning mart oyida yil boshidagiga nisbatan 0,2 foiz qadrsizlandi (45,64 dan 45,75 ga). Bu xorijiy mamlakatlar tomonidan Rossiyaga nisbatan qollanilayotgan sanksiyalar bilan bog'liq. Qozog'iston tengesi 0,9 foizga mustahkamlandi (416,92 dan 412,81 ga), Turkiya lirasi esa 2,1 foizga qadrsizlandi (14,1 dan 14,4 ga).

To'rtinchi bosqichda esa har bir mamlakat uchun nominal samarali valyuta kursi hisoblandi, shuningdek, inflyatsiya darajasi inobatga olingen holda real samarali valyuta kursi aniqlandi. Real samarali valyuta kursining o'sishi, mamlakat eksportining qimmatlashayotgani, importining esa arzonlashayotganidan dalolat. Real samarali valyuta kursining pasayishi esa aksincha.

Nominal samarali valyuta kursi tahlili natijalari O'zbekistonning tashqi raqobatbardoshligi faqat Turkiyaga nisbatan oshganligi (NEER=2,03), qolgan mamlakatlarga nisbatan esa pasayganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, real samarali valyuta kursi Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Qирг'изистон, Fransiya, Italiya va Yaponiyaga nisbatan mustahkamlangan, ya'ni ushbu hamkor mamlakatlarga eksportimiz qimmatlashib, importimiz arzonlashgan. Boshqa asosiy hamkor mamlakatlar – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Eron, Hindiston, Ukraina, Latviya, Litva, Belarus va Turkmanistonga nisbatan eksport qiymati pasaygan, import qiymati esa oshgan.



## HHI indeksi



**2018-2023 yillarda O'zbekiston bank tizimida raqobat darajasining o'zgarish**

o'qish vaqt  
73 soniya

Tadqiqot o'tkazishda ma'lum bir bozordagi raqobat darajasini aniqlashda keng qollariladigan CR (Konsentratsiya nisbati) va HHI (Xerfindal-Xirshman indeksi) indekslaridan foydalanildi. Mazkur indekslar qiymatining nolga yaqin bo'lishi raqobat darajasining shuncha yuqoriligini bildiradi.

CR va HHI indekslarini hisoblashda 2018-2023 yillar oraliq'ida respublika hududida faoliyat olib borgan barcha tijorat banklarining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari, xususan, aktivlari, depozitlari va kreditlari miqdoridan foydalanildi.

Aktivlar. 2023-yilning 1-may holatiga ko'ri, aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi 927 ni tashkil qildi va 2018-yilning 1-yanvar holatidagiga (1520) nisbatan 593 birlikka kamaydi. Bu esa o'z navbatida, respublikamizda bank tizimi o'rtacha konsentratsiyalashgan darajadan raqobatbardosh bozor tamoyillariga o'tganligi, banklar o'rtaqidagi raqobatning sezilarli darajada oshganligidan dalolat beradi.

Kreditlar. Iqtisodiyotimizda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari hajmi so'nggi 5 yil mobaynida qariyb 3,3 barobar yoki 127,2 trln. so'm (YalMga nisbatan 40,1 foiz) dan 413,4 trln. so'm (46,5 foiz) gacha oshgan. Shundan jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit quylimalari hajmi 7,5 barobar oshgan.

Shu bilan birga, milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi 2018-yilning mos davridagi 20,0 foizdan 2023-yilda 22,5 foizgacha ko'tarilgan. Bunda, kredit bo'yicha real foiz stavkasi sezilarli darajada, ya'ni 0,3 foiz (20,0-19,7 ) dan 11,5 foiz (22,5-11) gacha ko'tarilgan.

Depozitlar. HHI indeksi mos davrda 893,7 dan 703 birlikkacha pasaygan. CR indeksi tahliliga ko'ra, 2018-yilning 1-may holatiga ko'ra, eng yirik banklar beshtaligi bank tizimidagi jami depozitlarning 51,8 foiziga egalik qilgan bo'lsa, 2023-yilning 1-mayiga kelib, ularning ulushi 40,5 foizgacha qisqardi. Xususiy banklar tomonidan jalg qilingan depozitlar ulushi esa 32 foizdan 40 foizgacha ko'paydi.



Bank tizimida raqobat darajasini aniqlash uchun CR (Konsentratsiya nisbati) va HHI (Xerfindal-Xirshman indeksi) konsentratsiya ko'satkichlaridan foydalanildi. Ular raqobat darajasiga ko'r'a bozorlarni 3 guruhga ajratadi, ya'ni raqobat darjasи past, o'rtacha va yuqori.

**Ma'lumot uchun:** CR ko'satkichi 70 foizdan 100 foizgacha, HHI 2500 dan 10000 gacha bo'lsa, raqobat darjasи past, CR ko'satkichi 45 foizdan 70 foizgacha, HHI 1500 dan 2500 gacha bo'lsa, raqobat darjasи o'rtacha, CR ko'satkichi 45 foizdan kichik, HHI esa 1500 dan past bo'lsa, raqobat darjasи yuqori.

Hisob-kitob jarayonida 2023-yilning may-oktyabr oylari oralig'ida O'zbekiston Respublikasi hududida ish olib borgan barcha tijorat banklarining asosiy faoliyat ko'satkichlari, jumladan aktivlar, depozitlar va kredit qo'yilmalari hajmidan foydalanildi.

**Aktivlar.** 2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'r'a, Respublikamizdagи tijorat banklarining aktivlari hajmi 615,8 trln. so'mni tashkil etdi. Bu 1-may holatiga nisbatan qariyb 8,7 foiz ko'p. Aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi 907 ni tashkil qildi. Bu respublikamiz bank tizimida aktivlar bo'yicha raqobat kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

**Kreditlar.** Iqtisodiy faoliyat subyektlariga taqdim etilgan kreditlarning HHI indeksi 2023-yilning 1-mayidan 1-oktyabrigacha bo'lgan davr oralig'ida 1031 dan 985 gacha pasaydi. 1-oktyabr holatiga ko'r'a, tijorat banklarining kredit qo'yilmalari hajmi 451,6 trln. so'mga yetdi. Bu 1-may holatiga nisbatan 9,2 foiz punktiga ko'p.


Bu davrda xususiy banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning butun bank tizimi jami kreditlar hajmidagi ulushi 18,5 foizdan 28 foizga oshdi. Davlat ulushi mavjud eng yirik 3 ta bankning ulushi esa 46,1 foizdan 44,8 foizgacha kamaydi. Bu ijobiy o'zgarish hisoblanadi. Chunki u bank tizimida ham bozor mexanizmlarining tobora keng tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

**Depozitlar.** Depozitlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi may-oktyabr oylari oralig'ida 703 birlikdan 669 birlikkacha kamaydi, ya'ni depozitlar bozorida banklar o'rtasida raqobat darjasи oshgan. Bu davrda tijorat banklaridagi depozitlar hajmi sezilarli darajada oshdi va 1-oktyabr holatiga ko'r'a 221,3 trillion so'mga yetdi va 1-may holati bilan taqqoslaganda 7 foizga o'sdi. Depozitlar hajmining sezilarli darajada ko'payishi aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani bilan birga depozitlar bo'yicha foiz stavkalari jozibadorligi saqlanib qolayotganidan ham dalolat beradi.

Bank tizimida raqobatning yaxshilanishini bank bozoriga kirishga bo'lgan ortiqcha talab va cheklavlarning regulyator tomonidan yumshatilishi va buning natijasida bozorga bir qancha yangi va xorijiy banklarning kirib kelishi, onlayn va mobil bank xizmatlarining ommalashayotganligi va bu xizmatlar asosan xususiy va xorijiy banklar tomonidan ko'rsatilayotganligi bilan izohlash mumkin.

## HHI (Herfindahl – Hirschman indeksi)

2500 < HHI < 10000 past darajadagi raqobat  
1500 < HHI < 2500 o'rta darajadagi raqobat  
HHI < 1500 yuqori darajadagi raqobat





2023-yilning oktyabr oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxi qanchalik o'zgardi?

o'qish vaqt  
32 soniya

Monitoring natijalari 8 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi\*. Shunday qilib, oq karamning narxi 61,5 foiz, olmaning narxi 15,4 foiz, sariq piyozning narxi 10,3 foiz, makaronning narxi 4,7 foiz, mol go'shtining (file) narxi 4,6 foiz, o'simlik moyining narxi 3,1 foiz, limonning narxi 1,6 foiz, bodringning narxi 1,3 foiz pasaygan.

Guruch, shakar va margarinning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan.

10 nomdagi mahsulot narxlari oshgan. Narxining oshishi bo'yicha pomidor yetakchi bo'ldi. Uning eng past narxi 5950 so'mdan 9990 so'mga ko'tarildi. Banan va sut narxi ham sezilarli darajada oshgan: ularning narxi mos ravishda 3000 so'mga va 2110 so'mga oshgan.

\*tahlil 7-sentyabr va 12-oktyabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.





Sug'urta xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholini turli xavf-xatarlar va kutilmagan vaziyatlardan himoya qilishni ta'minlashning samarali vositalaridan biri.

### Keyingi yillarda bu sohada amalga oshirilgan islohotlar tufayli quyidagi natijalarga erishildi:

- sohaning huquqiy asoslari mustahkamlandi, shu jumladan, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, raqobatbardosh sug'urta bozorini rivojlantirish va o'zgartirishga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi;
- me'yoriy-huquqiy asosning mustahkamlanishi natijasida sohani yanada rivojlantirish, shuningdek, iste'molchilarining huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi;
- 2017-yilda O'zbekistonda 27 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat olib borgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 51,8 foizga oshib, 41 taga yetdi, shuningdek, 30 dan ortiq tegishli xizmatlarni ko'rsatuvchi tadbirdorlik subyektlari faoliyat yuritayapti;
- 2022- yilda sug'urta kompaniyalari ustav kapitali 2017-yildagiga nisbatan 5,8 baravar o'sib, 1,88 trillion so'mni tashkil qildi;
- sug'urta polislari soni 1,4 baravar o'sib, 8,4 milliontaga yetdi va shu bilan birga, shartnomalar asosan foydalanuvchi uchun qulay elektron shaklga o'tkazildi;

- 2022-yilda mijozlar uchun sug'urta to'lovlarining umumiy miqdori 2,6 trillion so'mni tashkil qildi va bu 2017-yildagiga nisbatan 9,6 baravar ko'p degani;

- hududlardagi tarkibiy tuzilmalar soni 2017-yildagiga nisbatan 1,5 baravar oshdi va deyarli 2 mingtaga yetdi;

- barcha hududlarda 15,4 ming nafar xodim va sug'urta agenti uchun barqaror ish orni yaratildi;

- O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari turli yo'nalishlarda 110 dan ortiq turdag'i sug'urta mahsulotlarini taklif etayapti.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, sug'urta bozorini raqamlashtirish, iste'molchilar ishonchini, shuningdek, sug'urta madaniyati darajasini oshirish, milliy sug'urta bozorini xalqaro standartlarga izchil muvofiqlashtirish sohada samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, hududlarda yangi ish orinlari tashkil etilishi, bozorda raqobat darajasi va biznes yuritish ishonchliligining oshishi hisobiga nafaqat sug'urta xizmatlari sohasi, balki turdosh tarmoqlar ham yanada rivojlanadi, turli sohalarga investitsiya kiritish imkoniyatlari kengaydi.

**O'zbekistonda 2017-2022 yillarda  
sug'urta faoliyatining  
rivojlanishi**



Tadqiqotda mamlakatdagi hududiy nomutanosibliklar tumanlar bo'yicha baholandi va bunda qiyosiy tahlil va guruhash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi bo'yicha respublika hududlari 4 guruhga ajratildi:

I-guruh - sanoati nisbatan rivojlangan tumanlar (aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi respublika darajasidan yuqori – 2021- yilda 12,9 mln. so'm) - hududida asosiy yirik sanoat obyektlari (asosan yoqilg'i-energetika, kimyo kompleksi, mashinasozlik, metallurgiya) joylashganligi bilan ajralib turadigan 16 ta tumanni o'z ichiga oldi.

II guruhga – sanoatning rivojlanish darajasi o'rtacha (aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi respublika ko'rsatkichidan 5 baravargacha kam) bo'lgan 101 ta tuman kiritildi. Ular respublikadagi tumanlarning 62,3% ini tashkil etadi. Bu hududlar iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga (yengil, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari) ixtisoslashgani, rivojlangan yoki rivojlanayotgan kichik biznes subyektlari bilan ajralib turadi.


III guruh – sanoatning rivojlanish darajasi nisbatan past hududlar (aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi respublika ko'rsatkichidan 10 baravargacha kam) bo'lib, 37 ta tumanni o'z ichiga oladi.

IV guruhga (aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi respublika ko'rsatkichining 10 baravaridan kam) markazdan uzoqda yoki tog'oldi zonasida joylashgan 8 ta tuman (Baxmal, Yangiqo'rg'on, Qo'shrabot, Oltinsoy, Denov, Boysun, So'x) kiradi. Bu hududlar sanoati asosan ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlarni ishlab chiqarish hisobiga shakllangan bo'lib, uni yanada rivojlanirish uchun tadbirkorlik va investitsiya faoliyatini faollashtirish, qulay muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish zarur.

Umuman olganda, 2018-2021 yillarda sanoatning o'rtacha rivojlanish darajasiga ega bo'lgan tumanlar soni 83 tadan 101 taga ortib, rivojlanish darajasi pastlari 46 tadan 37 taga hamda qoniqarsiz ko'rsatkichlarga ega bo'lganlari soni 14 tadan 8 taga kamaydi. Bu holatni mahalliy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish, qishloq joylarda tadbirkorlik va investitsion faoliylik ortishining samarasi sifatida izohlash mumkin.

I-guruhda hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini yaratish, II-guruhda - iqtisodiy o'sish drayverlarini faollashtirish, III va IV guruhlarda - rivojlangan va o'rta darajada rivojlangan hududlarning salohiyatidan foydalangan holda hududlararo loyihalarni tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

**O'ZBEKISTON TUMANLARINI SANOAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH DARAJASI BO'YICHA GURUHLASH\***  
(Toshkent shahri tumanlari bundan mustasno)



Tumanlar soni	2018-yil**				Hududlar	2021-yil**			Tumanlar soni
	1	6	6	2		Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	1	11	
15	1	6	6	2	Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	1	11	4	16
14		1	12	1	Andijon	2	11	1	14
11			10	1	Buxoro	2	9		11
12	2	4	6		Jizzax	1	8	2	12
13	1	4	5	3	Qashqadaryo	2	6	5	13
8			7	1	Navoiy	1	7		8
11	2	4	5		Namangan	8	2	1	11
14	4	5	4	1	Samarqand	1	7	5	14
13	4	7	2		Surxondaryo	5	5	4	14
8		1	6	1	Sirdaryo	1	5	2	8
15		1	10	4	Toshkent v.	3	10	2	15
15		9	5	1	Farg'ona	1	9	4	15
10		4	5	1	Xorazm	1	5	5	11
159	14	46	83	16	O'zbekiston Respublikasi	16	101	37	8
									162



Konsepsiyanı ishlab chiqishda shaharning rivojlanish tendensiyalari, xususan, xizmatlar sohasining rivojlanishi, turizm salohiyati, uy-joy qurilishi va ekologik jihatdan muammolarga e'tibor qaratildi. Tahlillar natijasida shaharning raqobat ustunliklari aniqlanib, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Marg'ilon shahrini rivojlantirish konsepsiysi yo'l bo'yи xizmatlarini rivojlantirish, Marg'ilon "Shirmoy non"i brendini targ'ib qilish, hunarmandchilik yo'nalishida raqamli platforma yaratish,

Marg'ilon shahrini rivojlantirish konsepsiysi yo'l bo'yи xizmatlarini rivojlantirish, Marg'ilon "Shirmoy non"i brendini targ'ib qilish, hunarmandchilik yo'nalishida raqamli platforma yaratish,

Yodgorlik fabrikasining VR loyihasini ishlab chiqish va boshqa asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.



Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

# MARG'ILON SHAHRINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI



TOSHKENT, 2023-YIL DEKABR



Tadqiqotda RCA (Revealed comparative advantage) va HHI (Herfindahl–Hirschman index) indekslari yordamida raqobat ustunligini aniqlash va eksportni hududiy diversifikatsiya qilish mezonlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'rva, Germaniya bozorida eksportning raqobat ustunligiga ega bo'lgan ( $RCA \geq 1,000$ ) to'qimachilik mahsulotlari (2022-yilda 16,6%), kiyim-kechak (15,7%), kimyoviy o'g'itlar (12,6%), sabzavot va mevalar (7,2%), rangli metallar (6,9%), noorganik kimyoviy moddalar (3,1%) talab yuqori bo'lgan mahsulotlar hisoblanadi.

**Malumot uchun:** Germaniya O'zbekiston uchun yangi bozor hisoblanadi. 2018-2022 yillar oralig'ida O'zbekiston tovarlari eksporti 1,7 barobardan ko'proqqa oshdi va 2022-yilda 88,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (mamlakat eksportining 0,5 foizi).

Hududiy tovar tuzilmasini baholash yuqoridagi tovarlar bo'yicha hududiy eksportning quyidagi xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

Oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tovarlarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish tufayli Buxoro, Qashqadaryo, Andijon, Jizzax, Toshkent viloyatlarida eksportning jadal o'sishiga (2018-2022 yillar) erishildi. Shu bilan birga, Toshkent shahri, Namangan, Toshkent, Jizzax, Farg'ona viloyatlari mahalliy tovarlarni Germaniya bozoriga eksport qiluvchi yetakchi hududlar (Germaniyaga eksport qilinadigan tovarlarning  $\frac{1}{2}$  qismidan ko'prog'i) hisoblanadi.

Eksportning nisbiy hududiy diversifikatsiyasiga ega bo'lgan guruhga (eksport konsentratsiyasi indeksi – ECI => 0) to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (0,371), kiyim-kechak (0,454), sabzavot va mevalar (0,387) kiradi: to'qimachilik mahsulotlari (Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlari) va kiyim-kechak (Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand,

Toshkent viloyatlari) eksport qiluvchi hududlar iqtisodiyoti aholining tadbirkorlik faoliyati fonida paxta tolasini qayta ishlashga ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi.

Eksportning nisbiy konsentratsiyasi (ECI => 1) bo'lgan guruhga rangli metallar (0,714), o'g'itlar va noorganik kimyoviy moddalar (1,000) kiradi. Rivojlangan yirik biznes fonida mineral xomashyo resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish Toshkent viloyati va Toshkent shahrini ushbu tovarlarning asosiy eksportchisiga aylantirdi.

Umuman olganda, Germaniya bozorida O'zbekiston hududlari o'rnnining mustahkamlanishi qo'shimcha imkoniyatlarni izlashga bog'liq.

Bular: ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va to'qimachilik mahsulotlari (Namangan, Samarqand, Toshkent), kiyim-kechaklar (Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari) eksportini kengaytirish, mahalliy mahsulotlarni qo'shilgan qiymat yaratish global zanjiriga kiritish;

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida talab yuqori bo'lgan elektr mashinalari, asbob va uskunalar, yo'l materiallari, sumkalar, charm buyumlar eksportini oshirish (Andijon, Namangan, Toshkent, Farg'ona viloyatlari, Toshkent shahri); ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonalarini farmatsevtika zonalariga joylashtirish orqali eksportga yo'naltirilgan farmatsevtika mahsulotlarini o'zlashtirish (masalan, Jizzaxning Zomin-farm, Namanganning Kosonsoy-farm, Sirdaryo viloyatining Sirdaryo-farm korxonalarida) maqsadga muvofiq.

Hududlar uchun yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan istiqbolli o'rta va yuqori texnologiyali tarmoqlar, shu jumladan axborot texnologiyalari, mikrobiologiya, seleksiya va boshqa yo'nalishlarga xorijiy investitsiyalarni jaib qilishni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.



Tadqiqotni o'tkazish jarayonida www.go4worldbusiness.com veb sahifasi hamda Statistika agentligi ma'lumotlaridan foylanildi. O'zbekiston eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni aniqlash uchun RCA (revealed comparative advantage – aniqlangan qiyosiy ustunlik) indeksi hisoblanib, 15 xil mahsulot turi tanlab olindi va ularga talab yuqori bo'lgan mamlakatlar aniqlandi.

Shunday qilib, 2023-yilning III choragida Quvayt, Yaponiya, Tailand, Hindiston, Kanada, Saudiya Arabiston, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya kabi mamlakatlarda mevasabzavotlar, ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlarga talab yuqori bo'lgan. Ushbu mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo, Samarcand, Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi yaxshi imkoniyatga ega.

Malayziya, Filippin, Niderlandiya, Germaniya, BAA, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda esa un va kraxmal hamda tamaki mahsulotlariga talab yuqori ekanligi aniqlandi. RCA indeksi ushbu mahsulotlarni eksport qilishda Buxoro, Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri tadbirkorlari nisbiy ustunlikka ega ekanligini ko'rsatdi.


BAA, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Yaponiya, Niderlandiya, Germaniya, Indoneziya davlatlarda ip-gazlama, kiyimlar, kimyoviy tola, gilam va charm mahsulotlariga talab yuqori. Ushbu tovarlarni eksport qilishda Qashqadaryo, Namangan, Samarcand, Farg'ona, Andijon, Toshkent viloyatlaridagi tadbirkorlar nisbiy ustunlikka ega va ularda mazkur bozorlarga chiqish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston turli xil o'g'itlar va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, ushbu mahsulotlarga asosan Yaponiya, BAA, Germaniya, Belgiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya davlatlarida talab yuqori. Bu mahsulotlarni esa Navoiy, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahri tadbirkorlari nisbatan pastroq muqobil xarajatlar evaziga eksport qilishi mumkin.


Indoneziya, Yaponiya, Germaniya, Kanada, Hindiston, BAA, Italiya, Polsha mamlakatlaridagi ko'pgina buyurtmachilarga qurilish materiallari va chinni buyumlar zarur ekanligi tahlillar yordamida aniqlandi. Hududiy RCA indeksiga ko'ra, ushbu mahsulotlarni eksport qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Samarcand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlarga tavsiya etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston qimmatbaho toshlar, mis mahsulotlari, rux mahsulotlari ishlab chiqarishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, ushbu mahsulotlarga asosan Yaponiya, Hindiston, Italiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Tailand, BAA, Koreya Respublikasi, AQSh, Fransiya, Germaniya davlatlaridan talab bo'lmoqda. Potensial eksport qiluvchilar esa Navoiy, Farg'ona va Toshkent viloyatlari tadbirkorlari ekanligi aniqlandi.

## O'ZBEKISTON HUDDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI (1)



## O'ZBEKISTON HUDDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI (2)





Tadqiqotda 2016-2021 yillarda hududlar iqtisodiyotidagi tafovutlarning qisqarishi Beta ( $\beta$ ) yaqinlashish modeli vositasida tahlil qilindi. Bu modelga ko'ra, agar hududlar bo'yicha yagona farq ular kapitalining boshlang'ich darajasida bo'lса, kichik hajmdagi kapitalga ega bo'lgan kambag'al hududlar yirik kapitalga ega bo'lgan boy hududlarga qaraganda iqtisodiy jihatdan tezroq o'sadi.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi yetakchi mavqeい tufayli Toshkent shahriga hududlar o'tasidagi nomutanosiblikning asosiy manbai sifatida qarash mumkin. Shuningdek, uning iqtisodiy salohiyati Toshkent viloyatining iqtisodiy ko'rsatkichlariga ham ijobjiy ta'sir qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tadqiqotda shartli Beta modelining respublikadagi 14 ta hududi uchun (1-model), Toshkent shahrisiz (2-model) va Toshkent shahri va Toshkent viloyati ishtirok etmagan (3-model) variantlari tahlil qilindi.

Natijalar: Shartli Beta yaqinlashish modelining uchta varianti ham mamlakatimiz hududlari o'tasidagi tabaqalashuvning qisqarayotganidan dalolat beradi. Chegaradosh hududlarning muvofiq tarzda rivojlanishi ham iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'sir qilayotgani ma'lum bo'ldi.


Shuningdek, optik tolali aloqa liniyalarini o'tkazish eng rivojlangan hududlar darajasiga yaqinlashishda yordam beradi. Tahlildan eng rivojlangan hududlarni chiqarib tashlash esa bu omilning ahamiyatini pasaytiradi.

Barcha hududlar bo'yicha hisoblangan Halflife ko'rsatkichi tafovutni 50% ga kamaytirish uchun 35 yil, Toshkent shahri va Toshkent viloyatini hisobga olmaganda esa 25 yil kerak bo'lishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijasida geografik joylashuvi hamda iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari yaqin bo'lgan hududlar uchun mintaqaviy siyosat yo'nalishlarini aniqlash lozim, degan xulosaga kelindi.

Masalan, Beta yaqinlashish modeli Surxondaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari nafaqat geografik jihatdan, balki iqtisodiy o'sish sur'ati jihatidan ham yaqin hududlar ekanini ko'rsatdi. Xuddi shunday, geografik jihatdan yaqin joylashgan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari aholi jon boshiga YaHM jihatidan, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha o'xshash hududlar bo'lib, ular uchun rivojlanishning umumiyo'nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM ulushining o'sish sur'ati (2016-2021)





Iqtisodiy faoliyning nisbatan yuqori darajasi Toshkent shahri, Jizzax, Namangan, Andijon, Xorazm viloyatlarida (BEA indeksi 0,500 dan yuqori) qayd etildi.

Ushbu hududlar guruhi (Jizzax viloyatidan tashqari) IFBda dinamik iqtisodiy o'sish (2017 - 2022 yillardagi YaHM o'sishi respublika ko'rsatkichidan yuqori – 128,0%) asosan sanoat ishlab chiqarishi, chakana savdo, qurilish ishlari, tovarlar va xizmatlar eksporti hisobiga kuzatilmogda.

YaHMning mo'tadil o'sishiga (2017 - 2022 yillarda 123,7%) qaramay, Jizzax viloyati IFBning yuqoriligi iqtisodiyot tarmoqlari (sanoat, xizmat ko'rsatish), tadbirkorlik (mavjud kichik biznes subyektlarining o'sishini) hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish (mashina va uskunalar importi) hisobiga ta'minlanmoqda;

Shu bilan birga, IFB Jizzax, Namangan, Andijon, Xorazm viloyatlari iqtisodiy rivojlanish darajasining oshishida ham o'z aksini topdi.

O'rtacha faoliyat darajasiga ega bo'lgan ikkinchi guruhdan Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Navoiy viloyatlari joy olgan bo'lib, ushbu guruhda tadbirkorlik yaxshi rivojlangan, lekin ishlab chiqarish sur'ati nisbatan past (IFB indeksi = 0,400-0,500).


Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining nisbatan past iqtisodiy faoliyi (IFB indeksi 0,400 dan past) tabiiy resurslar va xomashyo resurslaridan samarali foydalanishni inobatga olgan holda eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Ushbu muammo iqtisodiyoti agrar yo'halishga ega hududlar (Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, YaHMda qishloq xo'jaligining ulushi 40% dan ortiq, sanoatning ulushi esa 17-18%), hamda iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari, YaHMning aholi jon boshiga ko'rsatkichi mamlakat miqyosidagi ko'rsatkichidan 1,6-2,0 marotaba past) uchun ham dolzarb.

Umuman olganda, hududlarning 2017-2022 yillardagi IFB darajasi nisbatan past rivojlangan hududlar (Jizzax, Namangan, Xorazm viloyatlari) ning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Ayni paytda tadbirkorlik va biznesni kengaytirish hududlarning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishning yetakchi bo'g'iniga aylanmoqda.

### 2017-2022 YILLARDA O'ZBEKISTON HEDUDLARINING IQTISODIY FAOLLIK BAROMETRI (IFB)

#### Hududlarning IFB va YaHM o'sishini qiyosiy baholash



#### IFB komponentlari bo'yicha hududlar faoliyi

O'rni			
I guruh hududlari iqtisodiy faoliyat darajasi nisbatan yuqori			
Jizzax	1	4	8
Toshkent sh.	2	1	6
Namangan	3	2	9
Andijon	4	5	13
Xorazm	5	3	10
II guruh hududlari iqtisodiy faoliyat darajasi o'rtacha			
Samarqand	6	6	3
Farg'ona	7	10	4
Surxondaryo	8	3	5
Navoiy	9	9	1
III guruh hududlari iqtisodiy faoliyat darajasi nisbatan past			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10	4	7
Buxoro	11	8	11
Qashqadaryo	12	11	2
Sirdaryo	13	7	14
Toshkent	14	5	12

past faoliyk	yuqori faoliyk
Ishlab chiqarish faoliyi (5 ta ko'rsatkich)	
Tadbirkorlik faoliyi (5 ta ko'rsatkich)	
Tashqi savdo faoliyi (2 ta ko'rsatkich)	

Malumot uchun: Doira hajmi YaHM darajasini bildiradi. Aholi jon boshiga YaHM qanchalik yuqori bo'sa, doira shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida PMTI ekspertlarining hisob-kitoblari



Dunyoda shaharsozlikning turli modellari mavjud bo'lib, shaharlar ikki asosiy usulda - tashqi tomonga kengayish orqali gorizontal yoki yuqoriga o'sish orqali vertikal rivojlanadi. XIX asr oxirida Chikagoda osmono'par binoning qurilishi yangicha me'moriy tasavvurni uyg'otdi va rivojlanish markazida bo'lgan shaharlarning shaklini o'zgartirdi.

Shaharlar kengayishining 3 xil asosiy ssenariysi mavjud bo'lib, ularga ko'ra aholi zichligi kamayishi, o'zgarmasligi va ortishi mumkin. Birinchi va ikkinchi ssenariylar odatda shahar hududining yon-atrofga kengayishini ifodalaydi. 3-ssenariy bo'yicha esa shahar vertikal o'sib, aholi zichligi ortib boradi.

### Shaharlarning vertikal o'sishi:

- yerdan foydalanishni optimallashtirish;
- infratuzilmalarga kiritiladigan investitsiyalarni qisqartirish;
- shaharlar ichida sayohat vaqtini kamaytirish;
- kishilarning bir joyda jamlanib axborot va bilim almashishini tezlashtirish;
- yanada barqaror shahar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda yordam beradi.

Shu bilan birga, vertikal o'sish bilimga asoslangan boshqaruv modellarini qo'llashni talab etadi.

O'zbekistonda 2012-2016 yillarda xonadonlar (uy) lar soni 6,6 foizga o'sgan bo'lsa, 2017-2021 yillarda o'sish o'tgan 5 yillikdagidan 3 barobar ortiq (20,3 foiz) bo'ldi. Bu davrda uylar Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahrida eng ko'p qurilgan.

### Tahlil natijalariga ko'ra, 2021-2022 yillarda:

Sardoba, Jondor, Peshku, Xo'jaobod, So'x va Bag'dod tumanlari hamda Navoiy, Jizzax, Zarafshon, Buxoro va Andijon shaharlarda vertikal o'sish eng yuqori bo'lgan.

Respublikaning 77 ta tuman va shaharlarda jami foydalanishga qabul qilingan uy-joylar maydonida ko'p xonadonli uy-joylar maydonining ulushi 30 foizdan kam bo'lgan.

Xususan, Bo'zatov, Kegeyli, Qoraq'zak, Bo'ston, Yangiobod, Tomdi, Oltinsoy, Mirzaobod,

Sayxunobod tumanlari hamda G'ozg'on, Shirin va Angren shaharlarida ko'p xonadonli uylar foydalanishga topshirilmagan.

Ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, vertikal shaharlar infratuzilma talablari, atrof-muhitga ta'siri va yashash uchun qulaylik nuqtai nazaridan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

### Masalan:

Aksariyat hududlarning bosh rejasি ishlab chiqilmagani yoki yakuniga yetkazilmagani. Bosh rejasи bor hududlarda ham yer ajratishning rejaga zid ravishda amalga oshirilishi tartibsiz qurilishlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, 2021-yilda respublikada 814 ta holatda bosh rejaga amal qilinmagani aniqlangan.

Qurilish ishlarining jadallashuvi natijasida yashillik darajasi 2022-yilda 2017-yildagiga nisbatan Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida 26 foiz, Yakkasaroy tumanida 23 foiz, Olmazor tumanida 33 foiz, Mirzo Ulug'bek tumanida 18 foizga qisqargan. Bunday holatni respublikaning boshqa hududlari misolida ham kuzatish mumkin. Masalan, tahlil davrida Buxoro shahrining markaziy qismida yashillik darajasi 37 foizga qisqargan.

### Yashil hududlarning inson salomatligiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida quyidagi natijalar olingan:

- «JAMA Network Open»da chop etilgan tadqiqot natijalari hiyobonlar, jamoat bog'lari va boshqa yashil maydonlarga keluvchilarning ruhiy salomatligi yaxshilanishini tasdiqladi. Xususan, haftasiga 3-4 marta yashil hududlarda sayr qiluvchilar bir marta yoki undan kam keluvchilarga qaraganda ruhiy salomatlik dorilaridan 33 foiz, qon bosimi dorilaridan 36 foiz va astma dorilaridan 26 foiz kam foydalanishi aniqlandi.
- nature.com saytida e'lon qilingan hisobotga ko'ra, haftada 2 soatni tabiat qo'ynida o'tkazish tashvish yoki depressiyadan xalos bo'lish, yuqori qon bosimi hamda yurak kasalliklari xavfini kamaytirishda yordam beradi.

- Shuningdek, shifokorlar ba'zi dori vositalari o'rniغا tabiatda ko'proq vaqt o'tkazishni tavsiya qilmoqda. Xususan, Yangi Zelandiyada shifokorlar 1998-yilda yashil maydonda o'tkazish lozim bo'lgan vaqtini belgilab bergan bo'lsa, Yaponiyada o'rmon havosidan nafas olish ekoterapiyaning bir shakli sifatida qo'llanilmoqda.

Urbanizatsiya va qurilish ko'laming keskin kengayishi tufayli aholi punktlariga tushayotgan ekologik yuklamani kamaytirish maqsadida 2022-2024 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 1 278,2 ga maydonda "yashil bog'lar", 1 082,34 ga maydonda yangi "yashil jamoat hiyobonlari"ni tashkil etish belgilandi. Shuningdek, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlari kesilishiga nisbatan moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirildi.




### **Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

- Turar joy atrofidagi hududlar va umuman shahar bo'yicha har bir kishiga to'g'ri keluvchi "yashil hudud" maydonining minimal normalarini yangilash va amaliyotga joriy qilish.
- Yangi ko'p xonardonli turar joylarning qurilish ishlari olib borishda qabul qilingan minimal normalardan kelib chiqib, pudratchiga yashil hududlar barpo etishning majburiy tartibini belgilash.
- Aholi yashash punktlarida ekologik barqarorlikni monitoring qilish maqsadida sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali hududlar yashilligini baholash amaliyotini joriy etish. Shuningdek, shahar va shaharchalar yashillik indeksini ishlab chiqish lozim.



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SHAHARLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI


## Shaharlarning kengayish ssenariylari





■ Infratuzilmaiga kirtiladigan investitsiyalar hajmi

## Vertikal urbanizatsiya – baland binolar qurish orqali shaharlarning yuqoriga o'sishi

Kvartira (uylar) sonining o'zgarish dinamikasi, %



Uy-joy fondi umumiyl maydonining o'zgarish dinamikasi, %



Yuqori vertikal o'sish\* kuzatilgan hududlar (2021-2022)

- Sardobat. (94,7%)
- Navoiysh. (93,6%)
- Jizzax sh. (93,2%)
- Jondor t. (92,4%)
- Zarafshon sh. (92,1%)
- Peshku t. (91,9%)
- Buxorosh. (91,1%)
- Xo'jaebodt. (90,9%)
- So'xt. (90,6%)
- Bog'dod t. (90,3%)
- Andijon sh. (90,1%)

\*foydalaniшга qabul qilingan yangi ko'п kvartirali uy-joylar maydonining jami yangi uy-joylar maydoniga nisbati



77 ta tuman va shaharda vertikal o'sish ko'rsatkichi 30 foizdan kam bolgan.

Vertikal o'sish kuzatilmagan tuman va shaharlari (2021-2022): Bo'zatov, Kegeyli, Qoraq'ozak, Bo'ston, Yangiobod, Tomdi, Oltinsoy, Mirzaobod, Sayxunobod tumanlari va G'ozg'on, Angren, Shirin shaharlari

⚠️ Urbanizatsiya va qurilish ko'lamining keskin ortishi tufayli aholi punktlariga tushayotgan ekologik yuklama ortib bormoqda!

## Toshkent shahrining 2014-2022 yillardagi yashillik xaritasi

2017-2022 yillarda yashillik darajasi Toshkent shahrining Olmazor tumanida 33%ga, Shayxontohur tumanida 26%ga, Yakkasaroy tumanida 23%ga, Mirzo Ulug'bek tumanida 18%ga qisqargan.



Izoh: Ranglar normallashtirilgan nisbiy vegetatsiya (NDVI) indeksini anglatadi.  
Hisob-kitoblar har yilning iyul oyida olingan sun'iy yoldosh tasvirlariga osida bajarilgan.



Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida joylashgan Qo'qon shahri Buyuk ipak yo'lidagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Shahar XVIII asrda Qo'qon xonligining poytaxtiga aylangan va jahon miqyosida shuhrat qozongan. Shaharda qadimdan hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, uni hunarmandlar shahri, deb ham atashadi.

Farg'ona viloyati bo'yicha eng ko'p kichik sanoat korxonalarini Qo'qon shahrida joylashgan (1500 dan ortiq). Xususan, yengil sanoat sohasida viloyatdagi kichik sanoat korxonalarining 21,4 foizi, charm poyabzal-mahsulotlari sanoati korxonalarining 22,3 foizi, elektr-maishiy tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarining 24,1 foizi, dori-darmon sanoati korxonalarining 20,9 foizi Qo'qon shahrida faoliyat olib bormoqda.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi bo'yicha ham Qo'qon shahri Farg'ona viloyati hududlari orasida yetakchi. So'nggi 5 yilda shaharda xizmatlar sohasi 1,8 barobar o'sdi va hozir viloyat miqyosida ko'rsatilayotgan xizmatlarning umumiy hajmida Qo'qon shahrining hissasi 17 foizdan ortiq.

Tarixan Buyuk ipak yo'lida joylashgan Qo'qon bugungi kunda ham savdo sohasida o'z mavqeini saqlab qolgan.


Farg'ona viloyati tashqi savdosining 20,6 foizi, xususan, eksportining 22,3 foizi, importining 19,4 foizi Qo'qon shahrining hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, shaharda 8 ta bozor faoliyat yuritadi. Viloyatdagi chakana savdo tovar aylanmasining 18 foizdan ortig'i Qo'qon shahrida amalga oshiriladi.

Xonlik poytaxti sifatida ilm-fan va ta'lrim markazi bo'lgan Qo'qonda bugungi kunda ham bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi 11 ta oliy ta'lim muassasasidan 4 tasi Qo'qonda joylashgan bo'lib, ularda viloyatdagi talabalarning  $\frac{1}{4}$  qismidan ortig'i tahsil oladi.

Qo'qon shahri xorijiy va mahalliy turistlar uchun yanada jozibador maskanga aylanib bormoqda. Jumladan, 2021-yilda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlarining Turizm masalalari bo'yicha vazirlari 6-yig'ilishida Qo'qon shahri Turkiy kengashning ilk turizm poytaxti deb e'lon qilingan. Shuningdek, shaharda har ikki yilda bir marta xalqaro hunarmandchilik festivali bo'lib o'tadi.

Raqobat ustunliklari tahlili kelajakda Qo'qonni ijodiy, innovatsion iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yetakchi hudud va xalqaro savdo shahriga aylantirish imkoniyati yuqoriligidini ko'rsatdi.

## QO'QON SHAHRINING RAQOBAT USTUNLIKHLARI





2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha respublikada umumiy hajmi 68,1 trln. so'mga teng bo'lgan qurilish ishlari amalga oshirilgan. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 104,8 foizni tashkil etdi.

O'sish sur'ati indeksidan foydalangan holda qurilish ishlari rivojlanishi bo'yicha hududlar reytingi ishlab chiqildi.

Hududlar reytingida yetakchi o'rinnlar (1-6 o'rinnlar) ni egallagan Farg'ona (121,3 foiz), Surxondaryo (109,0 foiz), Samarqand (108,2 foiz), Toshkent (108,1 foiz), Navoiy (107,2 foiz) va Xorazm (107,0 foiz) viloyatlari tegishli tashkiliy-texnik tadbirlarni tizimli amalga oshirish hisobiga qurilish ishlari rivojlanishi jadal bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo (105,3 foiz), Buxoro (105,1 foiz) va Jizzax (104,0 foiz) viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida (104,1 foiz) (7-10 o'rinnlar) indeksning o'rtacha darajasi aniqlandi.

Andijon (103,1 foiz), Namangan (103,0 foiz) va Sirdaryo (100,9 foiz) viloyatlari qurilish ishlari rivojlanishi o'sish sur'ati indeksi past ko'satkichlarga (11-13 o'rinnlar) ega.

Tahlil poytaxtimiz Toshkent shahrida o'sish sur'ati (100,1 foiz) sekinlashganligini ko'satdi va u reytingda 14-o'rinni egalladi.

O'zbekistonda yaratilgan qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhiti, shuningdek, katta imkoniyatlarning mayjudligi sohaning yanada samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishiga ko'mak beradi.

## 2023-YILNING YANVAR-IYUN OYLARIDA O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA QURILISH ISHLARINING BAJARILISHI

### Qurilish ishlari o'sish sur'ati indeksi

#### O'sish sur'ati indeksi yuqori bo'lgan hududlar

Farg'ona	4,7 trln. so'm	121,3%
Surxondaryo	3,6 trln. so'm	109,0%
Samarqand	4,4 trln. so'm	108,2%
Toshkent v.	6,6 trln. so'm	108,1%
Navoiy	3,0 trln. so'm	107,2%
Xorazm	2,5 trln. so'm	107,0%

#### O'sish sur'ati indeksi o'rtacha bo'lgan hududlar

Qashqadaryo	4,0 trln. so'm	105,3%
Buxoro	4,7 trln. so'm	105,1%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,8 trln. so'm	104,1%
Jizzax	1,9 trln. so'm	104,0%


#### O'sish sur'ati indeksi past bo'lgan hududlar

Andijon	3,4 trln. so'm	103,1%
Namangan	3,2 trln. so'm	103,0%
Sirdaryo	1,7 trln. so'm	100,9%
Toshkent sh.	16,3 trln. so'm	100,1%

### Qurilish ishlari bajarilish sur'ati



#### Faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti



#### Qurilish tashkilotlarining yalpi ish hajmidagi ulushi





Surxondaryo yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lib, viloyatda 600 dan ziyod madaniy meros va turizm manzillari bor.

"Neandertal" bola qoldiqlari topilgan Teshiktosh g'ori, Zarautsoy qoyatosh suratlari, Xatak g'ori, Markaziy Osiyoda yagona Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Zurmala buddaviylik ibodatxonalar qoldiqlari, qadimgi Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan hozirgi O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar (Tohariston, Chag'aniyon), islom madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Iso at-Termiziy hamda Al-Hakim at-Termiziy maqbaralari Markaziy Osiyoning sivilizatsiya markazi sifatida Surxondaryo viloyatining salohiyatini aks ettiradi.

Ma'lumot uchun: Davlatimiz rahbarining Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Boysundagi "Boybuloq", "Teshiktosh" va "Machay" g'orlari, Uzundara qal'asini ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish kerakligi, Sheroboddagi "Xatak" g'ori va Zarautsoy qoyatoshiga xorijiy olimlar ekspeditsiyasi jalg etilishi ta'kidlangan edi

Bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida 2,5 mln nafar atrofida o'rta sinf o'quvchilari ta'lim olmoqda. Bu o'quvchilarning 5% ning kuzgi va bahorgi ta'til vaqtlaridagi (10 kun) sayohati 12 ming tashrif buyuruvchilarni ta'minlaydi. Ota-onalarning farzandi bilan birga sayohat qilishi inobatga olinsa, bu miqdor yanada ko'payadi. Shuningdek, konsepsiya qo'shni respublikalar maktab o'quvchilarini jalb etish yuzasidan ham tavsiyalar ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Konsepsiya loyihasini amalga oshirish maktab o'quvchilarining tarixni real voqelik asosida o'rganishini ta'minlab, ularda fanga qiziqish va vatanparlik tuyg'usining ortishiga hissa qo'shadi. Shuningdek, bu viloyat iqtisodiyoti uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratib, turistlar oqimi, ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va aholi daromadlarining ortishiga xizmat qiladi.

# “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini o’rganamiz” turpaketini yaratish va tatbiq etish

## Mavjud salohiyat

Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlariga oid topilmalar:

- ⌚ Teshiktosh g’ori;
- ⌚ Zarautsoy qoyatosh suratlari;
- ⌚ Xatak g’ori.



## Mehanizmlar

Surxondayodagi tarixiy obidalarga o’rta maktab **yoshidagi sayyohlarni jaib qilish** bo'yicha Konsepsiya ishlab chiqish:

- ⌚ Kuz va bahordagi ta’tillarda respublika hamda **Markaziy Osiyodagi o’quvchilar** uchun sayohat tashkil etish;
- ⌚ 6-9 sınıf o’quvchilariga ijtimoiy tadbirkorlik orgali xususiy sektor mablag’larini jaib qilish  
(Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Turizm qo’mitasi, Transport vazirligi, JIV, Hokimiyat, MHT).
- ⌚ Xususiy sektor



## Iqtisodiy natijalar

Eng ichki turist (o’quvchilar)

- ⌚ >12 ming ichki turist (o’quvchilar)
- ⌚ Tashqi turistlar oqimi ko’payadi



## Ijtimoiy natijalar

Xizmatlар hajmi ortади

- ⌚ Hudud aholisining daromadlari oshadi



## Qadimiylik va zamonyavlik uyg’unlashtagan PR kompaniyalari tashkil etish:

- ⌚ Xorijiy mutaxassislarini jaib qilish;
- ⌚ Qadimgi zamonnинг sharoitlarini aks ettiruvchi galogramma va to’ldirilgan vogelik yaratish;
- ⌚ Mashhur sayohat blogerlarini taklif qilish;
- ⌚ Zamonyavlik interaktiv vositalar (*sensor ma'lumotnomalar va boshqalar*) bilan jihatlash;
- ⌚ Respublikaning barcha aeroportlarida Surxondayonni interaktiv reklama qilish (Surxondayodon onlayn vogelikda);
- ⌚ Obidalarning suratlari aks ettirilgan maxsus «suvenir-shirinliklar» ishlab chiqarish.

## I-IV asrlar

Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan

- ⌚ hozirgi Ozbekiston hududidagi ilk davlatlar;
- ⌚ Tohariston (Baqtriya);
- ⌚ Chag’oniyon.



## 750-892 yillar

- ⌚ Abu Iso at-Termiziyy maqbarasi;
- ⌚ Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi.

Tarixiy va tabiiy obyektlarning jahon kinematografiyasida qo’llaniladigan dunyoning diqqatga sazovor joylari bilan o’xshashligi (Boysun Kanyoni = AQSHning Buyuk Kanyoni).



San’at, fan, tarix va madaniyatga bo’lgan qiziqishning ortishi orcali jamiyatda bu soha vakillari soni ortadi.



Tahlil natijalari mazkur davrda mamlakat sanoati jadal rivojlanganini ko'ssatdi. 2017-2022 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 134,2 foizga o'sgan.

Andijon, Namangan, Xorazm, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, investitsiya va tadbirkorlar faoliyatini rag'batlantirish hisobiga sanoat tarmog'ida hududlar kesimida yuqori o'sishga (1,4-1,9 baravar) erishildi.

Mahalliy resurslar va hududlar salohiyatidan samarali foydalinish maqsadida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakllari (erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar, klasterlar) keng joriy etildi. Natijada 2022-yilga kelib, mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishida 2017-2022 yillarda tashkil etilgan 20 ta erkin iqtisodiy zonaning ulushi 4,9% ga, 506 ta klasterning ulushi 5,2% ga, 317 ta kichik sanoat zonasining ulushi 1,2% ga yetdi.

### Hududlar sanoatini transformatsiya va diversifikatsiya qilish borasida erishilgan natijalar:

1. Mamlakatning 10 ta viloyati (Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari) da YaHM tarkibida sanoat tarmog'ining ulushi ortdi.


2. Aksariyat hududlar (Andijon, Jizzax, Xorazm, Farg'on, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo viloyatlari) dagi qayta ishlash sanoatida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning hissasi oshdi.

3. Qoraqlopg'iston Respublikasi, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi yanada diversifikatsiyalashdi.

4. Sanoatning rivojlanish darajasi past bo'lgan Buxoro, Jizzax, Namangan, Xorazm viloyatlarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi respublika miyosidagi parametrga yaqinlashib, hududlararo nomutanosibliklar qisqardi.


Umuman olganda, 2017-2022 yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan samarali islohotlar natijasida hududlarning sanoat salohiyati va raqobatbardoshligi oshdi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, kelgusida hududlar sanoatini rivojlantrish istiqboli sifat o'zgarishini ta'minlashdan iborat bo'lshi lozim.

### 2017-2022 YILLARDA O'ZBEKISTON HUDUDLARI IQTISODIYOTINI SANOATLASHTIRISH TENDENSIYALARI




\* 2017-2022 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi (O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 134,2% ni tashkil etdi).

Sanoat ishlab chiqarish darajasi hududning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'satishchi asosida aniqlandi (mln. so'm)



#### Maxsus iqtisodiy zonalarning sanoatni rivojlantrishiga qo'shgan hissasi (%)



\*\* Ishlab chiqarish sanoatini rivojlantrishga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy hajmida tarmoqning ulushi (2017-2022 yillarda o'rta hisobda).

Manba: PMTning Respublikasi Prezidenti Statistika agentligi ma'lumotlari hisob-kitoblari O'zbekiston huzuridagi hisob-kitoblari



O'rGANISHLAR 2022-yilda xizmatlar sohasining jadal sur'atlarda rivojlanganligini ko'rsatdi. Sohadagi o'sish 2021-yildagiga nisbatan 15,9% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich asosan aloqa va axborotlashtirish, ta'lif, yashash va ovqatlanish, ko'chmas mulk, ijara, transport hamda moliyaviy xizmatlar kabi yo'nalishlardagi sezilarli o'sish (112%-129,5%) hisobiga ta'minlandi.

Toshkent shahri bilan bir qatorda, Namangan, Buxoro, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida ham xizmatlar sohasida yuqori o'sishga erishildi. Butun mamlakatdagi kabi bu hududlarda ham asosan moliyaviy xizmatlar hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga talab yuqori bo'ldi.

Andijon va Sirdaryo viloyatlarida xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rtacha o'sish su'rati (112,5%-113,0%) biroz pasaydi. Bunga mazkur hududlarda savdo va transport xizmatlarining (jami xizmatlar hajmidagi ulushi mos ravishda 50,6% va 38,2%) o'sishidagi sekinlashish sabab bo'ldi.

### Mamlakat hududlarida xizmatlar sohasida qanday tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi?

Birinchidan, 10 ta hududda YaHM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi ortishi ta'minlandi (YaHM tarkibidagi ulushi 2021-yildagi 39,6% dan 2022-yilda 41,5% ga ortdi).

Ma'lumot uchun: Rossiya Federatsiyasida YaIM tarkibida xizmatlarning ulushi 68%, Qozog'istonda 64%, Belarusda 59%, Janubiy Koreyada 60% va rivojlangan davlatlarda 74% dan yuqori.

Hududlararo tafovutlarni (Toshkent shahrini hisobga olmaganda) 2,0 barobardan 1,9 barobargacha qisqartirishga erishildi.

Aksariyat hududlarning (8 ta hudud) respublika bo'yicha xizmatlar hajmidagi ulushi (Toshkent shahrini hisobga olmaganda) ortdi.


### Hududlarda xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi qanday?

Mamlakatning ko'pgina hududlarida (7 ta hudud) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 5-6 mln. so'm oralig'ida bo'lib, Navoiy, Toshkent va Buxoro viloyatlarida bu oraliq 7,9-10,0 mln. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahri 47,2 mln. so'mlik ko'rsatkich bilan bu yo'nalishda ham yetakchi mavqega ega.

Umuman olganda, xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bir tomondan, bandlikni, shu jumladan, o'z-o'zini band qilish va aholi daromadlarini oshirishning asosiy omili hisoblansa, boshqa tomonidan, hududlar iqtisodiy rivojlanishining potensial drayveri bo'lib xizmat qiladi.

## 2022-YILDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDDULARIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI





## 2018-2022 yillarda O'zbekiston hududlarida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ning o'sish dinamikasi

o'qish vaqt  
73 soniya

So'nggi besh yil davomida mamlakatning hududlar bo'yicha olib borayotgan siyosati doirasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni hal etishda e'tiborni viloyat darajasidan shahar, tuman va mahallalarga, xususan, ularning mavjud salohiyati, istiqboli va o'sish nuqtalarini baholashga qaratish bu davrdagi siyosatning o'ziga xos xususiyati bo'ldi.

2018-2022 yillarda mamlakatimizning 8 ta viloyatida jadal iqtisodiy o'sish ta'minlangani (YaHMning o'sishi 131,9-154,4%) islohotlarning yaxshi natija berayotgani dalilidir.

Birinchidan, Andijon, Toshkent, Navoiy viloyatlarida pandemiyadan keyingi davrda (2021-2022) qisqa muddatda iqtisodiy rivojlanishda barqarorlik ta'minlandi.


Ikkinchidan, tayyor to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak, rezina va plastmassa, qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, hamda o'rta yuqori texnologiyali faoliyat (elektron va optik qurilmalar, elektr jihozlari ishlab chiqarish, ta'lif, axborot-kommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirish va boshqalar.) tufayli Namangan, Farg'ona, Jizzax viloyatlarining iqtisodiy o'sishida (YaHMning o'sishi 1,3 barobarni tashkil etdi. Bu respublika ko'rsatkichidan yuqori) sezilarli natijalarga erishildi.

Hududlarda YaHMning o'sishiga qaysi tarmoqlar sezilarli hissa qo'shdi?

- Andijon, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida YaHM o'sishini ta'minlashda sanoat sektori (YaHMning o'rtacha yillik o'sishini tahlil qilish asosida) sezilarli ahamiyatga ega bo'ldi;
- Buxoro, Jizzax viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida YaHMning o'sishida qishloq xo'jaligi o'z ustunligini saqlab kelmoqda;
- Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlarida YaHM o'sishini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi yetakchi tarmoq sifatida qayd etildi.

Umuman olganda, Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi da milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning maqsadlaridan biri sifatida hududi iqtisodiyot hajmini 1,4-1,6 baravar oshirish belgilangan. Bu, o'z navbatida, hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash, shahar va tumanlarning rivojlanishini rag'batlantirish, urbanizatsiya siyosatini takomillashtirish, hamda mahalla institutini yanada kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

2018-2022 YILLARDA O'ZBEKISTON HUDUDLARI BO'YICHA YALPI HUDDUDIY MAHSULOTNING O'SISHI





hunga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida respublikada 107,8 trln. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilgan. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 105,6 foizni tashkil etgan.

O'sish sur'ati indeksidan foydalaniłgan holda qurilish ishlaring rivojlanishi bo'yicha hududlar reytingi ishlab chiqildi. U hududiy kompleksning joriy darajasini aniqlash va faoliyini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan.

2023-yilning 9 oyi uchun ishlab chiqilgan hududlar reytingi tarmoqning hududlar bo'yicha rivojlanishida bir qancha o'ziga xos jihatlarni aniqladi.

Xususan, Farg'ona (112,7 foiz), Qashqadaryo (109,0 foiz), Toshkent (107,3 foiz), Samarcand (107,0 foiz) va Navoiy (106,2 foiz) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida o'sish sur'ati indeksining yuqori darajasiga erishildi. Bu esa qurilish ishlaring jadal rivojlanishini ta'minladi. Natijada mazkur hududlarga reytingda yuqori o'rirlarni egallash imkonini berdi (1-6-o'rinalar).

Namangan (105,5 foiz), Surxondaryo (105,3 foiz) va Jizzax (105,0 foiz) viloyatlarida (7-9 o'rin) indeksning o'rtacha darajasi aniqlandi.

Andijon (104,0 foiz), Buxoro (102,9 foiz) va Xorazm (102,9 foiz) viloyatlarida qurilish ishlari dinamikasi indeksi past ko'satkichlarga ega (10-12-o'rin) ekani ma'lum bo'ldi.

Sirdaryo viloyati (100,3 foiz) va Toshkent shahri (100,2 foiz) ushbu faoliyat yo'nalishidagi vazifalarni hal etishda yetarlicha faollik ko'satmagan va shu bois reytingda so'nggi 13-14-o'rirlarni egalladi.





Tahlil davomida quyidagi natijalar olindi:

- 1) 2015-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston bo'yicha AKT rivojlanishining yig'ma indeksi 5,55 dan 6,20 gacha ko'tarilgan.
- 2) Yetakchi o'rnlarni (TOP-3) Toshkent sh. (indeks qiymati – 8,92), Navoiy (6,78) va Samarqand (6,39) viloyatlari egalladi.
- 3) Indeksning eng past qiymati Sirdaryo (5,39), Surxondaryo (5,13) va Jizzax (5,10) viloyatlarida qayd etildi.

Indeks qiymati bo'yicha eng katta o'sish Samarqand viloyatida (+1,00) kuzatildi va u 2015-yildagi 6-o'rindan 2022-yilda 3-o'ringa, ya'ni 3 pog'ona ko'tarildi. Shu bilan birga, hududiy indeksning rivojlanishiga "AKTdan foydalanish imkoniyati" (ko'rsatkich 5,72 dan 7,3 ga o'sdi) va "AKTdan foydalanish darajasi" (3,9 dan 5,2 ga) guruhlari katta hissa qo'shdi.

Indeks 11 ta ko'rsatkichdan iborat bo'lib, ular 3 ta guruhga ajratilgan: «AKTdan foydalanish imkoniyati», «AKTdan foydalanish darajasi» va «AKTdan foydalanish ko'nikmalari».

«AKTdan foydalanish imkoniyati» guruhi 5 ta, «AKTdan foydalanish darajasi» va «AKTdan foydalanish ko'nikmalari» guruhlari 3 tadan ko'rsatkichni jamlagan.

AKT sohasini yanada rivojlantirish va global talablarga javob beradigan zamонавиј IT-infratuzilmasini yaratish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: xususiy kapitalni keng jalb qilish hisobiga raqamli infratuzilmani moliyalashtirishni oshirish; IT-sohada ta'lim va kadrlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

IT-innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish.

mamlakat bozoriga yirik xalqaro IT-kompaniyalar va investorlarni jalb qilish maqsadida litsenziyalangan raqamli mahsulotlar va yechimlardan foydalanish muhiti va madaniyatini shakllantirish.



Tahlil davomida IPI (Investment Performance Index - Investitsiyalarni jalg qilish samaradorligi indeksi) indeksidan foydalanildi. Ushbu indeks hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi hududning respublika taraqqiyotiga qo'shayotgan ulushiga qanchalik mos ekanligini ko'rsatadi. IPI indeksi uchun me'yordagi ko'rsatkich 1,00 ga teng va bu hududning barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalg qilish siyosati yaxshi yo'lga qo'yilganini anglatadi.

2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida Respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 226,6 trln. so'mga yetgan. Bu o'tgan yilning mos davridagiga qaraganda 11,8 foiz ko'p. Bu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 16,3 foiz o'sgan va 91,8 trln. so'mga teng bo'lgan.

Shunga qaramasdan, hududlar miqyosida investitsiyalarning taqsimlanishida tafovutlar kuzatilmogda. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha Xorazm viloyati va respublika miqyosidagi o'rtacha qiymatlar orasidagi farq joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida qariyb 2,7 baravarni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha esa 2,5 baravarni tashkil etdi.

IPI indeksiga ko'ra, asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha Sirdaryo (2,00) va Buxoro (1,67) viloyatlarida indeks qiymati me'yordagidan ancha yuqori bo'lgan. Bunga investorlar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi hamda strategik ahamiyatga ega mega

loyihalarning vaqtinchalik ta'sirini sabab sifatida keltirish mumkin. Qashqadaryo (1,00) va Farg'ona (1,00) viloyatlarida me'yordagi ko'rsatkich, aksariyat viloyatlarda esa unga yaqin qiymatlar qayd etilgan.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha Farg'ona (0,96) va Xorazm (0,95) viloyatlarida IPI indeksi me'yordagiga yaqin ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Sirdaryo (3,93), Buxoro (1,78), Jizzax(1,64) va Toshkent(1,52) viloyatlarida me'yordagidan yuqori bo'ldi. Bu esa mazkur viloyatlarga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yuqori bo'lsada, ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Toshkent shahri (0,67) va Xorazm viloyati (0,68) da indeks 1 dan ancha past bo'ldi. Bu esa ushbu hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga ko'proq e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.


Takidlash kerakki, IPI indeksi hududlar miqyosida investitsiyalarning miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan bo'lib, ularning sifat ko'rsatkichlarini anglatmaydi.

# 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha investitsiyalarni jalg qilish samaradorligi indeksi

Asosiy kapitalga investitsiyalar  
uchun IPI indeksi



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar  
va kreditlar uchun IPI indeksi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistikika agentligi ma'lumotlari asosida

\*IPI indeksi uchun meyordagi ko'rsatkich 1,00 ga teng va bu hududning barcharor rivojanishi uchun investitsiyalarni jalg qilish siyosati yaxshi yilga qo'shilganini anglatadi.



**Yondashuv.** Shaharlarda yashash qulayligi yig'ma indeks asosida baholanib, indeks milliy statistik ko'satkichlar doirasida, Global Liveability reytingi metodologiyasi asosida ishlab chiqildi.

**Ma'lumot uchun:** Economist Intelligence Unit nashri har yili dunyo shaharlari bo'yicha «Yashash uchun qulay shaharlar» (Global Liveability) reytingini e'lon qiladi.

Indeksni shakllantirishda ta'lif, sog'liqni saqlash, infratuzilma, barqarorlik, madaniyat va atrof-muhit yo'nalishlarida jami 27 ta miqdoriy hamda sifat ko'satkichidan foydalanildi.

Reyting respublikaning aholisi soni 40 ming kishidan ortiq bo'lgan 30 ta shahri uchun ishlab chiqildi.

**Natijalar.** Natijalarga ko'ra, respublikadagi yashash uchun eng qulay shaharlarning kuchli beshtaligidan Toshkent (100 balli tizimda reyting bali 79,1), Urganch (76,0), Buxoro (75,4), Samarqand (70,6) va Navoiy (68,1) shaharlari o'rinnegalladi. Ro'yxatning eng quyi beshtaligidan Bekobod (35,3), Xonobod (35,3), Yangiyer (33,5), Ohangaron (32,9) hamda Quvasoy (26,4) shaharlari joy oldi.

Reyting bo'yicha yashash qulay bo'lgan shaharlар o'ntaligidagi shaharlarning barchasi viloyat markazlaridir. Reyting pog'onalari bo'yicha ulardan keyingi o'rirlarni Qo'qon (13-o'rin), Xiva (14-o'rin) va Chirchiq (16-o'rin) kabi shaharlар egalladi.

### Yo'nalishlar bo'yicha yetakchi shaharlar:

**Ta'lif hamda tibbiyot:** Buxoro, Guliston va Urganch.

**Infratuzilma:** Urganch, Navoiy va Toshkent. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik: Toshkent, Urganch va Guliston.

**Madaniyat va atrof-muhit:** Toshkent, Buxoro va Samarqand.

**Xulosa** ornida aytish mumkinki, reytingni amaliyatga joriy etish natijasida respublika shaharlarning umumiy holatini bir necha yo'nalishlar bo'yicha doimiy monitoring qilib borish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, reytingni takomillashtirish doirasida har bir yo'nalish bo'yicha mavjud muammoli sohalar aniqlanib, ularni bartaraf etish hamda kelgusidagi iqtisodiy rivojanishga to'siq bo'luvchi omillarni kamaytirish mumkin. ■

## Shaharlarning yashash uchun qulayligi reytingini tuzishda foydalanilgan ko'satkichlar

Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik	Sog'liqni saqlash	Madaniyat va atrof-muhit	Ta'lif	Infratuzilma
Migratsiya oqimining aholi soniga nisbati	Har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi koykalar soni	Jon boshiga to'g'ri keluvchi ifloslantiruvchi moddalar	Maktabgacha ta'lif qamrov darajasi	Markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi
Tuzilgan nikohlar va ajrimlar nisbati	Har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi tibbiyot xodimlari soni	Mehmonxonalardagi o'rinalar soni	Ta'lif muassalarida o'qituvchiga to'g'ri keluvchi o'quvchi (talabalar) soni	Tabiiy gaz ta'minoti bilan ta'minlanganlik darajasi
Har ming aholiga to'g'ri keluvchi tadbirkorlar soni	1 yoshgacha bolalar o'limi (har 1000 nafar tirik tug'ilgan bolaga nisbatan)	Dam olish maskanlari, sanatory va shihatgohlar sig'imi	Nodavlat umumiy o'rta ta'lifdan foydalanish imkoniyatlari	Har 10 000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi ovqatlanish va savdo-sotiq obyektlari soni
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi xizmatlar va chakan savdo aylanmasi		Xizmat ko'satuvchi turoperatorlar soni	OTM ga kirishda abiturientlarning o'rtacha to'plagan ballari	Temiryo'l transportidan foydalanish imkoniyati
		Teatrlar va kinoteatrlar soni		Havo transportidan foydalanish imkoniyati
		Arxitektura yodgorliklari va diqqatga sazovor joylar soni		

# O'ZBEKISTON SHAHARLARINING YASHASH UCHUN QULAYLIK REYTINGI

Umumiy reyting	Shaharlar	Reyting o'rni				
		Ta'lim bo'yicha reyting	Sog'ligni saqlash bo'yicha reyting	Infratuzilma bo'yicha reyting	Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bo'yicha reyting	Madaniyat va atrof-muhit bo'yicha reyting
1	Toshkent	4	12	3	1	1
2	Urganch	3	1	1	2	12
3	Buxoro	1	3	5	10	2
4	Samarqand	6	6	4	12	3
5	Navoiy	9	4	2	4	11
6	Guliston	2	2	6	3	16
7	Namangan	7	7	13	14	5
8	Farg'ona	5	5	7	16	9
9	Andijon	19	8	18	13	4
10	Qarshi	10	9	14	8	6
11	Termiz	16	11	11	6	7
12	Jizzax	8	10	12	7	17
13	Qo'qon	17	16	15	20	8
14	Xiva	12	30	19	17	10
15	Nukus	13	26	10	26	14
16	Chirchiq	14	22	8	30	18
17	Kogon	11	24	9	18	22
18	Yangiyo'l	22	14	16	11	23
19	Marg'ilon	26	28	20	21	15
20	Shahrisabz	18	21	29	28	13
21	Kattaqo'rg'on	24	20	17	23	21
22	Olmaliq	25	17	22	15	26
23	Zarafshon	30	23	26	9	24
24	Nurafshon	23	18	28	5	28
25	Angren	20	25	23	22	20
26	Bekobod	15	19	25	24	27
27	Xonobod	29	27	24	29	19
28	Yangiyer	28	13	27	27	25
29	Ohangaron	27	15	21	19	30
30	Quvasoy	21	29	30	25	29



Eng faol hududlar: Ovoz berish jarayonida Qashqadaryo (47 foiz), Farg'ona (45,8 foiz) va Navoiy (39,7 foiz) viloyatlarida istiqomat qiluvchi fuqarolar juda faol ishtirok etgani aniqlandi. Tuman darajasida esa g'olib loyihalar orasida Yakkabog', O'zbekiston, Uchko'priq, Chiroqchi, Koson tumanlaridagi loyihalarini amalga oshirish uchun eng ko'p ovoz to'planganini ma'lum bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** Ovoz berish natijalariga ko'ra, maktablarni ta'mirlash va jihozlash fuqarolar uchun eng muhim masala ekanini ma'lum bo'ldi. Bu yo'naliishdagi loyihalar uchun jami 4,7 millionta ovoz (jami ovozlarning 39,2 foizi) to'plangan. Mazkur loyihalarga tashabbusli byudjet uchun ajratilgan mablag'ning 42 foizi (1,18 trillion so'm) yo'naltirilgan. Ustuvorlik darajasi bo'yicha keyingi o'rinnlarda ichki yo'llarni ta'mirlash (3,7 millionta), sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash (1,4 millionta) hamda maktabgacha ta'lim muassasalarini (MTM) holatini yaxshilash (465 mingta) bo'yicha takliflar joy olgan.

**Eng dolzarb sohalar:** Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash, ichki yo'llarni ta'mirlash, sog'liqni saqlash muassasalarini holatini yaxshilash tadbirlari tashabbusli budgetlashtirish loyihalaridagi eng asosiy yo'naliishlar bo'lib, g'olib loyihalarga berilgan umumiyo ovozlarining 81,3 foiziyanan shu sohalarga tegishli:

- umumta'lim maktablari holatini yaxshilash uchun to'plangan ovozlar soni bo'yicha Namangan (hududiy ovozlarning 63,1 foizi), Buxoro (54,9 foiz) viloyatlari va Toshkent shahri (61,6 foiz) yetakchilik qilgan. Bu yo'naliishdagi masalalar boshqa hududlarda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan holda yuqori ulushga ega bo'lgan.

- g'olib loyihalar to'plagan umumiyo ovozlarning 30,6 foizi fuqarolar tomonidan ichki yo'llarni ta'mirlash uchun berilgan. Bu yo'naliishda Qashqadaryo (hududiy ovozlarning 65,8 foizi), Farg'ona (44,3 foiz) va Toshkent (36,2 foiz) viloyatlari eng ilg'or hududlar sifatida qayd etilgan.

- sog'liqni saqlash muassasalarini holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalar uchun berilgan ovozlar umumiyo ovozlarning 11,6 foizini tashkil etib, Toshkent shahri (22,9 foiz), Navoiy (20,5 foiz) va Buxoro (19,8 foiz) viloyatlari bu sohada yetakchilik qilgan.

#### Sohalar kesimida eng faol tumanlar:

- umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha Namangan shahri, Yangiqo'rg'on, Qo'shko'pir, Asaka va Pop tumanlari (ovozlar soni 86,4 mingtadan 124,9 mingtagacha);
- ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha Yakkabog', Koson, Chiroqchi, Oltinsoy va O'zbekiston tumanlari (124 mingtadan 213 mingtagacha)
- sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo'yicha Samarqand, Buxoro, Namangan, Navoiy va Urganch shaharlari (29,4 mingtadan 94,3 mingtagacha)

#### Eng faol mahallalar:

- eng faol mahallalar Qashqadaryo, Farg'ona va Namangan viloyatlarida ekanligi ma'lum bo'ldi;
- Yakkabog' tumanidan "Darxon" (87,1 mingta ovoz), "Yangi hayot" MFY (80,4 mingta) hamda Uchko'priq tumanidagi "Katta Qashqar" MFY (46 ming) mahallalari eng ko'p ovoz to'plagan;
- Shahrisabz tumanidagi "Xitoy" mahallasi 6 ta, Norin tumani "Bo'ston" mahallasi 5 ta, Yakkabog' tumani "Darxon" va "Yangi hayot" mahallalari 4 tadan loyihada g'olib bo'lgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tashabbusli budget loyihalari uchun to'plangan ovozlar ushbu hududda mavjud muammolarning nechog'lik dolzarb ekanini ko'rsatish bilan birga, aholining mavjud muammolarga befarq emasligini ham tasdiqlaydi. Umuman olganda, so'nggi yillarda tashabbusli budgetlashtirish aholini budget mablag'larini taqsimlash jarayoniga jaib etish orqali muhim ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini beruvchi moliyaviy dastakka aylanib bormoqda.



2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha respublikada umumiy hajmi 68,1 trln. so'mga teng bo'lgan qurilish ishlari amalga oshirilgan. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 104,8 foizni tashkil etdi.

O'sish sur'ati indeksidan foydalangan holda qurilish ishlari rivojlanishi bo'yicha hududlar reytingi ishlab chiqildi.

Hududlar reytingida yetakchi o'rinalar (1-6 o'rinalar) ni egallagan Farg'ona (121,3 foiz), Surxondaryo (109,0 foiz), Samarqand (108,2 foiz), Toshkent (108,1 foiz), Navoiy (107,2 foiz) va Xorazm (107,0 foiz) viloyatlari tegishli tashkiliy-texnik tadbirlarni tizimli amalga oshirish hisobiga qurilish ishlari rivojlanishi jadal bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo (105,3 foiz), Buxoro (105,1 foiz) va Jizzax (104,0 foiz) viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida (104,1 foiz) (7-10 o'rinalar) indeksning o'rtacha darajasi aniqlandi.

Andijon (103,1 foiz), Namangan (103,0 foiz) va Sirdaryo (100,9 foiz) viloyatlari qurilish ishlari o'sish sur'ati indeksi past ko'satkichlarga (11-13 o'rinalar) ega.

Tahlil poytaxtimiz Toshkent shahrida o'sish sur'ati (100,1 foiz) sekinlashganligini ko'satdi va u reytingda 14-o'rinni egalladi.

O'zbekistonda yaratilgan qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhiti, shuningdek, katta imkoniyatlarning mavjudligi sohaning yanada samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishiga ko'mak beradi.

## 2023-YILNING YANVAR-IYUN OYLARIDA O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA QURILISH ISHLARINING BAJARILISHI

### Qurilish ishlarinin o'sish sur'ati indeksi

O'sish sur'ati indeksi yuqori bo'lgan hududlar		
Farg'ona	4,7 trln. so'm	121,3%
Surxondaryo	3,6 trln. so'm	109,0%
Samarqand	4,4 trln. so'm	108,2%
Toshkent v.	6,6 trln. so'm	108,1%
Navoiy	3,0 trln. so'm	107,2%
Xorazm	2,5 trln. so'm	107,0%

### O'sish sur'ati indeksi o'rtacha bo'lgan hududlar

Qashqadaryo		
4,0 trln. so'm		105,3%
Buxoro	4,7 trln. so'm	105,1%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,8 trln. so'm	104,1%
Jizzax	1,9 trln. so'm	104,0%

### O'sish sur'ati indeksi past bo'lgan hududlar

Andijon		
3,4 trln. so'm		103,1%
Namangan	3,2 trln. so'm	103,0%
Sirdaryo	1,7 trln. so'm	100,9%
Toshkent sh.	16,3 trln. so'm	100,1%

### Qurilish ishlarinin bajarilish sur'ati



### Faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti



### Qurilish tashkilotlarining yalpi ish hajmidagi ulushi



**2017-2022 yillarda Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid asosiy ko'rsatkichlar  
(o'sish sur'atlari taqqoslangan narxlarda)**

**Yalpi hududiy mahsulot  
(YaHM)**

2017-yil 49,3 mlrd. so'm

147,4 mlrd. so'm

2022-yil

1,7  
marta



**Sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish**

2017-yil  
34,1 mlrd. so'm

107,3 mlrd. so'm

2022-yil

1,6  
marta



**Eksport hajmi**

2017-yil  
2,7 mlrd. AQSh doll.

1,8  
marta

2022-yil

4,6 mlrd. AQSh doll.



**Investitsiyalarni  
o'zlashtirish**

2017-yil  
13,4 mlrd. so'm

56,7 mlrd. so'm

2022-yil

2,4  
marta



**Qurilish  
ishlarini**

2017-yil  
6,2 mlrd. so'm

2,8  
marta

2022-yil

31,9 mlrd. so'm



**Xizmat  
ko'rsatish**

2017-yil  
38,4 mlrd. so'm

137,4 mlrd. so'm

2022-yil

2,3  
marta



**Chakana  
savdo**

2017-yil  
23,6 mlrd. so'm

1,64  
marta

2022-yil

82,0 mlrd. so'm





Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar uchun asos yaratgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi keyingi 6 yilda hududlarni uzlusiz rivojlantirishning muhim mexanizmi bo'ldi.

Ushbu davrni mamlakat va uning hududlari taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqich deyish mumkin: makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atli ta'minlanmoqda, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga tarmoqlarning samaradorligi va raqobatbardoshligi oshdi.

Mazkur strategik hujjatni amalga oshirish doirasida Toshkent shahrida ham ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida sezilarli ijobiy natijalarga erishildi.

Belgilangan amaliy chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tufayli 2017-2022 yillarda Toshkent shahrida iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlari ta'minlandi. Jumladan:

- yalpi hududiy mahsulot (YaHM) 1,7 marotaba (147,4 trln. so'm);
- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,6 marotaba;
- chakana savdo 1,65 marotaba;
- xizmat ko'rsatish 2,3 marotaba;

qurilish ishlari 2,8 marotaba;  
investitsiyalarni o'zlashtirish 2,4 marotaba;  
eksport hajmi 1,8 marotaba oshdi.

Tadqiqot davomida quyidagi tarmoqlar sanoat va xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy «drayver»lari ekanligi aniqlandi:  
sanoat: oziq-ovqat, elektrotexnika, kimyo, qurilish materiallari, metallurgiya, farmatsevtika, to'qimachilik;  
xizmatlar: savdo, moliya, transport, aloqa va axborotlashtirish, turizm, qurilish va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar.

Inson kapitali, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmatlar, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish hisobiga islohotlar izchilligi va barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Toshkent shahri iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.





**2023-yilning II choragi uchun Olx.uz platformasida taklif etilayotgan uy-joy narxlari hududlar bo'yicha guruhlab chiqildi**

o'qish vaqt  
33 soniya

Viloyatlar bo'yicha uy-joyning har bir kvadrat metri uchun narxlari 10 guruhga ajratildi. Narxlari eng arzon hududlar birinchi guruhga (har bir kvadrat metr uchun 390 dollardan), eng qimmatlari esa o'ninchisi guruhga kiritildi (bu guruhda uy-joyning har bir kvadrat metri uchun 1251,69 dollargacha narx kuzatilgan). Har bir guruh 86,15 dollarlik narx oralig'ini ifodalaydi.

2023-yilning II choragida hududlar orasida eng yuqori o'rtacha narx Toshkent shahrida qayd etildi, ya'ni 1251,69 AQSh dollari. Shu bois u narx segmentatsiyasi bo'yicha eng yuqori 10-guruhga kiritildi. Samarqand shahri (753,03 AQSh dollari) narx segmentatsiyasi bo'yicha 6-guruhdan o'rinni oldi. O'rtacha narxlari pastroq bo'lgan Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Buxoro, Farg'onasi, Qashqadaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari 2-guruhdan joy oldi. Respublika bo'yicha eng minimal narx Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatildi.

Toshkent shahri, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi	O'rtacha narx	Narx bo'yicha segmentlangan guruh
Toshkent shahri	\$1,251.69	10
Samarqand	\$753.03	6
Toshkent	\$695.25	5
Navoiy	\$583.55	4
Namangan	\$470.91	2
Jizzax	\$464.21	2
Surxondaryo	\$455.77	2
Buxoro	\$454.60	2
Farg'ona	\$444.84	2
Qashqadaryo	\$443.78	2
Sirdaryo	\$436.73	2
Xorazm	\$397.03	2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	\$390.10	1



Uy-joyga kiritiladigan investitsiyadan olinadigan daromad ikki qismga bo'lindi, ya'ni uy-joy narxining oshishi (tushishi) keltiradigan foyda (zarar) va uy-joyni ijaraga berishdan olinadigan daromad.

**Ma'lumot uchun:** Hisob-kitoblarni amalga oshirishda Jordà va boshqalarning (2019) metodologiyasidan foydalanildi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, 2023-yilning avgust oyida uy-joy o'rtacha narxining o'tgan yil avgust oyidagiga nisbatan eng yuqori o'sishi Yunusobod (37,1 foiz) va Mirzo Ulug'bek (35,7 foiz) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, nisbatan pastroq o'sish Sergeli (27,8 foiz) va Olmazor (24,4 foiz) tumanlarida kuzatildi. Bundan tashqari, ko'chmas mulk egalarining uylarini ijaraga berishidan (uy qiymatiga nisbatan) olinadigan daromad bo'yicha, Mirzo Ulug'bek (12 foiz) va Chilonzor (10,6 foiz) tumanlarida eng yuqori daromad olinayotgan bo'lsa, nisbatan pastroq daromad Sergeli (8,5 foiz) va Uchtepa (8,2 foiz) tumanlarida olinayapti.

**Ma'lumot uchun:** Agar 2023-yilning sentyabr oyida Global Property Guide nashri tomonidan 58 ta davlat uchun e'lon qilingan uy-joyni ijaraga berishdan olinadigan o'rtacha daromad reytingiga Toshkent shahri (10 foiz) qo'shilganida, Gruziyadan (12,4 foiz) keyin 2-chi o'rinni egallagan bo'lardi.

Mazkur reytingda Gruziyadan keyingi o'rnlarni Janubiy Afrika Respublikasi (9,9 foiz), Irlandiya (8,1 foiz), Puerto-Riko (8,1 foiz), Latviya (7,8 foiz), Kolumbiya (7,7 foiz), Morakash (7,6 foiz), Indoneziya (7,6 foiz) va Litva (6,7 foiz) davlatlari egallagan.

Tumanlar va uylar bo'yicha ko'pqavatli uylardagi xonodonlar narxining o'zgarishidan olinadigan foyda va ijara daromadlarining birgalikdagi ta'siri baholanganda 2 va 3 xonali turar joylar investitsiyalarning daromadlilik nuqtai nazaridan istiqbolli bo'lib chiqdi. Bunday uy-joylar ijarasidan kelayotgan daromadning o'zi o'rtacha 10 foizni tashkil etmoqda.

Xuddi shu davr mobaynida muddati bir yildan ortiq bo'lgan xorijiy valyutadagi bank depozitlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2022-yilning avgust oyidagi 4,3 foizdan 2023-yilning avgust oyida 5,5 foizga oshgan.

**Xulosa:** Uy-joy narxlari oshib borayotgan sharoitda ijaradan kelayotgan daromadning jazibadorligi aholi jamg'armalarining ko'chmas mulkka yo'naltirilishini yanada rag'batlantiradi. Bu esa uy-joyga bo'lgan talabni yanada oshirib, ular narxining yanada qimmatlashishiga olib kelishi mumkin.

### **Batafsil**

#### **Ko'pqavatli uylarning daromadliligi**





2023 yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'rtacha ta'mirlangan uy-joy ijarasi tushishda davom etgan bo'lса, to'liq ta'mirlangan uylar uchun ijara narxlari biroz ko'tarilish kuzatilgan.


Noyabr oyida o'rtacha ta'mirlangan xonodonlar uchun taklif etilgan ijara narxlari o'tgan oyga nisbatan o'rtacha 0,7% ga pasaygan.

Noyabr oyida o'rtacha ta'mirlangan uylar guruhida 1-xonali xonodonlar uchun taklif etilgan ijara narxlari oktyabr oyiga nisbatan o'rtacha 0,4% ga oshib, \$401 ni tashkil etgan. Mazkur davrda 2-xonali xonodonning ijara narxlari (\$452) 0,8% ga tushgan bo'lса, 3-xonali uylarning ijara narxlari (\$519) 0,9% ga arzonlagan. 4-xonali uylar ijara narxlari (\$590) esa 1,3% ga pasaygan.

Noyabr oyida to'liq ta'mirlangan guruhdagi uylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlari 0,2% ga oshgan.

Xususan, shahar bo'yicha 1-xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari (\$492) 0,5% ga oshgan bo'lса, 3-xonali (\$786) va 4-xonali (\$907) uylar uchun ushbu ko'satkich mos ravishda 0,1% va 0,4% ni tashkil etgan. Lekin, 2-xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari 0,3% ga arzonlab, \$664 ni tashkil etgan.

Ijara narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi. Bunda oktyabr oyi uchun 42.4 ming va noyabr oyi uchun 40.6 mingta ma'lumotlardan foydalanildi.





Natijalar, narxlар noyabr oyida oktyabr oyidагига qaraganda 2% ga oshganligini ko'rsatdi. Dekabr oyida esa narxlар 3,2% ga oshgan.

E-notarius ma'lumolariga ko'ra 4-chorak davomida Toshkent shahrida 33 194 ta uy-joy oldi-sotdi sharhnomasi imzolangan. Narxlар chorak davomida Shayxontohur tumanida о'rтacha 7,1%, Chilonzor tumanida 4%, Yunusobod tumanida 3,8%, Uchtepa, Yakkasaroy, Yashnabod va Olmazor tumanlarida 2%, Sergeli va Mirobodda 1% va Mirzo Ulug'bek tumanida 0,5% ga oshgan.

Mirobod (1326 \$), Yakkasaroy (1195 \$), Mirzo Ulug'bek (1174 \$) va Yunusobod (1128 \$) tumanlarida uy-joyning bir kvadrat metri uchun narxlар Toshkent shahri bo'yicha о'rтacha narxdan (1088 \$) yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot davomida narxga tasir qiluvchi asosiy omillar ham o'rganildi. Bunda Supervised machine learning toifasiga kiruvchi decision tree uslubi va shu oilaga kiruvchi bagging hamda random forest usullaridan foydalanildi.

Natijalarga ko'ra, arzon segmentda ham, qimmat segmentda ham xonodon maydoni kattaligi narxni belgilovchi asosiy omil bo'lib qolmoqda. Buni shahar sharoitida yer uchastkasi narxining yuqoriligi bilan izohlasa bo'ladi, ya'ni xonodon tannarxida yer xarid qilishga ketgan xarajat eng katta o'rн tutadi.

Arzon segmentda xonodon joylashgan qavat narxning oshishiga ta'sir qiluvchi boshqa asosiy omil ekani oydinlashdi. Chunki bu segmentdagi uylar asosan eski va liftlar bilan jihozlanmagan. Boshqa tarafdan yuqori qavatlarga suv va issiqlik ta'minoti yetib borishi bilan bog'liq muammolar ham xonodon narxiga ta'sir etmoqda. Keyingi o'rnlarda narxga xonodonning yangi qurilganligi va ta'mirlanganlik holati ta'sir etmoqda.

Qimmat segmentda esa xonodonning maxsus agentlik yoki xonodon egasining o'zi tomonidan sotilayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lgandi. Buni maxsus agentliklar ko'proq qimmat xonadolar oldi-sotdisida ishtirok etishi va ustama haqqining mavjudligi bilan izohlash mumkin. Undan keyingi o'rnda mebel bilan jihozlanganligi, komissiya olinishi, yangi qurilganligi kabi omillar turishi aniqlandi. Xonodon joylashgan qavat eng oxirgi o'rnlarda turishini bu segmentning liftlar bilan ta'minlanganligi va kommunal ta'minotida muammolar kamligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa sifatida aytganda, yangi qurilayotgan xonodonlar xaridolarga ko'pincha «quti» ko'rinishida yoki ta'mortalab holatda topshirilayotganligi inobatga olinsa, xonodon tannarxida yer va ruxsat olish bilan bog'liq xarajatlar salmog'i kattaligi ma'lum bo'ladi. Chunki, uy fasadi, kirish yo'lagi, lift qulayliklaridan hamma birdek foydalanadi va to'lovdagи farq ko'p hollarda xonodon maydoni hisobiga yuzaga kelmoqda. Tegishli ravishda, yer va ruxsat olish bilan bog'liq boshqa to'lovlarни kamaytirish xonodonlar narxining pasayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bunday xarajat va xonodonlar narxi о'rtaсидаги bog'liqlik Amerika Qo'shma Shtatlarida kuzatilgan. Undan tashqari, qurilish materiallari narxini arzonlashtirish bilan bir qatorda, xaridor va sotuvchilarni birlashtiradigan portallar yaratish orqali vositachilik xarajatlarini kamaytirish ham xonodonlar narxini tushirishda ko'maklashadi.


Ta'kidlash kerakki, 2023-yilning 26-yanvaridan Qozog'istonда kuchga kirgan yangi immigratsiya qoidalariga ko'ra, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirgan mamlakatlarning fuqarolari uchun har 180 kunda faqat 90 kun turishga ruxsat beriladi. Mobilizatsiya e'lon qilingandan keyin o'tgan yil oxirigacha rossiyalik 36 ming fuqaro Qozog'istonga vaqtinchalik joylashgan. Tegishli ravishda, qo'shni davlatlardagi bunday o'zgarishlar O'zbekistonдagi ko'chmas mulk bozoriga ta'sir etmasdan qolmaydi.

## Toshkent shahrida xonodon narxlariiga ta'sir qiluvchi omillar

Arzon segmentdagi uylar uchun (narxi shahar bo'yicha o'rtachadan past)



Qimmat segmentdagi uylar uchun (narxi shahar bo'yicha o'rtachadan yuqori)





## 2022-yil dekabr oyida Toshkent shahrida xonadonlar uchun taklif etilayotgan ijara narxlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi

o'qish vaqt  
42 soniya

Natijalar xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxi noyabr oyidagiga nisbatan oshgan, lekin oshish sur'ati sekinlashganini ko'rsatdi. Xususan, noyabrdan narxlar oktyabr oyidagiga qaraganda 4,4% ga tushgan, ammo dekabrda 3,5% ga oshgan.


Narxlari Shayxontohur (10,6%), Mirobod (3,5%), Yunusobod (3,3%), tumanlarida oshgan. Boshqa tumanlarda esa pasayish kuzatilgan.

«Oybek», «Toshkent», «Minor», «Buyuk ipak yo'li» metro bektatlari atrofida va Nukus ko'chasi bo'ylab joylashgan, yaxshi ta'mirlangan xonadonlar uchun 1000 AQSH dollaridan yuqori ijara narxlarini taklif qilinmoqda. Chilonzor va Yunusobod tumanlarida ijara narxlarini nisbatan pastroq, aniqrog'i ta'mirlangan xonadonlar uchun asosan 400-600 AQSH dollarini atrofida ijara narxlarini taklif etilmoqda.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar taklifi nisbatan kamroq bo'lib, ular asosan Chilonzor va Yunusobod tumanlarida, shuningdek, Mirzo Ulug'bek shoh ko'chasi bo'ylab taklif etilmogda. Bu yerdagi xonadonlarning ijara narxi asosan 300-800 AQSH dollarini tashkil etadi.

Ta'kidlash kerakki, ijaraga beriladigan qimmat segmentdagi xonadonlar odatda vaqtinchalik ishlash maqsadida kelayotgan chet el fuqarolariga taklif etilayapti va ular qulay infratuzilmaga ega, transport qatnovi yaxshi va oziq-ovqat do'konlari yaqin bo'lgan hududlarda joylashgan.

Nisbatan arzon segmentdagi xonadonlarning ko'p emasligi va asosan ikkita tumanda taklif etilayotgani ijara bozorini rivojlantirish zarurati borligini yana bir bor ko'rsatadi.





2023-yilning oktyabr oyida poytaxtda barcha turdag'i xonadonlar uchun taklif etilayotgan ijara narxlari o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan arzonlashgan.

1. O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlari 6-14 foizgacha pasaygan.

Bir xonali xonodon uchun o'rtacha ijara narxi 370 dollardan 348 dollarga (-5.9 foizga) tushgan bo'lsa, ikki xonali xonadonlar uchun 474 dollardan 437 dollarga (-7.8 foiz), uch xonali xonadonlar uchun 611 dollardan 526 dollarga (-13.9 foiz), to'rt xonali xonadonlar uchun 729 dollardan 633 dollarga (-13.2 foiz) arzonlashgan.


2. To'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun taklif etilayotgan ijara narxlari 6-16 foizgacha arzonlashgan.

Xususan, ushbu turdag'i bir xonali xonodon uchun o'rtacha ijara narxi 557 dollardan 508 dollarga (-8.8 foizga), ikki xonali xonadonlar 695 dollardan 651 dollarga (-6.3 foiz), uch xonali xonadonlar 867 dollardan 790 dollarga (-8.9 foiz), to'rt xonali xonadonlar 1102 dollardan 930 dollarga (-15.6 foiz) tushgan.


2022-yilda Toshkent shahriga relokantlar oqimining ko'payishi hamda yangi o'quv yili boshlanishi bilan talabalar tomonidan ijaraga bo'lgan talabning oshishi natijasida o'tgan yilning sentyabr-oktyabr oylarida ijara narxlari sezilarli darajada oshib ketgan edi.

Ijara narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar [olx.uz](http://olx.uz) platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi.


Oktyabr 2022




Oktyabr 2023



O'rtacha ta'mirlangan



To'liq ta'mirlangan





## Aholini uy-joy bilan ta'minlash va ipoteka bozorini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar samarasi

o'qish vaqt  
73 soniya

So'nggi besh yilda uy-joy qurilishi qariyb 2 barobar ortib, aholi jon boshiga uy-joy bilan ta'minlanish darajasi 15,7 kvadrat metrdan 18,2 kvadrat metrgacha yoki 16 foizga oshdi. 2022-yilda 24,3 mingta, shu jumladan "Yangi O'zbekiston" massivlarida 3,5 mingta xonadon foydalanishga topshirildi.

2022-yilda yakka tartibdagi uy-joylarni qurish yoki sotib olish uchun tijorat banklari tomonidan 37,6 mingta oilaga 8,2 trillion so'm miqdorida ipoteka kreditlari ajratildi (2021-yildagiga nisbatan 2 marotaba ko'p), daromadi yuqori bo'limgan 16,7 mingta oilaga 767,4 milliard so'm miqdorida subsidiya berildi.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash va ipoteka bozorini rivojlantirish maqsadida 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar:

- yo'l va muhandislik infratuzilmalari qurilishiga respublika byudjetidan 730 milliard so'm, shu jumladan "Yangi O'zbekiston" massivlari uchun 470 milliard so'm ajratildi;

- 282 ta tadbirkorlik subyektiga bank kreditlarini qisman qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasidan 49,5 milliard so'mlik kompensatsiya to'landi;

- 380 ta pudrat tashkilotiga 724 ta ko'pqavatli uy-joy qurilishi uchun tijorat banklari tomonidan 1,6 trillion so'm miqdorida kredit ajratildi;

- Respublika tovar xom-ashyo birjasining alohida savdo maydonchasida 59,6 ming tonna metall prokati va 36,4 ming tonna sement sotildi.

Shu bilan birga aholini uy-joy bilan ta'minlash va ipoteka bozorini yanada rivojlantirish uchun masalaning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

- aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirishga qaratilgan samarali islohotlarni davom ettirish, ipoteka bozorini yanada rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish;

- aholi va tadbirkorlarning takliflari asosida talab yuqori bo'lgan hududlarda uy-joy qurilishi uchun tegishli infratuzilmalarni yaratish;

- bino va inshootlar qurilishi, rekonstruksiyasi hamda foydalanish davrida energiya samaradorligini oshirish uchun energiya tejovchi "yashil" texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.





Aholini uzoq muddatli ipoteka kreditlari bilan ta'minlash uchun banklar maxsus qimmatli qog'ozlar orqali moliyaviy resurslarni jalg qila olishi kerak. Buning uchun qonunchilikni takomillashtirish va bozor ishtirokchilarini shakllantirish kerak.

Xitoyda ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (mortgage backed securities - MBS) bozorining dastlabki rivojlanish davri 2000-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda huquqiy va me'yoriy-huquqiy baza yaratildi, tajriba tariqasidagi MBS dasturlari ishga tushirildi va bozorda asosiy ishtirokchilar paydo bo'ldi. Xitoy MBS bozorining rivojlanishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

**Uy-joy islohoti:** 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida Xitoyda rejali iqtisodiyotdan bozorga asoslangan uy-joy tizimiga o'tildi va muhim uy-joy islohotlari amalga oshirildi. Ushbu siljish ipoteka bozorining tez kengayishiga va ipoteka kreditiga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi.

**Normativ-huquqiy baza:** 2005-yilda Xitoy Xalq banki va Xitoy banki va Sug'urta faoliyatini tartibga solish komissiyasi birgalikda ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha yo'rqnomalarni chiqardi. Bu Xitoyda MBS bozori uchun me'yoriy-huquqiy bazani yaratishda muhim qadam bo'ldi.

**Tajriba tariqasidagi MBS dasturi:** Xitoy qurilish

banki (CDB) MBS emissiyasi bilan ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha birinchi tajriba dasturini ishga tushirdi. Bu Xitoyda MBS bozorining boshlanishini belgilab berdi va ipoteka kreditlari uchun sekyuritizatsiyaning maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

**Yirik banklarning ishtiroki:** tajriba tariqaisdagi MBS dasturining muvaffaqiyatidan so'ng, Xitoy taraqqiyot banki (CDB), Xitoy sanoat va tijorat banki (ICBC), Xitoy qishloq xo'jaligi banki (AVC) kabi yirik tijorat banklari MBS bozorida qatnasha boshladи. 2007-2016 yillar oralig'ida ushbu banklar o'zlarining birinchi MBS larini chiqardi va bozorning o'sishiga hissa qo'shdi.

**Bozorning kengayishi:** 2014-yilda Xitoy Qimmatli qog'ozlarni tartibga solish komissiyasi aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, shu jumladan MBS doirasini kengaytirish uchun yangi qoidani e'lon qildi. Bu ko'proq banklarga ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish imkonini berdi va bozorning o'sishini rag'batlantirishda yordam berdi.

So'nggi yillarda Xitoy regulatorlari MBS bozorining o'sishini rag'batlantirish va ipoteka sohasida risklarni boshqarish bo'yicha kengaytirilgan chora-tadbirlarni ko'rди. Ushbu tashabbus kredit risklarini moliyaviy vositalar orqali uzatish mexanizmini ishlab chiqish, tegishli MBS emitentlarini kengaytirish va ko'proq diversifikatsiyalangan investor bazasini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Xitoyda Ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (MBS) bozori rivojlanish bosqichlari





Janubiy Koreyada ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (MBS) bozorining dastlabki rivojlanish davri 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda Janubiy Koreyada MBS borozining rivojlanishi quyidagi muhim bosqichlarni o'z ichiga oldi.

**Moliyaviy sektordagi islohotlar:** 1997-yilda Osiyoda ro'y bergan moliyaviy inqirozdan so'ng Janubiy Koreyada iqtisodiyotni barqaroralashtirish va moliyaviy tizimni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ipoteka bozorini rivojlantirishda yordam beradigan chora-tadbirlarni ham qamrab oldi.

**Huquqiy asos:** 1999-yilda Janubiy Koreya hukumati ipotekaga oid qonunni qabul qildi. Bu mamlakatda MBS emissiyasining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur qonun Janubiy Koreyada MBS bozorining rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratdi va 1999-yilning sentyabr oyida Koreya ipoteka korporatsiyasi (KoMoCo) tashkil etildi.

**Koreya uy-joyni moliyalashtirish korporatsiyasi (KHFC) ning tashkil etilishi:** 2004-yilda Janubiy Koreya hukumati ipoteka kreditlarini sekyuritizatsiya qilish va uy-joy uchun kreditlar bo'yicha kredit kafolatlarini taqdim etish orqali uy-joyni moliyalashtirishning ishonchli va uzoq muddatli manbalarini shakllantirish maqsadida KHFC davlat muassasasini tashkil etdi. KHFC Janubiy Koreyada MBS bozorining o'sishida muhim rol o'ynadi, MBSning asosiy emitenti bo'lib xizmat qildi va ikkilamchi bozor faoliyatini qo'llab-quvvatladi.

**Tajriba dasturi:** 2004-yilda KHFC Janubiy Koreyada 545,6 milliard von (taxminan 430 million AQSH dollari) qiymatida ipoteka bilan ta'minlangan birinchi qimmatli qog'ozlar chiqarildi.


Ushbu emissiya Janubiy Koreyada MBS bozorining rivojlanishini belgilab berdi va ipoteka kreditlarini sekyuritizatsiya qilishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Natijada, 2004-yil yakuniga qadar KHFC tomonida 17 ta moliyaviy tashkilotning ipoteka portfelidan iborat bo'lgan 7 ta MBS paketlari bozorga chiqarildi.

**Tijorat banklarining jalb qilinishi:** KHFC MBSdasturining dastlabki muvaffaqiyatidan so'ng, Kookmin Bank, Shinhan Bank va Woori Bank kabi yirik tijorat banklari MBS bozorida qatnasha boshladи. Ushbu banklar bozorning o'sishiga hissasini qo'shgan holda o'zlarining ipoteka qimmatli qog'ozlarini chiqara boshladи.

**MBS bozorining kengayishi:** Janubiy Koreyaning MBS bozori yillar davomida kengayib bordi. KHFC muntazam ravishda MBS chiqarishni davom ettirayapti, tijorat banklari esa bozordagi ishtirokini bosqichma-bosqich oshirmoqda. Bozor ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni (MBS) va ipoteka bilan ta'minlangan obligatsiyalar (MBB) larni o'z ichiga olgan holda rivojlanayapti.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar bozorining hajmi 2004-yildagi 3 trillion von (taxminan 2,3 milliard AQSh dollari) dan 2021-yilda 134,1 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali kapital bozoridan uzoq muddatli, belgilangan stavkali moliyalashtirish mablag'larini jalb qilgan holda past va o'rta daromadli uy xo'jaliklarining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini ipoteka kredilari ko'rinishida qondirishda sekyuritizatsiya jarayonining muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatdi.

# Janubiy Koreyada MBS emissiyasining tuziliishi



Manba: KHFC yillik hisoboti (2021)



## Toshkent shahrida mart oyida xonadonlar uchun ijara narxlarining o'zgarishi

o'qish vaqt  
48 soniya

Tahlil natijalariga ko'ra, Toshkent shahrida xonadonlar uchun ijara narxlari pasayishda davom etmoqda. Ma'lumki, o'tgan yil xonadonlar uchun ijara narxlari o'sa boshlangan va oktyabr oyiga kelib, o'zining eng yuqori nuqtasiga chiqqan, so'ngra pasaya boshlagandi. OLX.uz ma'lumotlar bazasiga ko'ra, o'shanda shahar bo'yicha o'rtacha ta'mirlangan xonadon uchun ijara narxi 526 AQSh dollariga chiqqandi. Joriy yilning mart oyida ijara uchun o'rtacha narxlari fevral oyidagiga nisbatan 2% pasaygan va 411 AQSh dollarini tashkil etgan.

O'rtacha ta'mirlangan 2 xonali uy uchun ijara narxi 340 dollardan (Sergeli) 460 dollargacha (Yakkasaroy) o'zgargan holda Toshkent shahri uchun o'rtacha 411 dollarni tashkil etgan. 3 xonali uylar uchun esa narxlari 380 dollardan (Sergeli) 600 dollargacha (Mirobod) o'zgargan holda Toshkent shahri uchun o'rtacha 480 AQSh dollarini tashkil etgan. Ta'mirlangan 1 xonali uy uchun o'rtacha ijara narxi 320 dollarni, 4 xonali uy uchun 600 dollarni, 5 xonali uy uchun 660 dollarni tashkil etgan.

Izoh: Ushbu tahlil uchun ma'lumotlar [www.olx.uz](http://www.olx.uz) saytidan veb-skreping (web-scraping) usuli yordamida olingan. 2023-yil mart oyi uchun to'plangan 30,5 mingta (olx.uz) kuzatuvlar o'rganildi.



Viloyatlar bo'yicha uy-joyning har bir kvadrat metri uchun narxlari 10 guruha ajratildi. Narxlari eng arzon hududlar birinchi guruha (har bir kvadrat metr uchun 390 dollardan), eng qimmatlari esa o'ninchi guruha kiritildi (bu guruha uy-joyning har bir kvadrat metri uchun 1251,69 dollargacha narx kuzatilgan). Har bir guruha 86,15 dollarlik narx oralig'ini ifodalaydi.

2023-yilning II choragida hududlar orasida eng yuqori o'rtacha narx Toshkent shahrida qayd etildi, ya'ni 1251,69 AQSh dollari. Shu bois u narx segmentatsiyasi bo'yicha eng yuqori 10-guruha kiritildi. Samarqand shahri (753,03 AQSh dollari) narx segmentatsiyasi bo'yicha 6-guruhdan o'rinn oldi. O'rtacha narxlari pastroq bo'lgan Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari 2-guruhdan joy oldi. Respublika bo'yicha eng minimal narx Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatildi.

Toshkent shahri, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi	O'rtacha narx	Narx bo'yicha segmentlangan guruh
Toshkent shahri	\$1,251.69	10
Samarqand	\$753.03	6
Toshkent	\$695.25	5
Navoiy	\$583.55	4
Namangan	\$470.91	2
Jizzax	\$464.21	2
Surxondaryo	\$455.77	2
Buxoro	\$454.60	2
Farg'ona	\$444.84	2
Qashqadaryo	\$443.78	2
Sirdaryo	\$436.73	2
Xorazm	\$397.03	2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	\$390.10	1



Aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji hamda xarid jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o'rGANISH maqsadida ijtimoiy so'rov o'tkazildi.

So'rov joriy yilning fevral oyida o'tkazildi va unda 1 620 kishi ishtirok etdi. So'rov nomda 4 ta asosiy va 5 ta anketa savollaridan tarkib topgan bo'lib, ishtirokchilar savollarga Google Forms platformasi orqali javob berdi.

### O'tkazilgan so'rov natijasida quyidagilar aniqlandi:

Respondentlarning 83 foizi uy-joy sotib olishga ehtiyoji borligini ta'kidlagan. Shuningdek, turar joyga ehtiyoji borlarning 96 foizi bu borada ko'makka muhtoj. Ularning 71 foizi shaharda va 29 foizi qishloq hududlarida yashaydi.

Ma'lumot uchun: So'nggi olti yilda mamlakatimiz aholisi 5,5 million nafarga ko'paydi. 2035-yilga borib, 45 million nafardan ortishi proqnoz qilinmoqda. Buni inobatga olib, 2017-yildan buyon 326 mingta yangi uy-joy foydalanishga topshirildi. 2022-yilda 31 ta "Yangi O'zbekiston" massivini qurish dasturi boshlandi. Shuningdek, 2023-yilda tijorat banklariga 31 ming oilaga uy-joy ipotekasi uchun 9 trillion so'mlik resurs yo'naltiriladi.

So'rov Toshkent shahri aholisi orasida jiddiy qiziqish uyg'otdi. So'rovda qatnashganlarning 41 foizi poytaxtda istiqomat qilishini ma'lum qilgan. Ishtirokchilarning 48 foizi ijarada turishini ta'kidlagan va ularning 68 foizini davlat tashkiloti xodimlari tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra, 2020-yil 1-apreldan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'chmas mulkni olishda mamlakat fuqarolari uchun ushbu hududlarda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi talab qilinmasligi aholida poytaxtdan uy xarid qilishda teng imkoniyatlar yaratdi.

Uy-joy xarid qilmoqchi bo'lgan fuqarolarning 74,5 foizi dastlabki badal va kredit foizlarini to'lashda qiyinchilikka duch kelishini qayd etgan.

Ma'lumot uchun: Oxirgi uch yilda ehtiyojmand oilalarga boshlang'ich badal va foiz to'lovlar uchun 1,3 trillion so'm subsidiya berilgan bo'lsa, birgina 2023-yilning o'zida bu maqsadlar uchun 1,6 trillion so'm subsidiya ajratilishi belgilandi.

Rasmiy daromadga ega bo'limgan aholining 25 foizi kreditning oylik to'lovini to'lashga qiyonalishini ta'kidlagan bo'lsa, qolgan ishtirokchilar bo'yicha bu ko'rsatkich 22 foizni tashkil etadi, ya'ni rasmiy daromad olmaydigan fuqarolar kelajakdagি daromad manbalarining noaniqligi tufayli oylik to'lovlarida qiyinchilikka uchrashdan havotirlanadi.

Ma'lumot uchun: Joriy yilning 1-mayidan boshlab rasmiy daromadi yetarli bo'limgan ahola ham ipoteka krediti olish uchun imkoniyat yaratilishi qayd etildi. Shuningdek, dastlabki badalni ko'proq to'lagan fuqarolar bankdan arzonroq kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, qishloq hududlarida asosan hovli-joylarga ehtiyoj yuqori bo'ladi. So'rovda qatnashgan qishloq joylarida yashovchilarning 61,4 foizi yashash joyida oila a'zolari soni ko'pligi hamda yashash maydonining kichikligi sababli uy-joyga ehtiyoji borligini bildirgan.

Ma'lumot uchun: 2023-yilda 10 ming kishiga hovlisini kengaytirishi yoki qo'shimcha qurilish qilishi uchun 1,5 trillion so'm miqdorida kredit ajratilishi belgilangan.

Avvalroq MHTI tadqiqotchilari kambag'allikka qarshi kurash va inson potensialini rivojlantirish bo'yicha Oksford tashabbusi tomonidan ishlab chiqilgan ko'p o'lchamli kambag'allik indikatorlarini aniqlash maqsadida Navoiy viloyatida tadqiqot o'tkazgandi. Bu tadqiqot so'rovda ishtirok etgan aholi mavjud 23 ta indikator orasidan shaxsiy uy-joyga ega bo'lmashlikni kambag'allikning ikkinchi asosiy belgisi, deb hisoblashini ko'rsatdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugun turar joyga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan sharoitda ipoteka kreditining qulay va moslashuvchan shartlarini ishlab chiqish, ipoteka bozoriga zamonaviy mexanizmlar va institutsional islohotlarni joriy etish aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.



BMTning Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda jahon miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining taxminan 41 foizi bepul ovqatlanish dasturidan foydalanadi. Bu ko'rsatkich daromadi past mamlakatlarda 18 foizni, daromadi o'rtachadan past mamlakatlarda 39 foizni, daromadi yuqori mamlakatlarda 61 foizni tashkil qiladi.

Bugun Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida salkam 30 million bolaga shunday dasturlar tufayli bepul sut, meva hamda sabzavotlar beriladi. Rossiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari kuniga kamida bir marotaba issiq ovqat va issiq ichimlik oladi. Xitoyda o'quvchilarga sut mahsulotlarini berishga qaratilgan dastur 2000-yildan beri amal qiladi.

O'zbekistonda 1-4 sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash sinov tariqasida 2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yo'lga qo'yildi va Qoraqalpog'iston Respublikasida 147,4 ming, Xorazm viloyatida 141,8 ming o'quvchi bepul nonushta bilan ta'minlanayapti.

MHTI mutaxassislari tadqiqot davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi 40 ta maktabning 4000 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari o'tasida so'rov o'tkazdi. Aniqlanishicha, 2022-2023-yillarda pilot hududlarda maktablarda bepul ovqatlanish dasturining amalga oshirilishi "qoniqarli" deb topilgan.

Bundan tashqari, Jahon banki ko'magida amalga oshirilayotgan O'zbekistonda bolalar farovonligi indeksini baholash bo'yicha MHTI loyihasi doirasida sotsiologik so'rov o'tkazildi, unda respublikaning barcha hududlaridan 2000 dan ortiq xonadon va 3000 dan ortiq bolalar ishtirok etdi.

So'rov natijalari maktabda bepul ovqatlanish dasturining o'quvchilar davomadi bilan bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda "Propensity score matching" modelidan foydalanildi. Hisob-kitoblar Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida so'nggi bir oy davomida bepul ovqatlanayotgan o'quvchilarning 85 foizi darsni biron marotaba ham qoldirmagani, boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich 77 foizni tashkil etganini ko'rsatdi. Demak, dastur davomadning 8 foiz yaxshilanishiga ko'mak bergen.

Garchi 2022-2023 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida sinov tariqasida amalga oshirilgan dastur qoniqarli, deb e'tirof etilgan bo'lsada, masalaning ayrim jihatlariga e'tiborni kuchaytirish zarur. Xususan:

berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari ratsioni har bir hududdagi sharoitdan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqilishi;


boshlang'ich sinf o'quvchilarini issiq ovqat bilan ta'minlash uchun respublikadagi barcha maktablarda oshxonalar tashkil etilishi;

oziq-ovqat mahsulotlari ratsioniga sut va sut mahsulotlarini, shuningdek, makro va mikronutriyentlar, vitaminlar bilan boyitilgan, yog'lar, qand va tuz miqdori cheklangan mahsulotlarni qo'shish;


jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va muntazam monitoring qilib borish uchun elektron onlayn platformani yaratish maqsadga muvofiq.

# Maktablarda bepul tushlikning davomatga ta'siri

## PSM modelining juftlik muvozanati



## So'ngi bir oyda biror marta dars qoldirmaganlar ulushi



PSM modeli 2000 ta uy xo'jaliklari orasidan 12 ta xususiyatga ko'ra deyarli bir biriga oxshash 132 ta juftliklarni ( $N=264$ ,  $N_{treatment}=132$ ,  $N_{control}=132$ ) aniqlaydi. Bepul tushlik berilgan guruuh bu - Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati, nazorat guruhi bu-boshqa barcha hududlari. Model ushbu ikki guruuhlar kesimida davomat ko'rsatkichining (muktabga so'nggi bir oyda biron marta dars qoldirmaganlar ulushi) ortachalarini t-test orqali fargini ko'rsatib beradi.

■ PSM modeli juftlanishindan avvalgi o'zgaruvchilar farqi  
■ PSM modeli juftlanishindan keyingi o'zgaruvchilar farqi



## O'zbekiston BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha 2015-2022 yillarda qanday natijalarga erishdi?

o'qish vaqt  
90 soniya

O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida o'z oldiga qo'ygan vazifalarni mavaffaqiyatli bajarayapti va erishilgan yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. 2023-yilda BMT tomonidan e'lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining davlatlararo reytingida (SDG) O'zbekiston o'z reytingini 8 pog'ona oshirib, 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni (2022-yilda 77-o'rinn) egallagani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

SDG Index hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 16 ta maqsaddan 11 tasi bo'yicha barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarining ijobjiy o'sishi qayd etilgan. Ulardan biri oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishga oid maqsaddir (2-maqsad).

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, to'g'ri ovqatlanish borasida O'zbekistonda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 8 ta vazifa va 14 ta ko'rsatkichdan iborat 2-maqsad - "Ochlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ovqatlanishni yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish" bo'yicha erishilgan ba'zi natijalar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston 2019-2022-yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi - Global Food Security Index (GFSI) reytingiga ko'ra, katta yutuqlarga erishgan 10 ta mamlakat orasida birinchi o'rinni egalladi.

Yer munosabatlari sohasida katta ishlar amalga oshirildi: 400 ming fermerga 100 ming hektar ekin maydoni ajratildi, bu esa qo'shimcha ravishda 1,5 million tonna oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish imkonini berdi.

Paxta va g'allaga davlat monopoliyasi butunlay bekor qilindi. Agar 2017-yilda O'zbekistonda 2 ta qishloq xo'jaligi klasteri faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 633 taga yetdi.

Ayni paytda mamlakatimizda paxta-to'qimachilik bo'yicha 134 ta, g'allachilik bo'yicha 200 ta, meva-sabzavotchilik bo'yicha 249 ta, sholichilik bo'yicha 42 ta, dori-darmon bo'yicha 8 ta klaster samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

2017-2022 yillarda g'alla hosildorligi gektariga 43 sentnerdan 50 sentnerga, paxta xomashyosi hosildorligi 23 sentnerdan 34 sentnerga, uzum hosildorligi 124 sentnerdan 132 sentnerga, kartoshka hosildorligi 330 sentnerdan 349 sentnerga, poliz va tarvuz mahsulotlari hosildorligi 345 sentnerdan 359 sentneriga oshdi.

Oxirgi 6 yilda qishloq xo'jaligi sohasiga 8,6 milliard dollar sarmoya kiritildi. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi 23 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti esa 1,9 barobarga o'sdi, ya'ni 2017-yildagi 811 million dollardan 2022-yilda 1,6 milliard dollarga ko'tarildi.





Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar samaradorlikning uzoq muddatli o'sishini rag'batlantiruvchi omillar hisoblanganligi bois iqtisodiy rivojlanish garovidir.

O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida quyidagi vazifalar qo'yilgan:

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish;

har million kishiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish.

Bu mamlakatning ilmiy salohiyatini kuchaytiradi, davlatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi va milliy xavfsizligiga zamin hozirlaydi.

Faqatgina mamlakatda vijdonli akademik/ ilmiy muhit shakllantirilgan taqdirdagina yaxshi natija va samaraga erishish mumkin. Bu ayniqsa, natijaga tezda erishishga intilish kuchli bo'lgan, raqobat o'sib borayotgan, ma'lumotlarni Internetdan osongina olish imkoniyati va moliyaviy rag'bat mavjud bo'lgan bugungi sharoitda yanada muhim.

Akademik muhitdagi odamlar masalani osongina hal etish ilinjida gostrayting va plagiarismdan tobora ko'proq foydalanmoqda.

Gostrayterlik («ghostwriting») - bu kelajakda o'zini muallif sifatida ko'rsatadigan boshqa kishi uchun (shu jumladan to'lov evaziga) yozish. Plagiat - bu asl manbani ko'rsatmasdan boshqa birovning materialidan ruxsatsiz foydalanish va nusxalash.

Insofsiz akademik muhit yoxud gostrayterlikning 3 shaklini keltirish mumkin:

1. Buyurtma berish/o'zganing ishini o'zinikidek taqdim etish.
2. Boshqa kishi uchun ilmiy ish yozish/ tayyorlash.
3. Sun'iy idrokdan foydalanish - ongli ravishdagi qalloblik va akademik qoidabuzarlik.

Gostrayterlik ilk marotaba 1960-yillarda tilga olingan. Yillar davomida gostrayting xizmatini ko'rsatish sohasidagi firibgarlikning ko'lami va murakkabligi o'sib bormoqda. Misol tariqasida, yaqinda «The Chronicle of Higher Education» jurnalida «Ed Dante» tajribasi tavsiflangan.

U so'nggi bir yilda 5 000 sahifaga teng ilmiy tadqiqot ishlarini buyurtma asosida yozganligi, jumladan, 50 sahifadan kam bo'limgan jami 12 ta diplom ishi (doktorantlar va magistrantlar uchun) tayyorlaganligini tan olgan.

Gostrayterlik uchun Internet va sun'iy idrok imkoniyatlaridan tobora keng foydalanilmoqda. Eng mashhur misollardan biri bu talabalar tomonidan «MyMaster» platformasidan foydalanish bilan bog'liq xalqaro shov-shuvdir. Ushbu talabalar o'qishdan chetlashtirilgan va mazkur platforma endilikda ishlamasada, bu kabi boshqa ko'plab saytlar «MyMaster»ga o'xshash noqonuniy xizmatlarni taklif qilishda davom etmoqda.

Akademik vijdonsizlikka qarshi kurash ham kuchayib borayapti va muvaffaqiyatga qozonayapti. Ross va boshqalarning (2008) takidlashicha, tadqiqotchilar tomonidan 2008-yilda ilmiy ishlarni buyurtmaga yozish bo'yicha jinoiy ishlar qo'zg'atilgan hamda hozir plagiarismni aniqlash vositalari takomillashmoqda.

Plagiatning har qanday shakli akademik tizimga putur yetkazsada, gostrayterlik o'ta xatarli: intellektual mulk va adabiy o'g'irlik to'g'risidagi qonunlarni buzishdan tashqari, buyurtmaga yozdirish boshqa birovning shaxsini o'ziga singdiradi va bu firibgarlikka tengdir.

Dunyo bo'ylab tobora ko'proq kishilar bu kabi aldonvi tan olayotgani o'ta tashvishlanarli. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda har oltinchi talaba ushbu xizmatdan foydalanadi.

Universitet talabalari bilan muhokamalar shuni ko'rsatadiki, vijdonsizlikka qarshi kurashda asosiy e'tibor o'qituvchilar va talabalar mentalitetini tarbiyalash va o'zgartirish kabi profilaktika choralariga qaratilishi kerak.

O'zbekistonda yuqorida muammoning oldini olishga qaratilgan bir qator qonun hujjalari qabul qilingan.

Shuningdek, mualliflik huquqi va intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni optimallashtirishda birovning ishidan o'z ishi sifatida foydalanish hamda boshqa kishi uchun ilmiy ish yozishga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish muhim.



2017-2022 yillarda O'zbekistonda 1-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish darajasi sezilarli darajada oshgan (2017-yildagi 17 foizdan 2022-yilda 31,3 foizga) bo'lsada, ayrim hududlar (Qashqadaryo - 18,7 foiz, Surxondaryo - 22,7 foiz, Samarcand - 27,7 foiz) da ko'rsatkich pastligicha qolmoqda.

3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish darajasi esa 25,4 foizdan 68,3 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich dunyo miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkich (61 foiz) dan yuqori.

Multiple Indicators Cluster Survey (MICS) ning 2021-2022 yillarga oid hisobotiga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda 5 yoshgacha bo'lgan ortiqcha vaznli bolalar umumiy bolalar sonining 5 foizdan kamroq'ini (o'g'il bolalarda 5 foiz, qiz bolalarda 4 foiz) tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: Multiple Indicators Cluster Survey (MICS) bu BMT bolalar jamg'armasi - YUNISEF tomonidan bolalar va ayollarning holati haqida aniq ma'lumot olish maqsadida ishlab chiqilgan dastur doirasida ko'plab ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladigan klaster tekshiruvidir.

Bo'yи yoshiga nisbatan past bo'lgan bolalar 7 foizni, 5 yoshgacha bo'lgan kam vaznli bolalar umumiy bolalar sonining 2 foizini tashkil etgan.

MHTI mutaxassislari tomonidan MICS ma'lumotlari asosida o'tkazilgan ekonometrik tahlil davomida quyidagilar aniqlandi:

Maktabgacha ta'lif jarayonida ishtirok etgan bolalarning bo'yи ishtirok etmaganlarnikiga nisbatan 1,83 santimetr uzunroq, vazni esa 0,65 kilogramm og'irroq bo'ladi.

Tana massasi indeksi (Body Mass Index) asosida qilingan tahlil maktabgacha ta'lif bilan qamrab olingan bolalar vaznining yoshiga nisbatan kam bo'lib qolish ehtimolini 1 foizga kamaytirishini ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish bolalarning aqliy va emotsiyal sog'ligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan:

- maktabgacha ta'lif jarayonida qatnashish bolalarda 10 gacha sanay olish qobiliyati o'rtacha 19,9 foizdan 21,4 foizga;
- asosiy muloqot ko'nikmasi o'rtacha 3 foizga;
- alifbodagi harflarni tanish ehtimoli 8 foizdan 11 foizgacha oshadi;
- Ijtimoiy munosabatlар (o'ynash, do'stlashish) da qiyinchilikka duch kelish ehtimoli taxminan 4 foizdan kam bo'ladi.



Tahlil natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida moliya (167,5 foiz), axborot texnologiyalari (91,0 foiz), sog'lijni saqlash (44,2 foiz) va logistika (40,0 foiz) kabi sohalarda real o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori o'sish sur'ati kuzatilgan.

Real o'rtacha oylik ish haqi savdo (0,2 foiz), qurilish (16,0 foiz) va san'at (17,1 foiz) kabi tarmoqlarda nisbatan sekin o'sgan.

2016-yil narxlariga nisbatan real ish haqi 52,6 foizga oshgan.

Raqamlashtirish va bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi sharoitida mehnat resurslarining mobilligini oshirish juda dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda kasbni o'zgartirish oddiy va kamxarajat hodisadir.

MHTI mutaxassislari moliya, IT va logistika kabi sohalarda o'qitishni taklif qiluvchi 45 ta ta'lrim markazi faoliyatini tahlil qildi. Tahlil natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

Moliya kurslarining o'rtacha davomiyligi 4 oyni, oylik to'lov miqdori esa o'rtacha 1 mln. so'mni tashkil etadi. Shunday qilib, moliya mutaxassisligi bo'yicha o'qib, ushbu sohada ishga joylashganlar o'rtacha 4 mln so'm sarflab, ko'pi bilan 1,5 oy ichida ta'limga sarflagan xarajatini qoplay oladi (shaxsiy xarajatlarni hisobga olmagan xolda).

IT kurslarining o'rtacha davomiyligi 6,5 oyni, o'rtacha to'lov miqdori oyiga 1,5 mln. so'mni tashkil qiladi. Binobarin, ishga qabul qilinganidan so'ng, o'qitish xarajatlari o'rtacha 2-3 oy ichida qoplanadi.

Dispatcherning o'qish muddati o'rtacha 1 oyni, kurslarning narxi esa o'rtacha 2,3 mln. so'mni tashkil etadi. Ba'zi o'quv markazlari kurslarni a'lo natijalar bilan tugatgan bitiruvchilarga ish o'rni ham taklif etadi. Bugungi kunda logistika sohasi mutaxassislari o'rtacha 6 mln. so'm oylik maosh oladi. Ularning aksariyati masofadan turib ishlaydi.

Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni tezkorlik bilan egallash va buning uchun o'quv kurslarida tahsil olish turmush sharoitini yaxshilashdagi eng muhim omil bo'lishi mumkin. Bunda davlat tomonidan o'quv kurslari uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlarning ajratilishi masalaning yarmini hal qiladi, lekin shu bilan birga har bir inson kasb va sohani tanlashda imkoniyatlarning kengligini anglashi va ko'zlangan maqsad sari intilishi darkor. Bu jarayonda uni atrofidagi hamkasblari va oila-a'zolarining qo'llab-quvvatlashi ham muhim ahamiyatga ega.






Monitoring natijalari 8 xil mahsulot bo'yicha o'tgan oydagiga nisbatan minimal narxlar pasayganligini ko'rsatdi\*. Shunday qilib, oq karamning narxi 22,0 foiz, guruchning narxi 15,6 foiz, qizil sabzining narxi 10,0 foiz, kungaboqar yog'ining narxi 7,4 foiz, sariq piyozning narxi 6,8 foiz, margarinning narxi 6,6 foiz, limonning narxi 5,6 foiz, lavlagining narxi 5,1 foiz pasaygan.

4 nomdagi mahsulot narxlari oshgan. Ayniqsa, pomidor va bodring narxining oshishi yaqqol seziladi. Shuni ta'kidlash kerakki, xuddi shunday tendensiya o'tgan yilda ham kuzatilgandi.

Bu esa ushbu mahsulotlarni bozorga etkazib berishda mavsumiy omillarning ta'siri borligidan dalolat beradi.

9 nomdagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Ularning orasida grechka, sut, bug'doy uni va boshqalar bor.


\*tahlil 9-noyabr va 6-dekabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.



## O'zbekistonda mактабгача та'lim bilan qamrab olish darajasi


1-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi<sup>1</sup>

Hududlar kesimida, umumiy bolalar sonidan ulush, %



3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi<sup>2</sup>

Hududlar kesimida, umumiy bolalar sonidan ulush, %



<sup>1,2</sup> 1-6 yosh va 3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi ma'lumotlari 2023-yil yanvar hujariga ko'ra.  
Manba: Statistika Agentligi.


\*Ortacha ko'satikchi – dunyo miqyosidagi maktabgacha ta'lim bilan qamrovning ortacha miqdori (61%).

## O'zbekistonda maktabgacha ta'lim

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi<sup>1</sup>

Yillar kesimida, umumiy bolalar sonidan ulush, %

■ 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi  
■ 1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi



\*1-6 yosh va 3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi uchun Statistika Agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

<sup>1</sup> MICS so'rovnomasi natijalariga ko'ra muallif ishlansinai.

\*O'zbekiston -2030" strategiyasida 3-6 yoshli bolalarning maktabgacha qamrovini to'liq ta'minlash nazarda tutilgan.

Bolalarning tana salomatligidagi tafovutlar<sup>2</sup>

Maktabgacha ta'limda ishtiroy etish kesimida, umumiy bolalar sonidan ulush, %

■ Maktabgacha ta'limda qatnashgan  
■ Maktabgacha ta'limda qatnashmag'an





**Maktabgacha ta'lif:** 2023-yilning boshidagi holatga ko'ra, respublika bo'yicha 3-6 yoshli bolalarning o'rtacha kutilayotgan ta'lif davomiyligi 2-yilni tashkil qiladi (2017-yilda 0,9-yil edi). 6 yoshli bolalarni maktabdan 1-yil oldin ta'lif bilan qamrab olish darajasi 70 foizga yetdi (2017-yilda 27 foiz edi). 6 yoshgacha bo'lgan davrda qiz va o'g'il bolalarning ta'lif olish imkoniyatlari teng (2017-yilda o'g'il bolalarning imkoniyatlari 2 foiz ko'proq bo'lgan).

**Boshlang'ich ta'lif:** 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning kutilayotgan ta'lif davomiyligi 3,8-yilni (shaharda 4,2-yilni, qishloqda 3,5-yil) tashkil etadi. Shaharda uning 4-yildan oshiq bo'lish tendensiyasi qishloq joylardagi bolalarning shaharga qatnab o'qishi bilan izohlanadi. 2017-yilda shahar (4,8-yil) va qishloq (3,3-yil) o'rtafigi tafovut 1,43-yilni tashkil etgan edi.

**Tugallanmagan o'rta ta'lif**da 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan yigit va qizlarning ta'lif olish imkoniyatlari respublika bo'yicha 4,9-yilni tashkil etgan. Yigitlar va qizlar o'rtafigi tafovut deyarli yo'q. Ta'lifning yuqoriqoq bosqichiga o'tish bilan (16 yoshdan keyin) tafovut ortib boradi. Ushbu tafovut qishloq yoshlaring shaharga kelib ta'lif olishi bilan izohlanadi.

**Tugallangan o'rta va professional o'rta ta'lif,** ya'ni o'rta mifik, akademik litsey, kasb-hunar maktabalarining 10-11-sinflari, kollej va texnikumlarning 1-3-kurslarida jami ta'lif

yillari (16-19 yoshdagi aholi soniga nisbatan) respublika bo'yicha 2,3-yilni tashkil qiladi. 19 yoshli yigit va qizlarning ta'lif olish imkoniyatlari o'rtafigi eng katta tafovut kuzatiladi va u qizlar foydasiga 0,4-yilni tashkil qiladi.

**Oliy ta'lif va undan keyingi ta'lif:** Oliy ta'lifmda 19 yoshdagi jami aholining 28 foizi tahsil olmoqda (19 yoshli yigitlarning 27,5 foizi va qizlarning 28 foizi).

### 2022-yil yakunlari bo'yicha xulosa:

- ta'lif yillari aholi sonining qamrovi bilan eng mutanosib bosqich bu o'rta ta'lif (5-9-sinflar) ga to'g'ri keladi;
- qishloq aholisining shaharga qatnab o'qishi 16-17 yoshdagi yigitlar orasida eng ko'p kuzatiladi;
- ta'lifning barcha bosqichlarida erkak-ayollarning ta'lif imkoniyatlari bo'yicha o'rta professional ta'lif hamda oliy ta'lifdan keyingi rasmiy ta'lifmda ayollarning imkoniyatlari erkaklarniga nisbatan yaxshiroq;
- ta'lifning barcha bosqichlarida 2017-yildagiga nisbatan davomiylikning oshishi bilan birga erkak va ayol hamda shahar va qishloq o'rtafigi tafovut qisqarib bormoqda;
- jami ta'lif yillari 14,6-yil (erkaklar uchun 14,4-yil, ayollar uchun 14,8-yil) ni tashkil etmoqda. 2017-yilda 12,9-yilni tashkil etgan (erkaklar uchun 13,1-yil, ayollar uchun 12,7-yil).





## O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha 2015-2022 yillarda qanday natijalarga erishdi?

o'qish vaqt  
76 soniya

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlariga erishish borasida yaxshi natijalarga erishmoqda.

2023-yilda BMT tomonidan e'lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining davlatlararo reytingida (SDG) O'zbekiston o'z reytingini 8 pog'onaga oshirib, 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni (2022-yilda 77-o'rinni) egallagani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

SDG Index hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 16 ta maqsaddan 11 tasi bo'yicha barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarining ijobji o'sishi qayd etildi. Bular: kambag'allikni qisqartirish (1-maqsad), oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish (2-maqsad), salomatlik va farovonlik (3-maqsad), gender tengligi (5-maqsad), sifatli ta'lim (4-maqsad), toza suv va sanitariya (6-maqsad), sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma (9-maqsad), shaharlar va aholi punktlarining barqaror rivojlanishi (11-maqsad), iqlim o'zgarishiga qarshi kurash (13-maqsad), tinchlik, adolat va kuchli institutlar (16-maqsad).

O'zbekistonning 2023-yilgacha Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasidagi birinchi (2022) va ikkinchi (2023) Ixtiyoriy milliy hisobotlari BMT tomonidan ijobjiy baholandi.

Demak, 1-maqsad, ya'ni O'zbekistonda kambag'allikni sezilarli darajada qisqartirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar va ularning natijasini ko'rib chiqamiz. Avvalo ushbu maqsadni amalga oshirish uchun kambag'allikka qarshi kurashishning zarur qonunchilik, institutsional va iqtisodiy mexanizmlari shakllantirildi. Quyida 1-maqsad bo'yicha O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ayrim natijalari keltirilgan:

Ushbu maqsad doirasida 2015-2022 yillarda milliy mezon bo'yicha kambag'allik darajasi 30,4 foizdan 14,1 foizga, ya'ni 2 marotaba pasaydi. Bu davrda ijtimoiy nafaqa oluvchi aholi qamrovi 0,8 foizdan 1,7 foizga oshdi.

Ayni chog'da O'zbekiston xalqaro kambag'allik chegarasi bo'yicha ko'zlangan maqsadga erishgan va bu ko'rsatkich kuniga 2,15 dollarni tashkil etadi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning qiymati 19,74 foizdan taxminan 7,4 foizgacha qisqardi.

Yoshga doir pensiya oluvchi aholi ulushi 7,2 foizdan 8,7 foizga oshdi.

2023-yilgi milliy hisobotga ko'ra, ushbu davrda shinam uy-joylarda yashovchi aholi ulushi 43,1 foizdan 86,5 foizga ortgan.



Bugungi kunda O'zbekistonda mehnatga layoqatli ayollarning yarmi iqtisodiyot sektorida band. Shu bilan birga, ayollar o'ttasida ishsizlik darajasi taxminan 13-14 foizni tashkil qiladi. Bu ko'p hollarda ularning uy ishlari va bola parvarishida band ekanligi bilan bog'liq.

Mavzuni o'rganish jarayonida onlayn so'rov o'tkazildi va unda 1047 kishi ishtirok etdi. Ularning 52,6 foizi ayollar, 47,4 foizi erkaklardir.

### So'rov natijasida kir yuvishning quyidagi o'ziga xos jihatlari aniqlandi:

- aholining kundalik turmushida kir yuvish mashinasidan foydalanish darajasi o'rtacha 69,3 foizni tashkil etadi (qishloqlarda – 49,5 foiz, shaharlarda – 82,3 foiz), kirni qo'lida yuvadiganlar ulushi - 31 foiz;
- respondentlarning 48,6 foizi kirni haftada 2 marotaba, 22,8 foizi bir marotaba, 25 foizi esa har kuni yuvishini bildirdi;
- so'rovda qatnashganlarning 65,2 foizi kir yuvish uchun 1-2 soat, 21,8 foizi 30 daqqa, 13,0 foizi 3 soat va undan ko'proq vaqt sarflashini ta'kidlagan. 3 soatdan ortiq vaqt sarflaydiganlarning asosiy qismi kirni qo'lida yuvadi;

- shu bilan birga, uy xo'jaliklarining infratuzilma ta'minotida elektr energiyasi (54,0 foiz), suv quvuri va oqova suvlarni chiqarib tashlash hamda kanalizatsiya tizimlari bo'yicha (23 foiz) uzilishlar kuzatilishi ma'lum bo'ldi.

Xalqaro tajriba hamda so'rov natijalaridan kelib chiqqan holda markazlashgan kir yuvishda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan kirkxonalarini tashkil etish masalasini ko'rib chiqishni taklif etish mumkin.

Respondentlarning 65,3 foizi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan kirkxonalarini tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Ularning 26,1 foizi gigiyena va tozalik darajasining oshishini ijobjiy holat sifatida ko'rsatgan bo'lsa, 22,3 foizi vaqtini tejash imkoniyati paydo bo'lishinni ta'kidlagan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan kirkxonalarini tashkil etish oyiga o'rtacha 10 soatdan 24 soatgacha vaqtini tejash imkonini beradi. Bu vaqtadan savodxonlikni, kasb mahoratini oshirishda, bola parvarishida unumli foydalanish mumkin.

### UY XO'JALIKLARIDA MAISHIY XIZMATLAR HOLATI: KIR YUVISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI (14 ta hudud bo'yicha 1047 nafar respondent qatnashgan so'rov asosida)





Yaponiyada fan va texnologiyalar taraqqiyotini shartli ravishda 3 bosqichga bo'lish mumkin:

### 1. G'arb texnologiyalarini faol jalg etish davri

(1853-1945 yillar). Ushbu davrda Yaponiya chet el texnologiyalarini mamlakatga jalg qilish siyosatini olib bordi. Bu jarayonda hukumat muhim rol o'ynadi. U xorijiy nou-xau asosida yirik korxonalarining yaratilishiga hissa qo'shdi, keyinchalik ular dzaybatsu (sanoat-moliya guruhlari) ga aylandi va Yaponiyaning sanoat va texnologik taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. .

2. O'zlashtirish davri (1945-1973 yillar). 1950-1960 yillarda texnologiya siyosatida tanlash (selektiv) yondashuvi ustunlik qildi. Yaponiya eng so'nggi fan va texnika yutuqlarini faol ravishda o'zlashtira boshladi. 1950-1978 yillarda uning hisobida 26 ming xorijiy patent va litsenziya mavjud bo'lib, ularidan olingan umumiy daromad 70 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bundan tashqari, 60-yillarda «Katta loyihalar» deb nomlanuvchi Milliy tadqiqot va ishlanmalar dasturi ta'sis etildi.

### 3. O'z texnologik salohiyatini mustahkamlash davri (1973-yildan hozirgi kungacha).

1973-yildan Yaponiya o'z texnologiyalari va innovatsiyalarini rivojlantirishga e'tibor qarata boshladi va ilmiy-tadqiqot ishlariga xarajatlarni oshirdi.

Bu mamlakatda mavjud texnologiyalar asosida mutlaqo yangi mahsulotlar yaratish va ularni takomillashtirishga xizmat qildi.

Yaponiyada zamonaviy milliy innovations tizimni shakllantirishga hissa qo'shadigan muhim element texnopolislardir. Yaponiyaning butun hududi 19 ta texnopolisga bo'lingan. Hozirgi bosqichda texnopolislar yirik, o'rta va kichik shaharlarga aylantirilmoqda: Xamamatsu, Nagaoka, Yamaguchi shular jumlasidandir. Yaponiya texnopolislari an'anaviy sanoatga asoslangan bo'lib, ular atrofida zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan boshqa turdosh tarmoqlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Shu bilan birga, keyingi yillarda Yaponiya bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ulardan biri bu aholining keksayishi va kamayishi bilan bog'liq. Bu muammo ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlari uchun yetarlicha insoniy va moliyaviy resurslarni ta'minlashni qiyinlashtirmoqda.

**Batafsil:** [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese\\_xperience](https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese_xperience)





## Kambag'allik xavfi, dunyoda va O'zbekistonda uni baholashga nisbatan yondashuvlar

Iqlim o'zgarayotgan, iqtisodiy inqirozlar va harbiy mojarolar ro'y berayotgan bugungi dunyoda aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashishi yanada qiyinlashmoqda. Kambag'allik ko'lami ortishining oldini olish uchun kambag'allik xavfini o'z vaqtida va xolis baholash zarur.

Bugun dunyoda kambag'allik xavfining bir qancha ko'rinishlari bor. Bular:

- hayot qiymatining ortib borishi;
- tengsizlikning turli xil ko'rinishlari, jumladan, gender va mehnatga haq to'lashdagi tengsizlik;
- ishsizlik ko'lami;
- suv va oziq-ovqat mahsulotlaridan bahramand bo'lishning cheklanishi;
- iqlim o'zgarishi, harbiy mojarolar va boshqalar.

o'qish vaqt  
31 soniya

Dunyoning ko'plab mamlakatlarda kambag'allik xavfini baholashda muhim ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ko'satkichlar va ularning o'zgarishini tahlili qilish usulidan foydalaniladi. Xo'sh, O'zbekiston sharoitida qanday usullardan foydalanish kambag'allik darajasini kamaytirishda yordam berishi mumkin?

Tadqiqot tafsilotlari bilan quyidagi havola orqali **batafsil** tanishishingiz mumkin.



BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti - FAOning prognoziga ko'ra, ekstremal ob-havo sharoiti va ortib borayotgan geosiyosiy keskinliklari global oziq-ovqat tizimiga xavf tug'diradi hamda savdo va global oziq-ovqat xavfsizligi istiqbolini yomonlashtirishi mumkin.

2023/24 yillar mavsumida dunyo miqyosida 785,1 million tonna bug'doy yetishtirilishi kutilayapti. Garchi yetkazib berish hajmi yetarli darajada saqlanib qolayotgan bo'l olmadan, bu o'tgan mavsumdagiga qaraganda 2,2 foiz kam.

Bug'doy yetishtirishning prognoz qilinayotgan qisqarishi Avstraliya va Rossiya Federatsiyasida 2022-yildagi rekord ko'sratkichlardan so'ng hosil miqdorining kamayishi, shuningdek, Kanada va Qozog'istonda yig'im-terimning prognoz qilinayotgan qisqarishi bilan bog'liq. Biroq, Argentina, Hindiston va AQShda ishlab chiqarishning o'sishi kutilayapti va bu pasayishning o'rnnini bosadi.

2023/24 yillar mavsumida global moyli o'simliklarni yetishtirish o'sishda davom etishi va 666,7 million tonna yangi rekord darajaga yetishi kutilmoqda. Bu esa avvalgi mavsumdagiga nisbatan 4,0 foiz ko'p.

2023/24 yillardagi mavsumda jahon miqyosida shakar ishlab chiqarish 175,5 million tonnani tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2022/23 yillardagi mavsumdagiga nisbatan 2,0 foiz kam.

El-Ninyo hodisasi bilan bog'liq quruq ob-havo sharoiti tufayli asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'lgan Tailand va Hindistonda shakar ishlab chiqarishning qisqarishi kutilmoqda.

Dunyoda go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish 2023-yil oxirigacha 365 million tonnaga ortishi taxmin qilinayapti. Bu 2022-yildagiga nisbatan 0,8 foiz ko'p.

Osiyoda go'sht ishlab chiqarishning ortishi kutilayapti. Bu asosan Xitoyda cho'chqa go'shti ishlab chiqarishning ko'payishi bilan bog'liq.

2023-yil oxirigacha sut ishlab chiqarish 950 million tonnaga yetishi kutilmoqda. Bu 2022-yildagiga qaraganda 1,3 foiz ko'p.

Jahonda sut ishlab chiqarishning prognoz qilinayotgan o'sishi Osiyoda, xususan, Hindiston va Xitoyda sut ishlab chiqarishning ko'payishi bilan bog'liq. Shuningdek, Braziliyada ham sog'in sigirlar sonining ko'payishi va sut mahsuldarligining oshishi hisobiga sut ishlab chiqarish hajmining oshishi kutilayapti.

## Global oziq-ovqat bozori rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar

### 2023/24 yillar mavsumi uchun ishlab chiqarish prognozi

#### Bug'doy



785,1  
mln. tonna

-2,2%

o'tgan mavsumdagiga  
nisbatan

#### Moyli o'simliklar



666,7  
mln. tonna

+4,0%

o'tgan mavsumdagiga  
nisbatan

#### Shakar



175,5  
mln. tonna

-2,0%

o'tgan mavsumdagiga  
nisbatan

### 2023-yil oxirigacha ishlab chiqarish prognozi

#### Go'sht va go'sht mahsulotlari



365,2  
mln. tonna

+0,8%

o'tgan yildagiga  
nisbatan

#### Sut va sut mahsulotlari



949,9  
mln. tonna

+1,3%

o'tgan yildagiga  
nisbatan



Tadqiqot davomida quyidagilar aniqlandi:

-2035-yilga borib, mamlakat aholisi 45,6 million kishidan oshishi kutilmoqda;

-2035-yilgacha bo'lgan davrda har yili o'rta hisobda 900-950 ming go'dak dunyoga keladi.

3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish darajasi 90% ga yetishi kutilayapti va buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida 1264 ming nafar bola uchun yangi o'rinnar tashkil etish zarur.

Prognozlarga ko'ra, 2035-yilga borib, 7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni 9737,4 ming nafarni tashkil etadi. Bu esa maktablarda qoshimcha 8,2 million o'quvchi o'rnnini yaratishni talab qiladi.

2035-yilgacha bo'lgan davrda aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi har yili 5-5,3% ga oshishi kutilmoqda.

Aholi va umuman iqtisodiyotning o'sib borayotgan talabini qondirish uchun 2030-yilgacha energiya quvvatini mavjud darajaga nisbatan kamida 1,7 barobar oshirish talab qilinadi.

Talabning taxminan 8-10 foizini tashkil etadigan mavjud taqchillik to'ldirilishi bilan o'sib borayotgan aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi 2035-yilgacha bo'lgan davrda taxminan 6,2-6,5% o'sadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagilar taklif etiladi:

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida xususiy ishtirokchilar bilan tizimli ish olib borish, ularga litsenziya va boshqa ruxsatnomalarni berish tartibini soddallashtirish.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi a'zolari byudjet mablag'larini taqsimlash va hududlarning ijtimoiy infratuzilmasini o'rta muddatli rejalashtirishda demografik rivojlanish prognozlarini hisobga olishi zarur.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida xalqaro va mahalliy ishtirokchilar, shuningdek, tegishli texnologiyalarni yetkazib beruvchilar ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga o'rta muddatli talab mavjud ekaniga ishonchi komil bo'lishi mumkin.

Demografik yukning ortib borishini hisobga olgan holda energetika tizimlarini boshqarish va rivojlantirish borasida mutlaqo yangi yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Uzoq muddatli istiqbolda aholini resurslar bilan barqaror ta'minlashning omili sifatida energetika, suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni muvofiqlashtirilgan holda, bosqichma-bosqich o'tkazish tavsiya etiladi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI UCHUN DEMOGRAFIK PROGNOZLAR

### Aholi soni (2023y., ming nafar)

**36 024,9**

**2022-yilda tug'ilgan bolalar soni**

**932 193**

**1991-2022 yillarda tug'ilgan bolalar soni (ming nafar)**

**21 134,1**

Eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichi, 2022 yil

**932 193**

Eng past tug'ilish ko'rsatkichi, 2003 yil

**508 457**

### 2035-yil uchun aholi soni proqnozi (ming nafar)

**45 582,6**

#### Demografik yuk

Umumiy yuk	75,8	87,4
Bolalar yuki	55,8	60,7
Yoshi kattalar yuki	19,9	26,7

### 2035-yil proqnoziga ko'ra aholi tarkibi (ming nafar)



### 2035-yil uchun kutilayotgan muassasalar soni

3364,5	Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish (ming nafar)
3738,2	3-6 yosh oralig'idagi bolalar soni (ming nafar)
8,2	O'quvchi o'rni (mln.)
9250,5	Maktab ta'limi bilan qamrab olish (ming nafar)
9737,4	7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni (ming nafar)
8450	Ambulatoriya-poliklinika muassasalar soni
28,4	Har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni
116,8	Har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan hamshiralalar soni



Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun barcha sohalarda «yashil» iqtisodiyot texnologiyalarini faol joriy etish 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi vazifalari doirasidagi maqsadlardan biri. Ushbu maqsadga erishish bir vaqtning o'zida "yashil" iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash zaruratini ham ko'ndalang qo'yadi. OECD (2011), Cedefop (2009) kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida inson resurslarini rivojlantirish iqtisodiyotni "yashillashtirish" uchun asos ekanligi ta'kidlanadi.

PMTI ekspertlari tahlil jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratdi:

1 "Yashil" iqtisodiyotga o'tish tabiiy resurslar (shu jumladan SUV) dan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi.

2. Yuqori darajadagi IT ko'nikmalariga ega bo'lgan aholi ulushining oshishi "yashil" bandlikning o'sishiga boshqa omillarga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

3. 2022/2023 o'quv yilida tayyorlanadigan kadrlarning 30% dan ortig'i "yashil" iqtisodiyotga mos keladi (taqqoslash uchun, 2019/2020 o'quv yilida 5%).

Oliy ta'lim muassasalarining 2019/2020 va 2022/2023 o'quv yillari uchun kadrlar tayyorlash parametrlari (magistratura mutaxassisliklari)ni content-tahlildan o'tkazish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Respublika oliy o'quv yurtlarida (shu jumladan, hududiy filiallarda) "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun eng zarur mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash, jumladan biotexnologlar, muqobil (quyosh va shamol) energetika, shuningdek, SUV va yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha muhandislar, iqlim xavfini baholash, bioiqtisodiyot bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

- Shu bilan birga energiya tejamkor inshootlar va texnologiyalarni, jumladan sun'iy intellektni loyihalash, foydalanish va ishlab chiqarish bo'yicha kadrlar tayyorlash ham yo'lga qo'yilgan.

## "Yashil" iqtisodiyot uchun tayyorlanayotgan kadrlar

### 2019-2020 yillarda tayyorlangan kadrlar

	Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish
	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror atrof-muhit fizikasi
	Biotexnologiyalar
	Atrof-muhit va inson salomatligi
	Mekatronika va robot texnikasi
	Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi

### 2022-2023 yillarda tayyorlangan kadrlar

	Yarim o'tkazgichli materiallar nanotexnologiyasi
	O'rmonchilik
	Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi
	Ekologiya
	Suv xo'jaligida smart (intellektual) o'lchash tizimlari va asboblari
	Bioiqtisodiyot

### 2019-2020 o'quv yili

5%



### 2022-2023 o'quv yili

30%





Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati va Qonunchilik palatasi, vazirlik va idoralari, oliy ta'limga muassasalari, OAV vakillari ishtirok etdi.

Ma'lumki, O'zbekiston 2015-yilning sentyabr oyida dunyodagi 192 ta mamlakat bilan birgalikda BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan Global kun tartibiga qo'shilgan va uni bajarish yuzasidan majburiyat olgan va 2019-yilda Birinchi ixtiyoriy milliy hisobotni tayyorlab, uni BMTning xalqaro forumida taqdim etgandi.

Mazkur Ikkinchi ixtiyoriy milliy hisobotning dastlabki variantida O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish, xususiy sektor va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlar, gender tengligini ta'minlash bo'yicha salohiyati va imkoniyatlari ochib berilgan.

Hisobotda mamlakatning barqaror rivojlanishi yo'lidagi ichki va tashqi tahdidlar, so'nggi yillarda barqaror rivojlanishning alohida milliy maqsad hamda vazifalarini amalga oshirishda erishilgan yutuqlar, natijalar va kamchiliklar,

yaqin vaqt ichida barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishish bo'yicha tashlanayotgan aniq qadamlar haqida ham so'z yuritilgan.

Mazkur hisobot dastlabki variant bo'lgani bois ochiq muhokama qilish uchun fuqarolik jamiyati institatlari, OAV, vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlarning vakillariga taqdim etildi. Maqsad uni yanada takomillashtirish. Taqdimot davomida ham bir qator takliflar bildirildi. Xususan, bu takliflar orasida hisobotda korrupsiyaga qarshi kurashni aks ettirish, jamiyat hayotida parlamentning rolini oshirish, axborot bazasini yaxshilash, sog'liqni saqlash tizimiga ko'proq e'tibor qaratish va boshqalar bor.

Endi hisobotning dastlabki varianti bildirilgan takliflar asosida qayta ko'rib chiqiladi, takomillashtiriladi va so'ngra ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritiladi. Takomilga yetkazilgan Ikkinchi ixtiyoriy milliy hisobot 2023-yilning iyun oyida Birlashgan Millatlar tashkilotiga taqdim etiladi.





Mehnat bozori indeksi mehnat bozoridagi holatni baholash va monitoring qilishda yordam beruvchi indeks bo'lib, mehnat bozorining joriy holatini bevosita aks ettiruvchi 5 ta ko'satkichchni o'z ichiga oladi.

MBI ni hisoblash uchun ishsizlik darajasi, mavjud bo'sh ish o'rnlari va rezyumelar soni, mehnat bozoridagi konsentratsiya koeffitsiyenti va o'rtacha oylik maosh miqdori kabi ko'satkichlardan foydalanildi.

Mehnat bozori indeksini hisoblash natijalariga ko'ra, hududlar indeks ko'satkichlari yuqori, o'rta, past va o'ta past bo'lgan to'rtta guruhga bo'lindi.

2022-yil yakunlariga ko'ra, indeks ko'satkichlari yuqori bo'lgan guruhga Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari kirdi. Bu hududlarda ishsizlik darajasi respublika bo'yicha o'rtacha ko'satkich (8,9%) dan past – Toshkent shahrida 6,5%, Navoiy viloyatida 8%, Toshkent viloyatida 8,8%.

O'rta guruhga Buxoro, Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Xorazm, Namangan viloyatlari kirdi. Bu hududlardagi o'rtacha oylik maosh respublika miqyosidagi o'rtacha ko'satkichning 80% idan kam emas. Mehnat taklifi esa nisbatan o'rtamiyona, ya'ni bitta bo'sh ish o'rniqa o'rta hisobda 5,6 ta rezyume to'g'ri keladi. Ihsizlik darajasi 9,1% dan oshmaydi.

Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi indeks ko'satkichlari past bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Ushbu hududlarda eng yuqori konsentratsiya koeffitsiyenti kuzatildi, ya'ni bitta bo'sh ish o'rniqa Qoraqalpog'iston Respublikasida 17,4 ta, Surxondaryoda 14,1 ta, Jizzax viloyatida 12,0 ta rezyume to'g'ri keladi.

Qashqadaryo viloyatida mehnat bozori indeksi juda past, aniqrog'i 2,2 ni tashkil etdi. Buning asosiy sababi har bir bo'sh ish o'rniqa 16,8 nafar talabgor to'g'ri kelishi, ya'ni bo'sh ish o'rnlari soni ish qidirayotganlar sonidan ancha kam va o'rtacha oylik maosh respublikadagi o'rtacha ko'satkichdan ancha past ekanligidir.

2022-yilda «mahallabay» ishslash tizimiga o'tilishi va hokim yordamchilari faoliyatining yo'lga qo'yilishi hududlardagi ishsiz fuqarolarning katta qismini ro'yxatga olish va ularning rezyumelarini Milliy vakansiyalar bazasiga (ish.mehnat.uz) kiritish imkonini berdi. Bu esa o'z navbatida ishsiz aholini faol ish qidiruvchi holatiga o'tkazib, Toshkent shahridan tashqari barcha hududlarda MBI ko'satkichlarining 2021-yildagiga nisbatan pasayishiga olib keldi.

## Hududlarning mehnat bozori indeksi





Oliy ta'lum sohasi iqtisodiyot, inson kapitali va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi:

Umumiy ta'lum xizmatlarida oliy ta'limgan ulushi 2017-yilda 47% ni tashkil etgan bolsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 51% ga yetdi.

2017–2022-yillarda oliy ta'lum tizimidagi professor-o'qituvchilar soni 1,6 marotaba oshdi; 2021/2022 o'quv yilida oliy ta'lum muassasalarida o'qiyotgan xorijlik talabalar soni 2017/2018 o'quv yilidagiga nisbatan 4 marotaba oshdi va 5,1 ming kishini tashkil etdi; O'zbekistonda oliy ta'lum muassasalarining Ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlasmalariga real xarajatlari 1,3 marotaba o'sdi.


Oliy ta'lum bozori rivojlanish tendensiyalarining tahlili so'nggi besh yilda oliy ta'lum muassasalari (OTM) soni 2,5 barobardan ko'proqqa (2017/2018 o'quv yilidagi 72 tadan 2022/2023 o'quv yilida 189 taga), talabalar soni esa 3 barobardan ko'proqqa oshganini (2017/2018 o'quv yilidagi 298 ming nafardan 2022/2023 o'quv yilida 1,04 million nafargacha) ko'rsatdi.

Oliy ta'lum xizmatlarini ko'rsatishda oliy ta'lum muassasalari o'rtasidagi raqobat darajasini hisoblash uchun Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI yoki Herfindahl-Hirshman Index) qo'llaniladi. Indeks oliy ta'lum muassasalari talabalari bozor ulushi kvadratlari yig'indisi yordamida oliy ta'lum muassasalari o'rtasida bozor ulushining taqsimlanishini tavsiflaydi.

2017–2022-o'quv yilida oliy ta'lum muassasalarida ta'lum bozori konsentratsiyasi indeksi 191 dan 147 gacha kamaygan. Bu esa oliy ta'lum muassasalari o'rtasidagi raqobatning jadallashganini ko'rsatadi.

Hududlar bo'yicha oliy ta'lum bozori konsentratsiya indeksini hisoblash oliy ta'lum xizmatlari bozori hududlar darajasida mo'tadil konsentratsiyalashganini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich hududlarning respublika bo'yicha talabalar sonidagi ulushi asosida hisoblandi. Oliy ta'limgan hududiy konsentratsiya darajasi 2017/2018 o'quv yilidagi 1745 dan 2022/2023 o'quv yilida 1525 ga tushgan. Biroq, indeksning so'nggi 2 yilda oshgani yangi paydo bo'layotgan oliy ta'lum muassasalarining ko'proq Toshkent shahrida jamlanayotgani bilan bog'liq.

Qashqdaryo, Surxondaryo, Namangan va Toshkent viloyatlari har 10 000 kishiga to'g'ri keladigan talabalar zichligi eng past hududlar sirasiga kiradi. Bu hududlar HHI indeksiga ham eng kam hissa qo'shgan. Ularda mintaqaviy konsentratsiyani kamaytirish uchun yangi oliy ta'lum muassasalarini joylashtirish maqsadga muvofiq.





1870-yilda ta'lif sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli o'zgarishlarga qadar Yaponiya aholisining aksariyati savodsiz bo'lgan. Faqat samuraylargina ta'lif olish imkoniyatiga ega edi. Oddiy aholi faqat boshlang'ich savodxonlik va hisoblashni o'rgangan.

Meydzi islohotlari davrida, birinchi navbatda, ta'lifning hamma uchun tengligi e'lon qilindi. Bu davrda Fransiya, AQSh va Prussiya namunasida milliy ta'lif tizimi yaratildi. Hamma joyda boshlang'ich va crta maktablar, shuningdek, universitetlar ochila boshlandi. Chet ellik o'qituvchilar keng jalb qilindi, maktabda o'qitiladigan fanlar sezilarli darajada ko'paydi.

Ta'kidlash kerakki, shu bilan birga, hukumat milliy o'ziga xoslikni saqlashga katta e'tibor qaratdi. Barcha ta'lif muassasalarida g'arblashtirish davrida milliy qadriyatlarni saqlash bo'yicha ko'rsatmalar to'plamini o'z ichiga olgan ta'lif to'g'risidagi Imperatorlik reskripti keng qo'llanildi.

Hukumat iqtisodiyotning o'sib borayotgan tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash zarurligini anglagan holda 1886-yilda Senmon-gakko kasb-hunar-texnika bilim yurtlari tizimini tashkil etdi. Ushbu maktablar oliy ma'lumotga ega bo'lishga qiziqishi bo'Imagan talabalarga amaliy ta'lif berishga qaratilgan edi.

Hozirgi kunda ular universitetlar va kollejlardan farqli o'laroq, moslashuvchan, kasbga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtlari tizimi hisoblanadi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda ta'lif sohasida markazlashtirishdan voz kechish, boshqaruvni demokratlashtirish va yanada moslashuvchan ta'lif tizimini yaratish bo'yicha islohotlar olib borildi. Xususan, har bir prefektura va munitsipalitetda ushbu sohani boshqarish uchun mas'ul bo'lgan ta'lif kengashlari tashkil etildi. Uning a'zolari mahalliy aholi tomonidan saylangan.

Yaponiya tajribasi asosida O'zbekiston uchun ta'lifni boshqarish tizimini markazlashtirmaslik maqsadida hududiy asosda ta'lif kengashlarini tashkil etish lozim. Senmon-gakkoning muvaffaqiyatlari tajribasiga asoslanib, O'zbekiston «Senmon-gakko» elementlaridan foydalangan holda davlat va xususiy texnikum hamda kollejlar tizimi va tuzilmasini asta-sekin o'zgartirishi maqsadga muvofiq.

**Batafsil:** [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese\\_xperience](https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese_xperience)





Yaponiyada fan va texnologiyalar taraqqiyotini shartli ravishda 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1. G'arb texnologiyalarini faol jalg etish davri (1853-1945 yillar). Ushbu davrda Yaponiya chet el texnologiyalarini mamlakatga jalg qilish siyosatini olib bordi. Bu jarayonda hukumat muhim rol o'ynadi. U xorijiy nou-xau asosida yirik korxonalarning yaratilishiga hissa qo'shdi, keyinchalik ular dzaybatsu (sanoat-moliya guruhlari) ga aylandi va Yaponiyaning sanoat va texnologik taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. .

2. O'zlashtirish davri (1945-1973 yillar). 1950-1960 yillarda texnologiya siyosatida tanlash (selektiv) yondashuvi ustunlik qildi. Yaponiya eng so'nggi fan va texnika yutuqlarini faol ravishda o'zlashtira boshladi. 1950-1978 yillarda uning hisobida 26 ming xorijiy patent va litsenziya mavjud bo'lib, ulardan olingan umumiy daromad 70 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bundan tashqari, 60-yillarda «Katta loyihalar» deb nomlanuvchi Milliy tadqiqot va ishlanmalar dasturi ta'sis etildi.

3. O'z texnologik salohiyatini mustahkamlash davri (1973-yildan hozirgi kungacha). 1973-yildan Yaponiya o'z texnologiyalari va innovatsiyalarini rivojlantirishga e'tibor qarata boshladi va ilmiy-tadqiqot ishlariiga xarajatlarni oshirdi.

Bu mamlakatda mavjud texnologiyalar asosida mutlaqo yangi mahsulotlar yaratish va ularni takomillashtirishga xizmat qildi.

Yaponiyada zamonaviy milliy innovatsion tizimni shakllantirishga hissa qo'shadigan muhim element texnopolislardir. Yaponiyaning butun hududi 19 ta texnopolisga bo'lingan. Hozirgi bosqichda texnopolislar yirik, o'rta va kichik shaharlarga aylantirilmoqda: Xamamatsu, Nagaoka, Yamaguchi shular jumlasidandir. Yaponiya texnopolislari an'anaviy sanoatga asoslangan bo'lib, ular atrofida zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan boshqa turdosh tarmoqlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Shu bilan birga, keyingi yillarda Yaponiya bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ulardan biri bu aholining keksayishi va kamayishi bilan bog'liq. Bu muammo ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlari uchun yetarlicha insoniy va moliyaviy resurslarni ta'minlashni qiyinlashtirmoqda.

**Batafsil:** [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese\\_xperience](https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese_xperience)




## 2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalari

**Turistik xizmatlar eksporti**  
(mln. AQSH dollarri)



**Chet ellik sayyojar soni**  
(ming kishi)



**Sayyojar oqimining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(ming kishi)



**Turizmning jami xizmatlar eksportidagi ulushi (%)**



**Asosiy sayyojar oqimidagi ulushlar (%)**

	2017	2022		2017	2022
Transport xizmatlari	9,7	27,8	Qozog'iston	66,3	29,8
IT xizmatlari	13,9	26,1	Qirg'iziston	5,3	10,9
Boshqa xizmatlar	2,1	1,4	Tojikiston	1,4	0,4



### O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning asosiy natijalari



2017–2022-yillarda O'zbekistonga kelgan chet ellik sayyojar soni deyarli 2 barobar oshdi. Agar 2017-yilda ularning soni 2,7 million nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'satkich 5,2 million nafarga yetdi.

2022-yilda O'zbekistonga sayyojar asosan Qozog'iston (1551,1 ming kishi, 2017-yilda 1783,8 ming kishi), Tojikiston (1447,8 ming kishi, 2017-yildagiga nisbatan 5,5 barobar ko'p) va Qirg'iziston (1356,9 ming kishi, 2017-yildagiga nisbatan 3,6 barobar ko'p) dan kelgan.

Xorijlik sayyojharning asosoji qismi, aniqrog'i 89,1% i O'zbekistonga o'z qarindoshlarini yo'qlash maqsadida kelgan. Ularning aksariyati Qozog'iston (31,8%), Qirg'iziston (29,2%) va Tojikiston (27,9%) fuqarolaridir.

Dam olish va hordiq chiqarish maqsadida O'zbekistonga eng ko'p chet ellik fuqarolar Rossiya (37,6%), Qozog'iston (11,2%) va Turkiyadan (6,3%) kelgan.

Ma'lumot uchun: Dunyodagi 91 ta mamlakat fuqarolari O'zbekistonga kelish uchun vizasiz tartibdan foydalanishi mumkin. Taqqoslaydigan bo'lsak, Qozog'istonga 26 ta, Turkiyaga 41 ta, Gruziyaga esa 56 ta mamlakat fuqarolari vizasiz kela oladi.

2022-yilda O'zbekistonga kelgan sayyojar soni 2021-yildagiga nisbatan 3,4 million kishiga ko'p bo'ldi va o'sish 2,8 barobardan ham ortiqni tashkil etdi. Buning natijasida turizm xizmatlari eksporti sezilarli darajada oshdi. 2017-yilda turizm xizmatlari eksporti 546,9 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'satkich 2,9 barobar oshib, 1610,5 million dollarni tashkil etdi.

2017–2022-yillarda xizmatlar eksportining umumiylajmi hajmida turizm xizmatlari eksportining ulushi 1,8 barobar oshdi. Agar 2017-yilda bu ko'satkich 22,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 40,7% ga yetdi.

Turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar samarasi sohaning salohiyati katta ekanligidan dalolat beradi. O'zbekistonning jahon miqyosida turistik jozibadorligini oshirish uchun turizmning etnik va ekologik turizm kabi yangi yo'nalishlarini rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimizning turli hududlarida tematik festivallarni tashkil qilish taklif etilmoqda.



Bugungi kunda O'zbekistonda mehnatga layoqatli ayollarning yarmi iqtisodiyot sektorida band. Shu bilan birga, ayollar o'ttasida ishsizlik darajasi taxminan 13-14 foizni tashkil qiladi. Bu ko'p hollarda ularning uy ishlari va bola parvarishida band ekanligi bilan bog'liq.

Mavzuni o'rganish jarayonida onlayn so'rov o'tkazildi va unda 1047 kishi ishtirok etdi. Ularning 52,6 foizi ayollar, 47,4 foizi erkaklardir.

### So'rov natijasida kir yuvishning quyidagi o'ziga xos jihatlari aniqlandi:

- aholining kundalik turmushida kir yuvish mashinasidan foydalanish darajasi o'rtacha 69,3 foizni tashkil etadi (qishloqlarda – 49,5 foiz, shaharlarda – 82,3 foiz), kirni qo'lda yuvadiganlar ulushi - 31 foiz;
- respondentlarning 48,6 foizi kirni haftada 2 marotaba, 22,8 foizi bir marotaba, 25 foizi esa har kuni yuvishini bildirdi;
- so'rovda qatnashganlarning 65,2 foizi kir yuvish uchun 1-2 soat, 21,8 foizi 30 daqiqa, 13,0 foizi 3 soat va undan ko'proq vaqt sarflashini ta'kidlagan. 3 soatdan ortiq vaqt sarflaydiganlarning asosiy qismi kirni qo'lda yuvadi;


- shu bilan birga, uy xo'jaliklarining infratuzilma ta'minotida elektr energiyasi (54,0 foiz), suv quvuri va oqova suvlarni chiqarib tashlash hamda kanalizatsiya tizimlari bo'yicha (23 foiz) uzilishlar kuzatilishi ma'lum bo'ldi.

Xalqaro tajriba hamda so'rov natijalaridan kelib chiqqan holda markazlashgan kir yuvishda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan kirkxonalarini tashkil etish masalasini ko'rib chiqishni taklif etish mumkin.

Respondentlarning 65,3 foizi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan kirkxonalarini tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Ularning 26,1 foizi gigiyena va tozalik darajasining oshishini ijobjiy holat sifatida ko'satgan bo'lsa, 22,3 foizi vaqtini tejash imkoniyati paydo bo'lishinni ta'kidlagan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatiladigan kirkxonalarini tashkil etish oyiga o'rtacha 10 soatdan 24 soatgacha vaqtini tejash imkonini beradi. Bu vaqtadan savodxonlikni, kasb mahoratini oshirishda, bola parvarishida unumli foydalanish mumkin.

### UY XO'JALIKLARIDA MAISHIY XIZMATLAR HOLATI: KIR YUVISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI (14 ta hudud bo'yicha 1 047 nafar respondent qatnashgan so'rov asosida)





Unda mamlakatimizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan jami 1282 nafar respondent ishtirok etdi.

So'rov natijasi O'zbekistonda ichki turizmning intensivlik darajasi yuqori emasligini ko'rsatdi. Xususan, respondentlarning 34,7 foizi sayohat qilmasligini, 42,0 foizi yilda bir marotaba, 14,4 foizi har uch oyda bir marotaba sayohat qilishini qayd etgan.

So'rov mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan sayohatlarning deyarli 50 foizi 4 ta hudud, ya'ni Samarqand (15,8 foiz), Buxoro (9,4 foiz), Toshkent (10,6 foiz) viloyatlari va Toshkent shahri (11,4 foiz)ning hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,0 foiz) eng kam ulushga ega.

Sayohatni qaysi ko'rinishda amalga oshirasiz, degan savolga respondentlarning 81,2 foizi mustaqil ravishda, 15,5 foizi ish joyidan uyushtirilgan holda, 2,4 foizi turoperatorlar yordamida, deya javob bergen. So'rov hamyurtlarimiz sayohatga asosan shaxsiy avtomobili (56,8 foiz) va poyezd (17,3 foiz) da chiqishini ko'rsatdi.

Turizm yo'naliishlariga kelganda, so'rov qatnashchilarining 17,6 foizi tog' va tog'oldi hududlarida dam olishni, 17,1 foizi oilaviy turizmni, 22,6 foizi ziyorat turizmini, 11,5 foizi madaniy va ma'rifiy turizmni afzal ko'rishini qayd etgan.

Ichki turizmni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash masalasiga kelganda, respondentlarning 26,2 foizi shaharlararo sayohatlar uchun imtiyozlar (ovqatlanish, avtoturargohlar uchun chegirmalar) berish, 23,6 foizi arzon va sifatli jamoat transporti tizimini rivojlantrish, 11,6 foizi transport logistika markazlarini tashkil qilish zarurligini bildirgan.

So'rov natijalaridan kelib chiqib, ichki turizmni yanada rivojlantrish uchun quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

- asosiy turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda har bir hududning o'z brendini shakllantirish;
- «Turistik mahalla», «Turistik hudud» maqomiga ega aholi punktlarining reyestriни shakllantirish va elektron platformani ishlab chiqish;
- hududlar bo'yicha turistik xizmat turlari va yo'naliishlarni keng targ'ib qilish;
- mahallalarda istiqomat qiladigan va «temir daftar»ga kiritilgan oilalarga oilaviy turizm bilan shug'ullanish uchun imtiyoz berish.

### O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanishi



1 Samarkand viloyati	15,8
2 Toshkent shahri	11,4
3 Toshkent viloyati	10,6
4 Buxoro viloyati	9,4
5 Qashqadaryo viloyati	7,6
6 Jizzax viloyati	7,2
7 Xorazm viloyati	5,9
8 Fargona viloyati	5,7



### Sayohatni qaysi ko'rinishda amalga oshirasiz? (%)





O'rta ta'lifda: 2018-yilning 08-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror respublikamizda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingen baholash amaliyotining tatbiq etilishi uchun huquqiy asos yaratdi.

2019-yilda BMTning bolalar jamg'armasi - UNICEF bilan hamkorlikda 4-sinf o'quvchilarining o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan baholash natijalari e'lon qilindi.

### **Unga ko'ra o'quvchilar:**

- tabiiy-ilmiy yo'nalishda demokratik jamiyat, fuqarolarning huquq va burchlari tushunchasiga (71,1%), matematika yo'nalishida tenglama va tengsizliklarni yechish ko'nikmasiga (67,2%) egaligi bo'yicha eng yuqori ball to'pladi;
- tabiiy-ilmiy (tarixiy sanalar, atrof-muhit, inson salomatligi va xavfsizligi, ekologiya), matematika (hisoblash va tenglamalar) hamda matnni o'qish (berilgan aniq ma'lumotlarni topish) yo'nalishlaridagi savollarga javoblar bo'yicha jahondagi o'rtacha ko'rsatkich (55%) dan yuqori natijaga erishdi;
- g'oyalarni talqin va integratsiya qilish (o'qish) va tadqiqot ko'nikmalari (tabiiy-ilmiy) bo'yicha chegaraviy qiymat darajasida (50%) ekanliklarini ko'rsatdi;
- kommunikatsiya va muammolarni hal qilishning umumiy strategiyasi (matematika) (34,1) hamda to'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish (o'qish) ko'nikmalari bo'yicha eng past ballni to'pladi.

2022-yilda USAID bilan hamkorlikda 3-sinf va 5-sinf o'quvchilarining o'qish va matematika bo'yicha (EGRA) ko'nikmalarini baholash natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra, o'rta ta'lifning sifati (5-sinf o'quvchilarining natijalari) boshlangich ta'lif (3-sinf o'quvchilarining natijalariga qaraganda) sifatidan ortda qolayotgani, maktabga mutazam qatnovchi o'quvchilarining natijalari vaqt-vaqt bilan dars qoldiruvchi o'quvchilarnikidan yuqoriligi aniqlandi.

2022-yilda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha savodxonlik ko'nikmalari (PISA) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlikda baholandi.

O'rta ta'lifning 3-, 6-, 7- va 10-sinf o'quvchilari uchun darsliklar baholash natijalari asosida, baholash jarayonida aniqlangan zaif jihatlarni bartaraf etishni hisobga olgan holda qaytadan chop etildi.

Oliy ta'lif tizimida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni tizimini isloh qilish uchun huquqiy asos yaratdi.

### **Natijada 2017-2023 yillar oraliq'ida:**

- QS World University Rankingsda eng yaxshi mingtalikka kirgan xorijiy oliy ta'lif muassasalarining filiallari soni 3 tadan 9 taga;
- Jami xorijiy oliy ta'lif muassasalarining soni 7 tadan 28 taga;
- xususiy oliy ta'lif muassasalari soni 53 taga yetdi.

Shuningdek, oliy ta'lif xizmatlari bilan aholining barcha qatlamlarini qamrab olish uchun alohida kvotalar ajratildi. Yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi.

# O'rta va oliy ta'limgoh sohasidagi institutsional o'zgarishlarning amaldagi ijrosi (2017-2022 yillar)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yildagi "Xalq ta'limi tizimida ta'limgoh sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

2018-y.

4-sinf  
o'quvchilarining  
ko'nikmalari



hamkorligida baholandi

2019-y.

3-5 sinf  
o'quvchilarining  
ko'nikmalari **EGRA**  
testlari orqali



hamkorligida baholandi

2022-y.

15 yoshdagi  
o'quvchilarning  
ko'nikmalari **PISA**  
testlari orqali



hamkorligida baholandi

2022/2023 O'quv yili

Baholash natijalari asosida  
3-, 6-, 7-, 10-sinflar uchun  
**darsliklar qayta chop etildi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi  
oliy ta'limgoh tizimini 2030-yilgacha  
rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash  
to'g'risida"gi Farmoni

2017-y.

3 ta

QS reytingining 1000  
taligiga kirgan  
xorijiy oliy ta'limgoh  
muassasalari

9 ta

7 ta

Jami xorijiy  
oliy ta'limgoh  
muassasalari

28 ta

mavjud emas

Xususiy  
oliy ta'limgoh  
muassasalari

53 ta

9 %

Yoshlarning oliy  
ta'limgoh bilan qamrab  
olinishi

38 %



Nobel mukofotining 2019-yildagi sohiblaridan biri Ester Dyuflo o'tkazgan tadqiqotga ko'r'a, jahon miqyosida 2,5 milliard kishi sanitariya talablariga javob bermaydigan hojatxonalardan foydalanadi va qishloq joylarda sanitariya talablariga javob beruvchi hojatxonalarini qurish diareya bilan kasallanish holatlarini 30-50 foizga kamaytiradi.

PMTI tomonidan hududlarga chiqib o'tkazilgan tadqiqot bu yerda istiqomat qiluvchi aholi hojatxonalarining sanitariya talablariga javob bermasligiga oid indikatorni kambag'allik uchun ahamiyatsiz deb hisoblashini ko'rsatdi.

### Aslidachi? Sanitariya sharoiti qanchalik muhim?

Tadqiqotlarga ko'r'a, Hindistonda diareya tufayli har yili 400 ming nafardan ortiq kishi hayotdan bevaqt ko'z yumadi. Inson axlatining 1 grammida 10 milliontagacha virus, milliontagacha bakteriya, mingtagacha parazit kistasi va yuzga yaqin parazit tuxumi bo'lishi mumkin.

Sanitariya talabiga javob bermaydigan maktab hojatxonalarini bolalarning u yerga kirmasligiga sabab bo'ladi. Shvetsiyada 6-16 yosh oralig'idagi bolalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari bolalarning salkam 16 foizi matabda kichik hojatga umuman chiqmsligini ko'rsatdi.


Bu holat yoshi kattaroq (13-16 yosh) bolalar orasida yanada yomonroq – 25 foiz. Bolalar asosiy sabab sifatida matabdagi hojatxonaning ko'rinishi va hidini keltirgan. Bu esa kun davomida bolalarning yetarlicha suv ichmasligiga olib keladi. Chunki ular hojatga chiqmaslik uchin ham suv ichishdan o'zlarini tiyadi.

### O'zbekistonda ahvol qanday?

Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (WHO) va BMT Bolalar jamg'armasi (UNICEF) ma'lumotlariga ko'r'a, 2019-yilda O'zbekistondagi matablarning 13 foizida qo'lni sovun va suv bilan yuvish uchun sharoit bo'lмаган. Matablarning 83 foizi toza ichimlik suvi, 78 foizi esa sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'лган.

PMTI hisob-kitoblariga ko'r'a, O'zbekistonda aholining 41 foizi sanitariya sharoitiga javob bermaydigan chuqr kavlama ko'rinishidagi hojatxonadan foydalanadi. Qishloqlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan yuqori. Hozirgi holatda sanitariya talablariga javob bermaydigan chuqr kavlamalarni ventilyatsiya qilinadigan va plitalar bilan qoplangan holatga keltirish tavsiya etiladi. Birinchi qadam sifatida, ushbu chora-tadbirlarni maktablarda boshlash va sanitariya talabiga javob bermaydigan barcha matab hojatxonalarini ta'mirlash maqsadga muvofiq.

### Uy xo'jaliklaridagi hojatxonalarning turlari (foizda)





O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish va o'zgartirish Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va 2018-yilda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Natijada:

- 1) 2017-2021 yillarda davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimi uchun ajratilayotgan xarajatlar qariyb 3 barobar oshdi. Agar xarajatlar 2017-yilda 7330 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 21 047,8 milliard so'mga yetdi. Shunday qilib, 2021 yilda davlat byudjeti xarajatlaridagi ulush 12,7 foizni tashkil etdi.
- 2) Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 2022-yilda 2017-yildagiga nisbatan 1,8 barobar o'sdi va 10547 tani tashkil etdi.

2017-yilda xususiy tibbiyot muassasalari soni 4000 ta edi, bugun esa ularning soni 7320 ta. Ularning 5823 tasi ambulator, 1497 tasi statsionardir. Natijada ko'rsatilayotgan sog'liqni saqlash xizmatlarining umumiy hajmi 3,8 marotaba oshdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda aholi o'rtasida yangi kasallanish holatlari kamaygan:  
- sil kasalligi (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 44,9 nafardan 2022-yilda 35,9 nafargacha;  
- gepatit B (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 0,8 nafardan 2021-yilda 0,3 nafargacha;  
- 2- toifa qandli diabet (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 21,4 nafardan 2021-yilda 18,3 nafargacha.

Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 2017-yildagi 73,7 yoshdan 2021-yilda 73,8 yoshga ko'tarilib, quyidagi ko'rsatkichlar yaxshilandi:


- onalar o'limi koeffitsiyenti (har 100 000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa) 2017-yildagi 21 nafardan 2021-yilda 14,4 nafargacha kamaydi;
- 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi koeffitsiyenti 2017-yildagi 15,4 nafardan 2021-yilda 12,3 nafargacha kamaydi;

- aholi o'rtasida o'z joniga qasd qilish tufayli hayotdan ko'z yumish ko'rsatkichi (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 7,5 nafardan 2021-yilda 6,4 nafargacha kamaydi.

O'zbekistonda yil sayin jadal rivojlanayotgan tibbiyot turizmining rivojlanishi sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning sezilarli natijasi bo'ldi. Agar 2017-yilda O'zbekistonga davolanish maqsadida kelgan sayyoohlар soni 28 ming 705 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 69 ming 984 nafarni tashkil etmoqda. Masalan, Samarqand shahrida 8 ta yirik mehmonxonani o'z ichiga olgan yirik turistik klaster (kuort tipidagi mehmonxona) tashkil etildi. Ulardan biri yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatadigan kuort tipidagi mehmonxona.

"2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi"da mamlakatimiz tibbiyot tashkilotlarining turizm salohiyatini tubdan oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Shunday qilib, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'rtacha umr ko'rish davomiyligining yaxshilanishi, onalar va bolalar o'limining, shuningdek, aholi o'rtasida yangi kasallanish holatlarining kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh etishh sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va tibbiyot turizmining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



**2017-2022 yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlar tufayli quyidagi natjalarga erishildi:**



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan texnologik, iqtisodiy va operatsion jihatdan onlayn ta'limga yo'lg'a qo'yish imkoniyatlari yanada ortdi. COVID-19 pandemiyasi tufayli masofaviy ta'limga tez o'tish onlayn ta'limga xizmatlariga talabning oshishiga olib keldi.

AQShda magistratura bosqichidagi talabalarning 22 foizga yaqini, bakalavriat bosqichidagi talabalarning 11 foizi onlayn tartibda ta'limga oladi. 2023-yilda onlayn ta'limga tushadigan daromad 74,80 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Akademik menejerlarning aksariyati (75 foiz) onlayn kurslardagi ta'limga natijasi sinfdagi kurslar natijasi bilan bir xil yoki yaxshiroq ekanligini e'tirof etmoqda.

2021-2026 yillar oraliq'ida Buyuk Britaniyada elektron ta'limga bozorining ulushi 11,57 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Barcha kurs mavzulari video, audio, matn yoki infografikadan iborat kichikroq qismlarga bo'lingan mikrota'limga tarqalishi Buyuk Britaniyadagi elektron ta'limga bozorining asosiy tendensiyalaridan biri bo'lib, bozorning o'sishiga turki bo'lmoqda.

Bugungi kunda Coursera va edX kabi ma'lum bir onlayn platformalar mavjud bo'lib, ular dunyoning 200 dan ortiq yetakchi universitetlari va kompaniyalari bilan hamkorlikda onlayn kurslarni taqdim etadi. Ushbu onlayn platformalar yashayotgan shahridan turib magistr va bakalavr darajasini olish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu platformalar orqali tahsil olayotganlar kampusdagi talabalar bilan bir xil o'quv dasturidan foydalanish imkoniyatiga ega.

Karantin choralaridan so'ng O'zbekistonda onlayn ta'limga tez sur'atlarda takomillasha boshladi. O'tgan yilning oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limga joriy etish to'g'risidagi nizomni tasdiqlagan edi. 2023/2024 o'quv yilidan boshlab davlat va xususiy oliy ta'limga muassasalariga masofaviy ta'limga yo'nalishida kadrlar tayyorlashga ruxsat berildi.

Eslatib o'tamiz, 2022-yilning oktyabr oyida Coursera va O'zbekiston o'rtaida IT-ta'limga sohasida hamkorlik memorandumi imzolangan edi. Platforma 2023-yildan boshlab mavjud bo'lgan kodlash bo'yicha 1,2 millionga yaqin bepul kurslarini ajratadi.

Elektron ta'limga quyidagi sabablar tufayli samarali hisoblanadi:

- ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshiradi (mehnat bozorida erkaklarning 73,1 foizi ishtirok etadi, bu ko'rsatkich ayollarda 39,9 foizni tashkil etadi). Shuningdek, oilalar qizlarning ta'limga olishiga o'g'il bolalarga qaraganda kamroq mablag' ajratadi. Jahan banki ma'lumotlariga ko'ra, 25 yoshdan oshgan aholi orasida bakalavr darajasiga ega erkaklar ulushi 20,8 foizni, ayollar ulushi esa 13,3 foizni tashkil etadi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarga oliy ta'limga olish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi;
- mamlakatda oliy ta'limga qamrab olish darajasini oshiradi;

Tavsiyalar:

- samarali va yaxshi ta'minlangan kampus tarmog'ini tashkil etish, serverlarni samarali qo'llab-quvvatlash, talabalarni onlayn ro'yxatga olish, billing va to'lov tizimi, onlayn kitob do'koni va onlayn kutubxona xizmatlarini yo'lg'a qo'yish;
- an'anaviy va masofaviy ta'limga aralashmasi bo'lgan gibrildi ta'limga shaklini joriy etish, ma'ruzalarni onlayn tarzda o'tkazish (chunki ular talabalarning o'zaro ta'siri va faol ishtirokini talab qilmaydi, seminarlar esa an'anaviy o'qitish shaklida o'tkazilishi mumkin);
- masofaviy ta'limga kirishda ayollarga imtiyozlar berish;
- o'rta yoki qo'shimcha fanlarni onlayn, asosiyalarini esa an'anaviy ta'limga shaklida o'tkazish maqsadga muvofiq.



Tadqiqot doirasida 10 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan bolalarning ota-onalari ishtirokida so'rov ham o'tkazildi.

So'rovda 2100 kishi ishtirok etdi. (N=2100). Respondentlarning 72 foizini ayollar, 28 foizini erkaklar tashkil etdi. Ta'lim darajasi bo'yicha ularning 4,6 foizi ilmiy darajaga, 36,1 foizi oliy ma'lumotga, 21,2 foizi o'rta, 38,2 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega.

1. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 28,7 foizi keksa ota-onasi bilan yashashi ma'lum bo'ldi. Farzandlaringiz tarbiyasiga kim ko'proq ta'sir qiladi, degan savolga ota-onalarning 41,6 foizi ona, 27,4 foizi ota, 9,3 foizi bobo va buvilar, 8,1 foizi aka-opalar, 7,3 foizi o'qituvchilar, 3,7 foizi begonalar va 2,5 foizi boshqa qarindoshlar, deb javob bergan.

2. So'rovda ishtirok etganlarning aksariyati (80,2%) farzandlarini ma'lum kasb bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib, elga taniladigan inson sifatida ko'rishi ma'lum bo'ldi. Moddiy ta'minlanganlik va mulk egasi bo'lishi ikkinchi orzu bo'lib qolmoqda (7,9%). Ushbu savolning javoblari ota-onalarning millati va ma'lumot darajasi, farzandning jinsi bo'yicha farq qilmaydi.

3. Aksariyat ota-onalar (95,8 foiz) farzandlari kelajagi borasida o'zaro maslahatlashgan. 88,3 foiz holatda ularning fikri bir joydan chiqqan bo'lsa, 7,2 foiz holatda fikrlar keskin farqlangan.

4. So'rovnomada javoblari shuni ko'rsatdiki, ota-onalar farzandlari kelajagini rejalashtirishda bolalarning fikriga ham e'tibor bermoqda.

Ota-onalarning 97,9 foizi o'z farzandlari bilan ushbu mavzuda suhbatlashgan bo'lib, 86,3 foizi farzandlarining tanlovin ma'qullagan, 11,1 foizi qisman ma'qullagan, 1,3 foizi esa qoniqmagan.


5. So'rovnomada javoblari binoan, yoshlarda tibbiyot yo'naliishidagi kasblarga (15,5 foiz) qiziqish kattaligi aniqlandi. Keyingi o'rirlarni o'qituvchi (9,7 foiz), IT mutaxassisligi (9,3 foiz), iqtisodchi (sohalar bo'yicha) (8,2 foiz), tadbirkor (7,7 foiz) kabi kasblar egalladi. Respondentlarning 2,5 foizi farzandlari kelajakdagi kasbi haqida hali bir qarorga kelmaganini ta'kidlagan. Qizlar kutilganidek ko'proq shifokor (16,3 foiz) va o'qituvchi (13,8 foiz) kasblarini tanlagan bo'lsa, o'g'il bolalar birinchi o'rinda IT mutaxassisligi (18,7 foiz), keyin esa shifokor (13,7 foiz), iqtisodchi (13,2 foiz) va tadbirkor (11,2 foiz) kasblarini afzal ko'rgan.

6. Farzandining kasb to'g'risidagi qarori qanday bo'lmasin, ota-onalarning 81,6 foizi bu qarorni bajonudil qabul qilishini, 12,7 foizi esa ushbu qarorni o'zgartirish kerakligini iltimos qilishini aytgan.

7. Ota-onalarning 55,7 foizi farzandlariga nisbatan talabchanlik qilish, kerak bo'lganda yordam ko'rsatish, 36,2 foizi nazorat qilish orqali tarbiya berish lozimligini, 6,4 foizi esa farzandlariga erkinlik berish kerakligini qayd etgan.

8. So'rovda qatnashgan ota-onalarning 20 foizdan ortig'i farzandlarining o'qituvchilari bilan bir oyda bir marta muloqot qilishini, 16,4 foizi esa umuman muloqot qilmasligini bildirgan.

**Vaqt bo'yicha individual xarajatlar jadvali**





Ta'lif sifatini ifodalovchi ko'rsatkich uchun abituriyentlarning 2022/2023 o'quv yili uchun OTMga kirish imtihonlarida to'plagan ballari asos qilib olindi. Aholi daromadlari, ishsizlik va bandlik, mактабгача та'lifning qamrovi va urbanizatsiya darajasi esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlari sifatida olindi. Tahlil hududlar bo'yicha amalga oshirildi.

Tahlil natijalari hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholi savodxonligi ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, umumiy daromadning aholi jon boshiga ulushi, bandlik darajasi, 1-6 yosh oralig'idagi bolalarning maktabgacha ta'lif tashkiloti bilan qamrab olinishi ko'rsatkichlari past hududlarda kam ball (56,7 ball - toplash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizi) to'plagan abituriyentlar ulushi katta (korrelyatsiya koeffitsiyentlari mos ravishda -0,41; -0,45 va -0,39).

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida urbanizatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining shaharlarda joylashishi ularda doimiy ish o'rinalining yaratilishi va farovonlikning qishloqlardagiga qaraganda yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa ularda ijtimoiy ko'rsatkichlar, jumladan ta'lif sifatining ham yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Natijalardan ko'rish mumkinki, shaharlar bo'yicha bitiruvchilarining o'rtacha bali 78,0 va boshqa hududlar bo'yicha 73,2 ni tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: «Yangi O'zbekiston» massivlarida uy-joy qurilishi va 2023-yil uchun ipoteka dasturini amalga oshirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektorda qator vazifalar belgilandi. Ular hududlarda urbanizatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar Navoiy, Nukus va Buxoro shaharlari o'rta va o'rta maxsus ta'lif sifati bo'yicha mamlakatning boshqa hududlari uchun namunaviy hududlar bo'la olishini ko'rsatdi. Bu shaharlarda joriy yil bitiruvchilarining o'rtacha bali 89,9-94,3 oralig'ida bo'lgan. Keyingi o'rnlarni Buxoro viloyatining Qorako'l (89,6) va Peshko' (88,6) tumanlari band etgan. Ta'kidlash lozimki, bitiruvchilarining o'rtacha bali va aholi daromadlari hamda maktabgacha ta'lif bilan qamrov darajasi o'rtaida bog'liqlik kuzatildi (korrelyatsiya koeffitsiyentlari mos ravishda 0,53 va 0,63).

Joriy yil bitiruvchilar kesimida Buxoro viloyati ta'lif sifati bo'yicha yetakchi hudud bo'lib, viloyat bitiruvchilarini kirish imtihonlarida o'rta hisobda 85,6 ball to'plagan. Shuningdek, Navoiy, Farg'ona viloyatlari, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida vaziyat boshqa hududlardagiga qaraganda yaxshiroq. Bu hududlarda bitiruvchilarining o'rtacha to'plagan bali 77,0-83,4 oralig'ida bo'lgan. Sirdaryo, Surxondaryo, Andijon va Toshkent viloyatlarda esa o'rtacha ball 69,5-72,7 ni tashkil etgan.

Bundan tashqari, tahlil ta'lif yo'nalishlari kesimidagi tafovutlar yuqoriligini hamda ba'zi muhim sohalarning jozibadorligini oshirish lozimligini ko'rsatdi. Davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan abituriyentlar to'plagan o'rtacha o'tish balining eng yuqori ko'rsatkichi huquq (177 ball), iqtisod (160 ball), gumanitar fanlar (158 ball), sog'liqni saqlash (157 ball), san'at (154 ball) sohalariga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar irrigatsiya va melioratsiya (92 ball) hamda qishloq xo'jalik texnikasi (93 ball) sohalarida qayd etilgan.

Olingan natijalar kundalik hayotdagि muammolardan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi kamchiliklarga barchasini ilmga sarmoya kiritish orqali hal etish mumkinligini yana bir bor tasdiqlaydi.



Mamlakatimizda byudjet taqsimotida aholining ishtiroki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan ta'minlanmoqda.

Ushbu qarorga muvofiq 2021-yilning iyul-sentyabr oylarida «Tashabbusli byudjet» bo'yicha ilk bora ovoz berish jarayoni tashkil etildi va uning doirasida fuqarolardan 41,1 mingta taklif kelib tushdi. Yakunda g'olib bo'lgan 1599 ta taklifni moliyalashtirish uchun 530,5 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

Joriy yilning fevral-aprel oylarida «Tashabbusli byudjet»ning birinchi mavsumida aholidan 55,9 mingta taklif kelib tushdi va ma'qullangan 2997 ta loyihaга byudjet mablag'lari hisobidan 2 882 milliard so'm ajratildi.

Ovoz berish jarayonida joriy mavsumda loyihamalar uchun jami 16,1 millionta ovoz berildi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda 1,1 milliontani tashkil etgani inobatga olinsa, aholining «Tashabbusli byudjet»ga qiziqishi keskin ortib borayapti, deyish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, tashabbusli byudjetlashtirish ijtimoiy va infratuzilma bilan bog'liq muammolarni manzilli hal etishda ko'mak bermoqda. Buni 2023-yil birinchi mavsum yakunlariga ko'ra moliyalashtiriluvchi 2997 ta taklifning asosiy qismini umumta'lim maktablari (1335 ta yoki 44,5%), ichki yo'llar (629 ta yoki 20,9%), sog'liqni saqlash muassasalari (370 ta yoki 12,3%), maktabgacha ta'lim muassasalari (176 ta yoki 5,8%) ni ta'mirlashga oid takliflar ekanligi misolida ham ko'rish mumkin.

Fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, joylardagi muammolarini qisqa muddatda hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi «Jamoatchilik fikri asosida shakillantiriladigan loyihamarni moliyalashtirish ko'lamenti kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, 2023-yildan boshlab «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini ham jamoatchilik fikri asosida shakllantirishi belgilandi.

«Tashabbusli byudjet» singari loyihamalar fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilash bilan bir qatorda, ulardagi amalga oshirilayotgan islohotlar va yurt kelajagiga dahldorlik hissini yanada kuchaytirshga xizmat qiladi.

### O'zbekistonda «Tashabbusli byudjet» jarayonlarining amalga oshirilishi

Berilgan ovozlar  
(mingta)



Ajratilgan mablag'lar  
(mlrd. so'm)



Bildirilgan va g'olib deb  
topilgan tashabbuslar soni



2023-yil I mavsumda  
moliyalashtiruvchi  
loyihalar mavzular kesimida

176 ta  
Maktabgacha ta'lim muassasalari

629 ta  
Ichki yo'llarni ta'mirlash

1 335 ta  
Umumta'lim maktablari

370 ta  
Sog'liqni saqlash muassasalari

397 ta  
Boshqa yo'nalishlar

90 ta  
Ko'cha chiroqlarini o'rnatish



Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari ko'ra, 2022-yilda jami iqtisodiy faol aholi 14,98 million kishini tashkil qilgan. Ularning jami 13,7 million nafari ish bilan band bo'lgan. Rasmiy sektorda band bo'lganlar soni 6,5 million (47%) nafarni tashkil qilgan.

Iqtisodiy faol aholi iqtisodiyotda band bo'lganlar va ishsizlarni o'z ichiga oladi. Bunga talabalar, bola parvarishi bilan dekret ta'tiliga chiqqanlar va o'z xohishiga ko'ra ishlamaydiganlar kirmaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami norasmiy sektorda band bo'lganlarning eng katta ulushi, ya'ni 34%i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida mehnat qiladi. Xuddi shu ko'rsatkich savdoda 14%ni, qurilishda 14%ni, sanoatda 11%ni tashkil etadi.

Norasmiy bandlar bu yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган korxonalarda ishlaydigan ishchilaridir. Ushbu toifaga mehnat munosabatlarini ro'yxatdan o'tkazmasdan ishlaydigan hufyona sektor vakillaridan tashqari, ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini-o'zi band qilganlar va ularning ishchilari kiradi.

Ta'kidlash lozimki, norasmiy sektoring kattaligi hukumatlarga iqtisodiy siyosatni samarali amalga oshirish va iqtisodiyotni tartibga solishda qiyinchilik tug'diradi.

Norasmiy sektorda band bo'lganlar sohalar kesimida rasmiy sektorda band bo'lganlar bilan bir xil miqdorda ish haqi oladi, deb faraz qilinsa, 2022-yilning o'zida 9 milliondan ortiq kishi norasmiy sektorda band bo'lgani hisobiga davlat budgetiga soliq ko'rinishida 32,9 trillion so'm mablag' tushmag'an.

### Budget mablag'larining yarmidan ko'pi ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi inobatga olinsa, bu mablag' hisobiga:

- 500 o'quvchi o'rniga ega 4 100 ta umumta'l'm maktabi qurish yoki barcha hududlardagi ta'l'm oluvchilarni sifatlari ta'l'm bilan qamrab olish uchun mavjud 10 522 ta umumta'l'm maktabining moddiy-texnik bazasini zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlash yoki

- 3 737 ta ambulator tibbiy muassasa qurish yoki
- sog'lijni saqlash tizimidagi tibbiyot xodimlarining oylik maoshini 7,8 million so'mga yetkazish yoki
- umumta'l'm maktablari o'qituvchilarining oylik maoshini 7,2 million so'mga yetkazish mumkin bo'lardi.

Ya'ni, tegishli soliqlarni to'lamasdan biroz ko'proq daromad olish orqali «yutish» bevosita boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda «yutqazish»ga olib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda norasmiy sektorda band bo'lganlar soni ma'lum darajada kamaygan. Norasmiy bandlar ulushi 2020-yilda 43%dan 2022-yilda 40%ga kamaygan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdag'i "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha ta'sirchan yangi mexanizmlarni joriy qilish, shuningdek, o'zini-o'zi band qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliq sohasida qulayliklar yaratish, tadbirkorlikni raqamlashtirish va rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinalarini tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Tegishli ravishda, ijtimoiy sohadagi muammolarni hal qilishda norasmiy iqtisodiyotni rasmiylashtirish va rasmiy biznesning o'sishini qo'llab-quvvatlash choralarini izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Germaniyaning mini jobs, Belgiyaning service voucher tashabbuslariga o'xshagan samarali va hududiy o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan innovatsion mexanizmlarni joriy etish, ayniqsa muhim.

Eng muhimi, har birimizning rasmiy faoliyat yuritish borasidagi qarorimiz o'zimizga va jamiyatga yuqoridaq kabi qator afzalliklar berishini, hayotimizning sifat jihatdan yaxshilanishiga hissa qo'shishini yodda tutishimiz lozim.



O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, binolardagi konditsionerlar haroratini 2 darajaga pasaytirish 293 million kVt-soat elektr energiyasini tejash va CO<sub>2</sub> ajralishini 155,8 ming tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

Xonalarni sovitish uchun sarflanayotgan energiya dunyoda iste'mol qilinayotgan elektr energiyasining 10 foizini, yillik issiqxona gazlari ajralishining salkam 4 foizi (1,950 million tonna) ni tashkil etadi.

Konditsioner haroratini (sovutish tartibida) 1°C ga oshirish iste'mol qilinadigan elektr energiyasini 7 foizga tejaydi, yengil kiyim kiyish esa xonadagi ideal haroratni Selsiy shkalasi bo'yicha 2 darajaga oshiradi.

Qulay harorat oralig'i 23,5°C dan (kostyumdagi ishchi uchun) 29°C gacha (yozgi kiyimdag'i kishi uchun) tashkil qiladi. Ammo ko'p hollarda termostat ko'rsatkichi eng quyi chegaraga o'rnatiladi va natijada ishchilarning katta qismi hatto yilning jazirama kunlarida ham issiq kiyim kiyadi.

Ba'zi mamlakatlarda kostyum va galstukli ishchilar uchun qulay harorat yaratish uchun konditsionerlardan foydalanmaslikk harakat qilinmoqda va qulay kundalik kiyimlar kiyish rag'batlantirilayapti. Jumladan:

Yaponiya hukumati tomonidan har yili o'tkaziladigan «Cool Biz» tadbiri orqali ofislarda ruxsat etilgan kiyinish uslubini o'zgartirish rag'batlantiriladi hamda energiyani tejashga erishiladi.

Janubiy Koreya ham 2006-yildan «Cool Biz» tadbirini tatbiq eta boshladi.

BMT Bosh kotibi energiya sarfini kamaytirish va BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohining uglerod izini kamaytirishga qaratilgan «Cool UN» tashabbusi bilan chiqdi.

Shanxayning Lutszyatszuy hududidagi 32 ta ofis binosida kostyum va galstuklar yengil kiyimlarga almashtirilgan hamda xonalardagi harorat ikki darajaga, ya'ni 26°C ga ko'tarilgan.

«Mavsumga qarab kiyinish» ob-havo omilini inobatga olgan holda va qulaylik darajasidan kelib chiqib kiyinishni anglatadi. Bu nafaqat ichki energiya iste'molini qisqartiradi, balki xarajatlarni kamaytiradi va iqlim uchun ham foydali.





Dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarning o'rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma'naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ruyxati sifatida quyidagilarni taklif qilmoqchimiz.

- 1. OTA-ONAGA EHTIROM**
- 2. TOZALIK**
- 3. HARAKATDA BARAKA**
- 4. O'ZBEK TILI**
- 5. DINIY BAG'RIKENGLIK**
- 6. SO'Z ERKINLIGI**
- 7. LAFZ (QONUN, BURCH VA KELISHUVGA SADOQAT)**
- 8. YELKADOSHLIK**
- 9. MEHMONDO'STLIK**
- 10. ROZI-RIZOLIK**

Nima uchun bu qadriyatlar muhim? Milliy qadriyatlarning aniq shakllantirilgan ro'yxati bormi yoki bo'lishi kerakmi?

Keling, bu masalaga kengroq yondashaylik. Shu choqqa qadar olimu-mutaxassislar "qadriyat" tushunchasiga turlicha ta'rif bergan. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz: "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim".

"Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi". "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha".

"Qadriyat – vogelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha".

Demak, bu ta'riflardan qadriyat - biz uchun qadrli bo'lgan urf-odat va an'analarimiz, hayotiy prinsiplarimiz, deb xulosa qilish mumkin. O'z navbatida qadriyatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi, ya'ni millat, xalq uchun xos bo'lgan qadriyatlar milliy qadriyatlar, butun bashariyat uchun xos bo'lgan qadriyatlar esa umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarni ham mohiyatiga ko'ra, tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy qadriyatlarga ajratish mumkin. Masalan, minglab yillar davomida shakllangan boy ma'naviy xazinamiz biz uchun ma'naviy qadriyat, halollik, poklik, ishonchlilik esa iqtisodiy qadriyatdir. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik mutaxassislar insonning o'zi, hayoti, huquqi va erki, sog'lom va farovon turmushini qadriyatlarning eng oliysi, deb hisoblaydi.

Bu haqida MHTI direktori Umid Obidxo'jayev materiali orqali **batafsil** tanishing.





Tadqiqot davomida so'rov o'tkazildi va unda 720 kishi (respondent) ishtirok etdi. Ishtirok etganlarning qariyb 60 foizi mamalakatimizda amalga oshirilayotgan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasidan xabardor ekanligini bildirgan.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot uchun qaysi sohalar muhim, degan savolga so'rovda qatnashganlarning 18,4 foizi chiqindilarni qayta ishlash, deb javob bergan. Respondentlarning 16,9 foizi "yashil" qurilish, 8,2 foizi ekologik turizmni eng muhim sohalar sifatida qayd etgan.

Respondentlarning 17,3 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalari, 15,4 foizi chiqindilarni qayta ishlash, 10,7 foizi shahar maydonini rejalashtirish bo'yicha mutaxassislarga va energiya tejamkor uylarning arxitektorlariga talab bugungi kunda nisbatan yuqori ekanligini e'tirof etgan.

Qaysi "yashil" mahsulotlarga talab yuqori, degan savolga respondentlarning 16,2 foizi tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari, 15,0 foizi "yashil" texnologiyalar, 13,7 foizi ishlab chiqarishda atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar, 10,8 foizi to'qimachilik mahsulotlari, 10,3 foizi tabiiy materialdan tayyorlangan mahsulotlarga, deya javob bergan.


So'rov natijalari aholi orasida organik mahsulotlarga talab boshqa mahsulotlarga nisbatan 2,2 barobar yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mahsulotlar, xizmatlar va mutaxassislarga bo'lgan talabni qondirish uchun targ'ibot ishlarini kengaytirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, "yashil" tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, integratsiyalashgan marketing strategiyasi va aloqa rejasini ishlab chiqish va ilg'or tajribalardan samarali foydalanish hamda boshqa zarur chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiq. ■

### "Yashil" biznes mahsulotlari, xizmatlari va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj


Tabiiy materialdan tayyorlangan mahsulotlar (%)



«Yashil» biznes xizmatlariga talab yuqori bo'lgan sohalar (%)



Bugungi kunda ehtiyoj katta bo'lgan mutaxassislari (%)



«Yashil» iqtisodiyotning eng muhim sohalari (%)



## Kir yuvishga o'rtacha

1,5-2 soat vaqt  
ajratadi



17 daqiqa vaqt  
ajratadi



O'zbekistonda ayollarning kir yuvish mashinalari bilan ta'minlanishi  
ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga qanday ta'sir qilishini aniqlash

o'qish vaqt  
59 soniya

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, dunyo aholining 67 foizi haftasiga kamida ikki marotaba, 31 foizi esa har kuni kir yuvadi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida istiqomat qiluvchilarning deyarli yarmi (45%) kiyimlarini har kuni yuvadi. Afrika, Yaqin Sharq mamlakatlari va Lotin Amerikasida istiqomat qiluvchilar kirni ko'proq qo'lida yuvadi.

Kirni mashinada yuvish bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida eng yuqori ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarida va Shimoliy Amerikada kuzatiladi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 ta uy xo'jaligining 95 tasida kir yuvish mashinasi bor. Kir yuvish mashinalari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi Sirdaryo viloyatida eng past - 83 ta, Toshkent shahrida esa eng yuqori - 128 ta.

Yevropa mamlakatlarida uy xo'jaliklarining kir yuvish mashinalari bilan ta'minlanganlik darajasi Italiyada 97 foizni, Avstriyada 94 foizni, Germaniyada 93 foizni, Buyuk Britaniyada 92 foizni, Fransiyada 90 foizni, Norvegiyada 88 foizni, Shvetsiyada 72 foizni tashkil etadi.

MHTI tahliliga ko'ra, agar uy xo'jaliklarining kir yuvish mashinalari bilan ta'minlanganlik darajasi 1 foizga oshadigan bolsa, bu iqtisodiy faol ayollar sonining 1,9 foiz oshishiga olib keladi.

Ayollar, ayniqa qishloqlarda istiqomat qiluvchi ayollarning kundalik hayotda avtomat kir yuvish mashinalaridan foydalanishi bir haftada o'rtacha 4 soat vaqt ni tejash imkonini beradi. Bu vaqt ni esa farzandlarning ta'lim-tarbiysi uchun sarflash mumkin. Kir yuvish mashinalaridan foydalanish suv va energiya sarfining kamayishiga ham olib keladi.



Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni imtiyozlar orqali jalb qilib, "iqtisodiy o'sish" o'choqlarini barpo qilish uchun mo'ljallangan.

Xitoy maxsus iqtisodiy zonalarida YalM ning 22 foizi yaratiladi. Mamlakatga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 45 foizi va eksportning 60 foizi aynan maxsus iqtisodiy zonalarning ulushiga to'g'ri keladi.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalar dastlab Tinch okeanining sohilbo'yи hududlarida, so'ngra Yanszi va Xuanxe kabi daryolarning havzalari yaqinida rivojlantirila boshlandi va dunyo iqtisodiyoti tarixiga "T – shaklidagi strategiya" nomi bilan kirdi. Ushbu strategiyaning amalga oshirilishi natijasida 2035-yilga borib, YalM ning aholi jon boshiga ulushini 30 ming AQSh dollariga yetkazish mo'ljallangan. Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarning jadal rivojlanishi siri nimada?

1984-yildan dastlab dengiz sohillari yaqinida joylashgan 15 ta shahar hamda 4 ta yirik shaharda, 2020-yildan boshlab esa mamlakatning barcha yirik va o'rtacha kattalikdagi shaharlarida 15 ta erkin savdo zonası, 32 ta makroiqtisodiy va texnologik rivojlanish zonası, 53 ta yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish zonası tashkil etildi. Natijada bu maxsus iqtisodiy zonalari iqtisodiy rivojlanish sur'atini tezlashtiruvchi "akselerator" rolini o'ynay boshladi.

Tadqiqot natijalariga ko'r'a, Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarning jadal rivojlanishiga quyidagi omillar turtki bo'lgani aniqlandi:

1. Maxsus iqtisodiy zonalar direksiya-siga Markaziy hukumatning roziligidiz infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qilishga ruxsat berildi.
  2. Maxsus iqtisodiy zonalardagi korxonalar o'zlarining investitsiya, innovatsiya, ishlab chiqarish va marketing qarorlarining katta qismini mustaqil qabul qiladi.
  3. Maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar uchun maxsus soliq imtiyozlari berilgan va ularning mahsulotlari asosan eksportga yo'naltirilgan.
  4. Maxsus iqtisodiy zonalarda iqtisodiy faoliyat asosan bozor tamoyillari asosida boshqariladi va ularga xalqaro savdoda katta mustaqillik berilgan.
  5. 2019-2020 yillarda Xitoyda 24 ta yangi transchegaraviy elektron tijorat zonalari (New Cross-Border E-Commerce Zones) ochildi.
  6. Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar asosan yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan.
- Ushbu omillarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlariga savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar va infratuzilma masalalari bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qilish vakolatini, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini berish hamda hududlararo tizimli joylashtirish kabi jihatlariga e'tibor qaratishni tavsiya etish mumkin.



Klaster usuli iqtisodiyotning asosiy va bir-biriga bog'liq tarmoqlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, xom ashyo, energetik, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

2018-2022 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish drayverlari bo'lgan 506 ta klaster tashkil etildi. Bu esa so'nggi besh yil ichida mahsulot ishlab chiqarish hajmini 32 barobarga oshirish va 28,7 trln. so'mga yetkazish imkonini berdi.

Bunday natijaga erishishda 2018-2022 yillarda klasterlarni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining 5,2 baravar, sohada band bo'lganlar sonining 2,5 baravar ortishi yordam berdi. 2019-yilda mamlakatning sanoat mahsulotlari eksportida klasterlarning ulushi 5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 11,4 foizga yetdi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sur'atini oshirish, tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, qayta ishlash sanoatida samaradorlikni oshirish maqsadida tarmoqlar va hududlarda bir qator yangi ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Xususan:

yirik sanoat korxonalari negizida 6 ta kimyo-texnologiya klasteri;

yengil avtomoibillar, yuk mashinalari, avtobuslar, qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchi korxonalarini ham o'z ichiga olgan mashinasozlik klasterlari;

Toshkent viloyatida 41 ta sanoat klasteri; elektromobillar uchun butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish bo'yicha elektromobil klasteri;

Sho'rtan majmuasi doirasida gaz-kimyo klasteri, shuningdek, mamlakatning barcha hududlaridagi boshqa klasterlar.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tegishli subsidiyalar va imtiyozlar taqdim etildi. 2023-2024 yillarda qishloq xo'jaligi texnikasi xaridlarini moliyalashtirish uchun 2,6 trln. so'm miqdorida mablag' yo'haltirish ko'zda tutilgan.





"Yashil" iqtisodiyotning rivojlanishi bilan energiya tejovchi texnologiyalar, mahsulotlar va materiallarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Jahon tajribasiga ko'ra, uy-joy sektori yetkazib beriladigan issiqlik energiyasining 40 foizgacha qismini iste'mol qiladi.

1960-1990 yillar oraliq'ida qurilgan binolarda isitish uchun foydalaniladigan issiqlik energiyasining 30 foizgacha qismi yo'qoladi.

"Ekoqurilish"da bino va inshootlar termoizolyatsiyasida ekologik materiallardan foydalanishga asoslangan innovatsion "yashil" texnologiyalar keng joriy etilmoqda.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan va bazaltdan tayyorlangan energiya tejamkor va o'tga chidamli "yashil" tolali materiallar, to'qimalar, armatura va boshqa mahsulotlar ushbu innovatsion tendensiyaga mos keladi.

#### Bazaltning asosiy afzalliliklari:


- ekologik toza va issiqlikka bardoshli (zaharli moddalarni chiqarmaydi);
- tashqi salbiy ta'sirlarga chidamli;
- uzoq muddat foydalanish mumkin va mustahkam.

Respublikadagi 10 ta konda bazalt jinslarining aniqlangan zaxirasi 44 mln. tonnani tashkil etadi va uning 52 foizi Jizzax viloyatida joylashgan. Shuningdek, Namangan, Navoiy, Samarqand viloyatlarida ham bazalt konlari mavjud.

Mamlakatimizdagi 6 ta korxonada bazaltdan 60 ming tonnadan ortiq ekologik mahsulot, jumladan, bog'lovchi polimerlar bilan to'yintirilgan bazalt iplardan diametri 4 mm.dan 32 mm.gacha bo'lgan qurilish armaturalari ishlab chiqarilmoqda.

Respublikada 31 mingta ko'pqavatli uylarni yonmaydigan ekologik bazalt plitalar bilan qoplab chiqishga qaratilgan dastur amalga oshirilmoqda. "Yashil" renovatsiyada bazalt izolyatsiyasidan foydalanish energiya yo'qolishi va issiqlixona gazlari emissiyasini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bazalt xom ashysining sezilarli resurs salohiyati, ichki bozorda va jahon bozorida talabning mayjudligi, xom ashyo qazib olish va material ishlab chiqarishning ekologik tozaligi hisobga olinsa, bazalt asosidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirish "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.





Yanvar-sentyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi 5,7 foizga oshdi. Tahlil qilinayotgan davr boshida sanoat faoliyatining deyarli barcha asosiy sohalari pasayishni yengib, ijobiy o'sish sur'atlariga erishdi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmining qisqa vaqt ichida tiklanishi zamirida korxonalarning o'z vaqtida turli xil imtiyozlar va investitsiyalar hisobiga qo'llab-quvvatlanishi kabi omillar yotadi.

Sanoatni rivojlantirish uchun yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi 113,2 trillion so'mgacha oshdi. Bu esa iqtisodiyotga kiritilayotgan jami investitsiyalarning salkam yarmi (49,9 foiz) demakdir. Bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 6,2 foiz punktiga yuqori.

Shu jumladan, tog'-kon sektoriga kiritilgan investitsiyalar ulushi 9,9 foizga (+3,9 f.p.), ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 28,9 foizga (+0,5 f.p.), energiya ta'minoti sohasiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 7,9 foizga (+1,1 f.p.) oshgan.

Tarmoqlarni tartibga solish va manzilli qo'llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita dastaklaridan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:


tog'-kon sanoatida ishlab chiqarish hajmini barqarorlashtirish (100,4 foiz); energiya ta'minotida o'sish sur'atini saqlab qolish (108,9 foiz); qayta ishslash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish sur'atini oshirish (106,4 foiz);

Daromad olishda o'sish sur'atini ta'minlagan tarmoqlar tahlilidan kelib chiqqan holda o'tkazilgan reyting baholash natijalari sanoat faoliyatidagi eng serdaromad 5 ta sohani aniqlash imkonini berdi. Soliqlar to'lanishidan oldingi Respublika daromadlari tarkibida ushbu tarmoqlar ulushi oshgani kuzatildi:


- avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalarni ishlab chiqarish (+2,13 f.p.);
- ichimliklarni ishlab chiqarish (+2,1 f.p.);
- metall rudasini qazib olish (+1,5 f.p.);
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish (+0,7 f.p.);
- kiyim-kechak ishlab chiqarish (+0,3 f.p.).

## 2023-yilning 9 oyi uchun sanoat faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

### SANOAT TARMOQ'INING TARKIBI (umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)



### SANOAT TARMOQLARIDAGI O'ZGARISH (o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan foiz hisobida)



### SANOAT FAOLIYATIDAGI SERDAROMAD SOHALAR BEŞHTALIGI

(foydalashloq sur'atlariga ega bo'lgan tarmoqlarni o'rganishidan kelib chiqqan holda)

- 1 Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalalar ishlab chiqarish **↑ +2,13 f.p.**
- 2 Ichimliklarni ishlab chiqarish **↑ +2,1 f.p.**
- 3 Metall rudasini qazib olish **↑ +1,5 f.p.**
- 4 Sanoat qurilish materiallarini ishlab chiqarish **↑ +0,7 f.p.**
- 5 Kiyim-kechak ishlab chiqarish **↑ +0,3 f.p.**

### SANOATGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR

(asosiy kapitaliga investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)

- | Sector  | Investment Share (%)     |
|---|--------------------------|
| Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish                        | 49,9% <b>↑ +6,2 f.p.</b> |
| Tog'-kon sanoati  | 9,9% <b>↑ +3,9 f.p.</b>  |
| Ishlab chiqarish sanoati                                    | 28,9% <b>↑ +0,5 f.p.</b> |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 7,9% <b>↑ +1,1 f.p.</b>  |
| Boshqalar   | 3,2% <b>↑ +0,7 f.p.</b>  |

### SANOATNI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA ENG MUHIM YANGILIKLAR

01

Sanoat va tashqi bozorlarni tahlil qilish markazini tashkil etish;

02

O'zbekiston elektron milliy sanoat portalini tashkil etish;

03

Yevropa Ittifoqining «GSP+» tizimi doirasida imtiyozga ega bo'lgan mahalliy mahsulotlarning Yevropa bozorlariga eksportini kengaytirishga oid xalqaro standart tizimlarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

04

### IQTISODIY FAOLIYAT TURIGA KO'R'A ISHLAB CHIQARISH HAJMI





2017-yilda Vyetnam energetika sektorida quyosh energiyasi deyarli ishlab chiqarilmagan. Ushbu sektorni isloh qilish jarayonida Vyetnam hukumati yirik quyosh fermalari tomonidan ishlab chiqarilgan energiyani yuqori narxda (1 kilovatt soat uchun 9 sent) sotib olish orqali qo'llab-quvvatladи. Natijada, 2019-yilga kelib, rejada kutilgan 850 MVt quvvat о'rniга mamlakatda 5 GVt ga teng quyosh energiyasi ishlab chiqarildi.

Vyetnamda quyosh energiyasidan samarali foydalanish borasidagi islohotlar muammosiz kechmadi. Deyarli barcha yangi obyektlar mamlakatning quyoshli janubi-sharqiy qismida joylashtirilganligi, mahalliy tarmoqda ortiqcha zo'riqishni keltirib chiqardi. Vyetnam elektr energiyasi korxonasi ba'zan haddan tashqari ko'p ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotib olishda muammolarga duch keldi.

2020-yilda Vyethamda elektr energiyasining deyarli chorak qismi quyosh panellari vositasida ishlab chiqarildi. Ushbu davrga kelib, mamlakatda 9,3 GVt quvvatga ega bo'lgan yuz mingdan ortiq quyosh panellari о'rnatilgan edi. Bu ko'mirda ishlaydigan qariyb oltita elektr stansiyasining quvvatiga teng.

Vyetnamning qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanadigan energetika sektoriga investitsiyalarni jalb etish juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Masalan, 2021-yilda quyosh energiyasidan olinadigan quvvat 17,6 GVtga yetdi. Atrof-muhitga оrtacha 14 ming tonna karbon dioksidi chiqib ketishining oldi olindi. Butunjahon ko'mir assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, eng zamonaviy ko'mir elektr stansiyalari ham bir GVt soat energiya olish uchun 800 tonna CO<sub>2</sub> chiqaradi.

Mamlakatda quyosh energiyasidan elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi "muvaqqiyat siri" rag'batlantirish dasturi orqali qisqa vaqt ichida qurib ishga tushirilgan loyihalar uchun 20 yil amal qiladigan «yashil» tariflar bilan bog'liq.


Shuningdek, Indoneziyada ham quyosh energiyasidan samarali foydalanishga qaratilgan islohotlar olib borildi. Xususan, 2015-yilda mamlakatda o'sha paytdagi eng yirik quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi va ishlab chiqarish tannarxi bir kilovatt soat uchun 25 sentni tashkil etdi. Bu juda yuqori tannarx edi. Ko'plab yangi quyosh stansiyalari ishga tushirilib, sohaning rivojlanishi natijasida 2022-yilga kelib, bir kilovatt soat quyosh energiyasini 6 sentdan sotib olish bo'yicha shartnomalar imzolandi.

2012-yilda Hindistonda quyosh panellarini uylarning tomlariga joylashtirishni o'z ichiga olgan va ushbu maqsadga hissa qo'shadigan yirik loyihalar bo'lмаган, 2022-yilda esa qo'shimcha 14 GVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalari ishga tushirildi. Istiqbolda Hindiston 2032-yilga borib, elektr energiyasi ishlab chiqarishda quyosh energiyasining ulushini 23 foiz (333,5 GVt)ga yetkazishni maqsad qilgan.



Bugungi kunda sanoatda yangi texnologiyalar va materiallarning keng qo'llanilishi tufayli ularning narxi arzonlashmoqda. Bu esa quyosh panellari vositasida elektr energiyasini ishlab chiqarish xarajatlari bir necha barobar kamayishiga olib kelyapti.

Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ular qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (QTEM) foydalanish ko'lamini oshirishga taraqqiyot dasturlarini qabul qilishi, ma'muriy to'siglarni kamaytirishi, QTEM uchun sharoit yaratishi, shu jumladan qazib olinadigan yoqilg'i orqali ishlab chiqariladigan energiya uchun ajratiladigan subsidiyalarni to'xtatishi, tarmoqqa ulanishni osonlashtirishi, ma'muriy qog'ozbozlikni kamaytirishi orqali erisha oldi.


# QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISHING VYETNAM TAJRIBASI



Mamlakatda elektr energiyasini ishlab chiqarish prognozi



2010-2027 yillarda quyosh energiyasidan elektr energiyasini ishlab chiqarish dinamikasi (MVt)



Manba: ASEAN energiya markazi, PR Newswire axborot agentligi va TotalEnergies kompaniyasi ma'lumotlari.

\*prognoz



Energiya ishlab chiqarish va uni iste'molchiga yetkazishdagi xarajatlar va yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida quyosh panellari iste'molchiga yaqin hududlarga o'rnatiladi. Afsuski, bunday maydonlarning yetarli emasligi quyosh panellarini joylashtirish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Quyosh panellarining aholi punktidan uzoqqa joylashtirilishi energiya yo'qotilishiga, u esa o'z navbatida elektr energiyasi narxining oshishiga olib keladi. Bu muammoni hal etish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish foydadan xoli emas.

Rivojlangan mamlakatlarda quyosh panellari ma'lum konstruksiya yordamida suv o'tkazuvchi kanallar sahniga 1,5-4,5 metr balandlikda o'rnatiladi. Masalan, Gollandiyada Solar Canals loyihasi doirasida 73 ming dona quyosh paneli o'rnatilgan va ular yiliga 27 million kilovatt/soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

Respublikamiz suv xo'jaligi tizimidagi sug'orish kanallarining umumiyligi uzunligi 29,7 ming kilometrni tashkil etadi. Agar kanallarning eni shartli ravishda o'rtacha 3 metr deb hisoblansa, quyosh panellarini joylashtirish uchun qariyb 8,9 ming hektar (89,1 mln.kv.m) bo'sh maydon mavjud.

Mavjud texnologiyalar yordamida 1 kvadrat metr quyosh paneli orqali soatiga kamida 200 watt elektr energiyasini ishlab chiqarish mumkin. Agar yil davomida 300 quyoshli kunda o'rtacha 8 soatdan elektr energiyasi ishlab chiqariladi,


deb hisoblansa, 1 kvadrat metr maydonda yil davomida 480 kWt elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Demak, sug'orish kanallari yuzasidagi 89,1 mln. kvadrat metr bo'sh maydonda yiliga 42,8 mlrd.kWt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin.

Davlat byudjetidan irrigatsiya tizimlarini loyihalash, qayta jihozlash va kapital (sug'orish kanallari, ariqlarni) ta'mirlash ishlari uchun 1 trln. 250 mlrd. so'm ajratiladi. Quyosh panellarini davlat-xususiy sheriklik asosida o'rnatish esa byudjet harajatlarining bir qismini qoplaydi.

Quyosh panellarini sug'orish kanallari sahniga joylashtirishning ijobiy tomonlari:

- quyosh panellari qiymati nisbatan arzon va bo'sh turgan maydonga o'rnatiladi;
- elektr energiyasini ishlab chiqarish xarajatlari va uni yetkazishdagi yo'qotishlar kamayadi;
- suv sahnini quyosh nuridan himoyalaydi va sug'orish tizimlarida katta miqdordagi suv bug'lanishining oldi olinadi;
- kanallarni rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, qayta jihozlash hamda qirg'oqlarini obodonlashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag' shakllanadi.

Ushbu taklifni tajriba loyihasi shaklida davlat-xususiy sheriklik asosida aholisi zinch joylashgan Farg'ona iqtisodiy hududidagi sug'orish kanali yoki uning ma'lum bir qismida amalga oshirish maqsadga muvofiq.





O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanishi bilan bog'liq holatni o'rganish maqsadida joriy yilning mart-aprel oyalarida onlayn tartibda so'rov o'tkazildi va unda 1032 kishi ishtirok etdi. Ularning 46,7 foizini ayollar va 53,3 foizi erkaklar tashkil etdi. So'rovda ichki turizmning rivojlanishi 20 ta savolni ichiga olgan anketa usuli yordamida baholandi.

### **Onlayn so'rov natijalariga ko'ra, mamlakatimizda ichki turizmning quyidagi xususiyatlari aniqlandi:**

- sayohatlar chastotasi bo'yicha respondentlarning 1/2 qismi (58,5 foiz) yiliga kamida bir marotaba ichki sayohatga chiqadi (shu jumladan 33,5 foizi yiliga bir marotaba, 16,6 foizi 3 oyda bir marotaba, 8,3 foizi oyiga bir marotaba). Shu bilan birga, respondentlarning 32,3 foizi sayohat qilish va mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish istagini bildirgan;
- pul mablag'larining yetishmasligi (respondentlarning 24,7 foizi) va bo'sh vaqtning kamligi (27,0 foizi) ichki turizmning rivojlanishi va sayyoqlik xizmatlariga talabning ortishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar sifatida qayd etilgan. Agar erkaklarda bo'sh vaqtning yetishmasligi asosan ularning davlat ishida faoliyat yuritayotgani bilan izohlansa, ayollarda bo'sh vaqtning kamligi ularning davlat ishida bandligi va bola parvarish qilayotgani bilan bog'liq;
- yosh tarkibi bo'yicha ichki turizm iqtisodiy faol aholi orasida keng tarqalgan; mamlakat bo'ylab sayohat qiluvchilarning faol toifasini 26-35 yosh oralig'idagi fuqarolar tashkil qiladi (respondentlarning 33,4 foizi), 36-55 yosh oralig'idagilar (33,6 foiz). Sayohat qilishni xohlovchilar orasida aynan shu yosh guruhi yetakchi sifatida qayd etilgan (mos ravishda 37,5 foiz va 33,9 foiz);
- o'zbekistonliklar asosan o'z oilasi (so'rovda qatnashganlarning 51,5 foizi), do'stlari (26,0 foizi) bilan sayohat qilishni afzal ko'radi. Bu esa aholi mentaliteti va oila institutining jamiyatdagi ahamiyati bilan bog'liq; ziyyarat turizmi (53,7 foiz), tog' kurort turizmi (52,7 foiz), madaniy-ma'rifiy turizm (36,4 foiz), sog'lomlashtirish turizmi (35,8 foiz) va sohil

turizmi (35,4 foiz) so'rovda qatnashganlar orasida eng jozibador turizm turlari sifatida e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, yoshlar (35 yoshgacha) o'rtasida ekstremal sport, festival turizmi hamda agroturizmga qiziqish ortib bormoqda.

### **Aholi turizm sohasining infratuzilma qismiga qanday baho beradi?**

Mamlakat bo'ylab turistik safarlarda aholi turoperatorlar va sayyoqlik agentliklari xizmatidan foydalanmagan holda mustaqil ravishda sayohat qilish afzal biladi. Shunday qilib, respondentlarning 52,6 foizi mustaqil sayohat qilishini bildirgan.

Axborot ta'minoti ichki turizmni rivojlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Yiliga kamida bir marotaba sayohat qiluvchi respondentlarning 67,7 foizi dam olish joyini tanlashda tanishlari, do'stlari va qarindoshlarining, 50,0 foizi ijtimoiy tarmoqlarning, 31,0 foizi maxsus saytlarning tavsiyalariga asoslanishini aytgan.

Aholining O'zbekiston bo'ylab sayohatdan qoniqishini baholash muammolarni hal etuvchi omillarni guruhlash imkonini berdi. Bunda muammolarni hal etishning muhimlik darajasi e'tiborga olindi.

Nisbatan dolzarb omillarning birinchi guruhiga yo'llar sifati, mehmonxona va transport narxi, suv ta'minoti va kanalizatsiyadan foydalanish kiradi.

Omillarning ikkinchi guruhiga qanoatlanmaslik darajasi o'rtacha bo'lgan turistik xaritalar va ma'lumotlarning kamligi, transport topish, umumi ovqatlanish joylarida gigiyena va sanitariya qoidalariiga qat'iy riosa qilinmasligi, elektr energiyasidan foydalanish kiradi.

So'rov natijalari diqqatga sazovor joylar haqida internetdagi ma'lumotlar, mehmonxona xizmati, mehmonxonalarini qidirish va ovqatlanish joylarini topishga oid ma'lumotlar sayohatchilarni nisbatan qoniqtirishini ko'rsatdi va ular omillarning uchinchi guruhiga kirdi.


## O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNING HOZIRGI HOLATINI BAHOLASH (SO'RVNOMA NATIJALARI)

### O'ZBEKISTON BO'YLAB TURISTIK SAYOHALTARDA AHOLINING XOHISH-ISTAKLARI


O'zbekiston  
bo'ylab tez-tez  
sayohat qilasizmi?

Sizing  
yoshingiz  
21-25  
26-35  
36-50  
51 dan yuqori  
rejada bor  
rejada yo'q  
51 dan yuqori

Qanday sayohat  
qilishni afzal  
ko'rasisiz?



### O'ZBEKISTONDA AHOLINING TURISTIK SAYOHALTARDA QONIQISH DARAJASI, %



**Mallows uchun:** aholining qoniqish darajasi 5 ballik shkala bo'yicha respondentlarning javoblari ulushiga qarab hisoblanadi. I fuda yomon) dan 5 (fuda yaxshi) gacha. Ko'rsatkich qanchalik yuqori bolsa, qoniqish darajasi shunchalik past boladi.



Tahlil natijalariga ko'ra, jahon bozorida neft narxining o'zgarishi 1 oy o'tgandan so'ng Respublika tovar-xomashyo birjasida avtobenzin narxlariida o'z aksini topmoqda.

Masalan, 2022 yil yanvar-iyun oylarida neft narxining 39,2 foizga oshishi birjada avtobenzin o'rtacha ulgurji narxining 22,4 foizga ko'tarilishiga olib kelgan. 2022 yil iyul-dekabr oylarida jahon bozorida neft narxining 33,2 foizga tushishi ulgurji narxlarning o'rtacha 21,3 foizga arzonlashishiga sabab bo'lgan.

2023 yilning yanvar-may oylarida jahon bozorida neft narxining barqarorlashishi hamda 2022 yilning 10 dekabridan AI-80 markali avtobenzin uchun aksiz solig'ini nol stavkasiga tushirilishi natijasida avtobenzinning o'rtacha ulgurji narxlari 4848-5060 so'm oralig'ida shakllandi.

Lekin, 2023 yilning iyun-noyabr oylarida avtobenzinning o'rtacha ulgurji narxi 5315 so'mdan 5860 so'mgacha (10,2 foiz) oshdi. Ushbu davrda jahon bozoridagi o'rtacha neft narxi 11 foizga (73 AQSH dollaridan 81 AQSH dollarigacha) qimmatlashgan.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, avtobenzinning o'rtacha ulgurji narxi, shu jumladan, talab yuqori bo'lgan AI-80 va AI-92 markali benzirlarning ulgurji narxlari jahon bozoridagi neft narxiga sezuvchan ekanligi aniqlandi.

Xususan, jahon bozorida neft narxining 1 foizga ko'tarilishi avtobenzin o'rtacha ulgurji narxlarning bir oy kechikish bilan 0,30 foizga oshishiga, shu jumladan, AI-80 benzinning 0,32 foizga, AI-92 benzinning 0,54 foizga qimmatlashishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi.


Toshkent shahrida avtobenzinlarning o'rtacha chakana narxlari esa o'rtacha ulgurji narxlarga sezuvchan bo'lib, ular bir xil o'zgarish dinamikasiga ega.

Xususan, Respublika tovar-xomashyo birjasida avtobenzin ulgurji narxlarning 1 foizga o'sishi, Toshkent shahrida chakana narxlarning 0,29 foizga oshishiga olib kelmoqda.

Lekin, joriy yil noyabr oyida jahon bozorida 1 barrel neft narxining o'rtacha hisobda 81,35 AQSH dollarigacha (oktyabr oyiga nisbatan 8,7 foizga) pasayganiga qaramasdan, dekabr oyida Toshkent shahrida AI-80 avtobenzin o'rtacha chakana narxi (7611 so'm) noyabr oyiga (7440 so'm) nisbatan 2,3 foizga ko'tarildi. Bu esa dekabr oyining o'rtalaridasov uyg'ulamining kirib kelishi bilan metan gaz ta'minotidagi cheklanishlar natijasida AI-80 benzinga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshishi bilan izohlanishi mumkin.

Mamlakatimizda neft va avtobenzin mahsulotlariga bo'lgan talabning bir qismi import hisobiga qoplanishi sababli jahon bozorida neft narxlarning o'zgarishi ichki bozorda avtobenzin narxlariiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Demak, O'zbekistonda avtobenzin narxlari 1 oylik kechikish (lag) bilan jahon bozorida neft narxi bilan uyg'unlikda harakat qilmoqda.

## Avtobenzin va neft narxlari





So'nggi olti yilda yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 2 mingga yaqin Qonun, Farmon va Qaror qabul qilindi.

Buning natijasida:

- tadbirkorlik sohasida talab etiladigan 114 turdag'i litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi;
- 33 turdag'i litsenziya va ruxsatnoma o'rniغا xabardor etish tartibi joriy etildi;
- soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi;
- soliq tekshiruvlari turi 13 tadan 3 taga qisqartirildi;
- qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga kamaytirildi;
- ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi;
- 3,5 ming turdag'i tovarlar uchun import bojxona boji va 1,1 ming turdag'i tovarlar uchun aksiz solig'i bekor qilindi;
- 3 mingdan ziyod turdag'i tovarlar uchun import bojxona bojlari keskin kamaytirildi.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari tarkibida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 54,2 foizni, fermer xo'jaliklari 18,1 foizni, xususiy

korxonalar 15,3 foizni, oilaviy korxonalar 9,4 foizni, dehqon xo'jaliklari 1,9 foizni, boshqa shakldagi subyektlar ulushi 1,1 foizni tashkil etgan.

2017-yilda tadbirkorlik subyektlari soni 283 mingdan ortiqni tashkil etgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida so'nggi 6 yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida bu ko'rsatkich 2022-yil yakuniga kelib, 523 mingtadan ortib ketdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 240 mingtaga yoki 1,8 marotaba ortgan.

O'zbekistonda 2022-yil yakunlari bo'yicha har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tadbirkorlar soni o'rtacha 15 nafarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 36,8 nafarni, Navoiy viloyatida 21,9 nafarni, Sirdaryo viloyatida 18,1 nafarni, Surxondaryo viloyatida 10,3 nafarni, Qashqadaryo viloyatida 10,6 nafarni, Namangan viloyatida 11,4 nafarni tashkil etgan.

2022-yil yakuniga kelib, kichik va xususiy tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 54,9 foizga, qurilishda 72,4 foizga va bandlik sohasida 74,4 foizga yetdi.

### 2017-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar natijadorligi



\*O'zbekistonda 2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (ming)



\*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasini ma'lumotlari



2017–2022-yillarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizga oshdi. Bu davrda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'sish 141,3 foizni tashkil qildi. Bunday barqaror o'sish YalMDa sanoatning ulushi ortishiga olib keldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib, o'sish sur'ati o'tgan davr mobaynida 147,4 foizni tashkil etdi. Bundan tashqari, elektr, issiqlik va gaz ta'minoti tarmog'i (139,2 foiz), shuningdek, tog'-kon sanoati (130,4 foiz) jadal sur'atlarda rivojlandi.

O'zbekiston sanoatining 83,2 foizini ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i tashkil etadi. Bu yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish,


xom-ashyoni qayta ishslash darajasini oshirish, zamonaliv texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tarmoqlarni rivojlantirish kompleks dasturlari hayotga tatbiq etilayotgani natijasidir.

O'rta va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushining 52,7 foizdan 61,7 foizga oshgani ham sanoat tarkibidagi sifat o'zgarishlaridan dalolat beradi. Bu ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lami oshgani dalilidir.


Masalan, portlandsement ishlab chiqarish shu davrda 1,3 barobar, qo'rg'oshinli akkumulyatorlar – 1,4 barobar, avtomobil dvigatellari – 2,5 barobar, yengil avtomobillar – 2,3 barobar, sovutgich va muzlatgichlar – 3,7 barobar oshdi.

### 2017-2022-YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA ERISHILGAN ASOSIY YUTUQ VA MUVAFFAQIYATLAR


#### SANOATNING BARQAROR RIVOJLANISHI UNING IQTISODIYOTGA QO'SHAYOTGAN HISSASINING OSHISHINI TA'MINLADI



#### SANOAT TARKIBI SIFAT JIHATIDAN O'ZGARDI



#### YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATGA EGA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNING O'SISHI TA'MINLANDI



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari



2022-yilda sanoat ishlab chiqarishi 2021-yildagiga nisbatan 5,2% o'sdi. Bu esa O'zbekistonga Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlар orasida sanoatning o'sish sur'atlari bo'yicha eng yaxshi o'rnlardan birini saqlab qolish imkonini berdi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 26,7% ni tashkil etdi.

Sanoat faoliyatining barcha muhim sohalarida o'sish tendensiyasi kuzatildi, xususan, tog'- kon sanoatida 102,1%, ishlab chiqaradigan sanoatda 105,3%, elektr va gaz ta'minoti sektorida 112,7%, xom neft va tabliy gaz qazib olishda 101%, ko'mir qazib olishda 102,4%, metall rudasi qazib olishda 104% natijaning qayd etilishi tog'-kon sanoati rivojlanishida ijobjiy dinamikani ta'minladi. Shuningdek, qazib olish tarmoqlariga texnik xizmat ko'rsatishda o'sish tendensiyasi kuzatildi – 105,2%.

Ishlab chiqarishning ko'p tarmoqli va yetarli darajada diversifikatsiyalangan tuzilmasini o'z ichiga olgan ishlab chiqarish tarmog'i ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar umumiy hajmining 83% dan ortig'ini tashkil etgan holda sanoatning o'sish dinamikasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarish sohasining deyarli barcha tarmoqlarida ijobjiy natija qayd etildi.

O'sish sur'atlari 10% dan sezilarli darajada yuqori bo'lgan tarmoqlar reytingidan avtomobillar, tirkamalar va yarim tirkamalar - 139%, tamaki mahsulotlari - 124%, ichimliklar - 117,6%, qog'oz va qog'oz mahsulotlari - 114,6%, mashina va jihozlar – 114,1% ni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar joy oldi. Ichki va tashqi talab omillari ta'sirida to'qimachilik mahsulotlari – 109,8%, oziq-ovqat mahsulotlari – 106,2%, kiyim-kechak – 105,5% va boshqalarni ishlab chiqarish hajmi ham o'sdi. Shu bilan birga, farmatsevtika mahsulotlari va preparatlar, kompyuter detallari, elektron va optik mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun katta imkoniyatlar saqlanib qolmoqda.

Jadal o'sish sur'ati energiya ta'minoti tarmog'iga xos bo'lib, buning zamirida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 104,1% ga oshirish tendensiyasi yotadi. Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi tahlil qilingan mamlaktalar darajasiga taxminan to'g'ri keldi va oldingi davrdagiga nisbatan biroz pastroq bo'ldi.

2022-yil yakunlari bo'yicha respublika eksport tushumlari tarkibida sanoatning ulushi 68,9% ni tashkil etdi (barcha eksportning 2/3 qismidan ortig'i).

## 2022-yilda sanoatning asosiy tarmoqlari rivoji yakunlari

### Sanoat mahsulotlari

+5,2% O'ZBEKISTON

+1,1% QOZOG'ISTON

+11,4% QIRG'IZSTON

### Yalpi ichki mahsulot

+5,7% O'ZBEKISTON

+3,0% QOZOG'ISTON

+7,0% QIRG'IZSTON

### Tog'-kon sanoati (%)



102,1

99,0

108,2

O'ZBEKISTON QOZOG'ISTON QIRG'IZSTON

#### Ko'mir va lignit qazib olish (%)

102,4 O'ZBEKISTON

99,3 QOZOG'ISTON

116,8 QIRG'IZSTON

#### Xom neft va tabliy gaz qazib olish (%)

101,0

98,1

107,9

#### Metall rudasini qazib olish

104,0% O'ZBEKISTON

99,3% QOZOG'ISTON

107,4% QIRG'IZSTON

### Ishlab chiqaradigan sanoat

105,3% O'ZBEKISTON

103,4% QOZOG'ISTON

116,4% QIRG'IZSTON

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havo haroratini bir xilda saqlash

O'ZBEKISTON QOZOG'ISTON QIRG'IZSTON

112,7% 99,5% 91,7%

Elektr energiyasini ishlab chiqarish (mln. kVt\*s)

O'ZBEKISTON 104,1%

QOZOG'ISTON 98,9%

QIRG'IZSTON 91,5%



97,5%  
O'ZBEKISTON

97,5%  
QOZOG'ISTON

94,3%  
QIRG'IZSTON

Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish (ming Gkal)



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda Xitoning Guandun provinsiyasi tajribasi

o'qish vaqt  
93 soniya

2022-yilda Guandun provinsiyasi YalM hajmi 12,8 trillion yuanni (1,9 trln. AQSH dollari) tashkil etgan. Bu jihatdan u Janubiy Koreya, Kanada, Avstraliya, Braziliya va boshqa qator rivojlangan mamlakatlar bilan bir safda yoki yuqoriqoda turadi. Taajjublanarlisi, mazkur provinsiya bu darajaga qisqa muddatda erishgan. Xo'sh, Guandun muvaffaqiyatining siri nimada?

Chuqur c'organish natijalari shuni ko'ssatdiki, buning siri bir kichik hududga infrastruktura, tadbirkorlar, ishchi kuchi, bilim, institutsional muhit va moliyaviy resurslarni yig'ish bilan bog'liq bo'lgan. Jumladan:

1. Tadbirkorlar uchun kommunal xizmatlar bilan to'liq ta'minlangan maxsus hudud yoki qishloqlar barpo etildi (davlat hamma joyda kam-kam emas, bir joyda mukammal infrastruktura yaratib qo'ydi).
2. "Uchtasi bittada" loyihasi ishlab chiqildi (ishchilar qo'shni qishloqlardan kelib ishlashi inobatga olinib 3 qavatli binolar barpo etildi: 1-qavatda do'kon yoki ombor, 2-qavatda ishlab chiqarish, 3-qavatda ishchilar yashashi uchun joy).
3. Faqat maxsus hududlardan o'tuvchi yo'llar kengaytirilib, temir yo'l stansiyalari barpo etildi (Hozir Guandun provinsiyasidagi istalgan shaharga borish uchun uch soatdan kam vaqt ketadi).
4. Korxonalarga qo'shimcha yotoqxonalar qurish uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratildi.
5. Pullik yo'llar qurildi va tezyurar poezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi (qurilgan yo'l va ko'priklar uchun olingan kreditlarni qaytarish uchun bozor mexanizmidan foydalanildi).


Islohotlar natijasida maxsus shaharlar yuzaga keldi. Kirib kelgan investitsiyalar, yangi texnologiyalar natijasida Guandun butun mamlakatga kiyim-kechak, kulolchilik buyumlari, elektr texnikalar, mebel, oziq-ovqat, vino, og'ir texnikalar, avtomobillar, kichik yuk avtomobillarini yetkazib bera boshladi. Davlat tomonidan infratuzilmalarni qurishga katta e'tibor berilishi natijasida Guandun xorijiy kompaniyalar uchun Xitoyga kirish darvozasi bo'lib xizmat qildi.

Guandunda biznes uchun hamma sharoitni mujassam etgan iqtisodiy zona usuliga o'tilishi, xorijdagi xitoyliklar sarmoya kiritishiga sabab bo'ldi. Ular sarmoya kiritish, kapital, asbob-uskunalar, yangi texnologiyalar va boshqalarni olib kelish uchun sa'y-harakatini ayamadi. Bundan tashqari, Guandunning Xitoy Syanganiga qo'shni ekanligi, moliyaviy manbalarning Guandunga ham kirib kelishiga zamin yarattdi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy va uning provinsiyalari muvaffaqiyati zamirida avvalo inson kapitalining infratuzilmalar tomon, rivojlanishning yuqori bosqichida esa infratuzilmalarning inson kapitali tomon yo'naltirilishi yotadi.



## 2017–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar natijasi



## 2017–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar va ularning natijasi

o'qish vaqt  
69 soniya

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish osonlashtirildi. Natijada ro'yxatga olingen tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yilda 229,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil so'ngiga kelganda 555,9 mingtaga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 2,4 barobar ko'paydi.

So'nggi yillarda respublikada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Masalan, yuridik shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2017-yilda 5% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelganda 1,5% gacha pasaytirildi. 2017-yilda soliq turlari 13 ta edi. Ular 9 tagacha kamaytirildi. 2017–2022-yillar oraliq'ida soliq tekshiruvi turlari 10 taga qisqardi va 13 tadan 3 tagacha kamaydi.

Ma'lumot uchun: Soliq Kodeksiga ko'ra, soliq organlari quyidagi soliq tekshiruvlarini o'tkazadi:

- kameral soliq tekshiruvi;
- sayyor soliq tekshiruvi;
- soliq audit.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 2016-yilda 20% ni tashkil etgan bo'lsa, soliq tizimida olib borilgan islohotlar natijasida, 2023-yilning 1-yanvaridan ushu soliq stavkasi 12% ga tushirildi.

2022-yil yakunlariga ko'ra, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yildagiga nisbatan Toshkent shahrida 2 barobar ortib, 106 mingtaga, Toshkent viloyatida 2,3 barobar ortib, 49,1 mingtaga, Samarqand viloyatida 2,9 barobar ortib, 47,9 mingtaga yetgan.

Islohotlar oilaviy tadbirkorlik rivojida ham muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi tufayli 2018–2022-yillar mobaynida oilaviy korxonalar soni 2 barobar oshdi. Natijada xususiy biznes va kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdag'i ulushi 29,5% ga yetdi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2017-2022-YILLARDA FAOLIYAT KO'RSATGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI



2017-2022 yillarda O'zbekistonda faoliyat yuritgan korxona va tashkilotlar demografiyasi

o'qish vaqt  
45 soniya

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'naliishlaridan biri bu tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirishdir.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatimizdagi jami korxona va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 592,4 mingtani tashkil etgan. Bu 2017-yildagiga nisbatan 2,1 marotaba ko'p demakdir.

Tadbirkorlik subyektlari sonining eng ko'p o'sishi Navoiy (2,7 marotaba), Samarqand (2,6 marotaba), Qashqadaryo (2,3 marotaba), Surxondaryo (2,3 marotaba), Buxoro va Jizzax viloyatlari (2,2 marotaba) da kuzatilgan.

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tahlil savdo-sotiq (2,9 marotaba), qishloq xo'jaligi (2,6 marotaba), yashash va ovqatlanish (2,1 marotaba) hamda sanoat (2,0 marotaba) kabi tarmoqlarda korxonalar soni jadallik bilan o'sganligini ko'rsatdi.

Sanoatning iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini e'tiborga olgan holda, korxonalar sonining ikki marotaba ortishi va ulushi deyarli 17,0 foizga yetganligini ijobjiy holat sifatida ta'kidlash lozim.

Shuningdek, axborot texnologiyalari (1,9 marotaba) va tibbiy xizmatlar (2 marotaba) sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar sonining o'sishi iqtisodiyotda ro'y berayotgan ijobjiy tarkibiy o'zgarishlardan dalolat beradi.



## 2016-2022 yillarda O'zbekistonda sement sanoatining rivojlanish dinamikasi

o'qish vaqt  
50 soniya

2016-yilda mamlakatimizning 5 ta hududida joylashgan 12 korxonada 8,6 million tonna sement ishlab chiqarilgani qurilish sanoatini rivojlantirish dasturlari ijrosini ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'ldi.

Sementga talabning yuqoriligi, bozorni rivojlantirishning sezilarli salohiyati, mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratgan rag'batlantiruvchi davlat siyosati sement sohasiga yangi investorlar e'tiborini tortdi.

2017-2022 yillarda turli hududlarda energiya tejovchi "quruq" texnologiyalar asosida sement ishlab chiqaruvchi 21 ta yangi korxona tashkil etildi va umumiy ishlab chiqarish quvvati 27 million tonnaga yetkazildi.

2022-yilda O'zbekistonda 14,6 million tonna sement ishlab chiqarildi va kishi boshiga o'rtacha ishlab chiqarish hajmi 415 kilogrammga yetdi. Bu ko'satkich dunyo miqyosida o'rtacha 519 kilogrammni,

Xitoya 1770 kilogrammni, Turkiyada 873 kilogrammni, Rossiyada 414 kilogrammni, AQShda 280 kilogrammni tashkil qilgan.


2017-2022-yillarda qurilish ishlari hajmi 71,5 foizga oshgani holda sement ishlab chiqarish hajmi 69,3 foizga oshgan. Bu bozordagi talab va taklifning muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Kelajakda sohani yanada innovatsion rivojlantirish uchun energiya tejaydigan "yashil" texnologiyalarni joriy etish, bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, yuqori markali (M500 va M600) va maxsus sement turlarini ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirish ko'zda tutilmogda.

Sement ishlab chiqarish hajmi (million tonna)



Aholi jon boshiga sement ishlav chiqarish hajmi (kg)



Duno mamlakatlarda aholi jon boshiga sement ishlav chiqarish hajmi, kg (2021 y.)

Xitoy  
1 770

Turkiya  
873

O'zbekiston  
415

Rossiya  
414

AQSH  
280

Dunyo  
519

Sement ishlab chiqaruvchi korxonalar soni



Manba: Statistika agentligi va dzen.ru axborot portalı U.S. Geological Survey 2021 yilga mo'ljalangan ma'lumatlariga asosan



Iqtisodiyot samaradorligini oshirish, yetkazib berilayotgan mahsulotlarning ishonchliligi, xavfsizligi, foydalanishda qulayligi va sifatini ta'minlashda texnik jihatdan tartibga solishning ahamiyati katta.

### **So'nggi yillarda ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar tufayli quyidagi natijalarga erishildi:**

-huquqiy asoslar mustahkamlandi, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi, "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi;

-"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida "e-standart", "e-metrologiya" va "e-akkreditatsiya" axborot tizimlari ishlab chiqildi;

-xalqaro talablarga uyg'unlashtirilgan standartlar soni 19,5 mingtaga yetdi va umumiylashtirilgan standartlar sonidagi ulushi 10 foizdan 80,4 foizgacha oshdi;

-joriy qilingan xalqaro texnik reglamentlar soni 4,8 marotaba (12 tadan 57 taga) oshdi.

ISO 9001 xalqaro standartiga muvofiq eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida turli sohalarda faoliyat yurituvchi 4961 korxonada Sifat menejmenti tizimlari joriy etildi.

Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishda ko'maklashishga qaratilgan "Korxonabay" tizimining tatbiq etilishi tadbirkorlik subyektlari bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikning aniq mexanizmlaridan foydalanish imkonini berdi.

14,9 mingta korxonada tadbirlar o'tkazilib, standartlashtirish (5 mingdan ortiq tadbir), metrologiya (21 mingdan ortiq tadbir), 1,4 ming turdag'i mahsulotni sertifikatlash yo'naliishlarida amaliy yordam ko'rsatildi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimidagi sinov laboratoriyalari modernizatsiya qilindi yoki yangi uskunalar bilan ta'minlandi, 4 ta laboratoriya xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi, 13 ta yangi laboratoriya tashkil etildi.

"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat unitar korxonasi Xalqaro laboratoriya akkreditatsiyasi tashkiloti (ILAC MRA)ning to'liq a'zoligiga qabul qilindi. O'zbekistonda o'tkazilgan sinovlarning natijasi dunyodagi 116 ta mamlakatda tan olinadi.

Oeko Tex, GOTS, BCSI, Sedex, Global GAP, Organic, CE va boshqa xalqaro standartlar to'qimachilik sohasidagi 157 ta, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektoridagi 225 ta, elekrotexnika tarmog'idagi 53 ta korxonada joriy etilgan.

Shakllangan texnik jihatdan tartibga solish tizimi bundan keyin ham tarmoqlar va umuman, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada samarali rivojlantirish, iste'molchilar huquqini himoya qilishda ko'mak beradi.



## 2016-2022 yillarda kimyo va gaz-kimyo mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish dinamikasi

**Kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (%), qiyosiy narxlarda)**



**Kimyoviy mahsulotlar eksportining o'sish sur'ati (AQSH doll., %)**



**Tarkibida azot, fosfor va kaliy bo'lgan mineral o'g'itlar ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (%), qiyosiy narxlarda)**



**Ishlab chiqarishning o'sish sur'ati**



**Kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish dinamikasi**



**Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish**



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari



### 2016-2022 yillarda kimyo va gaz-kimyo mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish dinamikasi

o'qish vaqt  
75 soniya

Jahon bozoridagi beqarorlik va raqobatbardosh importning o'sishiga qaramay, 2016-2022 yillarda kimyo sanoati rivojlanishda ijobiy natijalarga erishdi. Mahsulot ishlab chiqarishning umumiylajmi qiyosiy narxlarda 11,7% ga, shu jumladan kimyoviy mahsulotlar (4,9%), rezina va plastmassa mahsulotlar (47,9%) kabi asosiy komponentlar bo'yicha oshdi.

Tarmoq tarkibida eng katta ulush mineral o'g'itlarga to'g'ri keldi. Ularni ishlab chiqarish mutlaq hisobda 20,7% ga, shu jumladan azot 18,7% ga, fosfor 11,9% ga, kaliy 43,4% ga oshdi.

Azotli o'g'itlar segmentida karbamid ishlab chiqarish 50% ga, ammiakli selitra ishlab chiqarish 10% ga oshdi. Ushbu turdag'i mahsulotlarning eng yirik ishlab chiqaruvchilari qatoriga «Navoiyazot» AJ va «Farg'onaazot» AJ kiradi. Umumiylajmi karbamid hajmining 80% i va ammiakli selitraning 72,2% i ularning hissasiga to'g'ri keladi. «Dehqonobod kaliy zavodi» tomonidan 199,5 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi. Bu kaliyli o'g'itlarning barchasi demakdir.


Soda kuli ishlab chiqarishda barqaror o'sish dinamikasi qayd etildi. Ko'rib chiqilayotgan davr uchun uning hajmi 1,6 baravar oshdi.

Ichki talabning o'sish omili akril, vinil va sintetik polimerlar asosidagi bo'yoq va loklarni ishlab chiqarish hajmining o'sish dinamikasiga ta'sir ko'rsatdi – 135,6%. Bu esa maishiy kimyo sektorining rivojlanishiga ko'mak berdi.

Polietilen (29,4%), polipropilen (23,8%) va yuqori qo'shimcha qiymatga ega boshqa turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishning o'sish tendensiyasi qayd etilgan texnologik o'zgarishlarning omillaridan biri bo'ldi. «Sho'rtan GKK» MCHJ va «Uz-Kor Gas Chemical» MCHJ QK gaz-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mavqeini mustahkamladi.

Tahlil qilinayotgan davrda kimyoviy mahsulotlar eksporti hajmi 1,5 barobardan ziyod oshdi. Ammo shu bilan birga ichki bozorning import hajmi har yili o'rtacha 16,6 foizga kengaydi. Bu esa kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishda mavjud quvvatlardan yetarlicha foydalanimayotganini ko'rsatadi.

## O'ZBEKISTONDA 2018-2022 YILLARDA KLASTERLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA XUSUSIYATLARI



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi malumatlari asosida hisoblangan.



### O'zbekistonda 2018–2022 yillarda klasterlarning rivojlanish tendensiysi va xususiyatlari



Hozirgi vaqtida klasterlar dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining samarali o'sish drayveri sifatida iqtisodiy faoliyatning qariyb 50 foizini qamrab olgan. Masalan, AQShda 380 ta klaster bor va YalMning 60 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi.

Italiya sanoatida band bo'lganlarning 43 foizi 206 ta klasterda mehnat qiladi va mamlakat eksportida ushbu klasterlarning ulushi 30 foizni tashkil etadi.

Xitoya 60 dan ortiq maxsus klasterlar 30 mingga yaqin korxonani birlashtiradi va ularda 3,5 million kishi mehnat qiladi. Mazkur korxonalarda yiliga 200 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqariladi.

O'zbekistonda 2018-2022 yillarda klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32 baravar oshdi va 2022-yil natijalariga ko'ra 28,7 trillion so'mga yetdi.

2018-2022 yillarda klasterlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5,2 marotaba, tizimda band bo'lganlar soni esa 2,5 marotaba ortdi.

Klasterlarning jami sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi 2019-yilda 5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 11,4 foizga yetdi.

2018-2022 yillar oraliq'ida klasterlar tizimida mehnat unumdarligi 12,9 baravar, investitsiyalarining rentabellik (ARR) koeffitsiyenti 1 dan 1,4 gacha oshdi. Bu klasterlashtirish loyihalari juda samarali ekanligidan dalolat beradi.

Sanoatning ishlab chiqarish tarmog'ida klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va uning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rni agregatlashgan Klaster quvvati (Pc) integral indeksi orqali baholandi.

Har bir indeks qiymati 0 dan 1 gacha ( $0 \leq \text{Pc} \leq 1$ ) oraliqda baholanadi. Agar qaymat 0 dan 1 ga yaqinlashsa, bu iqtisodiyotning klasterlashganlik darajasi yuqoriligini ko'rsatadi.

Hisob-kitoblar sanoatning ishlab chiqarish tarmog'ida Klaster quvvati (Pc) integral indeksi 0,201 ni tashkil etishini ko'rsatdi. Bu tahlillar iqtisodiyotni klasterlashtirish salohiyati yuqorilagini, sohaga investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investorlarni, tadbirkorlik subyektlarini qoshimcha jalb qilish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasiga ko'ra, klasterlashtirish iqtisodiyotda mehnat unumdarligi va samaradorlik ko'rsatkichlari oshishiga olib keladi.

Sanoat tarmoqlarida klasterlashtirish xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish tizimini shakllantirish, shuningdek, bu tizimga ilm-fan, savdo, logistika kabi sohalarni jamlash imkonini beradi.



2022-yilda O'zbekistonda quvvati 200 MVtga teng bo'lgan quyosh elektr stansiyalari yordamida 411 mln. kVts elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu esa 124 mln. m<sup>3</sup> tabiiy gazni tejash, atmosferaga 164 ming tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olish imkonini berdi.

2022-yilda quvvati 2072 MVtga teng bo'lgan gidroelektr stansiyalari vositasida 6,48 mlrd. kVts elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Natijada 1,94 mlrd. m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejaldi va atmosferaga 2,71 mln. tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olindi.

«Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi»da «yashil» energiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Strategiyaga ko'ra, 2026-yilga borib, quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvatini 8000 MVtgacha, gidroelektr stansiyalari quvvatini 2 920 MVtgacha oshirish rejalashtirilgan.


Buning natijasida qayta tiklanadigan energiya ulushi 25 foizga yetadi, 3 mlrd. m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejaladi va 1 mln. xonodon 1 yil davomida gaz bilan ta'minlanadi.

2023-2030 yillarda O'zbekistonda 11 ta yirik, 9 ta o'rtacha va 8 ta kichik va mikro gidroelektr stansiyalarni qurilishi rejalashtirilgan.

Yangi GESlarni ishga tushirish tufayli yiliga 5,8 milliard kVtsoat elektr energiyasi ishlab chiqariladi va 1,74 milliard m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejaladi.



## O'zbekiston UNIDO global sanoat raqobatbardoshligi reytingida



**Ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirish bo'yicha 2017-2022 yillarga oid ko'rsatkichlar va O'zbekistonning UNIDO reytingidagi o'rni**

**o'qish vaqtি**  
**73 soniya**

Mamlakatlarning sanoat raqobatbardoshligi bo'yicha reytingi Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish bo'yicha tashkiloti (UNIDO) tomonidan ikki yil kechikish bilan ishlab chiqiladi (ya'ni oxirgi hisobot 2020-yil yakunlari bo'yicha 2022-yilda chop etilgan).

Reyting asosini ishlab chiqaradigan sanoat rivojlanishining bir qancha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblangan sanoat raqobatbardoshligining kompozit indeksi tashkil etadi. Buning uchun o'rganilayotgan mamlakat bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalilanildi.

Ushbu ko'rsatkichlar raqobatbardoshlikning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, mamlakatning dunyo ishlab chiqarish sanoatidagi o'rni kabi omillarini aks ettiradi.

O'zbekiston 2017-2020 yillarda UNIDO reytingida 95-o'rindan 89-o'ringa, ya'ni 6 pog'onaga ko'tarildi va bu e'tiborga molik yutuq. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida sanoat raqobatbardoshligi indeksi bo'yicha Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu yutuqlarga oxirgi yillarda ishlab chiqaradigan sanoatni jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish yordamida erishildi.

Sanoat raqobatbardoshligi indeksiga kiritilgan ayrim asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekistonda quyidagi ijobjiy o'zgarishlarga erishildi:

Ishlab chiqaradigan sanoatning yalpi ichki mahsulot (YalM) dagi ulushida barqaror o'sish tendensiyasi qayd etildi, ya'ni 2017-yilda 15,5 foiz, 2022-yilda esa 20,5 foiz.

Sohada aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish hajmi har yili o'rtacha 4,7 foizdan barqaror ravishda o'sib bordi.

O'zbekiston jahon miqyosida mahsulotlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash bo'yicha tobora yaxshiroq natijalargi erishmoqda. Har yili jahon bozorida mahalliy sanoat mahsulotlariga talab ortib, eksport geografiyasi kengaymoqda. Buning natijasida tovarlar eksportida ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari ulushi 76,6 foizdan 83,3 foizga oshdi.

Farmatsevtika mahsulotlari, turli tibbiy asbob-uskunalar va buyumlar, shuningdek, yuqori texnologiyali tarmoqlar uchun ehtiyyot qismlar eksportining jadal o'sishi hisobiga ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari eksportida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 0,16 foizdan 0,49 foizgacha oshdi.



## 2023-yilning yanvar-iyun oylari oralig'ida iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha sanoatning rivojlanish sur'ati

o'qish vaqt  
47 soniya


2023-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ijobjiy natijalarga erishildi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmi 5,6 foizga oshdi va 293,6 trln. so'mga yetdi. Jumladan, ishlab chiqarish sanoatidagi o'sish 6,3 foizni, elektr energiyasi, tabiiy gaz va bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash kabi tarmoqlardagi o'sish 9,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda O'zbekistonning barcha viloyatlarida ijobjiy natija kuzatilmogda. Bunda hududlarning sanoat tarmog'i tarkibida kattagina ulushni tashkil etgan ishlab chiqarish sanoati o'sishning asosiy drayveri bo'ldi.

Neftni qayta ishslash, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, avtomobilsozlik sanoati va metallga ishlov berish tarmoqlarida alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarishda faol o'sish kuzatildi.

2023-yilning yanvar-iyun oylari oralig'ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida sanoat tarmog'ining ulushi ortdi. Iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida eng ko'p ulush (30,2 foiz) ishlab chiqarish sanoatining hissasiga to'g'ri keldi. Xususan, investitsiyalarning 8,0 foizi tog'-kon sanoati, 7,5 foizi tabiiy gaz va bug' yetkazib berish, havo namligini bir xilda saqlash kabi sohalarga to'g'ri keldi.





Listlangan shisha qurilish jarayonida binolarning kompozitsion jozibadorligini oshiradigan yangi arxitektura va dizaynerlik yechimlarini topish imkoniyatini yaratgan holda qurilish industriyasi, uy-joy kommunal xo'jaligi, mebelsozlik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlari amalga oshirishdagi asosiy omillardan biridir.

Kaltsiyangan soda, kvars qumi, dala shpati, ohaktosh va dolomit shisha ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo bo'lib, O'zbekistonning turli hududlarida mavjud.

Yuqori talab va bozorni rivojlantirish imkoniyatining kattaligi, mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratgan davlat siyosatining rag'batlantiruvchi choralar qator investorlarning e'tiborini shisha sanoatiga qaratdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda shisha sanoatini rivojlantirishda haqiqiy siljish ro'y berdi: Jizzax, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida innovatsion, energiya tejovchi float texnologiyasi asosida turli qalinlikdagi me'moriy, qurilish va naqshli shishalarning yirik formatli, termik sayqallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlar tashkil etildi.

**Ma'lumot uchun:** float-shisha (termik sayqallangan) eritilgan shisha massasini erigan qalayning harakatsiz qatlami ustiga quyish orqali olinadi.

Shisha massasi zichligining kamligi bois yuqori qatlamni hosil qiladi, shisha va qalay tutashgan joyda silliq yuza paydo bo'ladi. U barqaror qalinlik va xona ichida tabiiy yorug'likni ta'minlaydi.

2022-yilda O'zbekistonda 35,4 million kvadrat metr shisha (2 mm hisobda) ishlab chiqarilgan. 2018-2022 yillarda qurilish-montaj ishlari hajmi 62,4 foizga, shisha ishlab chiqarish hajmi esa 112,8 foizga oshgan. Bu esa bozor iqtisodiyotning turli tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan mahsulot bilan to'ldirilayotganidan dalolat beradi.

Erishilgan natija 2022-yilda shisha eksportini 2018-yildagiga qaraganda 6,5 barobar oshirish, importni esa 51,6 foizga qisqartirish imkonini berdi.

Yangi tashkil etilayotgan turli qalinlikdagi keng formatli listlangan shisha ishlab chiqarish quvvatlari hududlarda shisha va unga aloqador tarmoqlarni yanada samarali rivojlantirish, sifatli mahsulot eksportini oshirish va importni qisqartirish uchun sharoit yaratmoqda.

## O'zbekistonda shisha sanoati rivojlanishidagi ilgari siljish



2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 4,1 foizga oshdi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari ijobiy o'sish sur'atlari erishdi. Shunday qilib, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 4,9 foizga, chovachilik mahsulotlarini yetishtirish esa 3,3 foizga oshdi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining eng yuqori o'sish sur'ati Sirdaryo viloyatida qayd etildi – 106,9 foiz. O'sish sur'atlari bo'yicha Surxondaryo (106,6 foiz), Xorazm (106,4 foiz), Jizzax (105,2 foiz) va Namangan (105,1 foiz) viloyatlari ham yetakchilar qatorida.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 13,5 trillion so'mga oshib, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 6,0 foizini tashkil etdi.


Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan siyosat mavjud resurslardan samarali foydalanish, aholi ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini iqtisodiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishga qaratilgan.

2023-yilning 9 oyi davomida barcha toifadagi fermer xo'jaliklarida 6 972,1 ming tonna donli ekinlar yetishtirildi. Bu 2022-yilning shu davridagiga nisbatan 3,3 foiz ko'p. Shunday qilib, 2 678,7 ming tonna kartoshka (+1,1 foiz), 8 136,2 ming tonna sabzavotlar (+1,5 foiz), 1 606,6 ming tonna poliz mahsulotlari (+3,4 foiz), 2 280,2 ming tonna meva va rezavorlar (+3,1 foiz) yetishtirilgan.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilayotgani va davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlanayotgani ichki bozorni chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga xizmat qilmoqda.

Bu davrda tirik vaznda 2 042,9 ming tonna go'sht (2022-yilning shu davridagiga nisbatan 3,5 foiz ko'p), 8 579,2 ming tonna sut (+3,5 foiz), 6 055,9 million dona tuxum (+2,0 foiz) yetishtirildi va 91,2 ming tonna baliq (+10,5 foiz) ovlandi.

## 2023-yilning 9 oyi uchun O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy ko'satkichlari dinamikasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari



Rivojlangan mamlakatlarda veterinariya xizmatlari «iste'molchi to'laydi» qoidasi bo'yicha xususiy asosda ko'rsatiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ham asta-sekin asosan davlat tasarrufidagi veterinariya xizmatlaridan voz kechib, ularni markazlashtirmaslik va xususiy lashtirishga o'tmoqda.

**Yangi Zelandiya** veterinariya faoliyatini «e'tirozsiz» va «e'tirozli» qismlarga ajratadi. Bunda hukumat tartibga solish va ba'zi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydi, klinik va profilaktik veterinariya xizmatlari esa xususiy asosda ko'rsatiladi. Bundan tashqari, mamlakatning xususiy veterinariya shifokorlari soni kam bo'lgan hududlarida chorvadorlarning o'zları para-veterinarning bir qator vazifalarini bajaradi.

**Keniya** veterinariya uyushmasi xususiy klinikalarни ochish uchun kreditlar ajratdi. Garchi birinchi bosqich muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsada, ikkinchi bosqichda kreditlarni qaytarish bilan bog'liq muammo yuzaga keldi. Bundan tashqari, para-veterinarlarga mototsikl sotib olish uchun kreditlashning maxsus sxemasi taklif qilindi.

**O'zbekistonda** chorvachilikda mahsuldarlikni oshirish uchun respublikada mavjud chorva mollarining sifatini yaxshilash zarur. Bunga erishish yo'llaridan biri veterinariya xizmatini rivojlantirishdir.


2017-2022 yillarda respublikada ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari hajmi 2,9 barobar, jumladan, davlat veterinariya xizmati tomonidan

ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1,7 barobar, xususiy veterinariya shifokorlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5,5 barobar oshdi.

Respublika bo'yicha ko'rsatilgan veterinariya xizmatlarining umumiylajmida xususiy veterinariya shifokorlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar ulushi 2017-yildagi 28,9 foizdan 2022-yilda 56,3 foizgacha oshdi.

#### **Veterinariya xizmatlarini xususiy lashtirish jarayonini faollashtirish bo'yicha tavsiyalar:**

- veterinariya xizmatlari auditini o'tkazish va xususiy sektor javobgarligi ostiga o'tkazilishi yoki DXSh tamoyili bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan xizmatlarni aniqlash;
- veterinariya xodimlarini tayyorlashni yaxshilash, asosiy e'tiborni amaliyotga ko'proq vaqt ajratishga qaratish;
- qishloq joylarda mayda chorvadorlar va ish bilan band bo'limgan yoshlar uchun para-veterinariya xizmati ko'rsatish bo'yicha o'quv kurslari va treninglar o'tkazish orqali para-veterinariya mutaxassislarini tayyorlash;
- veterinariya qonunchiligini qayta ko'rib chiqish va uni veterinariya va fitosanitariya choralari bo'yicha JST talablari va tamoyillariga moslashtirish maqsadga muvofiq.





Monitoring natijalari 7 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi\*. Shunday qilib, qizil sabzining narxi 42,1 foiz, limonning narxi 39,0 foiz, oq karamning narxi 16,7 foiz, sutning narxi 14,9 foiz, bananning narxi 12,3 foiz, kungaboqar yog'ining narxi 9,7 foiz, kartoshkaning narxi 6,4 foiz pasaygan.

9 nomdag'i mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Ularning orasida guruch, bug'doy uni, shakar va boshqalar bor.

5 nomdag'i mahsulot narxlari oshgan. Xususan, bodring va pomidor qimmatlashgan. Bu esa mavsumiy omil bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, xuddi shunday dinamika o'tgan yili ham kuzatilgan, bu esa ushbu hodisaning takrorlanishi va uning bozor tendentsiyalariga ta'siridan dalolat beradi.

\*tahlil 12-oktyabr va 9-noyabr kunlari otkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.

**2023-yil noyabr oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda  
oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi  
(o'tgan oydagiga nisbatan foiz hisobida)**



Manba: 12-oktyabr va 9-noyabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari



## 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


o'qish vaqt  
35 soniya

2023-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida xorijiy mamlakatlarga umumiyligi qiymati 831,0 million AQSh dollariga teng bo'lgan 1 337,9 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan. Bu esa 2022 yilning shu davridagiga nisbatan qiyamat ko'rinishidagi 9,3 foiz ko'p demakdir.

Meva-sabzavotlar eksportida qiyamat jihatidan eng katta ulushni shaftoli (nektarin) – 8,1 foiz, sarxil uzum – 7,7 foiz, piyoz – 6,4 foiz, gilos – 6,4 foiz, mayiz – 5,7 foiz, o'rik – 4,9 foiz, qovun va tarvuz – 4,7 foiz, pomidor – 4,2 foiz egalladi.

2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida eksportning umumiyligi hajmida meva-sabzavotlar ulushi 4,7 foizni tashkil etgan.

O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (41,9 foiz), Pokiston (15,1 foiz), Qozog'iston (12,2 foiz), Xitoy (8,4 foiz), Qirg'iziston (8,0), Turkiya (2,4 foiz), Belarus (1,6 foiz), Afg'oniston (1,4 foiz), Eron (1,0 foiz), Iroqdir (0,9 foiz).





Yer resurslari iqtisodiyotning drayveri hamda kambag'allikni qisqartirishda asosiy vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Bunda yerdan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etish orqali ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasidan qaysi jihatlarni olish mumkin?

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlari shu maqsadda yer resurslarini tartibga solish va xususiylashtirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgandi.

Rivojlangan mamlakatlarda yer resurslarini muvofiqlashtirish va xususiylashtirishda yerdan foydalanish va yerga mulk sifatida egalik qilishga oid huquqlar qonunchilikda aniq belgilab qo'yilgan.

Masalan, Germaniyada yerni sotib olish huquqi o'sha hududda yashaydigan va 10 yildan beri ijrarachi bo'lib ishlaydiganlarga beriladi.

Ispaniyada yerni ijaraga berish tartibiga ko'ra, 50 gektardan ortiq sug'oriladigan yer maydoni yoki ming gektardan ortiq yaylovni ijaraga olishga yo'l qo'yilmaydi.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda yer resurslarini xususiylashtirish jarayoni yetarli darajadagi davlat nazorati ostida amalga oshiriladi. Masalan, AQSh va Irlandiyada yil davomida bor-yo'g'i 3 foiz yer mulk sifatida almashiniladi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiyada 2 foizni, Germaniyada esa 1,5 foizni tashkil qiladi.

Ko'p hollarda yer resurslari foydalanuvchilarga uzoq muddatli ijara asosida beriladi. Masalan, AQSh va Germaniyada yerlarning 42 foizi, Yangi Zelandiyada 40 foizi, Britaniya va Kanadada 39 foizi, Belgiyada 66 foizi, Fransiyada 56 foizi, Niderlandiyada 32 foizi, Portugaliyada 25 foizi, Yaponiyada 15 foizi uzoq muddatga ijaraga berilgan. Yerning ijara narxlari va to'lovlari auksion-birja yoki arbitraj orqali aniqlanadi.

XX asrning o'rtalarida AQShda yerga xususiy mulkchilik shakllariga oid qonun qabul qilindi. Natijada shartsiz va umrbod erga egalik qiluvchi mulkdorlar hamda oilaviy yer mulki (homesteads) egalari vujudga keldi.


Bular esa AQShda yer ijarasi keng tarqalishiga va yer kapital bozori hamda yer banklari kabi moliya institutlarining rivojlanishiga olib keldi. AQShdagi yer islohotlari fermerlarning rivojlanishi bilan birga moliya bozorining kapitalizatsiyasi oshishiga xizmat qildi.

Hindistonda yangi yer islohotlari natijasida qishloq xo'jaligi yerlarining 85 foizi kambag'al aholiga ijara shaklida berildi hamda subsiyadiya va grant shaklida mulk sifatida sotildi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 4-5 baravar ortdi hamda kambag'al aholining to'lov qobiliyatni ko'tarildi.

Xitoya amalga oshirilgan yer islohotlari natijasida 90 mln. hektar yer qishloq aholisiga ijaraga berildi. Natijada kambag'al qishloq aholisining 90 foizi ish o'rniiga ega bo'ldi. Ushbu kichik yer egalarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish kooperativlariga birlashishi ularni iqtisodiy faoliyat drayveriga aylantirdi. Oqilona yer islohotlari natijasida Xitoy g'alla eksport qiluvchi davlatga aylandi.

Tahlillar aksariyat mamlakatlarda yer bozori kuchli nazorat qilinishini ko'rsatdi. Bunda davlat hokimiyyati yerni bir toifadan ikkinchi toifaga o'tkazish, sotish uchun ruxsatnomalar berish, ekologik holatini nazorat qilish, xususan, yer eroziyasini, degradatsiyasini va cho'llanishining oldini olish vakolatlarini o'zida saqlab qoldi.

Demak, yer resurslarini tartibga solish va xususiylashtirishda yer turlari va toifalaridan kelib chiqib, yerga mulk sifatida egalik qilish huquqi hamda yerdan foydalanish huquqlarini (ijara shaklda) qonunchilikda aniq va ravshan belgilash tavsiya qilinadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida yerni ijaraga berishda o'sha hududda istiqomat qilayotganlik yoki mahalliy aholi uchun yangi ish o'rnnini yaratayotganlik omillariga e'tibor berish maqsadga muvofiq.



# **Yer resursidan samarali foydalanish bo‘vicha xorij tajribasi**

**O‘zbekiston uchun dunyo mamlakatlari tajribasidagi  
qaysi qoidalari shaxsiga xujumim?**



2022-yilda ikki mamlakat o'rtaqidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari tovar aylanmasi 44,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va so'nggi 3 yil ichida 5 barobar oshdi.

2022-yilda Eron O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportida 13-o'rinni, importida esa 19-o'rinni egalladi.


Hozirgi vaqtida Eron va O'zbekiston o'rtaSIDA bir qator yo'nalishlar, shu jumladan qishloq xo'jaligi sohasida o'zaro manfaatli munosabatlari yo'lga qo'yilgan. 2022-yil sentyabr oyida ShHTning sammitida ikki mamlakat o'rtaSIDA Qishloq xo'jaligida hamkorlikka oid memorandum imzolandi.

2022-yil oktyabr oyida O'zbekistonning Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda Eron Milliy kartoshkachilik uyushmasi o'rtaSIDA ilmiy-amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishib olingandi.

Hamkorlikning eng muhim istiqbolli jihatlaridan biri bu Eron o'z qishloq xo'jaligidagi muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqqan texnologiyalar transferidir. Gap bu o'rinda biotexnologiyalarni qo'llash orqali sho'rlangan tuproqlar muammosini hal qilish va hosildorlikni oshirish haqida bormoqda Bular organik va mikrobi o'g'itlar, shuningdek, biologik pestitsidlardir.

Xalqaro savdo markazi (ITC) hisob-kitoblariga ko'ra, savdo-iqtisodiy hamkorlikning hozirgi darajasida O'zbekistondan Eronga qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida foydalanilmagan imkoniyatlar 22,9 million AQSh dollarini tashkil etadi.

O'zbekiston va Eron umumiyo tovar aylanmasini 1 milliard dollarga yetkazishni mo'ljallamoqda. Buning uchun imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimni imzolash, shuningdek, ikki mamlakat hududida Made in Iran va Made in Uzbekistan ko'rgazmalarini o'tkazish rejalashtirilmoqda.





Tadqiqot davomida Sirdaryo o'zanidan Mirzacho'lning ichki qismigacha bo'lgan 200 kilometrga yaqin masofadagi hudud shartli ravishda 3 ta zonaga bo'lindi va ulardagi tumanlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda suvni ko'p va kam talab qiladigan ekinlarning ulushi tahlil qilindi.

Birinchi zonadagi Sirdaryo viloyatining Boyovut, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo kabi daryo bilan tutash tumanlaridagi jami ekin maydonlarining 54 foiziga suvni kam talab qiluvchi ekinlar joylashtirilgan. Bu ko'rsatkich ikkinchi zonadagi Xovos tumanida 66 foizga, Mirzaobod tumanida 56 foizga teng. Sirdaryo o'zaniga nisbatan 60-70 km. masofada joylashgan uchinchiligi zonadagi tumanlarda esa suvni ko'p talab qiluvchi ekin maydonlarining ulushi 41,9 foizdan 55,2 foizgacha.

Afsuski, daryo o'zanidan uzoqlashgan sari suvni ko'p talab qiluvchi ekin maydonlarining jami ekin maydonlaridagi ulushi ortib bormoqda. Bu suvni ko'p yo'qotish hamda suvni yetkazib berish xarajatlarining ortishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda daryo o'zanidan uzoqlashgan sari suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarni joylashtirishni ham 50 foizdan 10 foizgacha kamaytirib borish maqsadga muvofiq.

Sirdaryordan cho'l zonasiga tortilgan "Janubiy Mirzacho'l" va "Do'stlik" magistral kanallarida suv yo'qotilishi 5-6 foizni, ichki ariqlarda 7-8 foizni tashkil etadi.

Keyin, suv dalalar orasidagi ariqlardan oqadi va bu tizimdagagi shimalish va bug'lanish hisobiga suv yo'qotilishi 30 foizga yetadi. Shularni hisobga olgan holda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- daryo o'zaniga eng yaqin bo'lgan daryo qayirlariga suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarni (masalan, sholi gektariga 25 ming m<sup>3</sup> suv talab qiladi) ekish;
- daryo o'zaniga nisbatan yaqin tumanlarga paxta (5-6 ming m<sup>3</sup> /ga) va sabzavotlarni (8-9 ming m<sup>3</sup> /ga) ekish;
- daryo o'zanidan uzoqlashib borgan sari suvni kam talab qiluvchi ekinlar (kuzgi g'alla (4-5 ming m<sup>3</sup> /ga), no'hat (3-4 ming m<sup>3</sup> /ga), mosh, bog' va uzumzorlar (2-3 ming m<sup>3</sup> /ga)) ni joylashtirish suv resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Natijada daryo o'zanidan uzoqlashgan sari sholichilik, sabzavotchilik, g'allachilik, bog'dorchilik ketma-ketligida ekin areallari shakllanadi hamda suv yetkazib berishdagi yo'qotishlar 12 foizga qisqaradi.

Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish orqali yaqin 15 yilda Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi tumanlarda sug'orishdagi suv sarfini 30 foizgacha kamaytirishga erishish mumkin.





2022-yilda O'zbekistonga sitrus mevalar, keshyu yong'og'i va xurmo importi 2018-yildagiga qaraganda sezilarli darajada oshgan. Bunga bir qancha omillar sabab bo'lgan.

**Respublika iqtisodiyotining barqaror o'sishi va aholi sonining ortishi.** 2018-2022 yillarda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha o'sish sur'ati 5,3 foizni, aholi sonining o'sish sur'ati esa 1,9 foizni tashkil etdi.

**Qulay makroiqtisodiy sharoit.** YalMning aholi jon boshiga ulushi 2018-yildagi 1604 AQSh dollaridan 2022-yilda 2255 AQSh dollariga ko'tarildi. Bu ham 2018-2022 yillarda aholi real umumiy daromadlarining 32,1 foiz oshishiga zamin yaratdi.

**Import bojxona to'lovlarini nolga tushirish.** Jumladan, 2021-yilning oktyabr oyidan boshlab O'zbekistonda sitrus mevalarni olib kirishda nol bojxona stavkasi tartibi joriy qilindi va bu muddat bir necha bor uzaytirildi. Ayni chog'da nolga teng stavka 2024-yilning 1-yanvarigacha amal qiladi.

**Oziq-ovqat chakana savdosini rivojlantirish.** Marketing tadqiqotlariga ko'ra, 2015–2021 yillarda respublikaning zamonaviy chakana savdo bozori yiliga o'rtacha 17 foizga o'sgan.

Savdo hajmining 58 foizdan ortig'i chakana oziq-ovqat savdosining ulushiga to'g'ri kelgan. 2026-yilga borib, O'zbekiston bozoridagi zamonaviy chakana savdoning ulushi deyarli ikki barobar oshishi mumkin.

**2022-yilda sitrus mevalar va yong'oqlar importi hajmi 2018-yildagiga nisbatan quyidagicha oshgan:**


- keshyu yong'og'i - 8,2 barobar;
- xurmo - 7,6 barobar;
- mandarin - 6,6 barobar;
- kivi - 4,7 barobar;
- apelsin - 3,9 barobar.

Sitrus mevalar salomatlik uchun ko'plab foydal xususiyatlarga ega. Jumladan, ularning tarkibida S vitamini, shuningdek, yurak - qon-tomir tizimiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan va surunkali yurak va qon-tomir kasalliklarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi flavonoidlar katta miqdorda mavjud.

Keshyu yong'og'i mis va magniyya boy bo'lib, suyak mustahkamligini oshiradi.

Xurmo tarkibida ko'p miqdorda polifenollar (antioksidantning bir turi) mavjud bo'lib, ular tanani saratonning ayrim turlaridan, shuningdek, diabet va yurak - qon-tomir kasalliklaridan himoya qiladi.

2018-2022 yillarda O'zbekistonga kivi importi



Manba: UN COMTRADE, TRADEMAP ma'lumotlari



Agrodronlarning dunyo bozori o'sishda davom etmoqda. GlobalData ma'lumotlariga ko'ra, 2015-2021 yillar oraliq'ida qishloq xo'jaligi dronlari bilan bog'liq patentlar soni 14 baravar oshgan. 2022-yil oxirida dronlar bozorining 11 foizi qishloq xo'jaligining ulushiga to'g'ri keldi. FactMR tahlil agentligining hisob-kitoblariga ko'ra, 2033-yilga borganda agrodronlar bozori 4 barobar kengayadi va 14 milliard dollarga yetadi.

#### **Qishloq xo'jaligida agrodronlardan foydalanishning asosiy afzalliklari:**

- dalalar kuzatib boriladi va o'rganib chiqiladi;
- dalalarga ishlov beriladi;
- ekin ekiladi;
- hosil miqdori aniqlanadi;
- hosildorlikni oshirish foydalaniladi.

Tahlil jarayonida ba'zi mamlakatlarning qishloq xo'jaligida dronlardan foydalanishni kengaytirish bo'yicha tajribasi ko'rib chiqildi.

**Yaponiya**da qariyb 5 million hektar ekin maydonlari mavjud. Bugungi kunda ushbu yerlarning 20 foizdan ortig'ida zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashda dronlardan foydalaniladi. Mamlakatda dronlardan xavfsiz foydalanish uchun operatorlarga litsenziya berishning maxsus qoida va tizimi amal qiladi, ya'ni yagona tartib-qoida o'rnataligan.

Bu fermerlarga o'z fermasida ushbu texnologiyadan bemalel foydalanish imkonini beradi. Yaponiya Qishloq, o'rmon va baliqchilik vazirligining hisobotiga ko'ra, 2023-yil oxirida mamlakatdagi qishloq xo'jaligi dronlari bozori hajmi 13,6 milliard iyenaga (taxminan 125 million AQSh dollar) yetadi.

**Polsha** qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va qishloq ishlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, dronlardan foydalanish tarmoq hosildorligining 5 foizgacha o'sishiga va har yili iqtisodiy qiymatining 2,5 milliard yevroga qo'shimcha ortishiga olib kelishi mumkin. 2015-yilda Polsha Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi (CAA) dron operatorlari uchun birinchi qoidalar to'plamini joriy etdi. Ushbu qoidalar dronlardan foydalanish uchun minimal talablarni, shu jumladan operatorlarga har qanday tijorat dron parvozlarini uchun CAA ruxsatini olish uchun talablarini belgilaydi. Keyinchalik CAA ushbu qoidalarni 2017- va 2021-yillarda yangiladi.

**O'zbekiston** qishloq xo'jaligida dronlardan foydalanish sohada hosildorlikni oshirish, hosil sifatini yaxshlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, shuningdek, yoshlarni qishloq xo'jaligiga jaib qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.





Atrof-muhitni yaxshilash va qo'shimcha iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'llaridan biri degradatsiyaga uchragan cho'l-dasht yerlarini tiklash hamda ularni xo'jalik muomalasiga kiritishdir.

O'zbekistonda o'rmon fondi yerlarining degradatsiyaga uchragan qismi cho'l-dasht zonalarida (8,7 mln. hektar) joylashgan. Bu yerlarda cho'llanish indeksi yuqori va kam yog'ingarchilik yashil qoplamning qisqarishi, cho'l hayvonlarining nobud bo'lishi va chang-to'zon ko'tarilishi kabi ekologik muammolarga olib kelmoqda.

Bunday yerlarni tiklash uchun ko'p mamlakatlarda fitomelioratsiya usuli qo'llaniladi. Bu usul o'sha yerga xos bo'lgan o'simlik va buta turlarini to'g'ri tanlashga asoslangan.

Qora saksuvul, cherkez va selin hamda qandim O'zbekistonning cho'l-dasht maydonlari uchun mos keladigan fitomeliorant o'simliklardir. Ular Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on va Termiz tumanlaridagi qumli va qumloq tuproqli dala sharoitida sinovdan o'tkazilgan.

Yaxshi samara bergen tajriba natijalari bunday amaliyotni Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining cho'l-dasht hududlarida qo'llash mumkinligini ko'rsatdi.

MHTI ekspertlarining dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, cho'l-dasht zonalariga saksuvul (ozuqa hosildorligi hektariga 57 sentner) qandim (hektariga 18 sentner) cherkez ekish orqali degradatsiyaga uchragan 5 mln. hektar yerni qayta tiklash imkoniyati mavjud.

Bu esa ushbu maydonlarda qo'y-echki boqiladigan 5 mingta otarchilik chorva fermalarini tashkil qilish imkonini beradi. Buning natijasida mayda shoxli chorva mollari soni qo'shimcha 3 mln. boshga ortadi va 100 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, 1 hektar saksovulzordan o'rtacha 10 tonnagacha quruq yog'och massasini olish mumkin. Bu esa otarchilik chorva xo'jaliklariga quruq yog'och massasini yig'ib olish va qish mavsumida o'zini o'tin bilan ta'minlash imkonini beradi.

O'rta hisobda 100 hektar cho'l-dasht maydonining ozuqa birligi 20-30 bosh yirik shoxli qoramol yoki 60-90 bosh mayda shoxli mol (qo'y va echki) uchun yetarli. Biroq cho'l-dasht maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, almashlab foydalinish uchun 300-350 hektar maydonda 100 bosh mayda shoxli molni navbatma navbat o'tlatish mumkin. (Bunda bir o'tlatilgan maydonga o'zini tabiiy tiklashi uchun 2 yil dam beriladi).

#### Umuman olganda, taqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Tuproqning yuqori qatlamida chang-to'zon paydo bo'lishining oldini olish bu cho'l-dasht yerlarini qayta tiklashning ekologik samarasini.
2. Yangi ish o'rinalarini yaratish, mebel ishlab chiqarish uchun sifatlari yog'och xom ashyosini olish, yog'och chiqindilaridan o'tin sifatida foydalinish bu cho'l-dasht yerlarini qayta tiklashning iqtisodiy samarasi.





Agar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan samarali milliy agrosug'urta tizimi mavjud bo'lsa, tabiat injiqqliklari oqibatida yetadigan zarar ham ancha kam bo'lishi mumkin. Xalqaro amaliyot agrosug'urtada davlat-xususiy sheriklikning (DXSh) samarali modellarini yaratish muhim ekanligini isbotlaydi. Bu borada bir necha mamlakat tajribasini ko'rib chiqish mumkin.

**Xitoy.** Agrosug'urtada DXSh samarali sug'urta mahsulotlarini yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun xavf-xatarni kamaytirish, tabiiy ofatlar va hosilning nobud bo'lishidan himoya qilish imkonini berdi. 2004-yildan boshlab Xitoy hukumati operatsion mas'uliyatni xususiy sug'urta sektoriga o'tkazib, sug'urta kompaniyalari uchun «sherik» va «kuzatuvchi»ga aylandi. 2020-yilga kelib, mamlakatda agrosug'urta bo'yicha mukofotlar hajmi 81,5 milliard yuanga yetdi va 189 millionta uy xo'jaligining turli xavf-xatarlardan 4,13 trillion yuan miqdoridagi mablag' bilan himoyalanishini ta'minladi.

**Turkiya.** 2006-yilda DXShka asoslangan yangi qishloq xo'jaligi sug'urta tizimi yaratilganidan beri Turkiya hukumati mukofotlarning 50 foizini moliyalashtirish orqali fermerlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Sug'urta kompaniyalari teng ulushlarda ishtirok etadigan agrosug'urta sherikchiligini tashkil etish ushbu tizimning o'ziga xos xususiyatidir.

**Isroil.** Qishloq xo'jaligida tabiiy xavflardan sug'urta qilish davlat jamg'armasi (KANAT) mamlakatda qishloq xo'jaligi sug'urtasini mukofot stavkalarini subsidiyalash va risklar portfelini qayta sug'urtalash orqali amalga oshiradi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi sug'urtasining tarqalish darajasi qariyb 90 foizni tashkil etadi.

Har bir agrosug'urta modeli o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Agrosug'urta bo'yicha to'plangan jahon tajribasi O'zbekiston uchun mahalliy sharoitda eng samarali agrosug'urta modelini tanlash uchun asos bo'lishi mumkin.





Yaponiyada qishloq xo'jaligi bir necha rivojlanish bosqichini boshdan kechirdi. Undagi dastlabki tub o'zgarishlar 70-yillarda ro'y berdi.

1. Birinchi bosqich (1870-1945 yillar)da yerga nisbatan xususiy mulkchilik tizimi yaratildi. Dastlab xorijdan qishloq xo'jaligi texnikasi, zotdor chorva mollari, turli xil ekin urug'lari hamda ko'chatlari import qilindi va ularni moslashtirish ishlari olib borildi. Kadrlar tayyorlash uchun o'quv markazlari, kasb-hunar ta'lim muassasalari, maktab va kollejlar, universitetlarda esa maxsus ixtisoslashgan bo'limlar tashkil etildi. Malakali xorijiy mutaxassislar taklif qilindi va mahalliy mutaxassislar xorijdagi o'quv yig'inlariga yuborildi.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi yutuqlarga asosan intensiv usullar – ekin navlarini yaxshilash va ularni yetishtirish texnologiyasini modernizatsiya qilish orqali erishildi.

2. Modernizatsyaning keyingi bosqichida, ya'ni 1945-yildan keyin yerdan foydalanish sohasida qat'iy qarorlar qabul qilindi. Taxminan 2 yil ichida yirik yer egaligi butunlay tugatilib, kichik mustaqil fermerlar qatlami yaratildi.

Uzoq vaqt davomida (1980-yillarning boshlariga qadar davom etgan) yerni boshqaga berishning qonun bilan qat'iy cheklanganligi sabab, mamlakatda ishlab chiqarish ko'lami tufayli tejashi va samaradorlikni oshirishi mumkin bo'lgan yirik fermer xo'jaliklari shakllanmagan.

Islohotlar umuman olganda, Yaponiya iqtisodiyotiga ijobjiy ta'sir etib, sanoat va shaxsiy iste'molning o'sishi hisobiga ichki bozorning kengayishiga hissa qo'shdi. Mamlakatda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda Sohaga oid bilimlarini tarqatish bo'yicha davlat xizmati muhim o'rinn tutadi. U qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ilmiy va texnologik yutuqlarni tatbiq etish, qishloq xo'jaligi sohasi uchun kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Respublikamizda kichik fermer xo'jaliklari sonining ko'pligi inobatga olinsa, Yaponiya tajribasini O'zbekistonga mos, deb hisoblash mumkin. Yaponianing qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi alohida e'tiborga loyiq.

**Batafsil:** [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese\\_xperience](https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/japanese_xperience)





Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar mulk va ijara (tadbirkorlik va ko'p qavatli uy-joy qurish uchun) huquqi asosida auksion savdolariga qo'yilmoqda.

Respublika bo'yicha 2023-yilning yanvar-oktyabr oylarida "YERELEKTRON" AAT orqali auksion savdolariga 720,6 ga yer (20,3 ming lot) mulk huquqi asosida, 3561 ga yer (44 ming lot) esa ijara huquqi asosida qo'yilgan.

Ushbu auksion savdolariga qo'yilgan yerlarning hajmi 2023-yil oktyabr oyida yil boshidagiga nisbatan 12,7 marotaba, lotlar soni esa 6,8 marotaba ortgan.

Tahlil davrida mulk huquqi asosida sotilgan yerlarning hajmi 15 barobar (13,5 hektardan 202,4 hektarga), lotlar soni 12,3 barobar ortgan.

Ijara huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun sotilgan yerlarning hajmi 12,9 barobar, lotlar soni 5,4 barobar ortgan. Yerlarning ijara huquqi asosida savdoga chiqarilishi tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishiga, shu jumladan, yangi ish o'rinalarining yaratilishi orqali aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda hududlarda iqtisodiy faoliyatning jadallashuviga olib keladi.

Ko'p qavatli uy-joy qurish uchun sotilgan yerlarning hajmi 6,8 barobar (9,4 hektardan 64,4 hektarga), lotlar soni 4,9 barobar ortgan.

Bu holatlar yerdan foydalanuvchilarda yerga egalik qilish manfaati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ko'p qavatli uy-joy qurish uchun sotilgan yerlarning hajmi ortishi esa aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yer uchastkalarining barcha turlari bo'yicha sotish hajmining o'sishi mahalliy byudjetda tushumlarni oshiradi va bu mablag'lар mahalliy infratuzilmani rivojlantirish hamda shaharsozlik ishlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Jumladan, 2023-yilning yanvar-oktyabr oylarida auksion savdolarida yer maydonlari hajmining ortishi natijasida mahalliy byudjetga 994 mlrd. so'mlik tushum qilingan.

Ushbu mablag'larni quyidagi maqsadlar uchun yo'naltirish nazarda tutilgan:

"Yangi O'zbekiston", davlat uy-joy dasturlaridagi massivlarni tashqi muhandislik-kommunikatsiyalari bilan ta'minlash;

aholi punktlari bosh rejalar, hududlarning ma'muriy-rejalahtiruv topshiriqlari va batafsil rejalahtirish loyihalarini ishlab chiqish;

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilishga sarflanadi.



Ikki mamlakat o'rtaidagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmi so'nggi 5 yil ichida qariyb 5 barobarga o'sdi va 2022-yilda 40,8 million AQSh dollarini tashkil etdi.

2022-yilda Ozarbayjon O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida 9-o'rinni, importida esa 33-o'rinni egalladi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning qishloq xo'jaligi vazirlari ishtirokida 2022-yilning iyul oyida bo'lib o'tgan birinchi yig'ilishda Ozarbayjon va O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirlari qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni imzolagandi.

"Yo'l xaritasi"da mamlakatlar o'rtaida tajriba almashishning asosiy yo'nalishlari o'z aksini topgan: qishloq xo'jaligini sug'ortalash, raqamlashtirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ipakchilik sohasida qo'shma korxona tashkil etish.

Funduk va urug'siz anor, pilla, paxta yetishtirish kabi yo'nalishlarda ham yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda.

2023-yilda Xalqaro avtomobil transporti (eTIR) tizimi bo'yicha Toshkentdan Boku aeroportiga quritilgan va sarxil mevalarning birinchi elektron tashuvi muvaffaqiyatli amalga oshirildi.


Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtaida qishloq xo'jaligi sohasida samarali hamkorlikning davom etishi har ikki tomonni ham qimmatli bilimlar va ilg'or tajribalar bilan boyitib, qishloq xo'jaligining mahsuldorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, ikki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### O'zbekiston – Ozarbayjon: 2018-2022 yillarda o'zaro qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosi (TIF TN 01-24)



TIF TN - Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi

2018-2022 yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti va importi dinamikasi (million AQSh dollarri)



2022-yilda eksport tarkibi*			
Tamaki va tamaki o'rnnini bosuvchi sanoat vositalari	49.0%	Yeryong'oq	8.3%
Mayiz	16.1%	Shokolad va tarkibida kakao bo'lgan mahsulotlar	4.4%
Oddiy loviya	8.4%	Tozalangan yong'oq	2.7%
Boshqalar	11.1%		

\*qiymat ifodasidan

2022-yilda import tarkibi*			
Funduk	33.6%	Alkogolsiz ichimliklar	5.2%
Boshqa o'simlik yog'iari va moylari	18.4%	Hayvonlar uchun ozuqa mahsulotlari	4.6%
Bodom	16.6%	Beda urug'lari	3.7%
Shokolad va tarkibida kakao bo'lgan mahsulotlar	7.4%	Shakardan olinadigan qandolat mahsulotlari (kakaosiz)	2.0%
Boshqalar	8.5%		



So'nggi yillarda O'zbekistonda sut chorvachiligi va sut ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda. Birgina 2016-2022 yillarda sut ishlab chiqarish miqdori deyarli 20% ga oshdi.

Ammo ishlab chiqarishning bu o'sishini nima ta'minlayotganini ko'rib chiqsak, Bu davrda respublikada sigirlar soni 17,7% ga oshib, ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi esa 1,0% dan kam bo'ldi.

Shunday qilib, 2021-yilda bitta sigirdan sog'ib olinadigan yillik o'rtacha sut miqdori atigi 2310,4 kgni tashkil etdi. Holbuki, Rossiya Federatsiyasida bu ko'satkich 5016,7 kgni (2,2 baravar ko'p), Belarus Respublikasida 5366,7 kgni (2,3 baravar ko'p), Avstriyada 7275,3 kgni (3,1 baravar ko'p), Niderlandiyada 9148,8 kgni (deyarli 4 baravar ko'p), Isroilda 12736,2 kgni (5,5 baravar ko'p) ni tashkil etadi.

O'zbekistonda har ming kishiga 140 bosh sigir to'g'ri kelgan bir paytda, AQShda bor-yo'g'i 40 bosh, Buyuk Britaniyada 44 bosh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 45-48 bosh sigir to'g'ri keladi.

Bularning barchasi yaylov muammosini yuzaga keltiradi. Ularning aksariyati yomon ahvolda. 2,5 million gektarga yaqin yaylovlar yaroqsiz holatga kelgan. Mahalliy olimlarning fikricha, hozirgi kunda mamlakatdagi yaylov yerlarining 16,4 million hektari (78%) yaroqsiz holatga kelgan, yaylov va pichanzorlarda o'simlik turlari soni 20% dan ko'proqqa, hosildorlik esa 2 barobar kamaygan.

Sigirlarning mahsuldarligini oshirish uchun quyidagilar talab qilinadi:

1. Hayvonlarni muvozanatli ozuqlar bilan ta'minlash.
2. Chorvachilikda ko'lam samaradorligiga erishish.
3. Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni joriy etishni faollashtirish.

Bu vazifalarni hal etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisobiga respublikada sut ishlab chiqarishni ko'paytirish va yaylov yerlariga yuklamani kamaytirish imkonini beradi.

### Sog'in sigirlarning yillik mahsuldarligi (O'zbekiston va dunyoda)

O'zbekistondagi yillik sut mahsuldarligi dinamikasi, kg (bitta sigirdan)



2021-yilda sigir suti  
ishlab chiqarish

11 242,7  
ming tonna

Sigirlar soni  
(2021 y.)

4 866,1  
ming bosh

12 736,2  
kg

Isroil

9 148,8  
kg

Niderlandiya

8 187,7  
kg

Buyuk  
Britaniya

7 275,3  
kg

Avstriya

5 366,7  
kg

Belarus

5 016,7  
kg

Rossiya

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, FAOSTAT ma'lumotlari



Dunyo o'g'itlar bozori 2021-yilda tanqislikka duch keldi. 2022-yilda o'g'itlar narxining oshishi kuchaydi va so'nggi 70 yil ichida misli ko'rilmagan darajada bo'ldi. O'g'itlar narxining butun dunyoda o'sishi muqarrar ravishda ulardan foydalanishning qisqarishiga olib keladi. Bu ayniqsa, kam daromadli mamlakatlarda ko'proq kuzatiladi.

O'g'itlar iste'moli mamlakatlar bo'yicha dunyo bozoridagi o'zgarishlardan oldin ham katta farq qilgan. Masalan, Sahroi Kabirdan janubda joylashgan Afrika mamlakatlarida o'g'itlarning qo'llanilishi gektariga o'rtacha 22 kg ni tashkil etadi. Bu dunyo bo'yicha gektariga qo'llaniladigan o'rtacha ko'rsatkich (gektariga 146 kg) dan 6,6 baravar past. Xitoy va Chili kabi ba'zi mamlakatlarda o'g'itlar iste'moli gektariga 400 kg ga yaqin.

FAO (BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 1 hektar ekin maydoniga o'g'it iste'moli 254,5 kg ni tashkil etadi. Bu dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 74%, Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 2,9 baravar yuqori.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan azotli o'g'itlarning o'rtacha olganda yarmidan kamroq'i o'simliklarning o'sishida yordam beradi, qolganlari esa faqat suv havzalarini ifloslantiradi. So'nggi 100 yil ichida suv, tuproq va havodagi antropogen azotli birikmalar miqdori ikki baravar oshdi.

Shunday qilib, o'g'itlarni qo'llashga oziq-ovqat xavfsizligi uchun xavf tug'dirmaydigan darajada tuzatish kiritish zarur. O'g'itlarni eng samarali qo'llash uchun ularning o'zlashtirilish samaradorligini o'lhash, tuproqning holati va kimyoviy tuzilishini muntazam kuzatib borish talab etiladi. O'g'itlardan foydalanishda muvozanatni topish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlaydi va shu bilan birga atrof-muhitni kelajak avlodlar uchun asraydi.

### O'zbekiston va dunyoda o'g'it iste'moli

O'zbekistonda o'g'it iste'moli dinamikasi. haydaladigan yerlar gektariga kg



Dunyo miqyosida o'rtacha



Yuqori daromadli mamlakatlarda



Daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlarda



Orta daromadli mamlakatlarda



Daromadi o'rtachadan past bo'lgan mamlakatlarda



Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarda

Manba: FAOSTAT ma'lumotlari

## O'zbekiston va dunyoda tovuqlarning sertuxumliligi

O'zbekistonda tuxum yetishtirish dinamikasi, dona (bitta tovuqdan)



Dunyo miqyosida  
o'rtacha



350  
dona

Chili

296  
dona

Rossiya

294  
dona

Misr

254  
dona

Isroil

238  
dona

Birlashgan  
Arab Amirliklari

217  
dona

Tojikiston

Manba: FAOSTAT ma'lumotlari



### O'zbekistonda parrandachilikning rivojlanishi va sohaning unumdarligi tendensiyalari

o'qish vaqt  
52 soniya

So'nggi yillarda O'zbekistonda parrandachilik, shuningdek, tuxum ishlab chiqarish faol rivojlanmoqda. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 8 129,3 million dona tuxum ishlab chiqarilgan. Bu 2021-yilning shu davridagiga nisbatan 4,4 foiz ko'p. 2016-2022 yillar davomida tuxum ishlab chiqarish 32,1% ga oshdi.

Tuxumning asosiy qismi, ya'ni 61,9 foizi dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda, 23,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilmoqda.

Tuxum yetishtirishdagi bu o'sish parrandalar sonining ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligi (bitta tovuqning yillik sertuxumliligi) pasaymoqda. 2016–2022-yillar davomida parrandalar soni 45,2 foizga oshdi. Shu bilan birga, tovuqlarning yillik sertuxumliligi 2018-yildagi 244 donadan 2021-yilda 215 donaga yoki deyarli 12% ga kamaydi.

Taqqoslaydigan bo'lsak, Chilida bitta tovuqning yillik sertuxumliligi 350 dona (1,6 baravar ko'p), Rossiyada – 296 dona (1,4 baravar ko'p), Misrda – 294 dona (1,4 baravar ko'p), Isroilda – 254 dona (1,2 baravar ko'p), BAAAda – 238 dona (1,1 baravar ko'p).

Mahsuldarlikning yetarli darajada yuqori emasligiga parrandalarni noto'g'ri oziqlantirish va parvarish qilish, shuningdek, ilg'or texnologiyalarni joriy etishning past darjasini, ko'pchilik fermer xo'jaliklarining kichikligi va tijoratlashtirishning past darjasini sabab bo'lishi mumkin.



Qattiq sovuq tufayli joriy yil O'zbekistonda bir qator qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining sezilarli darajada oshishi bilan boshlandi. Yoqilg'i-energetika kompleksi, logistika va mahsulotlarni tashish tizimida uzilishlar kuzatildi. Sovuq, ayniqsa piyoz narxiga kuchli ta'sir qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, ikki hafta ichida sariq piyoz narxi uning sifatiga qarab 16,7% dan 66,7% gacha oshgan. Iqlim o'zgarishi oqibatlari yildan-yilga kuchliroq sezilib, tabiatdagi anomal hodisalar tez-tez ro'y bermoqda. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ushu mahsulotlar bozorini yanada beqaror qiladi.

Shuning uchun ayni damda sanoatdagi ishlab chiqarish va marketing zanjirining barcha darajalarida xavf-xatarlarni qanday kamaytirish va jahon bozori konyunkturasiga qarab, ishlab chiqarishni muvozanatlashtirish haqida o'ylash zarur.

Masalani hal etishning choralaridan biri bu sohani raqamlashtirish bo'lib, u hududlardan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga oid ishonchli statistik ma'lumotlarni to'plash, shuningdek, turli toifadagi qiziquvchilarining manfaatini inobatga olgan holda, ulardan bemalol foydalanishni nazarda tutadi. Elektron qishloq xo'jaligi platformalarini yaratishda alohida mamlakatlar tajribasini ko'rib chiqamiz.

**Ozarbayjon.** Elektron qishloq xo'jaligi axborot tizimini (EKTIS) rivojlantirish 2015-yilda boshlangan. Tizim yer uchastkalarini identifikasiya qilish tizimi, fermer xo'jaliklari reyestri va subsidiyalar olish jarayonini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan 7 ta kichik moduldan iborat. Ozarbayjon bo'ylab 500 mingga yaqin fermer EKTIS tizimida ro'yxatga olingan.

**Turkiya.** Fermer xo'jaliklarini hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar tizimi (Farm Accountancy Data Network (FADN)) birinchi marta Turkiyada 2007-yilda ishga tushirilgan. Birinchi bosqichda tizimga tajriba tariqasida tanlab olingan 9 provinsiyada 350 nafar fermer bilan hayotga tatbiq etildi.

2014-yilda FADN qamrab olgan provinsiyalar soni 54 taga ko'paytirildi va faqat 2018-yilga kelib, Farm Accountancy Data Network barcha 81 ta provinsiyaga kengaytirildi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va ro'yxatga olish tizimiga integratsiya qilindi.

**Moldova.** Respublikada bir qancha axborot tizimlari ishga tushirildi. Jumladan: Qishloq xo'jaligining raqamli reyestri agrosanoat tarmog'idagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati to'g'risidagi tezkor ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlash va ularga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlarini, shu jumladan, onlayn tartibda ko'rsatishni osonlashtirish; Jonivorlarning davlat reyestri; Qishloq xo'jaligi va yig'im-terim ishlari bo'yicha tezkor ma'lumotlarni kuzatish va to'plashda foydalaniluvchi AGROMAIA va hokazo.

**Xulosa:** Bunday platformalarni yaratish juda mashaqqatli va ma'lum bir moliyaviy mablag'ni talab qiladi, ammo ularning ishslashidan olingen foya barcha xarajatlarni qoplaydi. Ular mikroiqtisodiy ma'lumotlarning yagona ishonchli manbai bo'lib, ma'lumotlar asosida qishloq xo'jaligidagi asosiy tendensiyalarni tahlil qilish, agrotarmoq va oziq-ovqat siyosatiga doir turli choralarining ta'sirini baholash, sohadagi jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisoblash va agrar sektorning kelajakdagagi rivojlanishini prognoz qilish mumkin.





O'zbekiston o'rta muddatli istiqbolda 2 million gektar maydonga suv tejamkor texnologiyalarni joriy qilishni mo'ljallagan. Buning uchun joriy narxlarda umumiy qiymati 5,8 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan STT va uskunalar zarur.

Tahillarga ko'ra, respublika bo'yicha STT qo'llanilayotgan maydonlarning hajmi so'nggi besh yilda 7,7 marta ortgan. Agar STT qo'llaniladigan maydonlar yana 10 baravar oshiriladigan bo'lsa, u holda turli xildagi gidrotexnik jihozlarga bo'lgan ehtiyoj 6,6 baravarga ortadi. Respublikada STT uskunalarini ishlab chiqaruvchi sanoqli korxonalarining mavjudligi ichki raqobat muhitining shakllanmaganligi hamda ularning bu ehtiyojni to'liq qondira olmasligini anglatadi.

Tadqiqotda mahalliy STTni ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning bozordagi holatini baholash uchun Xerfindal - Xirshman indeksi (HHI) dan foydalanildi. U STT bozori qay darajada monopollashganini aniqlash imkonini beradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2021-yilda mahalliy STT bozorining HHI indeksi 3912 ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 2518 ga pasaygan (HHI me'yori  $\leq 1800$ ). Biroq STT bozorining hududiy jihatdan bitta yoki ikkita ishtirokchi va xizmat ko'rsatuvchiga bog'lanib qolishi tufayli so'nggi uch yil ichida bir gektar maydonga STT ni o'rnatish narxi 1,6 baravar oshdi.

Ehtiyojni qondirish va samaradorlikka erishish uchun dunyo STT bozoriga integratsiyalashish va uning ilg'or tajribalarini O'zbekistonda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu bozor yangi innovatsiyalarni jalb qilish orqali suv tejamkorligiga erishish, hosildorlikni yanada oshirish, STT o'rnatuvchi iste'molchilar uchun tanlash, bozorda raqobat muhitini yaratish imkonini beradi.

Xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, dunyo STT bozorining hajmi 9,3 milliard AQSh dollariga teng. 2028-yilga borganda bu ko'rsatkich 23,3 milliard AQSh dollariga yetadi. STTni qo'llash bo'yicha Braziliya (77% maydonga qo'llagan), Ispaniya (73%), Italiya (60%), Janubiy Koreya (60%), AQSh (56%), Saudiya Arabiston (56%), Fransiya (41%), Xitoy (41%) yetakchi mamlakatlar hisoblanadi.

O'zbekistonning dunyo STT bozoriga integratsiyalashivi mamlakat qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning kengayishi suv tejamkorligining 30%, hosildorlikning 2 baravar ortishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda bu sohada quyidagi imkoniyatlar ochiladi:

1. Tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi;
2. Aholining iste'moli uchun birlamchi zarur bo'lgan meva-savbzavotlar narxi barqarorligini ta'minlaydi;
3. Vegetatsiya davrida suv tanqisligi kamayadi va yerdan foydalanish samaradorligi oshadi;
4. STT dan foydalanuvchilar (fermer va dehqonlar) da tanlash imkoniyati kengayadi va raqobat muhiti shakllanadi;
5. Tadbirkorlarda ushbu texnologiyani o'rnatish uchun o'z "biznes tashabbuslari" shakllanadi;
6. Sohalarda suv sarfini qat'iy nazorat qilish imkoniyatlari ortadi;
7. STT uskunalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan MIZ yoki KSZ larni tashkil etish imkoniyatlari ochiladi.



## Jahon kavrak (ferula) bozorining istiqboli va O'zbekistonning bu yo'nalishdagi salohiyati

Kavrak - asafoetida xalq tabobatida, kosmetologiyada, shuningdek, oziq-ovqat ziravori hamda farmatsevtika sanoatida xomashyo sifatida keng qo'llaniladi. U dunyoning janubiy mintaqalari - Eron, Afg'oniston, Markaziy Osiyoning qumli va toshloq hududlarida o'sadi. 2020-yilda asafoetida xomashyosining global bozori hajmi 325 million AQSh dollarini tashkil etgan.

Afg'oniston jahon bozoriga asafoetida xomashyosining eng yirik yetkazib beruvchisi hisoblanadi va 2020-yilda 170,5 million dollarlik asafoetida xomashyosi eksport qilingan. Bu jahonda ushu xomashyo eksportining 52 foizi degani. Asafoetida xomashyosining yana bir yirik yetkazib beruvchisi - bu Eron.

Dunyodagi asafoetida homashyosining 40% ini Hindiston, 15% ini Xitoy iste'mol qiladi. Bu ikki mamlakat asafoetidaning eng yirik qayta ishlovchilari hamdir. Ular asafoetidani asosan Afg'oniston, Eron, O'zbekiston va boshqa mamlakatlardan import qiladi. Birgina Hindistonning o'zi har yili umumiyligi qiymati 100-130 million AQSh dollariga teng bo'lgan 1200 tonnaga yaqin asafoetida xomashyosini import qiladi.

Jahon bozorida 1 kilogramm asafoetida xomashyosining o'rtacha narxi 150-200 dollarni tashkil qiladi. Yaqin kelajakda dunyoda asafoetida iste'moli yiliga o'rtacha 6% ga oshishi kutilmoqda.

o'qish vaqt  
90 soniya

O'zbekistonlik tadbirdorlar kavrak xomashyosining bir kilogrammini 45-50 dollardan eksport qilmoqda. Bu esa narx bo'yicha katta raqobat ustunligiga ega ekanligimizni bildiradi. Agar yetishtirilgan xomashyoni qayta ishlab, qadoqlangan holda sotilsa, xomashyoning o'zini sotishdan tushadigan daromadga qaraganda 5-6 barobar ko'proq daromad olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonda dorivor o'simliklar eksportchilari tomonidan qiymati 7,65 million AQSh dollariga teng bo'lgan 170 tonna kavrak-asofoetida xomashyosi eksport qilingan. 2022-yilda O'zbekistonda 12 ming gektardan ortiq maydonga kavrak-asofoetida ekilgan. Bu esa yaqin yillarda sohadagi eksport salohiyatini yanada kengaytirishi mumkin.

Jahon bozori istiqboli va O'zbekistonning ichki salohiyatini hisobga olgan holda, hududlarda ushbu yo'nalishni rivojlantirishning quyidagi asosiy afzalliklarini ajratib ko'satish mumkin:

- yetishtirish uchun minimal xarajat sarflanishi;
- jahon bozorida xomashyo narxida narx ustunligiga egalik;
- ortiqcha ishchi kuchiga ega hududlarda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkoniyati;
- potensial daromadning sezilarli o'sishi;
- jahon bozorida kavrak-asofoetidaga talabning oritib borishi.



## Meva va yong'oqlarning 2017–2022-yillar oralig'idagi eksport dinamikasi

o'qish vaqt  
45 soniya

Tahlil natijalari 2017–2022-yillarda meva va yong'oqlar eksporti qiymati (TIF TN 08) 1,5 barobar oshganligini ko'ssatdi, ya'ni 2017-yilda eksport hajmi 417,2 million AQSh dollarini, 2022-yilda esa 618,6 million AQSh dollarini tashkil etgan.

Ayniqsa, tarvuz (152,2 marotaba), olcha (58,3 marotaba), qulupnay (52,7 marotaba), anjir (41,4 marotaba) va quritilgan olma (15,1 marotaba) eksporti juda tez sur'atlar bilan o'sgan.

2022-yilda meva va yong'oqlar eksporti tarkibida sarxil uzum eng katta ulush (31,7%) ga ega bo'lgan. Ikkinci o'rinni mayiz (13,6%), uchinchi o'rinni shaftoli (11,0%) egallagan. Undan keyingi o'rirlarni xurmo (8,4%), gilos (5,4%), olxo'ri (5,0%), qovun (3,1%), tarvuz (2,9%), yong'oq (1,8%) kabi mahsulotlar egallaydi.

2017–2022-yillarda meva va yong'oqlar eksporti geografiyasi Belgiya, Jazoir, Meksika, Braziliya, Slovakiya kabi yana 18 ta mamlakatga kengaydi.

An'anaviy eksport bozorlari beshtaligini Rossiya (361,3 million AQSh dollar), Qozog'iston (118,4 million AQSh dollar), Qirg'iziston (26,4 million AQSh dollar), Xitoy (19,2 million AQSh dollar) va Turkiya (13,6 million AQSh dollar) tashkil etadi.





## 2017-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlili

o'qish vaqt  
48 soniya

Oxirgi yillarda qishloq xo'jaligi rivojiga yangi bir turtki bergan bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2020-2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash, klaster tizimini joriy etish, savdoni erkinlashtirish va eksportni rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarni ijaraga (ikkilamchi ijaraga) berish, suv tejovchi texnologiyalar qo'llanilganda subsidiyalar taqdim etish, AKIS agroxizmatlar markazini ochish va boshqalar shular jumlasidandir.

Yaratilgan imkoniyatlar mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ijobji ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, paxta hosildorligi 2017-yilda gektariga 23,8 sentnerdan 2022-yilda 34,0 sentnerga, sug'oriladigan maydonlar ulushi 1,7 foizdan 24 foizga ko'paydi. Ularda suvni tejovchi texnologiyalar tatbiq etildi, turli xil yo'naliishlarda 465 ta klaster tashkil etildi.

Savdoni erkinlashtirish va eksportni rag'batlantirish bilan bog'liq qonunchilikdagi o'zgartirishlar 2017-2022 yillarda meva-sabzavot mahsulotlari eksportini 1,7 barobarga, ya'ni 652,3 million dollardan 1 134,3 million dollargacha oshirish imkonini berdi.

Ayni paytda respublikamizda 3142 ta issiqxona faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 1622 tasi keyingi 5 yilda qurilgan. Ularning umumiy maydoni 6300 hektardan ortiq.

2019-2022 yillarda O'zbekiston Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksida o'z ornini 12 pog'onaga yaxshiladi va 85-o'rindan 73-o'ringa ko'tarildi.



### 2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar



Manba: Statistika agentligi, Lex.uz qonunchilik bazasi, Qishloq xo'jaligi vazifligi va Suv xo'jaligi vazirligining matbuot xizmatlari ma'lumotlari.



2022-yilda O'zbekistonga banan importi hajmi avvalgi yildagiga qaraganda 1,5 baravardan ko'proqqa oshgan. Qolaversa, ushbu mahsulotning importi hajmi mana ikkinchi yildirki jadal sut'atda o'sishda davom etayapti.

UN COMTRADE va TRADEMAP ma'lumotlar bazasiga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonga banan importi hajmi 140,2 ming tonnani tashkil qilgan. Bu esa avvalgi yildagiga qaraganda 1,6 barobar ko'p demakdir. Taqqoslaydigan bo'lsak, 2021-yilda mamlakatimiz 2020-yildagiga nisbatan 2,2 barobar ko'p banan import qilgan. !! 2020-yilda O'zbekistonga banan importi hajmi 2019-yildaggiga nisbatan 7 foizga kamaygan. 2020-yilda COVID-19 pandemiysi boshlanishidan oldin O'zbekistonda banan iste'moli tez va sezilarli darajada o'sayotgan edi, ammo, o'sish tendensiyasi koronavirus ta'siri tufayli to'xtab qoldi.

Keyingi yillarda importning o'sishi tiklandi. Banan iste'molining o'sishiga hukumatning ushbu mahsulotga import bojxona to'lovlarini nolga tushirish haqidagi qarori turki bo'ldi. 2021-yilning oktyabr oyidan

O'zbekistonda banan importi uchun nolga teng bojxona stavkasi tartibi amal qilmoqda va bu muddat bir necha bor uzaytirildi. Ayni chog'da nolga teng stavka 2024-yilning 1-yanvarigacha amal qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, banan import qiluvchi ko'pgina mamlakatlarda ushbu mahsulot uchun import tarif boji mavjud. Masalan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo mamlakatlarda banan uchun import stavkasi 4% ni tashkil etadi (lekin 1 kg uchun kamida 0,015 evro), Yaponiyada mavsumiy stavka qishda 18% va yozda 8%, Janubiy Koreyada - 30%.

Hukumat tomonidan ko'rilibayotgan bu chora-tadbirlar, shuningdek, aholi salomatligi uchun bilvosita va yana bir qancha foydali jihatlarga ega. Garvard universiteti jamoatchilik sog'ligini saqlash maktabi tadqiqotiga ko'ra, banan salomatlik uchun juda ko'p foydali xususiyatlarga ega, jumladan:

- diabet xastaligini nazorat qilishni yaxshilaydi;
- ovqat hazm qilishni bir maromda saqlaydi;
- ortiqcha vazndan xalos bo'lishda yordam beradi;
- qon bosimini barqarorlashtiradi;
- yaralarning bitishida yordam beradi.

### 2017-2022 yillarda O'zbekistonga banan importi



Manba: UN COMTRADE, TRADEMAP ma'lumotlari



Yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda.

Kelgusi o'n yillikda, iqlim o'zgarishlari va qo'shni mamlakatlarda suv iste'molining ortishi O'zbekistonda Amudaryo va Sirdaryo kabi daryolardan suv olinishini kamaytiradi. Buning natijasida qurg'oqchilik va cho'llanish jarayoni yanada kuchayib ketishi hamda aholi turmush darajasiga jiddiy ta'sir qilishi mumkin.

2030-yilga borib, O'zbekistonda 7 milliard kub metr suv tanqisligi kuzatilishi va oqibatda mamlakat dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas.

Bunday sharoitda Amudaryo va Sirdaryo havzalari quyi oqimida joylashgan hududlardagi eng ko'p suv sarflanadigan qishloq xo'jaligi tarmog'i (jami suvning 90 foizi) katta zarar ko'radi.

Shu sababli, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Jizzax, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarni bosqichma-bosqich suvni kam talab qiladigan ekinlarga almashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 tonna soya ishlab chiqarish uchun 4124 kub metr va shuncha qoramol go'shtini yetishtirish uchun 15500 kub metr, 1 tonna guruch yetishtirish uchun 3082 kub metr, 1 tonna bug'doy yetishtirish uchun esa 2375 kub metrgacha suv sarflanadi.

Suv tanqisligi ta'sirini yumshatish maqsadida qurg'oqchilikka chidamli ekinlarning suv iste'moli darjasini o'rganib chiqildi.

Jumladan, suvni kam talab qiluvchi 1 tonna kovul (kapers) yetishtirish uchun 500 kub metr, cho'l jo'xorisiga (helictotrichon desertorum, yem-xashak) yetishtirish uchun 700 kub metr, 1 tonna qo'y va echki go'shtini ishlab chiqarish uchun esa 1500 kub metrgacha suv sarflanadi.

Demak, ular suvni yuqorida qayd etilgan suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarga nisbatan 10 baravar kam iste'mol qiladi. Shuningdek, mosh, loviya, no'xat va qizil loviya (fasol) kabi qurg'oqchilikka chidamli dukkakli don ekinlarini ekish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonning sug'orilmaydigan cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli va bozorbop kovul (kapers) yetishtirib, uning eksportini keskin oshirish imkoniyatlari mavjud.

Bojaxona qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda ushbu mahsulotning eksporti hajmi 2,3 ming tonnadan (3,8 mln. doll.) 3,3 ming tonnaga (5,3 mln. doll.) ortgan. Kapersning qariyb 80 foizi Jizzax viloyatining lalmi maydonlarida yetishtirilmoqda.

Tadqiqot natijasida, qurg'oqchil hududlarda kam suv talab qiluvchi kovul (kapers, ozuqabop va farmatsevtikada foydalilaniladi), tipchoq (Festúca valesiáca, yem-xashak uchun), qo'ng'rbosh (myatlik, yem-xashak uchun), cho'l jo'xorisiga (helictotrichon desertorum, yem-xashak uchun) cho'l-dasht solyankasi (salsola collina, farmatsevtikada foydalilaniladi), soyali sparja (fuchju, ozuqabop ekin) kabi ekinlarni joylashtirish imkoniyatlari borligi aniqlandi.






2023-yilning yanvar-aprel oylari davomida xorijiy mamlakatlarga umumiy qiymati 256,1 million AQSh dollariga teng 359,2 ming tonna meva-sabzavot eksport qilingan. Bu esa 2022-yilning shu davridagiga nisbatan 6,5% ko'p.

Eksportda qiymat jihatidan eng katta ulushni mosh (13,7%), mayiz (10,4%), quritilgan qora olxo'ri 7,0 (%), pomidor (6,1%), karam (5,1%), uzum (4,3%), piyoz (4,3%), anor (3,3%) egallaydi.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida eksportning umumiy hajmida meva-sabzavotlarning ulushi 3,3% ni tashkil etgan.

Rossiya (27,4%), Pokiston (20,6%), Xitoy (16,3%), Qozog'iston (13,9%), Afg'oniston (2,4%), Qirg'iziston (2,4%), Belarus (2,0%), Turkiya (1,9%), Iraq (1,5%) va Eron (1,2%) O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlaridir.





Ko'pgina rivojlangan davlatlar, shu jumladan AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar va boshqalar don va oziq-ovqat zaxiralarini g'amlaydi. Biroq, zaxiraga olish standartlari turlicha. Shveytsariya va AQSh kabi ba'zi mamlakatlarda g'amlangan oziq-ovqat zaxiralari 5 yil davomida zarur miqdordagi oziq-ovqat taqsimotini ta'minlash uchun yetarli.

Har bir mamlakatda oziq-ovqat zaxiralarini boshqarish uchun ixtisoslashgan tashkilotlar tashkil etilgan. Masalan, Hindistonda bu masala bilan Hindiston oziq-ovqat korporatsiyasi, Xitoyda XXR Taraqqiyot va islohotlar milliy komissiyasi huzuridagi Oziq-ovqat va moddiy resurslar davlat boshqarmasi, Rossiyada Davlat zaxiralari bo'yicha federal agentlik, Qozog'istonda "Oziq-ovqat korporatsiyasi MK" AJ, Moldovada Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Moddiy zaxiralar agentligi shug'ullanadi.

Mamlakatlarda markazlashtirilgan fondlardan tashqari hududiy barqarorlashtirish fondlari ham faoliyat yuritadi. Ular oziq-ovqat xavfsizligini hududlar, respublika ahamiyatiga molik shaharlar, poytaxtlar darajasida ta'minlash, shuningdek, narxlarni barqarorlashtirish mexanizmlarini samarali va o'z vaqtida qo'llash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq vazifalarni bajaradi.

Narxlarning jiddiy tebranishini bartaraf etishning samarali vositalaridan biri intervention xaridlardir. Bu usul 2013-yildan beri Yevropa Ittifoqida faol qo'llanilmoqda. Yevropa Ittifoqida oziq-ovqat xavfsizligi ham integratsiya fondi hisobidan ta'minlanadi. Uning kattagina qismi sut mahsulotlari, don, shakar bozorini barqarorlashtirish, shuningdek, belgilangan yagona narxlarni saqlash uchun ajratiladi.

Shunday qilib, har bir mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat zaxiralarini boshqarish uchun mas'ul tegishli organlar tashkil etilgan. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat zaxirasi uchun davlat xaridlari amalga oshiriladi va u quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- oziq-ovqat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxini bilvosita tartibga solish.





2022-yilda ikki mamlakat o'rtaсидаги qishloq xo'jaligi mahsulotлари tovar aylanmasи 25,3 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa 2018-yildagiga nisbatan qariyb 2,2 barobar ko'п.


Italiya Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqining 27 mamlakati orasida O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotлари eksportida 11-o'rinni, importida esa 8-o'rinni egallaydi.

Italiya biznesining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi muttasil ortib bormoqda. 2020-yilda Jizzax viloyatining Baxmal tumanida za'faron va boshqa dorivor o'simliklarni yetishtirish va sanoat yo'li bilan qayta ishslash hamda eksport qilish bo'yicha «BMB Trade Group» (O'zbekiston) va «FIN.OPERA s.r.l.» (Italiya) kompaniyalari o'rtaсида imzolangan memorandum doirasida za'faron mahsulotларини ishlab chiqarish, qayta ishslash va uni eksport qilish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etildi. 2021-yilning iyul oyida Italiyaga O'zbekiston eksportchilar uchun yangi bo'lgan 15 million yevrolik za'faron tovarining birinchi partiyasi jo'natildi.

2022-yilda Italiyadan (Breshiya shahri) O'zbekistonga 16 million dona za'faron piyozboshlari keltirildi. Hozirgi vaqtда plantatsiya 305 gektardan ortiq maydonni egallaydi va 40,4 million yevrogacha investitsiya kiritilgan. 400 ta doimiy va 4 mingdan ortiq mavsumiy ish o'rnlari yaratildi.

Xalqaro savdo markazi (ITC) hisob-kitoblariga ko'ra, savdo-iqtisodiy hamkorlikning hozirgi darajasida O'zbekistondan Italiyaga qishloq xo'jaligi mahsulotлари eksportida foydalanilmagan imkiniyatlar 5,2 million AQSh dollarini tashkil etadi.

Ayni chog'da ikki mamlakat rasmiy doiralari savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va boshqa yo'naliшhлardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun foydalanimayotgan ana shunday imkoniyatlardan samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Bu esa boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligi yo'naliшhидаги aloqalarga ham yangi bir turtki beradi.





Muzliklar, daryolar, ko'llar, suv omborlari, transchegaraviy daryolar va yerosti suvlari O'zbekistonning gidroenergetika salohiyati manbaidir.

O'zbekistondagi daryo oqimlarining nazariy gidroenergetika salohiyati yiliga 88,5 mlrd. kVt·soatni, texnik gidroenergetika salohiyati esa 27,4 mlrd.kVt·soatni tashkil etadi. Hozir ushbu salohiyatning qariyb 24% idan foydalanimoqda.

Gidroenergetika sohasida yiliga o'rtacha 6 mlrd. kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Uning aholi jon boshiga ulushi 168 kVt·soatni tashkil etadi.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Piskom daryosi respublika bo'yicha o'rganilgan suv oqimlarining eng katta salohiyatiga – 1 324 MVt quvvatga ega Bu O'zbekistondagi mavjud gidroenergetika resurslarining 45,3% i demakdir.

2022-yilda jami elektr energiyasining 9% i (6,5/74,3 mlrd.kVt·soat) va amaldagi quvvatlarning qariyb 12,9% i (2 072/16 030 MVt) gidroelektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan.

Tadqiqot davomida hududlarning gidroenergetika reytingi tuzib chiqildi. 14 ta hududdan 9 tasida gidroelektr stansiyasi mavjud. Reyting bo'yicha 1-o'rinni Toshkent viloyati egalladi.

Buxoro, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida reytingdagi o'rnini yaxshilash imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Kelajakda hududlarda xususiy investorlar tomonidan quvvati 500 kVtgacha bo'lgan mikro gidroelektr stansiyalarini qurish va qo'shimcha 202,7 million kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

BMTning sanoat rivojlanishi bo'yicha tashkiloti (UNIDO) ning kichik gidroenergetikani rivojlantirishga oid hisobotida Indoneziyada 13 kVt quvvatga ega turbulent oqimli mitti gidroelektr stansiyaning samaradorligi namoyish etildi. Yangi turbina 1,5 m<sup>3</sup>/s oqim va 1,7 m balandlik uchun mo'ljallangan.

Mahalliy energiyaning bir kVt·soati narxi 0,08 va Elektr energiyasining me'yorlashtirilgan qiymati - LCOE (levelized cost of energy) 0,04 AQSH dollariga teng. Turbinaning umumiyl investitsiya xarajatini olti yilda qoplaydi.

Ekspert baholash natijalariga ko'ra, mahalliy sharoitda turbina xaridi, 300 m<sup>3</sup> temir beton ishlari va 100 kVtli turbulent oqimli mitti GESni ishga tushirish uchun 230 ming AQSH dollari miqdorida pul mablag'i sarflanadi. Ushbu qurilma eng yuqori quvvatda ishlaganda yiliga 864 ming kVt·soat, mavsumiy suv oqimida ishlaganda esa yiliga 576 ming kVt·soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi. "Yashil" tariflar qo'llanilib, barcha soliqlar va to'lovlardan ozod qilinganda loyiha o'zini 5-7 yilda qoplaydi.

Hududlarda innovatsion texnologiyalar (suv to'lqinlari, turbulent oqimli gidroturbina, shnekli turbinalar) dan foydalangan holda qo'shimcha elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatlari bor. Misol uchun, sug'orish kanallaridagi barcha suv olish nuqtalariga (18,5 ming dona) turbulent oqimli gidroturbinalarni o'rnatish natijasida 1,1 million uy xo'jaligini sof elektr energiyasi bilan ta'minlash mumkin. Bu jami uy xo'jaliklarining 15% ini tashkil etadi.

## O'zbekiston hududlarining gidroenergetika reytingi (2022)

**1 Toshkent viloyati 0,68**

**2 Andijon viloyati 0,12**

**3 Sirdaryo viloyati 0,07**

**4 Surxondaryo viloyati 0,04**

**5 Xorazm viloyati 0,03**

**6 Toshkent shahri 0,02**

**7 Namangan viloyati 0,02**

**8 Qashqadaryo viloyati 0,01**

**9 Samarqand viloyati 0,01**

## O'ZBEKISTON SUV RESURSLARI: GIDROENERGETIKA SALOHIYATI


Ishlab chiqarish quvvatlari (2022)



Gidroenergetika salohiyati, hajmi



Elektr energiyasi ishlab chiqarish (2022)



Daryolar oqimining energiya quvvati





Xorijiy tajribani o'rganish asosida sog'liqni saqlash, ta'lim, elektr energiyasi va suv ta'minoti, yo'l-transport, ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish tizimlarini rivojlantirishga kiritilgan investisiyalarning O'zbekistonning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholovchi elastiklik koeffisientlari hisoblab chiqildi.

Hisob-kitoblar O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida, 2010-2021 yillardagi yuqorida sanab o'tilgan tarmoqlarga kiritilgan investisiyalar va yalpi hududiy mahsulot (YaHM) bo'yicha panel ma'lumotlari asosida juft regressiya modellarini tuzish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda:

infratuzilmaning barcha tarmoqlariga kiritilgan investisiyalar iqtisodiy o'sishga ijobji ta'sir ko'rsatishi;

inson kapitalini oshirish bilan bog'liq infratuzilmaga kiritilgan investisiyalar eng yuqori ta'sir (elastiklik koeffisienti)ga ega, ya'ni ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga kiritiladigan investisiyalar 1% ga oshganda, YaHM mos ravishda 0,52% va 0,43% ga o'sishi;

transport va raqamlashtirish sohalarini rivojlantirish uchun kiritilgan investisiyalar ham iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega, ya'ni ushbu tarmoqlarga yo'naltirilgan investisiyalar 1% ga oshganda, YaHM mos ravishda 0,32% va 0,30% ga o'sishi ilmiy asoslandi.

Elektr energiyasi va suv ta'minoti tarmoqlariga kiritiladigan investisiyalarning ta'siri (elastiklik koeffisienti) boshqa infratuzilma tarmoqlariga nisbatan pastroq ya'ni, ushbu sohalarga yo'naltirilgan investisiyalarning 1% ga oshishi, YaHMni mos ravishda 0,16% va 0,08% ga o'sishiga olib keladi. Bunday natija nazariyaga ko'ra, ushbu sohalarga kiritilgan investisiyalar nisbatan uzoqroq vaqtidan so'ng iqtisodiy foyda keltirishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqlar boshqalarning rivojlanishi uchun asos ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim. Ularni rivojlantirmasdan, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga investisiyalar kiritish kutilgan natijani berishi qiyin.





Meksika elektr energetikasi sohasi davlatga tegishli «Elektr energetikasi bo'yicha federal komissiya» tashkiloti tomonidan boshqarilgan va mazkur tashkilot elektr energiyasini ishlab chiqarish bilan birga yetkazib berish va taqsimlashni ham to'liq nazoratiga olgan edi.

Elektr energiyasi uchun belgilangan tariflarning iqtisodiy jihatdan samarasizligi:

- elektr energiyasi uchun tariflar xarajatlarni qoplash darajasidan past belgilanganligi;
- elektr energiyasi uchun tariflar ishlab chiqarish xarajatlarining bozor narxlari asosida emas, balki xom ashyo narxiga moslab belgilanishi;
- 2002-yildan boshlab davlat tomonidan subsidiyalarni berishda moliyaviy qiyinchiliklarning paydo bo'lishi.

Subsidiyalarning turlari va asosiy xususiyatlari: Tariflar turi murakkab tuzilgan va subsidiya beriladigan guruhlar soni ko'pchilikni tashkil etganligi;

"Yozgi subsidiyalar" deb nomlangan alohida imtiyozli tarif tizimining joriy etilganligi. Xususan, issiq hududlarda yashaydigan aholiga sovutish uskunalaridan foydalanganligi uchun sarflagan elektr energiyasi uchun imtiyozlarning berilishi.


Meksikada elektr energetikasi sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyatsizligi sabablar:

- amaldagi qonunchilikning xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli emasligi;
- sohadagi manfaatdor guruhlarning qarshiligi;
- elektr energiyasi iste'molchilarining turli ko'rinishdagi noroziligi;
- jamoatchilik ishtirokining sustligi;
- iste'molchilar orasida xususiylashtirishga nisbatan salbiy fikrlarning saqlanib qolganligi;
- islohotlarning amaliy natijadorligini ta'minlash va oxiriga yetkazishda yetarli siyosiy ioda ko'rsatilmaganligi.


Olingan asosiy saboqlar:

- subsidiyalrnai ajratishda ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarga ustunlik berish;
- ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti yaxshi qatlamlarning subsidiyalardan birdek foydalanishi bilan bog'liq notenglik holatiga e'tibor qaratish;
- sohani xususiylashtirish haqida jamoatchilikka yetarli va to'g'ri ma'lumotlarni yetkazish.

Subsidiya ajratishda iste'molchilarni ko'psonli guruhlarga ajratish umumiy subsidiya hajmining kamayishiga olib kelmadi, aksincha oshishiga sabab bo'ldi. Chunki iste'molchilarning yuqori subsidiya oladigan guruhlarga o'tishga intilishi bilan bog'liq holatlar ko'paydi.



## Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun byudjetdan ajratilgan qo'shimcha xarajatlarning o'zgarish dinamikasi, YalMga nisbatan (2000-2008 yillar)



### Elektr energetikasi tizimini isloq qilish borasida Keniyada amalga oshirilgan ishlar



2002-2008 yillarda Keniya iqtisodiyotida rivojlanish bilan bir qatorda energiyaga bo'lgan talab o'rtacha 7 foizga oshgan. Mamlakatning energetika tizimi esa bu talabni qondira olmasdi. Bu holat energetika tizimida islohotlar zarurligidan dalolat berardi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida elektr energiyasini ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotish sohasida dastlabki xususiylashtirish jarayoni boshlandi.

Keniya uy xo'jaliklari uchun narxlar o'sib boruvchi tariflar tizimi quydagicha yo'lga qo'yildi:  
 1. Oyiga 50 kVt/soatgacha iste'mol qiluvchilar uchun narx 2 Keniya shillingida (0,016 AQSh dollarri) hisoblandi.

2. Oyiga 51 kVt/soatdan 1500 kVt/soatgacha iste'mol qiluvchilar uchun narx 8,1 Keniya shillingida (0,066 AQSh dollarri) hisoblandi.

3. Oyiga 1500 kVt dan ortiq energiya iste'mol qiladigan uy xo'jaliklari uchun 18,57 Keniya shillingi (0,15 AQSh dollarri) miqdorida tarif stavkasi qo'llanildi.

Yutuqlar:

- Islohotlar tufayli 2006-yilda tariflar 0,07 dollardan 0,15 dollargacha, 2009-yilda 0,19 dollargacha oshirildi. Bu esa energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish xarajatlarini qoplash imkonini berdi.

- 2002-yilda elektr energetikasi tizimi uchun ajratilgan mablag'lar YalMga nisbatan 0,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilga kelib, bu ko'rsatkich deyarli nolga tushdi.
- 2000-yillarda elektr energetikasi sektorining qo'shimcha xarajatlari uchun byudjetdan mablag' ajratish sezilarli darajada kamaydi.
- Investitsiyalarning jalb qilinishi, xususiy sektorning ishtirokini oshirib, islohotlar muvaffaqiyatini ta'minladi.
- Elektr energiyasi ta'minoti tizmiga yangi ulanganlar 2003-2004 yillardagi 43 000 tadan, 2008-2009 yillarda 200 000 tagacha oshdi.
- Energetika tizimida yetkazib berishdagi yo'qotishlar ham asta-sekin 2000-yildagi 21% dan 2009-yilda 15,5% gacha qisqardi.
- 2003-yildagi "Qishloqlarni elektrlashtirish dasturi" natijasida tizimga ulanganlar soni 650 mingtadan 2 milliontagacha yetdi.

Xulosa

Keniya tajribasi tarif stavkalarining oshirilishi xarajatlarni qoplash, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga elektr energiyasini arzonroq narxda yetkazib berish imkoniyatini yuzaga keltirishini ko'rsatadi. Islohotlarni amalga oshirish uchun 10 yildan ortiq vaqt kerak bo'ldi. Tariflarni oshirish eng yaxshi chora bo'ldi. Chunki bu sifatli xizmat ko'rsatish va elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berishning omili edi.



O'tgan asrning 80-yillarida Filippinda elektr energiyasi asosan monopol mavqega ega Milliy energetika korporatsiyasi (NPC) tomonidan ishlab chiqarilar va yetkazib berilardi. Tizimning noto'g'ri boshqarilishi, bozor qoidalariiga amal qilinmasligi mamlakatda elektr energiyasi tanqisligini yuzaga keltirdi. 2001-yilga kelib, vaziyat inqiroz darajasiga yetdi. Bu esa sohadagi islohotlarni tezlashtirib yubordi.

#### Islohotlar jarayoni

2001-yilda Filippinda energetika tizimini isloh qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Shunga ko'ra, quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi:

- ishlab chiqarish va yetkazib berish tizimidagi davlat aktivlarini xususiylashtirish;
- elektr energiyasi uchun tariflarni bozor qoidalariiga muvofiqlashtirish;
- tariflarni mustaqil tartibga soluvchi organ sifatida Elektr energiyasi narxlarini tartibga solish komissiyasini (ERK) tashkil etish;
- elektr energiyasining ulgurji bozorini shakllantirish;
- uzoq muddatli chakana iste'molni rag'batlantirish;

Islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat tomonidan aralashuvning kuchliligi, investorlar ishonchining yo'qligi,


tizimni tartibga solish mexanizmining yaxshi ishlamasligi kabi institutsional muammolar yuzaga keldi.

Islohotlar davomida muammolar yuzaga kelgan bo'sada, yutuqlarga ham erishildi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va aksiz solig'i, shuningdek, davlat xarajatlarining cheklanishi tufayli 2004-yilning oxiri va 2005-yilning boshida elektr energiyasi tariflari 30% ga oshirildi. Natijada 2005-yil so'ngiga kelganda, Milliy energetika korporatsiyasining (NPC) moliyaviy taqchilligi YalMga nisbatan 5% dan 0,2% gacha qisqardi.

#### Xulosa

Islohotlar muvaffaqiyati hukumatning kuchli siyosiy irodasini namoyon etdi. Islohotlarning dastlabki bosqichida davlat kompaniyasining turli ko'rinishdagi qarzdorligi ortib bordi. Bu esa mamlakatning umumiy fiskal barqarorligiga xavf tug'dirdi. Narxlarni tartibga soluvchi mustaqil reguliyator tashkil etilganidan keyin ham elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalarни xususiylashtirish muvaffaqiyatl kechmadidi. Tizimga bozor mexanizmlari faol tatbiq etilganidan so'nggina davlat energetika kompaniyasining budjetga salbiy ta'siri kamaydi va elektr energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berishda ijobiy natijalar ko'zga tashlana boshladidi.

#### Filippinda elektr energetikasi tizimida amalga oshirilgan islohotlar




#### Islohotlar jarayoni

- Ishlab chiqarish va yetkazib berish tizimidagi davlat aktivlarini xususiylashtirish;
- Elektr energiyasi uchun tariflarni bozor qoidalariiga muvofiqlashtirish;
- Tariflarni mustaqil tartibga soluvchi organ sifatida Elektr energiyasi narxlarini tartibga solish komissiyasini (ERK) tashkil etish;
- Elektr energiyasining ulgurji bozorini shakllantirish;
- Uzoq muddatli chakana iste'molni rag'batlantirish.

Manba: Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan 2013-yilda tayyorlangan tahsiliy hisobot ma'lumotlari

## Elektr energetikasi sohasida Turkiyada amalga oshirilgan islohotlar



### Olinigan asosiy xulosalar:

- Iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar elektr energetikasi tizimining rivojanishiga turki beradi.
- Aholi turmush darajasining yaxshilanib borishi tarif islohotlarining samarali bo'lishini ta'minlaydi.
- Energetika siyosatini belgilashda mustaqil institutlarning ishtiroki oqilonqa qarorlarni qabul qilishda yordam beradi.

Manba: Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan 2013-yilda tayyorlangan tahliliy hisobot ma'lumotlari



**Elektr energiyasi tizimidagi islohotlar Turkiyada qanday natija  
erdidi?**

o'qish vaqt  
**50 sonya**

Islohotlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad:

- elektr energiyasi uchun oshib borayotgan talabni qondirish;
- elektr energetikasi tizimi samaradorligini oshirish;
- davlat byudjeti ko'rsatkichlarini yaxshilash;
- xususiy investitsiyalarni jalb qilish va tizimdagи monopoliyani tugatish;
- Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishning dastlabki talablarini bajarish.

Islohotlar doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar:

#### 1. Institutsional islohotlar borasida:

- elektr energiyasini ishlab chiqarish, yetkazib berish, taqsimlash, ulgurji va chakana savdosini yo'lga qo'yish bo'yicha davlat korxonalari xususiylashtirildi.

#### 2. Tariflarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha:

- 2008-yilning yanvar oyida elektr energiyasi uchun tariflar 20 foizga oshirildi;
- bozordagi taklifga muvofiq har chorakda elektr energiyasi uchun tariflarning o'zgarish mexanizmi joriy qilindi;
- 2008-yil oxiriga kelib, tariflar 50 foizgacha oshirildi.

Islohotlarning asosiy natijalari:

- elektr energiyasi uchun oshib borayotgan talabni qondirish imkoniyati paydo bo'ldi;
- raqobat muhiti shakllandi, ishlab chiqarish va taqsimlash samaradorligi oshishiga erishildi;
- byudjeti hisobidan ajratiluvchi subsidiyalarni kamaytirish hisobiga davlat xarajatlari qisqardi va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash davom ettirildi.

Xulosalar:

Iqtisodiyotni erkinlashtirish elektr energetikasi sohasidagi islohotlarga bevosita ijobiylar ta'sir ko'rsatadi;

Jadal iqtisodiy o'sish aholi turmush darajasining oshishiga olib kelganligi sababli aholi tizimdagи islohotlarni ijobiylar qabul qildi. 2008-yilda tariflarning 50 foizga oshishi aholi daromadlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmadidi. Chunki aholi daromadlari muntazam oshib bordi;

Mustaqil institutlar va tashkilotlarning ishtiroki islohotlar doirasida zarur texnik (siyosatdan holi) qarorlarni qabul qilishni osonlashtirdi.



Dunyo mamlakatlarida xususiy sektorning infratuzilma obyektlari faoliyatidagi ishtiroki ortib bormoqda. Sohaga kapital tushumlarni jalb qilish va faoliyat samaradorligini oshirish bu tendensiyaning asosiy afzalliklaridir.

Aeroportlarga xususiy sektorni jalb qilishning asosan 3 modeli mavjud:

1. To'liq xususylashtirish – aeroport aktivlariga egalik huquqini davlat korporatsiyasidan xususiy investorlarga aksiyalarni joylashtirish yoki savdo kelishuvi orgali o'tkazish.
2. Konsessiya bitimi – xususiy operator infratuzilmaga ma'lum miqdorda investitsiya kiritish majburiyatini oladi va keyinchalik xarajatlarini aeroport foydalanuvchilaridan turli to'lovlarni undirish hisobiga qoplaydi.
3. Boshqaruv shartnomasi – aeroport aktivlarini boshqarish uchun xususiy sektor jalb qilinadi.


Xalqaro tajribada keng tarqalgan konsessiya shartnomalari asosida jalb qilingan quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Abidjandagi Xofoe-Buanyi (AERIA) aeroporti, Kot-d'Ivuar. Aeroport xizmatlarini tashkil qilish va rivojlantirish Kot-d'Ivuar hukumati va AERIA o'rtaida imzolangan konsessiya shartnomasi doirasida amalga oshiriladi. Konsessioner boshqaruvi ostida yo'lovchilar oqimi 2010-2019 yillar oralig'ida ikki baravar ko'payib, yiliga 2 million nafardan oshdi. Yo'lovchi terminalining maydoni 11000 m<sup>2</sup> dan 23000 m<sup>2</sup> gacha kengaytirildi. 2019-yilda aeroport yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha xalqaro miqyosda ham eng yaxshi aeroportlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Santyago Aeroporti, Chili. Ushbu aeroport 2015-yilda "Nuevo Pudahuel" kompaniyasi bilan imzolangan 20 yillik konsessiya bitimi asosida faoliyat yuritadi. Konsessiya ko'rinishida kiritilgan 990 million AQSh dollari miqdoridagi sarmoya hisobiga 248 400 m<sup>2</sup> maydonga ega yangi terminal ishga tushirildi va u Santyago aeroportini Janubiy Amerikadagi eng zamonaviy xalqaro markazga aylantirdi. Aeroportning yillik sig'imi ikki baravar oshdi (16 milliondan 38 million yo'lovchiga), shlyuzlar soni 18 tadan 67 taga, qo'nish yo'laklari soni esa 31 dan 76 gacha ko'paydi.

Bogotadagi "El Dorado" xalqaro aeroporti, Kolumbiya. Mazkur aeroportda 20 yillik konsessiya muddati davomida yangi uchish-qo'nish yo'lagi va taksi yo'llari qurildi. Aeroportning yo'lovchi terminali "Aeronautica Civil" (Aerocivil) davlat agentligi nazorati ostida qoldi. 2007-yilda aeroport konsessiya shartnomasi bo'yicha topshirilganidan so'ng, yo'lovchilarni tashish 235% ga oshdi. Agar 2003-yilda 7 million yo'lovchi o'z manziliga yetkazilgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 25 million nafarga yetdi.

O'zbekistonda ham ushu yo'nalishda katta qadam qo'yildi. Xusan, 2022-yilda Samarqand aeroporti xususiy kompaniya – "Air Marakanda" xorijiy korxonasi boshqaruviga o'tkazildi. Ushbu kompaniya yo'lovchilar, terminallar, samolyotlar va yerdan turib texnik xizmat ko'rsatish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oldi.





## 2017-2022 yillarda O'zbekistonda xizmat turlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va ularning natijasi

o'qish vaqt  
94 soniya

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy o'sish, aholi (ayniqsa yoshlar) bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda xizmatlar sohasi YALMning 41,5 % ini tashkil etdi va 2017–2022-yillarda sohaning real o'sish ko'rsatkichi 1,9 marotaba oshdi.

So'nggi yillarda respublikada xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Xususan:

- "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirildi va umumiy elektron davlat xizmatlari soni 368 taga yetdi (2019-yilda – 173 ta), ulardan 242 tasi tadbirkorlar uchun mo'ljallangan;
- biznesni ro'yxatga olish osonlashtirildi va xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2,2 barobar ko'paydi (2017-yildagi 128 mingdan 2022-yilda 325 mingga);

AKT infratuzilmasi qariyb 6 barobar va logistika tizimi 1,2 barobar yaxshilandi (tashilgan yuklar 2017 yildagi 1146,2 mln.tdan 2022-yilda 1398,9 mln.tga yetdi).

Zamonaviy xizmatlarni rivojlantirishda sohaga xususiy sektorni jalb qilishni rag'batlantirilishi o'z samarasini berdi va tahlil qilingan yillarda quyidagi o'zgarishlar qayd etildi:

1. Moliya xizmatlari 5,1 marotaba oshdi. Xususiy va xorijiy banklarning sohaga jalb qilinishi ularning raqobatbardoshligini oshirdi va 2022-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra HHI indeksi 1016 gacha pasaydi (2018-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 1520 ga teng bo'lgan).

2. Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar 2,8 marotaba oshdi. Xalqaro ma'lumotlarni uzatish tarmog'ining o'tkazuvchanlik imkoniyati 2022-yilda 1800 Gbit/sgacha oshdi (2017-yilda 64,2 Gbit/s).

3. Ta'lim sohasidagi xizmatlar 2,5 marotaba oshdi. Xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari soni 833 taga (2017-yilda 250 ta edi), davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 1313 taga (2018 yilda 250 ta), oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari soni 20676 taga (2018-yilda 579 ta), nodavlat umumta'lim muassasalari soni 194 taga (2017-yilda 39 ta), nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 55 taga (2018-yilda 1 ta), xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 30 taga (2017-yilda 7 ta) yetdi.

4. Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar 2,8 marotaba oshdi va hozirgi kunda 7320 ta xususiy tibbiyot muassasasi (ulardan 5823 tasi ambulatoriya, 1497 tasi statsionar) faoliyat yuritmoqda (2017-yilda 4000 ta edi).

### O'zbekistonda 2017-2022 yillarda xizmat turlarining rivojlanish dinamikasi

#### Xizmatlar sohasining rivojlanish drayverlari

- Elektron hukumat tizimining takomillashtishi
- Biznesni ro'yxatga olishning osonlashtishi
- AKT infratuzilmasining yaxshilanishi
- Yirik savdo shahobchalarining ko'payishi
- Logistika tizimining yaxshilanishi
- Moliyaviy erkinlik
- Ayrim soliqlarning kamaytirilishi
- Sohaga xususiy sektorni jalb qilishning rag'batlantirilishi

#### 2022-yilda erishilgan natijalar

- Xususiy tibbiyot muassasalari soni 7 320 ta
- Oilaviy MTM soni 20 676 ta
- Davlat-xususiy sheriklik asosidagi MTM 1 313 ta
- Nodavlat umumta'lim muassasalari soni 194 ta
- Nodavlat OTM soni 55 ta, xorijiy 30 ta

#### Xizmatlar sohasining o'sish sur'ati



#### Xizmatlar sohasining YIMdagagi ulushi




#### Xizmat turlarining real o'sishi, marta

	moliya
AXBOROT VA ALOQA	2,8
TA'LIM	2,5
BOSHQA XIZMATLAR	2
ME'MORCHILLIK, MUHANDISLIK	2
SOG'LIQNI SAQLASH	2
YASHASH VA OVQATLANISH	1,7
KOMPYUTERLARNI TA'MIRLASH	1,5
IJARA VA LIZING	1,5
KO'CHMAS MULK BILAN BOG'LIQ	1,5
TRANSPORT	1,5
SAVDO	1,4
CHAVOLIV XIZMATLARI	1,2

#### Xizmatlar sohasida band bo'lganlar



#### Xizmatlar sohasidagi kichik biznes subyektlari soni



## 2022 – YILDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'RSATILGAN TRANSPORT XIZMATLARI ТРАНСПОРТНЫЕ УСЛУГИ ОКАЗАННЫЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В 2022 ГОДУ

**2022-YILDA KO'RSATILGAN BARCHA XIZMATLAR  
ВСЕ ОКАЗАННЫЕ УСЛУГИ ЗА 2022 ГОД**



**HUDUDLAR BO'YICHA KO'RSATILGAN TRANSPORT XIZMATLARI HAJMI (2022 y. mird so'm)  
ОБЪЕМ ОКАЗАННЫХ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ ПО РЕГИОНАМ (2022 г., млрд сум)**



**2018-2022 YILLARDA TRANSPORT XIZMATLARI HAJMI (trln so'm)  
ОБЪЕМ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ ЗА 2018-2022 ГОД (трлн сум)**



**TRANSPORT XIZMATLARI EKSPORTI 2021-2022 YILLAR (ming AQSH dollar'i)  
ЭКСПОРТ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ ЗА 2021-2022 ГОДОВ (тыс долл. США)**



Manba: Statistika agentligi  
Источник: Агентство статистики

**2022-YIL UCHUN TRANSPORT TURLARI BO'YICHA TRANSPORT XIZMATLARINING ULUSHI  
ДОЛЯ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ В РАЗРЕЗЕ ВИДОВ ТРАНСПОРТА ЗА 2022**



### 2022-yilda O'zbekistonda ko'rsatilgan transport xizmatlari

**o'qish vaqt  
47 soniya**

2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 357 554,5 milliard so'mni tashkil etgan. Transport xizmatlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlaridan keyin ikkinchi o'rinni egallagan (22,7%).

Transport xizmatlari orasida avtomobil transporti eng katta ulushga ega (51%). Undan keyingi o'rirlarni havo transporti (14,2%), quvurlar orqali yetkazish (13,1%) va temir yo'l transporti (11,4%) egallagan.

Respublika hududlari bo'yicha ko'rsatilgan transport xizmatlarining umumiy hajmida eng katta ulushga ega hududlar:

- Toshkent shahri – 13 112,7 milliard so'm (25,5%);
- Toshkent viloyati – 5 946,4 milliard so'm (11,6%);
- Samarqand viloyati – 5 333,6 milliard so'm (10,4%).

Eng past ko'rsatkichli hududlar:

- Navoiy – 1 497,9 milliard so'm (2,9%);
- Jizzax – 1 164,7 milliard so'm (2,3%);
- Sirdaryo – 666,2 milliard so'm (1,3%).

2022-yilda transport xizmatlar eksportida eng katta ulush quvur orqali tashish xizmatining hissasiga to'g'ri kelgan (682 659,1 ming AQSh dollar'i). Undan keyingi o'rirlarni temiryo'l transporti (508 900,4 ming AQSh dollar'i), havo transporti (466 110,2 ming AQSh dollar'i) va avtomobil transporti (45 266,3 ming AQSh dollar'i) egallagan.



### Tadqiqot doirasida quyidagi natijalar olindi:


- Shaharlarda eng yuqori tezlikni soatiga 10 kmga kamaytirish o'lim darajasini yiliga 0,8 kishiga (har 100 000 kishiga) kamaytirishda yordam beradi. O'zbekiston uchun bu 614 nafar insonning hayotini saqlab qolish deganidir.
- Eng yuqori tezlik o'rtacha harakat tezligiga sezilarli ta'sir ko'ssatmaydi. Harakat tezligi va sayohat vaqtiga asosiy ta'sir etuvchi omil yo'l infratuzilmasining sifati hisoblanadi.
- Qonun ustuvorligi (Rule of law) reytingining 1 ballga ortishi har yili yo'llarda o'lim darajasini 3,3 kishiga (har 100 000 kishiga) qisqartirishi mumkin.

Jahon sog'lioni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalari oqibatida 1,3 million kishi halok bo'ladi va 20-50 million kishi jarohat oladi. Shu bilan birga, yo'l-transport hodisalari tufayli jahon iqtisodiyotiga ham sezilarli zarar yetishini ta'kidlash lozim. "Yo'l harakati xavfsizligiga investitsiya qilish: global xususiy sektor majburiyati" nomli tadqiqot natijalariga ko'ra, baxtsiz hodisalar global iqtisodiyotga yiliga 518 milliard dollar zarar keltiradi.

Xalqaro miqyosda tahlil qilish maqsadida biz 140 ta mamlakatga oid ma'lumotlarni to'pladik. Tadqiqot natijalariga asoslanib, tezlikni pasaytirish transportning o'rtacha tezligiga sezilarli ta'sir ko'ssatmaydi va yo'llardagi o'lim darajasini qisqartiradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq, tezlikni cheklash faqat yo'l harakati qoidalarini yaxshilash va tegishli infratuzilma mavjud bo'lsa, ijobjiy ta'sir ko'ssatadi. Bu xavfsizlikni ta'minlash va o'rtacha tezlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, past tezlikda sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarida og'ir jarohatlar ulushi kamayadi. Bu sog'lioni saqlash xarajatlarini kamaytirish va halokatdan keyin odamlarning tezroq sog'ayishiga imkon yaratadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, yo'l-transport jarohatlari natijasidagi zarar past daromadli mamlakatlarda yalpi milliy mahsulotning taxminan 1% iga, o'rta daromadli mamlakatlarda 1,5% iga va yuqori daromadli mamlakatlarda 2% iga teng deb hisoblanadi.





Ta'lif muassasalari rivojlanishning asosi hisoblangani uchun, ularni oqilona joylashtirish shaharsozlikning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Masalan, 2012 yilda Moskvada yo'llardagi yuklamani kamaytirish maqsadida 2020 yilgacha mavjud beshta yirik poytaxt universitetlari uchun Moskva halqa yo'li tashqarisida o'quv kampuslar qurish rejallashtirilib, bir nechta nufuzli OTMlar optimallashtirishga qaror qilingan. Shuningdek, jahonning QS World University Ranking reytingidagi 25 ta eng nufuzli OTMlarning 9 tasi poytaxt shaharlarda va qolgan 16 tasi poytaxt shaharlardan tashqarida joylashgan.

### **Tadqiqotda Toshkent shahri yo'llarining tirbandlik darajasi:**

- yo'llardagi o'rtacha tezlik;
- tirbandlik mavjud yo'llar uzunligi;
- ijtimoiy so'rovnoma natijalari bo'yicha baholandi.

**Ma'lumot uchun:** Tirband yo'llar uzunligi QGIS dasturi vositasida QuickMapServices ma'lumotlari asosida o'lchandi. Tirbandlik xaritasi bo'yicha avtomobil yo'lda 10 km/soatdan kam tezlikda harakatlansa – to'q qizil , 10-25 km/soat oraliqdagi tezlik – qizil, 25-45 km/soat oraliq – sariq va 45 km/soat dan yuqori tezlik – yashil rangda ifodalanadi. Shuni inobatga olib, faqat qizil va to'q qizil rangli yo'llar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: bugungi kunda Toshkent shahrida tirbandlik yuqori yo'llarning jami uzunligi 120 kmdan oshib, bu Toshkent shahridan Guliston shahrigacha bo'lgan masofadan (119 km) ham ortiq.

Respublika OTMlarning 43% Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, jami talabalarning 34% (354 ming) poytaxtda tahsil oladi.

So'rovnoma ishtirokchilarining 47%i tirbandlikni keltirib chiqaruvchi uch asosiy sababdan biri sifatida aynan o'qishga qatnovchilar tufayli faollikning ortish holatlarini qayd etdi. So'rovda ishtirok etgan talabalarning 78%i tirbandlikni asosiy muammolardan biri, deb baholashgan.

So'rovnomada qatnashgan talabalarning 9,3%i bo'sh vaqtlarida kira qilishini bildirib, ularning 91%ni Toshkentga boshqa hududdan kelib o'quvchi talabalar tashkil etgan. Bu ularning kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun qo'shimcha ishlashlariga to'g'ri kelayotganini va ta'lif sifatiga salbiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.


Talabalar uchun o'qish davridagi faoliyning ortishi o'ta tirband yo'llar uzunligi 8,5 kmdan 11,3 kmgacha oshishiga sabab bo'ladi.

O'qish davrida tirbandlikning ortishi sababli 1 yilda atmosferaga qo'shimcha 507 tonna CO<sub>2</sub> ajralib chiqib, bu holat qo'shimcha 19 031 tup daraxt ekish yoki 53 hektar yashil hudud barpo etishni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, OTMlarning poytaxtda markazlashuvi boshqa hududlardan ko'plab yoshlarning Toshkent shahriga kelib ta'lim olishlariga olib kelmoqda. Toshkent shahrida narxlarning boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi, talabalar turar joylarining yetishmasligi va ijara narxining balandligi ta'lim xarajatlari bir necha barobarga ortib ketishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i uchun mutaxassislar tayyorlovchi ta'lim muassasalarini shu tarmoqqa ixtisoslashgan hududlarga joylashtirish fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlab, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, OTMlar atrofida xizmat ko'rsatish obyektlarining ko'payishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga multiplikativ ta'sir qilib, hududlararo tabaqalashuv darajasini qisqartiradi.

## Toshkent shahrining tirbandlik xaritasи





Tahlil 2017–2022-yillar oralig'ida mamlakatimizda yo'lovchilarni tashish va yo'lovchi aylanmasida sezilarli o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Xususan, 2017-yilda barcha transport vositalari orqali 5 679,0 million kishi o'z manziliga yetkazilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich salkam 6 170,8 million kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi esa 130,0 milliard yo'lovchi-km dan 144,7 milliard yo'lovchi-km ga oshgan.

2022-yilda yo'lovchi tashishda avtomobil transportining ulushi 97,5% ni tashkil qilgan. Agar 2017-yilda 5 591,3 million kishi manzilga yetkazilgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 6 017,5 million kishini tashkil qilgan. Avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi mos ravishda ortib, 117,7 milliard yo'lovchi-km dan 129,2 milliard yo'lovchi-km ga yetgan.

2017–2022-yillarda metropolitendan foydalangan yo'lovchilar soni 2 marotaba oshgan va 61,6 million kishidan 136,7 million kishiga yetgan. Mutanosib ravishda yo'lovchi aylanmasi ham 459,1 million yo'lovchi-km dan 996,8 million yo'lovchi-km ga ko'paygan. Havo transporti vositasida tashilgan yo'lovchilar ham mazkur davr mobaynida qariyb 2 barobar oshgan va 2,2 million kishidan 4,1 million kishiga yetgan.


Yo'lovchi aylanmasi 7,5 milliard yo'lovchi-km dan 10,9 milliard yo'lovchi-km ga ortgan.

2026-yilgacha yo'lovchi tashish xizmatlarini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda: aholi punktlarining jamoat transporti bilan qamrovini 95% ga yetkazish va 278 ta yangi avtobus yo'nalishini ochish;

- hududlardagi 11 ta xalqaro aeroportning o'tkazish imkoniyatini 2 barobar oshirish va mahalliy tashuvlarda xususiy va loukoster aviakompaniyalar ulushini bosqichma-bosqich 25% gacha oshirish;

- metropolitenning umumiyligini 157 kilometr, stansiyalar sonini 74 taga yetkazish rejalahshtirilgan.

### 2017-2022-yillarda O'zbekistonda yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi





Tirbandliklar jahondagi aksariyat yirik shaharlar uchun katta muammoga aylanib ulgurgan. Inrix ma'lumotlariga ko'ra, tirbandlik tufayli Londonda bitta haydovchi yiliga o'rtacha 156 soat, Chikagoda 155 soat, Parijda 138 soat ortiqcha vaqt sarflaydi.

Tirbandlik Toshkentda ham jiddiy muammo. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda Toshkent shahri hududida jismoniy shaxslarga tegishli avtomashinalar soni 562,1 mingtani tashkil etgan va doimiy yashovchi har 1 000 kishiga 178 ta avtomobil to'g'ri kelgan.

Tadqiqot davomida Toshkent shahri aholisining tirbandlikka munosabati va uni kamaytirish bo'yicha takliflarini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rov tashkil etildi. Unda jami 891 kishi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 60,8% ini avtomobil haydovchilari tashkil etdi. Shundan 10,3% i ayollardir.

### **So'rov natijasida quyidagilar aniqlandi:**

Avtomobil boshqarmasligini ta'kidlagan ishtirokchilarning 41,8% i avtobus, 27,5% i metro, 24,1% i taksi, 1,7% i mikroavtobus xizmatidan foydalanishini va 4,9% i piyoda yurishini bildirgan. Jamoat transportidan ko'proq ayollar (33,1%) va yoshlar (36,5%), shaxsiy transportdan erkaklar (33,1%) foydalanishi ma'lum bo'ldi.

So'rovda ishtirok etgan poytaxt aholisining 74% i tirbandlikni asosiy muammolardan biri, 21% i o'rta darajadagi muammo va 5% i boshqa muammolar qatorida unchalik muhim emas, deb hisoblashini bildirgan.

Tirbandlikdan avtobus va mikroavtobus yo'lovchilari boshqalarga qaraganda ko'proq aziyat chekmoqda. Shu bois avtobusdan foydalanuvchilarning 82,9% i, mikroavtobus yo'lovchilarining 83,3% i tirbandlikni poytaxtning asosiy muammolaridan biri sifatida qayd etgan.

So'rovda qatnashganlarning 62,2% i tartibsiz haydovchilar, qoidabuzarliklar, noto'g'ri parkovka, 57,6% i yo'llardagi nosozliklar, 46,8% i o'qishga qatnovchilar hamda 41,2% i ishga qatnovchilar tufayli faoliyoning ortishini tirbandlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar sifatida qayd etgan.

Respondentlar birinchi o'rinda kichik halqa yo'lidagi chorrahalarini (136 marotaba), Bunyodkor shoh ko'chasidagi chorrahalarini (106 marotaba) tartibga keltirish lozimligini qayd etgan.

So'rov ishtirokchilarining 41,8% i tirbandlik tufayli yo'l uchun ko'proq vaqt rejalashtirishini, 39,1% i tirbandlik yo'q yo'llardan yurishini, 16,9% i tirbandlik kamayishini kutishini aytgan.

Bildirgan fikrlar orasida jamoat transporti (avtobuslar) uchun infratuzilmalarini yaxshilash, parkovkalarni to'g'ri shakllantirish, ko'pqavatli avtoturargohlar, piyodalar uchun yerosti o'tish yo'llari va ko'priklar qurish, metro liniyalarini kengaytirish, yo'l harakati qoidalariiga qat'iy amal qilinishini ta'minlash, raqamli boshqaruvga o'tish kabi takliflar ko'p uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldaggi qarori ham jamoat transporti tizimini isloh qilishni ko'zda tutadi. Unga asosan, Toshkent shahri jamoat transporti uchun tabiiy gaz vositasida harakatlanuvchi 700 dona avtobus va 300 dona elektrobus xarid qilish belgilangan. Joriy yilning mart oyi yakuniga qadar Xitoydan 110 dona avtobus va 150 dona elektrobus yetkazib berilishi kutilmoqda. Bu sa'y-harakat tirbandlik muammosini hal etishda yordam berishi bilan bir qatorda poytaxtdagi ekologik vaziyat uchun ham ijobiy ahamiyatga ega.



Tahlil mazkur davr mobaynida mamlakatimizda yuk tashish aylanmasida sezilarli o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Barcha transport turlarida umumiy yuk aylanmasi 2017-yildagi 66,9 mlrd. t-km.dan 2022-yilda 75,2 mlrd. t-km.ga oshdi. Xususan:

2017-2022 yillarda temiryo'l transportida tashilgan yuk aylanmasi 22,9 mlrd. t-km.dan 24,9 mlrd. t-km.ga oshdi.

Avtomobil transportining hissasiga to'g'ri keluvchi yuk aylanmasi qariyb 1,5 barobar oshdi. Agar tahlil qilinayotgan davr boshida mazkur ko'rsatkich 13,6 mlrd. t-km.ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 20,2 mlrd. t-km.ga yetdi.

2017-2022 yillarda havo transportining yuk aylanmasi 2 barobarga, ya'ni 156,9 mln. t-km.dan 322,7 mln. t-km.gacha oshdi.


Transport xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida bir qator tadbirlar belgilangan.

### Jumladan:

- hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlari tarmog'ini tashkil etish;
- xalqaro yuk tashuvlaridagi transport hujjatlarini («e-Permit», «e-TIR», «e-CMR») elektron ko'rinishga bosqichma-bosqich o'tkazish;
- mavjud konteyner terminallarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish;
- temiryo'lda konteyner tashish ulushini kamida 2 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Umuman aytganda, yuk aylanmasining barqaror o'sishi transport infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish natijasidir. Kelgusida yuk aylanmasini yanada oshirish zamirida raqamlashtirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va tashuvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish yotadi.

### 2017-2022 yillarda O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi dinamikasi



## 2017-2022 yillarda O'zbekistonning raqamli infratuzilmasida ro'y bergan o'zgarishlar

**2017** 64,2 Gbit/s      **2022** 1800 Gbit/s

Xalqaro ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga (Internet) ularish tezligi 28 barobar oshdi.

**x28**



**2017** 20 ming dona      **2022** 54,2 ming dona

Mobil tayanch stansiyalar soni qariyb 3 barobar ko'paydi.

**x3**



**2017** 91,5\$

Provayderlar uchun internet tariflari narxi 30 barobar arzonlashdi.

**↓ x30**



**2017** 34,5%

2022-yilda aholining 75% Internetdan foydalanish imkoniga ega bo'ldi. Bu 2017-yildagiga nisbatan 2,2 barobar ko'p.

**x2,2**



**2022** 3\$

**2017** 24,5 ming km

Optik tolali aloqa liniyalarining umumiyligi 7 barobar ortdi.

**x7**



**2022** 170 ming km

**2017** 69,5%

Uyali aloqa tarmog'i abonentlari ulushi 1,2 barobar oshdi.

**x1,2**



2017-2022 yillarda O'zbekistonning raqamli infratuzilmasida ro'y bergan o'zgarishlar

o'qish vaqtি  
63 soniya

O'tkazilgan tahlil davrida mamlakatimizda raqamli infratuzilmaning barcha ko'satkichlari bo'yicha sezilarli o'sish qayd etilgan.

### Shu jumladan:

- Xalqaro ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga (Internet) ularish tezligi 28 barobar oshdi va 2022-yilda 1800 Gbit/s ni tashkil etdi;
- provayderlar uchun internet tariflari narxi 30 barobar, ya'ni 2017-yildagi 90 dollardan 2022-yilda 3 dollargacha arzonlashdi;
- optik tolali aloqa liniyalarining umumiyligi 7 barobar oshib, 2017-yildagi 24,5 ming km.dan 2022-yilda 170 ming km.gacha yetdi;
- mobil tayanch stansiyalar soni qariyb 3 barobar ko'paydi va 2022-yilda 54 mingtaga yetdi;
- 2022-yilda aholining 75% internetdan foydalanish imkoniga ega bo'ldi;
- 2017-yilda bu ko'satkich 34,5 edi;
- Uyali aloqa tarmoqlari abonentlari ulushi 2017-2022 yillarda 70% dan 86% ga (o'sish 1,2 barobar) ko'tarildi.
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish (2026-yil oxirigacha uning YalMdagi ulushini kamida 2,5 barobarga oshirish) "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida asosiy "drayver" sifatida belgilangan.

Ushbu maqsadga erishish uchun raqamli xizmatlar bozori va infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

### Shu jumladan:

- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni 5 barobar, eksportini esa 10 barobar, ya'ni 500 million AQSh dollariga yetkazish;
- iqtisodiyotning real sektoridagi ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarda, moliya va bank sektorlarida raqamlashtirish darajasini 70% ga yetkazish;
- shaharlarni rejalashtirish va qurilishni raqamlashtirish, ularni "Aqli shahar" konsepsiysi doirasida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, raqamli infratuzilmani yanada takomillashtirish sifatlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, biznes imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, aholining ta'lim, xizmatlar va onlayn bandlikdan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda yordam beradi.



Velosipeddan transport vositasi sifatida foydalanish darajasini aniqlash uchun Kun.uz tahririyati bilan hamkorlikda so'rov o'tkazildi. Unda 100 mingga yaqin respondent ishtirok etdi.

### **So'rov natijalariga ko'r'a quyidagilar aniqlandi:**

1. Mamlakat aholisining ish joyiga qatnash vositasi bu:

- avtomobil - 51%;
- jamoat transporti - 26%;
- piyoda - 16%;
- velosiped - 7%.

2. Qulay infratuzilma mayjud bo'lgan taqdirda velosipedga o'tish istagi bormi degan savolga so'rovda qatnashganlarning 74% i «ha», 26% i «yo'q» deb javob bergen va rad etish sabablarini quyidagicha ko'rsatgan:

- masofa - 12%;
- uyalish - 4%;
- noqulaylik - 4%;
- sog'lik bilan bog'liq muammolar - 2%;
- boshqa sabablar - 4%.

### **Velosipedning ko'plab afzalliklari mayjud:**

**Sog'liq uchun foyda:** ishga velosipedda qatnaydigan kishilarda saraton kasalligiga chalinish xavfi 45% ga, yurak-qon tomir kasalliklari xavfi esa 46% ga kamayishi aniqlangan.

**Atrof-muhit uchun foyda:** Gollandiyaliklarning velosipedda kuniga o'rtacha 2,6 km harakatlanish oditi butun dunyo bo'ylab amalga oshirilsa, CO<sub>2</sub> emissiyasini yiliga 686 mln tonnaga kamayari edi.

**Iqtisodiy foyda:** velosipeddan foydalanish ulushini 6% ga oshirish, yillik global iqlim o'zgarishini yumshatish uchun yo'naltiriladigan mablag'larni taxminan 1,2 mlrd. AQSh dollariga tejaydi.

### **Velosipeddan foydalanishga to'siq bo'lувчи omillar:**

Velosipedga bo'lgan munosabat va uning foydali jihatlaridan bexabarlik eng katta to'siqlardan biridir. Xususan, «velosiped bu mashina olishga qurbi yetmaydigan kambag'allar uchun» yoki «ayollar uchun mos bo'l'magan vosita» degan qarashlar mavjud.

**Angliya** 2025-yilga borib, 2013-yildagiga nisbatan velosiped sayohatlari sonini ikki baravar oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan. 2021-yilda "Velosipedlashtirish" Panyevropa rejasি qabul qilingan va unga ko'r'a 2030-yilgacha mintaqadagi barcha davlatlar velotransport sonini sezilarli darajada oshirish kerak.

**Fransiya** 2024-yilgacha velosipedlashtirish darajasini 2018-yildagiga nisbatan 3 baravar, ya'ni 3% dan 9% gacha oshirishni belgilagan.

### **O'zbekistondagi hozirgi holat**

O'zbekistonda ham velosipeddan foydalanuvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Biroq, bu yo'lida to'sqinlik qiluvchi bir qator infratuzilma kamchiliklari mayjud:

- velosipedchilarning beton, ariq, chakana savdo rastalari kabi to'siqlarga duch kelishi va avtomobilarning veloyo'laklardan avtoturargoh sifatida foydalanishi;
- piyodalarning veloyo'laklarga chiqib, velosipedchilarning harakatlanishiga to'sqinlik qilishi;
- ba'zi ko'chalardagi velosiped yo'laklarining kengligi (1 metr) xalqaro standartlarga javob bermasligi;
- velosiped yo'laklarining tarqoq va bir-biri bilan bog'lanmaganligi, buning oqibatida velosipedchilarning yo'lning qatnov qismi bo'ylab harakatlanishga majbur bo'lishi.

2022-yilda O'zbekistonda 9902 ta YTH rasman qayd etilgan bo'lib, ulardan 1136 tasi (11,5%) velosipedchilar ishtirokida ro'y bergan. Shu bilan birga, 342 (3,5%) ta holatda velosiped yo'laklarining yo'qligi sabab bo'lgan.

### **Velosiped yanada kengroq va ommaviy transport turiga aylanishi uchun quyidagilar zarur:**

- xavfsiz va qulay infratuzilmani, jumladan, harakatlanish yo'laklari, veloturargohlar va ta'mirlash stansiyalarini yaratish;
- velosipedning afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan keng qamrovli marketing kampaniyasini olib borish;
- shahar va sayyohlik hududlarida velosipedlarni ijara qilish tizimi (veloshering)ni rivojlantirish.

## Ishga nimada qatnaysiz?





Kikshering (inglizcha «kick» - «oyoq bilan tepish» va «sharing» - «birgalikda foydalanish») - bu elektr samokatlarni qisqa muddatga ijara olish xizmatidir.

2022-yilning aprel oyida Toshkentda birinchi kikshering xizmati ishga tushirildi va qisqa vaqt ichida ommalashdi.

Biroq, mazkur transport vositalarining betartib harakatlanishi piyodalar, velosipedchilar va avtomashinalar uchun qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

#### Afzalliliklari:

- qisqa vaqt ichida A nuqtadan B nuqtaga yetib borish uchun qulay transport vositasi;
- avtomobilga nisbatan narxi arzon;
- shaxsiy avtomobilarga muqobil vosita bo'lganligi sababli tirbandlikni kamaytiradi;
- ekologik toza transport.

#### Kamchiliklari:

- samokatlarning avtomobil yo'lidagi betartib harakati haydovchilarda stressni keltirib chiqaradi;
- piyodalar yo'lagida kimo'zarga o'ynash qariyalar, bolalar va nogironlar uchun xavf tug'diradi;
- qurilmadan bir vaqtida bir necha kishi foydalanishi;
- elektr samokatlarning yo'llarda betartib qoldirib ketilishi piyoda va avtomobillar harakatiga salbiy ta'sir ko'ssatadi;
- voyaga yetmaganlar va mast holdagi kishilarning elektr samokatlarni ijara olishi.

#### Elektr samokatlar bilan bog'liq noxush

#### hodisalar statistikasi:

Italiyada so'nggi ikki yil ichida elektr samokatlar ishtirokida ro'y berган yo'l transport hodisalari (YTH) oqibatida 17 kishi vafot etgan.

Fransiyada 2022-yilda elektr samokatlar 27 kishining hayotiga zomin bo'lgan. Xususan, Parijda 3 kishi hayotdan ko'z yumgan va 459 kishi jarohatlangan.

Buyuk Britaniyada 2021-yil 10 nafar foydalanuvchi to'qnashuv oqibatida olamdan o'tgan, 331 nafari og'ir jarohat olgan.

Germaniyada 2022-yilda elektr samokatlar ishtirokida jami 442 ta baxtsiz hodisa ro'y beragan.

Shu bois xorijiy mamlakatlarning hukumatlari qurilmalardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni ko'rmoqda.

#### Xususan:

Joriy yilning aprel oyida Parijda o'tkazilgan referendumda ishtirok etganlarning 90 foizi ushbu transport vositalarini ta'qiqlash tarafdoi ekanligini bildirgan.

2022-yilda Xelsinkida dam olish kunlari yarim tundan keyin elektr samokatlarni ijara olish ta'qiqlandi.

Yaponiyada elektr samokatda davlat raqami va yon oynalari bo'lishi kerak, shuningdek, ularning piyodalar yo'lagida harakatlanishi ham ta'qiqlangan.

Rossiyada 2023-yildan elektr samokatlardan foydalanuvchilarning yuk va boshqa yo'lovchilarni tashishi ta'qiqlandi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda amaldagi yo'l harakati qoidalariga "elektr samokat" tushunchasi kiritilmagan. Mazkur qurilmalarni qulay shahar transporti sifatida rivojlantirish uchun qonunchilikni takomillashtirish va ulardan foydalanishni tartibga solish maqsadga muvofiq.

#### Xususan:

- yo'l harakati qoidalariga "elektr samokat" tushunchasini kiritish va ulardan foydalanishning tartibini belgilash;

- piyodalar serqatnov hududlarda tezlikni avtomatik pasaytirish texnologiyasini qo'llash; qurilmadan bir vaqtning o'zida ikki kishining foydalanishi, shuningdek, mast holatda boshqarishning oldini olish mexanizmini ishlab chiqish;

- qurilmalardan foydalanishda yosh chegarasini joriy etish (Face-ID texnologiyasidan foydalanish);

- elektr samokatlarni tunda ijara olishni cheklash;

- elektr samokatlar turadigan maxsus joylarni tashkil etish.

Mazkur chora-tadbirlar elektr samokatlardan foydalanishda xavfsizlikni oshirish, noxush hodisalar sodir bo'lishi hamda aholi o'rtasida ushbu ekologik va qulay transport turiga nisbatan salbiy fikr uyg'onishining oldini olishga xizmat qiladi.



Mustaqillik yillarda O'zbekistonda transport sohasida keng ko'lamlı tarkibiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Temiryo'l sohasini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha investitsiyalar kerak. Ularni DXSh orqali jalb qilish mumkin.

DXSh mexanizmlarini tatbiq etishda har bir mamlakatning yondashuvi bilan bog'liq bir qancha muhim omillar mavjud. Qurilish uchun yerdan foydalanish huquqining berilishi ko'pincha davlat sektorining DXShdagi hissasi bo'ladi.

Xitoy Syanganidagi Rail Plus Property dasturi doirasida hukumat temir yo'llarni qurish va foydalanish uchun xususiy kompaniyalarga yer ajratdi. Shu bilan bir qatorda, temiryo'l bo'ylab yarlarni o'zlashtirish huquqi ham berildi.

Yaponiyada shaharga tutash hududlarda temiryo'l orgali qatnovlar yer uchastkalari va qurilish ishlarni olib borish huquqining berilishi hisobidan moliyalashtiriladi - Yaponiyadagi xususiy temiryo'l kompaniyalari bir vaqtida qurilish kompaniyalari ham hisoblanadi. Yaponiyadagi ayrim xususiy temiryo'l kompaniyalari ofis binolari, xonadonlar va sport stadionlariga ega bo'lib, mijozlarni ushbu obyektlarga tashiydi.

Rossiyada xususiy operatorlar harakatdagi tarkiblarga ega yoki ularni ijara oladi va mijozlarga xizmat ko'rsatadi. Rossiyadagi xususiy operatorlar bozorning ushbu imkoniyatlaridan foydalangan holda temiryo'l transporti uskunalariga 20 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritdi.

Fransiya Yevropada tezyurar temiryo'l tizimiga kiritilayotgan investitsiyalarni moliyalashtirish uchun DXSh modelidan foydalangan bиринчи mamlakatdir. DXShdan foydalanish Fransiyada tezyurar temiryo'l tarmog'ining rivojlanishini an'anaviy davlat moliyalashtirishiga qaraganda sezilarli darajada tezlashtirish imkonini berdi.

Shunday qilib, DXSh O'zbekiston uchun investitsiyalarni jalb qilish, temir yo'llar va vokzallardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda zamonaviy va ekologik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini taqdim etishi mumkin.

Temiryo'l transporti sohasida DXSh modelini temiryo'l infratuzilmasini yaxshilash, yangi yo'nalishlarni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, yuk va yo'lovchi vagonlari parkini yangilash uchun shart-sharoit yaratish va rag'batlantirishda qo'llash maqsadga muvofiq.

Vokzallarning operatsion faoliyatini xususiy kompaniyalarning ishonchli boshqaruviga topshirgan ma'qul. Ular uchastkalardagi ma'lum bir qo'shimcha xizmatlardan kelib chiqib, vokzal va unga tutash butun majmuani rivojlantiradi.

Qo'shimcha xizmatlarning aniq ro'yxati xususiy kapitalni jalb qilish orqali ma'lum bir vokzal bo'yicha bozor talabi asosida shakllantirilishi kerak. Shu bilan birga, davlat tartibga solish funksiyasini saqlab qoladi va yo'lovchilarning xavfsiz va qulay harakatlanishini ta'minlaydi.





Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlari O'zbekistonda CO<sub>2</sub> emissiyasini baholab, mamlakatda uglerod neytralligiga erishishning 3 ta ssenariysini ishlab chiqdi.

Bular optimistik, bazaviy va pessimistik ctsenariylardir. Ularda CO<sub>2</sub> ning hozirgi emissiyasi bilan bir qatorda kelajakdagisi ehtimoliy ortishi (aholi sonining o'sishi va tegishli xizmatlar va sanoat tarmoqlari hisobiga) ham inobatga olingan.

Ishlab chiqilgan ssenariylarning har biri CO<sub>2</sub> emissiyasining turlicha yillik qisqarishini nazarda tutadi. Bunda vaqt o'tishi bilan o'zgaradigan omillar ham hisobga olingan (muddat qancha uzoq davom etsa, demografik o'sish va tegishli omillarning ta'siri shuncha katta bo'ladi)

**1. Optimistik ssenariy** (2050-y.) - CO<sub>2</sub> chiqindilarining yillik qisqarishi 5,9 million tonnani tashkil qilishi zarur.

**2. Bazaviy ssenariy** (2060-y.) – CO<sub>2</sub> chiqindilarining yillik qisqarishi 4,8 million tonnani tashkil qilishi zarur.

**3. Pessimistik ssenariy** (2070-y.) - CO<sub>2</sub> chiqindilarining yillik qisqarishi 4,2 million tonnani tashkil qilishi zarur.


Ushbu mezonlarni inobatga olgan holda,

O'zbekiston uchun eng maqbul ssenariy 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishishni nazarda tutuvchi bazaviy ssenariy hisoblanadi. Ushbu ssenariy muvozanatlari siyosat va mamlakatning "yashil" rivojlanishga silliq o'tishiga asoslanadi, shuningdek, CO<sub>2</sub> emissiyasini yiliga 4,8 million tonnaga (3,1 million tonna sof pasayish va 1,7 million tonna qo'shimcha talab) kamaytirishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, bazaviy ssenariy, boshqa ssenariylar singari, asosiy shartlar - mamlakatda qabul qilingan muhim strategik hujjatlar (masalan, O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi) va ularda ko'rsatilgan maqsadlar, shuningdek, muqaddam boshqa idoralar tomonidan uglerod neytralligiga erishish bo'yicha ishlab chiqilgan reja va prognozlarga asoslanadi.

Shu bilan bir qatorda, bazaviy ssenariy eng maqbul variant hisoblanadi va bir qator boshqa mamlakatlardagi o'xshash ko'rsatkichlarga mos keladi. Dunyoning bir qator mamlakatlari (masalan, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Qozog'iston) 2050-2060 yillargacha bo'lgan davrni uglerod neytralligiga erishishning oxirgi muddati sifatida belgilagan.

### Batafsil





Yaponiya temiryo'l tizimi dunyodagi eng ilg'or tizimlardan biri bo'lib, uning umumiyligi 30625 kilometrni tashkil etadi. Temiryo'l transporti Yaponianing transport tizimi va iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. Ichki yo'lovchi tashuvlarining 25 foizi, ichki yuk tashuvlarining 10 foizi temiryo'l hissasiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, Yaponiya tezyurar temiryo'l magistrallari orqali tashuvlar hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi.

Yaponiya temiryo'l tizimida 8 ta xususiy kompaniyadan iborat bo'lgan «Japan Railways» (JR Group) kompaniyalar guruhi faoliyat yuritadi. Undan boshqa xususiy temiryo'l kompaniyalari ham mavjud.

JR Group Yaponiya temiryo'l tarmog'ining asosini tashkil qiladi. Shaharlararo (shu jumladan tezyurar liniyalar) va shahar atrofidagi temiryo'l harakatining katta qismi JR Group ulushiga to'g'ri keladi. Ushbu kompaniyalar guruhi 1987-yilda davlatga qarashli Yaponiya milliy temir yo'llari (JNR) ni o'zgartirish orqali tashkil etilgan.

Yaponiyada temir yo'llarning bunday ko'rsatkichlari temiryo'l sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish imkonini bergen islohotlar natijasidir. Islohotlar boshlanishidan oldin bu sohada bir qancha tizimli muammolar yuzaga kelgani sababli sohaning rentabelligi 0 dan past bo'lgan:

1. Hukumat va siyosatchilar JNR boshqaruviiga aralashardi. Masalan, ular foyda keltirmaydigan yangi yo'naliishlarni qurishga salbiy munosabatda bo'lgan.
2. JNR ma'muriyati mustaqil bo'lmagan. Masalan, byudjet, xodimlar va ish haqi parlament yoki Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan.
3. Boshqaruvi standartlashtirilgan. Tariflar, ish jadvali va stansiyalarning joylashuvi kabi asosiy masalalar markazlashgan holda hal qilingan, mahalliy sharoit va talablar hisobga olinmagan.
4. Rahbarlar va kasaba uyushmalari o'rtasida muvofiqlashuv bo'lmagan. Kasaba uyushmalari kompaniyaning xarajatlaridan bexabar bo'lgani sababli kompaniya uchun keyingi oqibatlarni hisobga olmasdan imtiyozlar talab qilgan.

5. Tashkilotning kattaligi sababli uni samarali boshqarish imkonini bo'lmagan.
6. Rahbarlar va xodimlar raqobat to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan, chunki bunday tizim mavjud emasdi.

**Yaponianing temiryo'l sohasidagi islohotlari quyidagi asosiy yo'naliishlarni o'z ichiga oldi:**

**Sohada raqobat joriy etildi.** Birinchidan, milliy kompaniyani bir nechta xususiy kompaniyaga bo'lish, ikkinchidan, boshqa transport turlarining parallel rivojlanishi, uchinchidan, narxlash orqali sohada raqobat yaratildi. Natijada temiryo'l kompaniyalari rentabellikni oshirish uchun yetarli motivatsiyaga ega bo'ldi.

**Ortiqcha xodimlar qisqartirildi.** Ortiqcha xodimlar (277 ming kishi) muammosini hal qilish uchun hukumat turli sektorlarning bandlik masalasiga faol hissa qoshishi to'g'risida maxsus qonun qabul qildi. Natijada 203 ming kishi yangi temiryo'l korxonalarida ish bilan ta'minlandi, qolganlari ish joyini o'zgartirdi yoki nafaqaga chiqdi.

Bundan tashqari, **funksiyalar va operativ javobgarlikni aniq belgilish joriy etildi.** Bu temir yo'llining uzluksiz, samarali va xavfsiz ishlashiga yordam berdi.

**Affillangan biznesni rivojlantirishga turtki berildi.** Yo'lovchi tashish kompaniyalari o'z bozor segmentini rivojlantirishga turtki bo'lganligi sababli ular affillangan biznes bilan shug'ullanib, stansiyalar va ularning atrofida bo'sh joydan faol foydalana boshladi. Xususan, yirik temiryo'l vokzallari yaqinida joylashgan mehmonxonalar, ko'chmas mulkni rivojlantirish loyihalari, jumladan, tijorat va turar joylarni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirib, qo'shimcha daromad ola boshladi.

Sohani isloq qilish natijasida tashuvlar hajmi va unumdarligi oshdi. Bu esa ushbu islohotlarni ancha muvaffaqiyatli, deb hisoblash imkonini beradi. Misol uchun, agar 1987-yilda Yaponiya temir yo'llari 7,4 milliard yo'lovchini tashigan bo'lsa, 1991-yilga kelib, bu ko'rsatkich 8,7 milliard yo'lovchigacha (o'sish 17,5 foizga), 2019-yilda esa 25,1 milliard yo'lovchigacha (o'sish 3 barobardan ko'proq) oshdi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida Yaponiya temir yo'llari markaziy hukumat tomonidan subsidiyalarga amalda muhtoj emas. Taqqoslash uchun: 2016-2017 yillarda Buyuk Britaniya hukumati milliy temir yo'llariga 4,2 milliard funt sterling miqdorida subsidiya ajratdi va 5,7 milliard funt sterling kredit berdi.

### O'zbekiston uchun xulosalar

Temiryo'l transporti sohasida temiryo'l infratuzilmasini yaxshilash, yangi liniyalarni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, yuk va yo'lovchi vagonlari parkini yangilash uchun sharoit va rag'batlantirish tizimini yaratish, transportda, shu jumladan vokzalga yondosh hududlar va stansiyalarda xizmatlarni tubdan o'zgartirish uchun DXSh tamoyillarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, xususiy kapitalni bir yo'lli uchastkalar bo'ylab ikkinchi yo'llarni qurishga, yangi va mavjud saralash stansiyalari va kirish yo'llarini modernizatsiya qilishga jalb etish mumkin.

DXShni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash nafaqat aktivlarni berish, dastlabki investitsiyalar va uzoq muddatli xizmat ko'rsatish shartnomalari ko'rinishida emas, balki soliq imtiyozlari shaklida ham bo'lishi mumkin. Temiryo'l transporti sohasida DXShning odatiy bitimi bu aeroportgacha temiryo'l tarmog'ini qurish yoki shahardagi temir yo'llarni aeroportgacha yetkazish va undan foydalanish hisoblanadi. Hukumat yer bilan ta'minlashi mumkin, xususiy operator esa DXSh shartnomasining amal qilish muddati davomida yo'lni quradi, xizmat ko'rsatadi va tegishli xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi.





1949-yilda Xitoyda urushlar tufayli 22000 km uzunlikdagi yomon holatda bo'lgan va shikastlangan temir yo'llar bor edi xolos. Uning 1000 kilometrdan kamrog'i ikki izli bo'lib, elektrlashtirilgan temir yo'llar deyarli yo'q edi.

Xitoy hukumati shu choqqa qadar mamlakatning temir yo'l tarmog'ini besh barobardan ziyod kengaytirdi va temiryo'l sohasining sifat va salohiyatini sezilarli darajada o'zgartirdi.

Xususan, poyezdlar yuqori tezlikda harakatlanishi mumkin bo'lgan tarmoq sezilarli darajada kengaytirildi va bugungi kunda Xitoy bunday magistrallarning uzunligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni mustahkam egallab turibdi.

Xitoyda amalga oshirilgan temiryo'l islohotini tarmoqni kengaytirishga qaratilgan davlat dasturi asosidagi markazlashgan boshqaruva va moliyalashtirish hisobiga ish sifati va tarmoq samaradorligini ortishiga o'ziga xos misol sifatida keltirish mumkin. Shunday qilib, Xitoyda amalga oshirilgan islohotning asosiy farqli jihatni bu davlat sektorining yetakchi rolidir.

Tarmoq 2013-yilgacha temiryo'l sohasi strategiyasi va siyosatini belgilagan Aloqa yo'llari vazirligi tomonidan nazorat qilingan. 2013-yilda Davlat kengashi ushbu vazirlikni tarqatib yubordi hamda strategik va tartibga solish funksiyalarini tijorat vazifalaridan ajratdi. Islohotdan keyin ham xususiy sektorning jalb etilishidan umumiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun yordamchi vosita sifatida foydalaniб kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, islohotlar boshlanishidan oldin sohada bir qator tizimli muammolar mavjudligi tufayli tarmoq zarar ko'rardi.

1. Temiryo'l sohasidagi qarzlar miqdori. 2013-yilning III-choragi yakunlariga ko'ra, qarz miqdori o'z kapitaliga nisbati 76 foizni tashkil etdi (2021-yilning III-choragida ushbu ko'rsatkich 50 foizgacha qisqardi).

2. Firibgarlik bilan bog'liq muammolar. Misol uchun, sobiq temiryo'l vaziri Lyu Chjitszyun 2012-yilda pora olgani uchun vazifasidan ozod etildi. «Sinxua» axborot agentligining xabar berishicha, u o'z mansabidan foydalaniб,

investitsiya kompaniyasi raisiga juda katta miqdorda noqonuniy daromad olishda yordam bergan.

3. Sohaning past samaradorligi. Sohada ish standartlarining bajarilmasligi hamda xizmatlarning past sifatda ko'rsatilishi tez-tez kuzatilgan.

### **Islohotlarning asosiy yo'nalishlari:**

Boshqaruvchi tashkilotlar o'rtasida funksiyalar va mas'uliyat aniq taqsimlandi:

- Transport sohasini rejalashtirish va rivojlantirish uchun javobgarlik Transport vazirligi zimmasiga yuklandi.
- Davlat temiryo'l boshqarmasi - texnik va xavfsizlik standartlarini qabul qilish va ularga roya etilishini nazorat qilish uchun javobgar etib belgilandi.
- Xitoy temiryo'l korporatsiyasi - temir yo'lning tijorat ekspluatatsiyasi uchun mas'ul bo'ldi.
- Poyezdlarning ishlashi va mintaqadagi infratuzilmaning holatini nazorat qilish uchun 18 ta hududiy temiryo'l boshqarmasi javobgar etib belgilandi.

Samaradorlikning ortishi. Hukumat tomonidan temir yo'llarning ishlash standartlarini qat'iylashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qabul qilindi.

Sohada raqobat muhitining yuzaga kelishi. Bugungi kunda temiryo'l sohasida bir qator kompaniyalar, jumladan Hochtief, China Communications Construction, CRRC va Transwind Infrastructures faoliyat yuritadi.

Xususiy kapitalning jalb qilinishi. Xitoy xususiy kompaniyalarga temiryo'l infratuzilmasiga sarmoya kiritish va o'z poyezdlaridan foydalaniш uchun imkoniyat yaratdi[6]. Shu bilan bir qatorda, 2022-yilda Xitoy birinchi xususiy tezyurar temiryo'l loyihasini ishga tushirdi. 44,9 milliard yuan (7,1 milliard dollar) qiyomatga ega bo'lgan loyiha 51 foizi xususiy sektorning ulushi bo'lgan davlat-xususiy sheriklik modeli asosida ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, 2013-yilda Xitoyda temiryo'l sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida past samaradorlik va yuqori darajadagi qarz miqdori kabi tizimli muammolar bartaraf etildi, shuningdek, sanoatning raqobat muhitida ishlashga o'tishi va xususiy kapitalni jalg qilish uchun asos yaratildi.





1994-yilgacha Germaniya temir yo'llari ikkita tashkilot tomonidan boshqarilgan: G'arbiy Germaniyada Deutsche Bundesbahn va Sharqiy Germaniyada Deutsche Reichsbahn.

Temiryo'l sohasidagi islohotlar 1994-yilda boshlandi. Ushbu islohotlar davomida barcha operatorlar uchun temiryo'l infratuzilmasidan erkin foydalanish imkoniyati yaratildi. Shahar atrofi yo'nalishlari mahalliy hokimiyat organlari tasarrufiga o'tkazildi va ushbu maqsadlar uchun zarur miqdorda subsidiyalar ajratildi.

### **Islohotning asosiy sabablari:**

- temiryo'l sohasining past samaradorligi va yuk tashish hajmining ortishi kutilayotgan sharoitda quvvatlarning bunga tayyor emasligi;
- qarzlar to'planib qolgan hamda yo'lovchi va yuk tashuvlari sohasida ulushi qisqargan sharoitda boshqaruvchi kompaniyaning zaif moliyaviy barqarorligi.

### **Islohotlarning asosiy yo'nalishlari:**

- Deutsche Bundesbahn va Deutsche Reichsbahn xususiylashtirildi va ular Deutsche Bahn AG tarkibida birlashtirildi.

- Temiryo'l tashuvlari bozorida raqobatni kuchaytirish uchun infratuzilma va xizmat ko'ssatuvchi kompaniyalar ajratildi.
- Infratuzilmani rivojlantirish va yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish uchun xususiy investorlar jalb qilindi.

Islohotlar natijasida xizmat ko'ssatish sifati va samaradorligi ortdi, transport xarajatlari kamaydi. Xususan, 1994-2012 yillar oraliq'ida yuk tashuvlari hajmi 58 foizga, yo'lovchi tashuvlari hajmi esa 36 foizga oshdi. Yo'lovchilarni tashish sohasidagi o'sishga asosan ichki tashuvlar hisobiga erishildi (+56 foiz), uzoq masofaga qatnovchi poyezdlardan foydalanuvchilar soni 7 foizga ko'paydi.

Biroq, hozir Germaniya temiryo'l infratuzilmasi tezkor modernizatsiyaga muhtoj. Deutsche Bahn va hukumat infratuzilmadagi muammolarni bartaraf etish uchun bir qator choralar ko'rmoqda. Masalan, 2023-yilning mart oyida Germaniya Vazirlar mahkamasi kompaniyaga 4 yil davomida 45 milliard yevro sarmoya kiritish majburiyatini oldi.



Velosipeddan transport vositasi sifatida foydalanish darjasini aniqlash uchun Kun.uz tahririyati bilan hamkorlikda so'rov o'tkazildi. Unda 100 mingga yaqin respondent ishtirok etdi.

### So'rov natijalariga ko'r quyidagilar aniqlandi:

1. Mamlakat aholisining ish joyiga qatnash vositasi bu:

- avtomobil - 51%;
- jamoat transporti - 26%;
- piyoda - 16%;
- velosiped - 7%.

2. Qulay infratuzilma mayjud bo'lgan taqdirda velosipedga o'tish istagi bormi degan savolga so'rovda qatnashganlarning 74% i «ha», 26% i «yo'q» deb javob bergen va rad etish sabablarini quyidagicha ko'rsatgan:

- masofa - 12%;
- uyalish - 4%;
- noqulaylik - 4%;
- sog'lik bilan bog'liq muammolar - 2%;
- boshqa sabablar - 4%.

### Velosipedning ko'plab afzalliklari mavjud:

**Sog'liq uchun foyda:** ishga velosipedda qatnaydigan kishilarda saraton kasalligiga chalinish xavfi 45% ga, yurak-qon tomir kasalliklari xavfi esa 46% ga kamayishi aniqlangan.

**Atrof-muhit uchun foyda:** Gollandiyaliklarning velosipedda kuniga o'rtacha 2,6 km harakatlanish odasi butun dunyo bo'ylab amalga oshirilsa, CO2 emissiyasini yiliga 686 mln tonnaga kamayish edi.

**Iqtisodiy foyda:** velosipeddan foydalanish ulushini 6% ga oshirish, yillik global iqlim o'zgarishini yumshatish uchun yo'naltiriladigan mablag'larni taxminan 1,2 mlrd. AQSh dollariga tejaydi.

### Velosipeddan foydalanishga to'siq bo'luvchi omillar:

Velosipedga bo'lgan munosabat va uning foydali jihatlaridan bexabarlik eng katta to'siqlardan biridir. Xususan, «velosiped bu mashina olishga qurbi yetmaydigan kambag'allar uchun» yoki «ayollar uchun mos bo'limgan vosita» degan qarashlar mavjud.

**Angliya** 2025-yilga borib, 2013-yildagiga nisbatan velosiped sayohatlari sonini ikki baravar oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan. 2021-yilda "Velosipedlashtirish" Panyevropa rejasi qabul qilingan va unga ko'ra 2030-yilgacha mintaqadagi barcha davlatlar velotransport sonini sezilarli darajada oshirish kerak.

**Fransiya** 2024-yilgacha velosipedlashtirish darjasini 2018-yildagiga nisbatan 3 baravar, ya'ni 3% dan 9% gacha oshirishni belgilagan.

### O'zbekistondagi hozirgi holat

O'zbekistonda ham velosipeddan foydalanuvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Biroq, bu yolda to'sqinlik qiluvchi bir qator infratuzilma kamchiliklari mavjud:


- velosipedchilarning beton, ariq, chakana savdo rastalari kabi to'siqlarga duch kelishi va avtomobilarning veloyo'laklardan avtoturargoh sifatida foydalanishi;
- piyodalarning veloyo'laklarga chiqib, velosipedchilarning harakatlanishiga to'sqinlik qilishi;
- ba'zi ko'chalardagi velosiped yo'laklarining kengligi (1 metr) xalqaro standartlarga javob bermasligi;
- velosiped yo'laklarining tarqoq va bir-biri bilan bog'lanmaganligi, buning oqibatida velosipedchilarning yo'lning qatnov qismi bo'ylab harakatlanishga majbur bo'lishi.

2022-yilda O'zbekistonda 9902 ta YTH rasman qayd etilgan bo'lib, ulardan 1136 tasi (11,5%) velosipedchilar ishtirokida ro'y bergen. Shu bilan birga, 342 (3,5%) ta holatda velosiped yo'laklarining yo'qligi sabab bo'lgan.

### Velosiped yanada kengroq va ommaviy transport turiga aylanishi uchun quyidagilar zarur:

- xavfsiz va qulay infratuzilmani, jumladan, harakatlanish yo'laklari, veloturargohlar va ta'mirlash stansiyalarini yaratish;
- velosipedning afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan keng qamrovli marketing kampaniyasini olib borish;
- shahar va sayyohlik hududlarida velosipedlarni ijara qilish tizimi (veloshering)ni rivojlantirish.

## Ishga nimada qatnaysiz?



Harakatlanish uchun qulay infratuzilma  
mavjud bo'lsa, ishga qatnashda  
velosipeddan foydalangan bo'larmidingiz?



Nima sababdan ishga qatnash uchun  
velosipeddan foydalananmagan bo'lardingiz?





2005-yilga qadar Ispaniya temir yo'llari RENFE monopol davlat kompaniyasi tominidan boshqarilgan.

2005-yilda temiryo'l sohasini erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi va RENFE ikkita alohida tashkilotga bo'lindi: ADIF yangi infratuzilmani yaratish va mavjud infratuzilmadan foydalanish uchun mas'ul etib belgilangan bo'lsa, RENFE-Operadora kompaniyasiga transport xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullandi.

#### **Islohotlarning asosiy sabablari:**

- temiryo'l tizimida raqobatning yo'qligi va boshqaruv samaradorligining pastligi;
- sohaga qo'shimcha sarmoya jalb qilish ehtiyoji;
- xavfsizlik standartlariga yetarli darajada riosa qilinmasligi.

#### **Islohotlarning asosiy yo'nalishlari:**

1. RENFE monopol davlat kompaniyasi vazifa va mas'uliyati aniq taqsimlangan ikkita tashkilotga ajratildi;
2. Transport xizmatlarini ko'rsatishda raqobat muhitini yaratildi: ADIF infratuzilma ustidan monopol boshqaruvni saqlab qoldi, operatorlarga esa infratuzilmadan foydalanish uchun teng huquqlar taqdim etildi;

3. Raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida RENFE-Operadora 4ta alohida kompaniyaga bo'lindi.

2022-yilda Ispaniya yuqori tezlikda harakatlanish mumkin bo'lgan magistrallarni erkinlashtirish bo'yicha islohotlarni boshladi. 2021-yilgacha Ispaniyada bu yo'nalishda faqat bitta operator bor edi. Ayni chog'da bozorda 3ta kompaniya faoliyat yuritmoqda.

Xususiy operatorlarning taklif etilishi temiryo'l chiptalari narxining pasayishi va yo'nalishlardagi poyezdlar sonining ko'payishiga olib keldi.

Masalan, "Iryo" kompaniyasining arzon narxlariha javoban (18 yevrodan), RENFE o'zining arzon "Renfe Avlo" loukosterini ishga tushirdi.

Narxlarning pasayishi va raqobatning rivojlanishi yaxshi natijaga erishishda yordam berdi.

Xususan, 2019-yilning avgust oyida Madrid va Barselona oralig'ida 265 ming yo'lovchi safar qilgan bo'lsa, 2022-yilning avgust oyida ushbu ko'rsatkich 310 ming kishini tashkil qildi.



# INSTITUT JAMOASI



**Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti**